ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ

АДАБИЁТ НАЗАРИЯСИ ВА ЗАМОНАВИЙ АДАБИЙ ЖАРАЁН КАФЕДРАСИ

АДАБИЙ ТАНҚИД ВА ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК АДАБИЁТИ МАСАЛАЛАРИ

мавзуидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари

20.01.2021

Тошкент – 2021

Масъул муҳаррирлар ф.ф.д., проф. Ш.С.Сирожиддинов
ф.ф.д., проф. Б.Н.Каримов

Тақризчилар: ф.ф.н., доц. А.Улуғов
ф.ф.н., доц. в.б. О.Усмонов

Нашрга тайёрловчи: PhD., З.Н.Сувонов

“Oltin bitiklar” jurnali tahririyatida tahrir qilindi. 20.01.2021

Баҳодир КАРИМ
ф.ф.д., *Алишер Навоий номидаги Тош ДЎТАУ профессори*

САМИМИЯТ ЁЛҚИНИ
ёхуд
Профессор Умарали Норматов хазинаси ҳақида икки оғиз сўз

-1-

Замонавий ўзбек адабиётшунослиги ва яқин ўтган давр адабий танқиди тарихи заҳматкаш олим, профессор Умарали Норматов адабий-илимий фаолияти билангина тугал тасаввур қилинади. Устоз адабиётшуноснинг ўзбек илм-фани, филологик таълим учун қилган хизматлари беқиёс, албатта. Мақолалар, рисолалар, монографиялар, ўқув қўлланмалар, дарсликлар, олим раҳбарлигида ҳимоя қилинган ўнлаб илмий тадқиқотлар, Республика ва яқин хориждаги юзлаб-минглаб шогирдлар – буларнинг саноғига етиш қийин. Буларнинг барчаси битта олим умр безаги. Буларнинг бари олимнинг ўзига хос олами – бебаҳо маънавий хазинаси. Буларнинг ҳаммаси олимнинг ижод оламига, китоблар дунёсига бориб тақалди.

Аслида улкан санъатокр адибларнинг бебаҳо асарлари таъсиридан қалб ларзага келади, сеҳрланади, завқ-шавққа тўлади. Ҳақиқий бадиий асар кучи кўнгилда ўзгача бир ҳарорат ва ёруғлик пайдо бўлади. Ичкарида образлар ёки воқелик моҳияти билан ғойибона мулоқотлар, баҳс-тортишувлар бошланади. Адиб ва уни англаш, асарлари ортидан келган бир олам гўзал таассуротларни баён этиш, тушунтириш бахти ҳаммага ҳам насиб қилавермайди. Профессор Умарали Норматов бутун илмий-ижодий фаолияти давомида ана шу саодатли дамлардан баҳра топди. Ҳақиқий умрбоқий, яхши асарлар домланинг кўнгил сирдошига ва ҳаёт йўлида йўлдошига айланди

-2-

Уфққа чин ошиқ бўлган адиб - Саид Аҳмад ижодини Умарали Норматов меҳр-муҳаббат билан таҳлил қилади. Ёзувчининг дарду дунёсини англайди. Ёзган асарлари эмас, гоҳида ёзилиши лозим бўлган воқеликлари ҳақида

сўзлаган, Саид Аҳмадга илҳом берган паллари ҳам бўлган мунаққиднинг. Дарҳақиқат, адибнинг истиқлол йилларида маҳбуслар лагерининг фожеавий ҳаётидан олиб ёзилган ҳикояларнинг бир қанчаси У.Норматов ундашлари билан қоғозга тушагани айни ҳақиқатдир. Шу боис С.Аҳмад бир ҳикоясига нуқта қўяр экан, У.Норматов хат йўллайди : “Азизим Умарали! Сиз ҳар кўришганимизда “Бошингиздан ўтган воқеаларни ёзинг!” деб қистар эдингиз. Нима деб жавоб берганим эсингиздами?

У воқеаларни ёзмоқ учун хаёлан қамоқ лагерларига боришим, ўша азоб-уқубатларни қайтадан бошимдан кечиришим керак. Бунга энди юрагим бардош беолмас, дегандим.

Мана, “Борса келмас дарвозаси”га нуқта қўйдим. Ўрнимдан тураётганимда бошим айланиб ўтириб қолдим. Ичкари уйда телевизор кўриб ўтирган куёв ўғлим Маҳмуджонни чақирдим. У рангимни кўриб қўрқиб кетди. Шошиб томиримни ушлади. Ичкаридан аппарат олиб чиқиб қон босимимни ўлчади. 200га 130.

Биламан, бу инсульт остонасидаги ҳолат.

Беш кун кечаю кундуз ухламай ушбу хотирани ёздим. Гўё беш кун қайтадан қамалиб чиқдим.

“Сароб” деган ҳикоямни ўқигансиз. Унга ҳам нуқта қўйганимда шу аҳволга тушгандим. Ўшанда мени шу Маҳмуджон ўлимдан сақлаб қолганди. Кечаси соат учда неварам шаҳар уйимизга телефон қилиб дадасига аҳволимни айтганида, у гўё Қибрайга учиб келган эди. “Тез ёрдам”ни чақириб касалхонага оборган.

“Сароб”да ҳам лагерь, қамоқ воқеаларини ёзгандим. Юрак кўтаролмади. Шундоқ бўлишини билатуриб ёзган эдим. Қандоқ қора кунлар бошимизга тушганини биздан кейингилар билсин, деб ёздим.

Ўқиб кўринг, маъқул бўлса беҳад қувонардим.

Сизга самимий салом билан С.А.

2000 йил 5 май.”

Умарали Норматов илмий-ижодий тарихидаги, мазкур китобидаги бундай саҳифалар ёзувчи ва мунаққиднинг дўстона, ижодий ҳамкорлигидан дарак берди.

У.Норматов ўз китобларида ёзувчи ёки шоир, устоз ёки шогирдлари тўғрисида ёзадими, адабий гурунглари қиладими – барчасида самимият ёлқини балқиб туради. Қадри баланд илмий-адабий китоблар ўқувчиларда китоб ўқиш ва уқиш маданиятини шакллантиришга хизмат қилиши табиий.

-3-

Гўзал асарлар жозибаси оддий китобхонни ўзига мафтун қилади, адабиётшунос олимга тинчлик бермайди. Олим қалб туғёнларини, ҳароратли сўзини бошқаларга айтишга, ёзувчи маҳоратидан, адабий қаҳрамонлар қисматидан сўз очишга эҳтиёж сезади. Шу зайлда турли - янгича адабий таҳлил ва талқинлар майдонга келади.

Профессор Умарали Норматов китобнинг “Қодирий мўъжизаси” деган китоби эътиборга молик, албатта. Маърифатталаб ўқувчи бундаги баёнлар орқали олимнинг завқ-шавққа тўла ҳаяжонли адабий-илмий таҳлилларига гувоҳ бўлди. Тўғриси, бундай асарлар бир-икки йил ичида ёки бир ўтиришда ёзилмайди. Улар узоқ изланишлар, қайта ўқишлар, ўйланишлар, ички баҳс-мунозаралар изидан бунёд бўлади. Абдулла Қодирий ҳаёти ва ижодининг барча қирраларини, адибга муносабат билдирган илмий асарларни ўрганиш, тадқиқ этиш – бу осон иш эмас.

Агар диққат қилинса, У.Норматовнинг вақтли матбуотда босилган мақолаларининг сони олти юздан кўп, алоҳида китоб ҳолида нашр қилинган асарларининг сони ўттиздан ортиқ. Табиийки, бу асарлар орасида Давлат мукофотига сазовор бўлганлари ҳам бор. Аммо, менинг назаримда, “Қодирий мўъжизаси” китоби бу мутлақо ўзгача, мароқ билан, завқ-шавқ билан, тўлиб-тошиб, меҳр-муҳаббат билан ёзилгани жиҳатидан барчасидан ажралиб туради. Унда ёзувчининг ҳаёт йўлини, бошидан ўтган яхши-ёмон кунларни, фожеавий қисматни ёритар экан, домла адиб яшаган мураккаб адабий-ижтимоий муҳит руҳини, унинг атрофида кечган иғвою маломатлар моҳиятини чуқур ҳис этиб

куйиниб ёзади: “Қамоқда, тергов пайтида устига бўҳтондан иборат айблар қўйилганда, айниқса, ҳамкасбларининг юзсизларча мунофиқлик қилаётганини кўрганда адиб қандай аҳволга тушганини, бу имони бутун, ўта ҳалол, ростгўй, мард йигит қалбида қандай туғёнлар кечганлигини хаёлан тасаввур қилиш мумкин. Агар ўша кескин драматик руҳий ҳолат тўла тикланса, шекспирона трагедия туғилиши аниқ”. Бундай аниқ ва кескин фикр-мулоҳазаларни манбаларни чуқур ўрганган ва ёзувчининг руҳий-психологик кайфиятини хаёлан тугал тасаввур қилган олимгина ёза олади.

Чинакам санъат асарларига қайта назар солинса, қайта ўқилса, аввал хаёлга келмаган янги маънолар пайдо бўлади, натижада уларни янгидан баҳолашга зарурат ҳам туғилади. Умарали Норматов Абдулла Қодирийнинг асарларига, архив ҳужжатларига, мавжуд илмий тадқиқотлар ва биографик маълумотларга назар ташлар экан, адибнинг бадиий тафаккур тарзини, ҳам истеъдодли ижодкор, ҳам ўз замонасининг кишиси сифатидаги фазилатларини теран тушунади. Адиб дунёқараши шаклланган муҳит об-ҳавоси ҳароратига, таълим-тарбия масканларининг савиясига тўғри ташхис қўяди; бир қанча чигал масалаларга ойдинлик киритади. Олим ўз талқинларида ижод психологиясига, ижодкор инсон табиатига хос барча майлларни инобатга олади.

Умарали Норматов “Ўткан кунлар” романи негизида, истиқбол қайғуси билан яшаётган қаҳрамонлар орзусида “истиқлол қайғуси”ни кўради. Романда тасвир этилган ижтимоий муҳитнинг муҳим бир қирраси – миллат истиқболига урғу беради. Табиийки, шу оламшумул фикр – бадиий ғоянинг илдизлари Абдулла Қодирий шуурида, асл маслаги ва унинг ҳамфикр маслакдошлари ичкарисида мавжуд эди. Бундай саҳифаларда жадид адибларининг орзу-армонлари кузатилади, бундай ўринларда даврдош даврадошларнинг дарддошлиги ва маслакдошлиги ойдинлашади.

Абдулла Қодирийнинг донишманд қаҳрамонларидан бири “умр – отилган ўқ эмиш”, дейди. Ҳар ўтган кун, ҳар ўтган давр тарихга, хотирага айланади. Хотиралар эса орадаги масофа кенгайиб боргани сари совийди, хира тортади, ёддан кўтарилади. Энг қизиғи, агар ижод аҳлига оид хотиралар

сунъий, тўқилган, ғайритабиий бўлса, гарчанд улар зар муқовали китоблар ичига жойлаб қўйилса ҳам, барибир эсдан чиқади. Чунки ижодкорнинг инсоният хотирасига абадий муҳрланиши учун энг аввало ўқувчилар излаб, топиб, суюб, ўйлаб, қувониб, йиғлаб ўқийдиган асарлари, адабий дурдоналари бўлиши лозим.

Ўзбек миллати манглайига битилган Абдулла Қодирийдек истеъдод эгаси орадан асрлар ўтса ҳам одамлар хотирасидан ўчмайди. Бунинг энг асосий омили – адиб ёзган гўзал санъат асарлари. У.Норматов "Хотираларда адиб сиймоси"ни ёзар экан, Ҳабибулла Қодирий, Масъуд Абдуллаевларнинг оталарини эслаб ёзган асарлари ҳамда адибга замондош кишиларнинг мақолаларига диққат қаратади. Бу манбалар Қодирийнинг табиати, асил маслаги, иймон-эътиқоди, ижод лабораториясининг айрим қирраларини очишга ёрдам беради. Зеро, психобиографик тадқиқ усулига кўра мактублар, турли қўлёзмалар, кундаликлар, шахсий архив манбалари қаторида ижодкорнинг яқинлари ва замондошлари ёзган эсдаликларнинг ёзувчи бадиий оламини тушунишдаги қадр-қиймати беқиёс. Немис олимлари учун И.П.Эккерманнинг "Гёте билан гурунглар" асари бебаҳо хазина, улуғ адибнинг маънавият мулкига киришда сеҳрли калит саналади. Бир маҳал икки рус адиби – А.П.Чехов билан М.Горький ўзаро суҳбатларида немисларга ҳаваси келиб, Лев Толстойнинг доно фикрлари исроф бўлаётганидан, унга фидойи котиб етишмаганидан афсусланади. Гётега насиб этганидек, дейлик, Л.Тостой ва А.Қодирийдек улкан истеъдодлар ёнида "эккерманлар"нинг яшаши миллий адабиётни бойитган бўларди.

Жаҳон адабиётидаги жуда кўп адиблар умрининг охирги паллалари батафсил ёзиб қолдирилган. Маълумотларга кўра, И.Гёте умрининг сўнгги дамларида кўпроқ ёруғлик ва тоза ҳаво сўрайди. Л.Толстой эса "Нима қилишимни билмай қолдим!" деганича боқий дунёга сафар этади. Хўш, Абдулла Қодирийнинг сўнгги кунлари, охирги нафаслари хусусида нималар биламиз? Шу пайтгача ҳужжатли, аниқ тафсилотли маълумот топилмади. 1937 йил 31 декабрида уйидан олиб кетилгани, терговлар; таниш-билишларнинг

кўрсатмалари, 1938 йил 4 октябрида отилгани хусусида умумий маълумотлар бор, холос. Назаримда, У.Норматовнинг силсила хотиралар асосида ёзган “Қодирийнинг сўнгги илтижоси” мақоласи адиб умрининг охирги лаҳзалари юзасидан яхши тасаввур уйғотади; кўнгилга таскин беради. Ўқувчи мақола таъсирида “инсон учун дунёда ўлумдан қўрқунч нарса йўқ”лигини жуда теран ҳис этган шахснинг мардлиги ва жасоратига таҳсин айтади. Қолаверса, бу манзара “Меҳробдан чаён” романи бош қаҳрамони, ўлимга ҳукм қилинган Мирзо Анвар ҳолатига оид бир эпизодни ҳам эсга солади. “Дор остида Анварнинг қўли ечилиб, таҳорат олиш учун унга сув берилди. Чунки бу маҳкумнинг қонуний ҳаққи эди... Анвар таҳоратланиб, устидаги тўнини ерга ёзди. Жаллодлар доирани бир оз кенгайтиб, Анвар икки ракаъат намоз ўқиди...” Абдулла Қодирий суюкли қаҳрамонига ўлими олдидан, дор остида шундай бир қонуний ҳуқуқни “берган” экан, ўзи ҳам ўлими олдидан ҳукм ижрочисидан, аввало, ўз “қонуний ҳаққи”ни сўраши, иккинчи тарафдан, “қайралаётган пичоққа бутунлай парвосиз, қўрқувсиз” қараши анча ишончли ва табиий кўринади.

Тўғриси, менда Масъуд Абдуллаевдан мерос-оғзаки хотира асосида ёзилган бу мақола, машъум вазият тафсилоти – маҳкум адибнинг сув сўраши, таҳорат олиб икки ракаъат намоз ўқиши, тақдир ҳукмига бўйин эгиши ва тупроқдан ташқарида бир оёқнинг кўмилмай кўриниб қолиши – барча-барчасини аниқ-тиниқ тасвирлаган фожеавий пафосли яхши бир ҳикоя ўқилганидек таассурот қолдирди. Чунки туҳмат ва хиёнатларга бардошли адиб тўққиз ойлик руҳий азобларга қиёсан жисмоний ўлим қаршисида мардона тура олиши мумкин эди. Аллоҳ зикри билан калимаи шаҳодатни айтиб жон таслим этиш, жаннатдан умидворлик иймонли одам табиатига хос. Шу маънода Қодирий умрининг сўнгги лаҳзалари тўғрисида ҳар қандай бошқа, турли версиялар бўлмасин, мақолада баён қилган воқеа мантиқ кучи билан ажралиб туради. Бу “сўнгги илтижо” адиб мухлисларининг юрагини ўртаб, зирқиратиб хотиржам қилади. Қолаверса, домламиз келажакда бунга қараганда ишончли

манба топилиш эҳтимолини инобатга олиб, холислик юзасидан, олдиндан узрини айтади ва улар учун ҳам тадқиқлар эшигини очиқ қолдиради.

-4-

Вақтли матбуотни, янги босилаётган китобларни кузатган зиёли замонавий адабий ҳаёт шиддатига гувоҳ бўлади; бадиий асар сифати билан чиқаётган юзлаб асарларни саралаш, баҳолаш, таҳлил этиш заруратини сезади. Бу эҳтиёж ижроси мунаққид-адабиётшунослар зиммасига тушади. Вазифани бажариш учун эса адабий кечимни узлуксиз кузатиш, қиёслаб ўқиш, ўйлаб ёзиш, энг муҳими, жуда холис бир фикр айтиш ва унга бошқаларни ишонтириш керак бўлади. Ўз вақтида Умарали Норматов ижодкорларнинг ҳароратли сўзидан завқланган маҳали қўлига қалам олди; мутолаа шавқидан бошқаларни ҳам баҳраманд қилди.

А.Қаҳҳор, С.Аҳмад, О.Ёқубов, П.Қодиров, Х.Тўхтабоев, Э.Воҳидов, А.Орипов, Ў.Ҳошимов, Ш.Холмирзаев, О.Матжон каби ижодкорларнинг ёзганлари У.Норматовнинг доимий кузатиш объектлари бўлди. Адабий жраёнга доир мақолларида У.Норматов адабий ҳаётни, ижодкорлар истеъдодини, бадиий асарларни жуда зукколик билан баҳолагани кўзга ташланади. Чунончи, олим Ўзбекистон Давлат мадҳияси муаллифи Абдулла Ориповга “Ватанинг оташин куйчиси” деб баҳо берар экан: “Дадил айтиш мумкинки, миллий шеъриятимизда эл-юрт қайғуси, бинобарин, ижтимоий мотив билан шахсий майлларнинг уйғун келиши бобида Чўлпондан кейин Абдулла Орипов энг юксак мақомга кўтарила олди”, деган ҳақ гапни ёзади. Эркин Воҳидов ҳақидаги “Шеъриятда сеҳр соҳиби” деб аталган мақоласида У.Норматов шоирнинг ижодий эволюциясини кузатиб шундай мулоҳазани ёзади: “Йиллар ўтган сари Эркин ижодида фикрлар уфқи кенгайиб, ҳис-туйғулар тобора сержило бўлиб борди”. Олимнинг ҳар бир ижодкор ҳақида билдирган фикрлари негизида самимият ёғдуси балқиб туради.

Умарали Норматов истеъдоди ва табиатига хос самимият, холислик, ҳақгўйлик каби таҳлил тамойиллари барча ёзганларини битта фокусда бирлаштиради. Энг муҳими, олим кўнглидаги самимият, қалб ҳарорати ўқувчи

юрагига меҳр-муҳаббат, эҳтирос бўлиб кўчади. Адабиётшунослар бўладики, гўзал сўзлайди, дона-дона сўзлайди, лекин қуруқ ёзади. Оғзаки суҳбатлари билан иншолари орасида тафовут бўлади. Аммо Умарали Норматов домламиз ёзганларида унинг соҳир овози жаранглаб туради. Кўз тегмасин, Умарали Норматов шу жарангдор овози билан узоқ йиллар ёшлар қалбига кўркам адабиётга муҳаббат уруғини экди.

-5-

Ўйлаб кўрсам, мен профессор Умарали Норматовни “Шарқ юлдузи” журнали орқали мактабни битириш арафасида – ўтган асрнинг 80-йилларида таниган эканман. Ўқилган қайсидир роман қаҳрамони исми таъсириданми, ҳар тугул, кейинчалик бир жамоада бақамти ишлаш, устоз-шогирд тутинишимиз мутлақо хаёлимга келмаган Умарали Норматов исм ортидаги мунаққид ўша ғойибона танишув маҳалида жуда ёш ва навқирон бўлиб кўринган эди. Университетга ўқишга кириб қарасам, Умарали Норматов улкан олим, профессор, кафедра мудири, фан арбоби, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси экан.

Бироқ ўқувчилик тасаввуримдаги ўша дастлабки беғубор сифат, тўғриси, ҳозиргача ўзгармади. Юракдан чиққан самимий маърузалар, мароқли ва жўшқин суҳбатлар... Ижодкор инсон учун ёзганлари ўзига ва ўзи ёзганларига ўхшаса – бу ҳам саодат.

Ҳавасдан кўнгил ўсади, бу ажиб фазилатдан боғлар мевага киради. Ҳавас – бениҳоя гўзал инсоний фазилат. Умарали Норматов табиатида ҳавас кучли. Бировга ҳасад қилгани ёки бемаъни ғурбатларга берилган ҳолатларини асло эслай олмайман. Агар гурунглар бирор сабаб ножўя томон бурилиб қолса, сўз ўнқовини пойлаб, устоз секингина ўзининг беғубор ва давомли кулгилари билан давра аҳлининг фикрини, суҳбат йўриғини бошқа тарафга йўналтирганларини кўп кузатганман. Умарали Норматов табиатида ҳаққонийлик кучли. Фикр баёнларида, бирор асар таъриф ва тавсифларида баъзан муболаға бўлади. Бу муболаға домладан суҳбатдошига ҳам юқади. Аммо устознинг бировни алдаши, номига бўлса ҳам ёлғон гапиришлари –

булар асло бизларнинг тасаввуримизга сиғмайди. Зеро, чин устозлик, чин муаллимлик ҳам улкан саодатдир. Бундай саодат даражасига зинама-зина чиқилади. Бундай саодат шаъни мисқоллаб йиғилади. Умарали Норматов эл-юрт ардоғи-эҳтиромига, шон-шуҳратга эришди, маънавият пиллапоялардан юксак бир рутбага кўтарилди. Бу даража ва мартабага асло заҳа етмади. Ҳолбуки, У.Норматов ҳам инсон ўлароқ қанчадан-қанча қалтис вазиятларга дуч келди, муҳит гирдобига тушди. Аммо ўзлигига садоқати туфайли ўз инсоний шаънига заррача доғ туширмай ишлади, ижод қилди, фарзандлар ўстирди, шогирдлар тарбиялади. Умр йўлдошлари, ўз вақтида адабиёти муаллимаси бўлиб ўқувчиларга сабоқ берган Мунира опамиз домланинг илм ва ижод йўлларида устозга умр бўйи чинакам маслакдош, фикрдош ва йўлдош бўлди. Шу сабабли ҳали шу кунга довур Умарали Норматов уйлари остонасидан қўни-қўшнилар, таниш-билишлар, ҳамкасблар, шогирдлар қадами узилмайди. Бунинг ўзи эътироф ва эътибор, шунинг ўзи ҳам улкан бахту иқболдир аслида.

Профессор Умарали Норматов адабий-илмий мақолалари ёшларга бадиий асарни таҳлил қилиш йўллари, усуллари, танқидий мақола шакл-шамойили ва бошқа қирраларидан сабоқ берадиган манбалар саналади. Домла ижодининг қамрови кенг, уларга хос тамойилларни, мазмун-моҳиятни тугал очиш учун махсус илмий тадқиқот ишлари бажарилиши лозим.

Абдулла Улуғов

ф.ф.н., Алишер Навоий номидаги Тош ДЎТАУ доценти,

МУНАҚҚИД МАЪНАВИЯТИ

Ҳар қандай нарса, фан, соҳа эҳтиёж ва талаб натижасида пайдо бўлади. Адабий танқидчилик ҳам кимнингдир хоҳиш-истаги ёки талаби эмас, балки одам ҳаёти, унинг қувонч-ташвишлари, инсоннинг жамиятдаги ўрни хусусида мулоҳаза билдириш эҳтиёжи натижасида юзага келган. Агар шу

ҳақиқат эсга олинса, мунаққид ҳам худди шоир, адиб сингари ижодкор экани аёнлашади.

Афсуски, айримлар шеър, ҳикоя, роман битадиганларни “ижодкор” дегани ҳолда, танқидчиларга андак беписанд қарайди. Улар адабий-танқидий мақолаларни ўқиёлмаслигидан шикоят қилишади. Бунга, бир чеккаси, айрим мунаққидларнинг мақола, тақризларидаги мулоҳазалар маъноси мавҳум эканлиги, уларнинг бурама, чийратма усулда ёзиши ҳам сабаб. Аслида, ҳар бир соҳага “ўз одамлари” обрў келтиради. “Ўз одамлари”сиз ҳар қандай соҳа, тармоқ таназзулга учрайди. Ҳар қандай фан, йўналиш ўз фидойилари туфайли равнақ топади.

XX аср мислсиз фожиаларга тўла бўлса-да, унда инсоният жуда кўп нарсаларга эришди. Айни шу даврда ўзбек халқи ҳаётига ҳам кўплаб янгиликлар кириб келди. Адабий танқидчилик ана шундай янгиликлардан бири бўлди. Энг муҳими, бу даврда унинг “ўз одамлари” етишиб чиқди. “Адабий танқидчилик” деган ихтисослик, “мунаққид” деган мутахассис пайдо бўлди. Ушбу янги йўналишга ўтган аср аввалида “тамал тоши” қўйилди. У 60 йиллар бошидан чинакам ривожланиш босқичига кирди. Умарали Норматов ана шу даврда мунаққид сифатида фаолият бошлади. Агар бу соҳа фидойиларнинг энг саралари “рўйхати” тузиладиган бўлса, Умарали Норматовнинг номи, албатта, пешқадамлар қаторидан жой олади. Унинг соҳага фидойилиги, тинимсиз меҳнат қилишини ҳамма бирдай тан олади. Умарали Норматовнинг адабиёт одами эканлигига барча ҳавас қилади. Соҳасига фидойи одамлар эса ҳамма замонларда ҳам жуда кам учрайди. Айнан улар туфайли тармоқ, соҳага бошқаларда ҳам қизиқиш кучаяди. Умарали Норматов ўзининг матбуот, радио, телевидениедаги фаол чиқишлари билан адабий танқидчиликка қизиқишни кучайтирди. Унинг газета-журнал, тўпламлардаги мақолалари, китоблари номи рўйхати унинг бўйидан анча баланд келади.

Агар Умарали Норматов рисоладагидан анча бўйдор экани эътиборга олинса, унинг адабий танқидчилик соҳасида қанча меҳнат қилиб, заҳмат

чеккани аёнлашади. Умарали Норматовни кузатган одам дарҳол у юрганда ҳам, турганда ҳам адабиёт ва асарлар тўғрисида ўйланишини ҳис қилади. Чунки у тарих ва бугунги кун муаммоларини ҳам, кундалик маиший турмуш масалаларини ҳам, албатта, адабиётга боғлайди. Бу хислат унинг бутун руҳига, вужудининг ҳужайраларига сингиб кетган. Лекин у ҳеч қачон ўзини адабиёт билимдони сифатида кўз-кўз қилмайди. Адабиёт, ҳаёт ҳақида эҳтиросга тўлиб, жўшиб, тўлқинланиб сўзласа-да, мунаққид эканини ҳеч қачон писанда қилмайди. Унвонларини эслатиб, “менинг китобимда...”, “менинг мақоламда...” деб гапирмайди.

“Танқидчи” деганда кўпчилик асарларнинг “айб”ини айтадиганларни хаёлига келтиради. Бу ҳам асосли. Негаки, айримлар бировнинг камчилик, хатоларини таъна қилишдан маза қилганидай, баъзи танқидчилар асарларнинг заиф жиҳатларини топишдан роҳатланади. Бошқаларга беписанд қараб, пичинг, кесатиқ қиладиганларнинг хатти-ҳаракати, гапириш оҳангига эътибор қилинса, уларнинг ичи қора, бахил эканлиги сезилади. Бундайларнинг турқи, овозидан “заҳар” чакиллаб туради. Баъзи танқидчи, адабиётшунослар таниш шоир, ёзувчилари асарларидаги камчиликлардан кўз юмиб, “бегона”ларнинг шеър, ҳикоя, қиссаларидан қусур излаб юради. Қадрдонлари китобларига бир умр ҳамду сано ёғдиргани ҳолда, бошқаларнинг ижодига ғашланиб қарайди. Бу ҳам уларнинг инсон сифатидаги олами, адабиётшунос, мунаққид сифатидаги савияси қандай даражада эканини кўрсатади. Умарали Норматов одамлардан ҳам, асарлардан ҳам фазилат излайди. Камчиликлар тўғрисида ҳеч қачон кескин оҳангда гапирмайди. Баъзан эҳтиросга тушиб гапириб қўйса, ўзи хижолат тортади. Мунозаралар кескинлашишига йўл қўймайди. Мулойим муомала, ширин сўз ҳар бир кишига энг яхши тасалли эканини дил-дилидан ҳис қилади. Адабиётни, сўзни тушунган, унинг турфа маъно, жилоларини қалбига сингдирган одам айни жиҳати билан бошқалардан устун туради. Санъат, адабиётга мансаб-мартаба, шон-шуҳрат манбаи, бойлик орттириш воситаси деб қарайдиганлар ҳеч қачон бундай мавқега эриша олмайди. Улар ҳар қандай юксак мартаба, унвонни эгаллмасин, бошқаларнинг самимий

ҳурматини қозонолмайди. Умарали Норматов “адабий танқид, биринчи галда, гўзаликни ҳис этиш, англаш, кашф этиш санъати” деб билади. Унинг китобларидан бири “Гўзаллик билан учрашув” деб номланади. Мунаққид сифатида асарлардан нафосат излайди, ижодкорнинг маҳоратини таърифлашдан завқланади. Бошқаларни ҳам ўзи ҳис қилган завқдан баҳраманд этишга интилади. “Нафосат гурунглари”дан ҳам худди истак “қизил ип” бўлиб ўтади. Умарали Норматовнинг бошқа китоб, мақола, эссе, хотира, қайд ва суҳбатлари моҳиятида ҳам худди шу нарса туради.

“Нафосат гурунглари”нинг биринчи фаслида мунаққид устозлари, уларнинг ибратли фазилатлари тўғрисида эҳтиросга тўлиб сўзлайди. Устозларини таърифлаганида у тўлқинланиб кетади. Бу унинг устозларига меҳри, садоқатидан далолат беради. Киши ўзи меҳр қўйган кишилари тўғрисида жўнгина гапиролмайди. Ҳавас қилган кишиларингнинг инсоний ожизликлари ҳам фазилат каби туюлади. Умарали Норматов Озод Шарафиддиновни “устози” деб билади. “Менинг университетда топган энг катта бойлигим, бахтим шуки, мен Озод Шарафиддиновнинг биринчи аспирант шогирди бўлиш шарафига муяссар бўлганман. Ярим аср у билан ишлаш, ҳамкору ҳамнафас бўлиш мен учун Аллоҳнинг беназир иноятидеб биламан”дейди. Озод Шарафиддиновнинг китобларидан бири “Ижодни англаш бахти” деб аталади. Умарали Норматов ҳам устози сингари “адабиётни англашни чинакам бахт” деб билади. Адабиёт хусусида фикр юритиш, асарлар тўғрисидаги мулоҳазаларини ёзиш, сўзлашдан лаззатланади. Умарали Норматовнинг айни ҳолатини сўз санъатига шайдо, унинг сирли, сеҳрли оламига маҳлиё киши чуқур ҳис қилади.

Умарали Норматов “Гарчи адабиётшунослик бобида бой тажрибаларимиз бор бўлса-да, замонавий танқидчилик бизда кейинроқ, ўтган аср бошларида майдонга келди” деб таъкидлайди. Ҳақиқатан, минг йиллик тарихга эга мумтоз адабиётимиздан кимни “мунаққид” дейиш мумкин? Адабий танқидчилик нафақат ўзбек, балки бошқа халқлар адабиётида ҳам янги ҳодиса. У адабиётшунослик, фалсафа, тарих каби турли фанлар ҳамда

адабиётнинг бағридан ўсиб чиқди. Фан ва санъатга хос хусусиятни ўзида мужассам этган бу соҳа ижтимий-бадиий тафаккурга янги парвоз бахш этиш баробарида, кишиларнинг эстетик дидини ўстириб, уларнинг ҳаёт ва адабиёт, санъат тўғрисидаги тасаввурини бениҳоя кенгайтирди. У бунга Умарали Норматов сингари заҳматкаш, фидойилар туфайли эришди. “Нафосат гурунглари” билан танишган ҳар бир киши муаллифнинг мунаққидликни қисмат-бахт деб билиши, у асл асарларни эҳтиросга тўлиб тарғиб этиши, ўзи ҳис этган гўзаллик, нафосатни бошқаларга етказишга интилишидан, албатта, ҳузурланади. Табиати – феъл-атвори, руҳига сўз сеҳри, нафосат ҳисси сингмаган киши “Ўткан кунлар”, “Улуғбек хазинаси”дан ҳеч қачон ҳайратга тушмайди. Улар бошқалар олдида бемалол оёғини чалиштириб, қўлларини икки ёнига ёйганча керилиб ўтираверади. Чунки бундайлар ўзини ҳаммадан юксакда ҳис этади. Умарали Норматов ҳеч бундай ҳолатда турмайди, бировга беписанд муомала қилиб жеркимайди. Талабаларни ўғли, қизи, набиралари каби кўради. Уларга асло овозини кўтариб гапирмайди. Бу унинг адабиётда азалдан улуғланиб келинган эзгулик, меҳр-шафқат каби аъмолларни табиатига сингдиргани, қалбига жо этганидан далолат беради. Афсуски, кўп кишилар имон, инсоф, диёнат, ҳалоллик, ҳақиқат ҳақида оғиз кўпиртириб гапиради-ю, ўзи ҳаром-хариш “кўча”сидан бери келмайди, порахўрлик, тамагирлик, фаҳшдан ҳазар қилмайди. Одамлар эса буни кўриб, билиб туради. Сўзи бошқаю иши бошқа кишилар амал-мартабаси, “ҳайбаракалла”чиларига ишониб, ўзини “реклама” қилса, дағдағага ружу қўйса, обрў-эътиборга эмас, турли латифаларга “объект” бўлишга эришади, холос. Чунки ҳурмат талаб қилиб ёки сотиб олинадиган нарса эмас. Ҳурмат ҳисси – кўнгил иши. Кўнгилга буюриб, зуғум ўтказиб бўлмайди. У – чинакам адолат тарозиси. Кўнгил бошқаларни ҳам, кишининг ўзини ҳам ҳаракат, амалига кўра мезонга солади. Афсуски, табиатига такаббурлик “кир”и қат-қат ўрнашиб қолганидан кўпчилик шу ҳақиқатни англамай ўтиб кетади. Ўзини англамай туриб эса ўзгаларни тушуниш мумкин эмас. Афсуски, кўпчилик ўзини англамагани туфайли бошқаларни бемалол ранжитиб юраверади. Турмушдаги барча

муаммо, зиддиятлар кишиларнинг ўзини англамаслиги – ўзини бошқалардан юксакда тутишидан келиб чиқади. Ҳаёт эса такаббурларни ҳеч қачон аяб эркалатиб қўймайди. Ундайларга барчага кўргазма, сабоқ бўладиган қилиб аёвсиз жазо беради. Сабр қилганлар уларга жабр етказганлар, албатта, азобланганини кўради...

“Устозлар ибрати”, “Сафдошлар давраси”да Умарали Норматов ортга назар ташлаб, босиб ўтган ҳаётини баҳоли қудрат таҳлил қилади, билган, кузатган, дуч келган одамларига баҳо беради. “Бир асар тарихи”, “Тафаккурдаги эврилишлар”, “Адабий суҳбатлар”, “Ижоднинг машаққатли ва нурли йўллари”да ҳам айни мулоҳазаларини давом эттиради. Чунки ҳар бир одам ҳаётнинг аввал англамаган жумбоқ, ҳикматларини шу тарзда билиб олади. Киши таниган, билган кишилари, кечган воқеаларни хотирлар экан, ўзининг умр йўлларини хаёлан кезиб чиқади, ўзи билан суҳбат қуради, қувонч, шодлик ҳиссидан яйрайди, нафрат, аламдан азобланади. Бесамар ўтказган вақти, қадрламаган одамлари ҳақида ўйлаб эзилади. ХХ аср ўзбек адабиёти тарихини обдон ўрганган, 60-йилдан адабий жараён “марказ”ида юрган, унинг пасту баландидан хабардор мунаққиднинг устозлари, тенгдошлари, ижодкорлар тўғрисидаги хотиралари ҳам кишига кўп янгилик, сабоқ беради.

Умарали Норматов ўзи гувоҳ бўлган, иштирок этган воқеалар тўғрисида сўзлар экан, устозларининг ҳам, бошқаларнинг ҳам ижобий жиҳатлари, фазилатларини таърифлайди. Айни хусусият мунаққиднинг мақолаларига ҳам, тақриз, хотиралари, эсселарига ҳам файз бахш этади. У асарлар баҳонасида ўзининг ҳаёт ва адабиёт ҳақидаги кузатишлари, ўй-мушоҳадаларини изҳор этади. Унинг саксон ёши арафасида навқиронликка хос жўшқин эҳтирос билан мушоҳада юритиши, янгиликка пешвоз чиқиши кишини ҳаваслантиради. Кўпчилик сингари Умарали Норматовни ҳам ижодкорларнинг ишлаш тартиби, ижод жараёни қизиқтиради. У шоир, адиб, адабиётшунос, мунаққидларнинг асарлари, шахсига баҳо берганда, албатта, шу хусусда сўз юритади. “Нафосат гурунглари”даги “Куй таровати, тасвир латофати” мақоласи бунга яққол мисол бўла олади. Мазкур мақола таниқли

ёзувчи Пиримқул Қодировнинг “ижод жараёнидан бир лавҳа” каби таассурот уйғотади. Умарали Норматовнинг адиб, шоир, адабиётшунослар билан суҳбати ҳам ана шундай нозик кузатишларга асосланади. Мунаққид, адабиётшуноснинг мақола, тақризи кишиларни китоб мутолаа қилиш ва мушоҳада юритишга ундаши, рағбатлантириши билан амалий аҳамият касб этади. Китоблар эса ҳикматлар хазинасидир. Китоблар кишиларнинг олам ва одам ҳақидаги тушунча-тасаввурини кенгайтириш, ҳис-туйғуларини тўлқинлантириш баробарида, уларнинг ўз “мен”ини англаши, шахс сифатида шаклланишига таъсир этади. Китобларнинг бу борадаги қуввати оила муҳити, теварак-атроф таъсиридан асло кам эмас. Адабий танқидчилик, адабиётшунослик кишиларни мутолаага қанчалик кенг жалб этса, зиммасидаги вазифа°миссиясини шунчалик адо этади. Афсуски, айни муаммога деярли эътибор берилмайди. Адабий танқидчилик, адабиётшунослик ёш фан бўлгани учун бу йўналишда ҳали ўзининг тажрибада синалган самарали методларига эга эмас. Оммани “оломон маданияти” хуружларидан асрашга, биринчи галда, мунаққид, адабиётшунос, санъатшунослар масъулдир. Таассуфки, уларнинг аксарияти ана шу масъулиятни ҳис этмайди.

Умарали Норматов сўз санъатини “ноёб хилқат” деб билади. Бу борада у Абдулла Қаҳҳор, Озод Шарафиддинов каби устозларидан ибрат олади. “Ўткан кунлар”, “Улуғбек хазинаси”, “Кўҳна дунё”, “Лолазор” сингари адабиётнинг асл асарларидан ҳайратга тушади ва буни тўлиб-тошиб, эҳтирос билан изҳор этади. “Бу лаҳзалар чинакам санъат намунаси” деб ҳаяжонланади. “Тафаккур ёғдуси” да: “ана шу драматик дақиқалардаги тиғиз руҳий ҳолатлар ифодаланган лавҳаларни ўқиш қийин, ниҳоятда қийин! Ўша дақиқаларда “дод!” дегингиз келади” деб ёзади. Мунаққиднинг адиба Зулфия Қуролбой қизига очиқ хати, адиб, шоирлар билан суҳбатлари унинг истеъдодни эъзозлаши, сўз санъати сеҳрини дил-дилидан ҳис қилишидан далолат беради. Умарали Норматов адабий жараёнга ҳеч қачон бефарқ қарамайди. У барча янги асарлар билан, албатта, танишиб боради ҳамда шу “майдон” даги ҳар бир

умидвор бандадан бир оғиз ширин сўзини дариғ тутмайди. У худди шу жиҳати билан бошқа мунаққидлардан фарқ қилади. Жумладан, “Гуллаётган юрак” шеърий тўплами муаллифига очиқ хат битиб: “ёзганларингиз қуйиб қўйгандек ўзингизга ўхшайди” деб кўнглини кўтаради. Мунаққид ўз “ижодий лаборатория”си хусусида: “Бошқа ҳамкасбларимда қандай, билмайман, шахсан ўзим ўртача ёки бўш асарни ўқиганимда ҳар доим “танқидчи” ҳолига тушаман, асарларнинг кам-кўстлари, ожиз жиҳатларини, сунъий-ясамалигини баралла кўриб, йўл-йўлакай таҳлил этиб бораман.

Ҳақиқий санъат асарига дуч келганимда эса мунаққидлик ҳунаримни бутунлай унутиб, муайян муддат ўша асар ичида яшайман, асар персонажлари менинг учун тирик одамларга айланади, воқеалар “иштирокчиси” сифатида персонажлар билан мулоқотга киришаман, уларнинг ташвишу қувончлари, оҳу зорлари, ўй-мушоҳадаларига шерик тутинаман” дейди. Сўз санъатига меҳр қўйган, унинг сеҳри, жозибасини қалбдан ҳис қилган, юрагига сингдирган кишилар адабиёт олами билан шундай муносабатга киришади. Адабиёт одамларининг фазилати, бошқалардан фарқи ва устунлиги шундаки, улар ҳаётда ҳеч кимга беписанд қарамайди, атайлаб бировнинг дилини ранжитмайди. Одамзод эса азалдан айнан шу иллатдан азоб чекиб келади. Афсуски, ўзини “осмон устуни”, доною даҳо чоғлаб, бошқаларга беписанд қараб, дилини ранжитадиганлар ҳар бир жамоада учрайди. Аслида улар Яратганнинг бошқа бандаларига юборган синови ° сергак бўл, деган огоҳлантириши! Сир-жумбоқ шундаки, бундайлар, албатта, ҳамтовоқларини топиб, уюшиб олади. Улар заҳар томадиган турқи, туриши, қараши, овози оҳанги билан ҳам бошқаларга албатта азият етказади ва бундан лаззатланади. Нафосатни ҳис қилмайдиган, гўзаллика ҳирс билан қарайдиганлар, афсуски, ҳамма замонда тиқилиб ётади. Бундайларнинг санъат, адабиёт тўғрисидаги мулоҳазалари ҳам совуқ, шилимшиқ, ирганч бир нарсадек туюлади. Эмоционал туйғулари суст, заиф одам ҳеч қачон табиат ва санъатдаги нафосат, гўзалликни чуқур ҳис қилолмайди, юрагига сингдиролмайди. Натижада, унинг қиёфасидан атрофдагиларга, бутун дунёга қаҳр ёғилиб туради. Бундайлар

худди осмонни тутиб тургандай “Ташлаб юбораман, парча-парча бўлиб кетади”, “пачақлаб ташлайман” деб дағдаға қилишдан уялмайди.

Санъат, адабиёт – нафосат оламида бундай ёвуз табиатлиларнинг салтанат билан юриши кишини ажаблантиради. Нафосат, ҳақиқат ҳақида гапирмоқ учун аввало одам ўзи шу эзгу хислатларга эга бўлмоғи, унда адолатни ҳамма нарсадан устун қўйиш ҳисси бўлмоғи керак. Афсуски андиша, уят ҳиссидан маҳрумлар маънавий ҳаққи бўлмаган нарсаларга ҳам даъво қилаверади. “Нафосат гурунглари” муаллифи эмоционал туйғуга эга мунаққид. Шунинг учун у сўз санъатига хос гўзаллик, нафосатни тезда илғайди ва бу хусусдаги мулоҳазаларини бошқаларга етказишга интилади. Ана шу интилиши туфайли у ҳамма вақт адабий жараён “маркази”да туради, энг фаол мунаққид сифатида кўринади. Унинг мақола, тақриз, суҳбатларига хос асосий хусусият шуки, уларда бирор бир асар шунчаки таъриф-тавсиф этилмайди, унинг сюжети мазмуни жўн баён қилинмайди. Балки асарда қаламга олинган воқелик, ундаги характерли жиҳат мисолида адабий жараённинг муҳим муаммоси, бугунги кун учун аҳамиятли зарур гап айтилади. Мунаққид адабиёт ўқитиш, ижодкор тақдири, тарихий роман муаммолари тўғрисида ўй-фикрларини жўшиб, тўлиб-тошиб изҳор этади, мавжуд қарашларга муносабат билдиради. Муаммога ҳар доим янгича нуқтаи назарлар асосида ёндашишга интилади. У шу мақсадда ижтимоий фанлардаги янгиликлар билан мунтазам танишиб боришга ҳаракат қилади. Фалсафа, психологияга доир тадқиқотларга катта қизиқиш билан қарайди. Билган янгиликларидан бошқаларни хабардор этиб, суҳбатли мақолаларида таъкидлайди. Мунаққиднинг бу хусусдаги мулоҳазаларидан унинг сўз санъати сеҳрига ошуфталиги, бутун борлиғи билан унга меҳр қўйгани яққол билиниб туради. “Нафосат гурунглари” даги улуғ адиб Одил Ёқубов билан олиб борилган суҳбатини ўқиган киши, албатта, бунга ишонч ҳосил қилади. XX аср ўзбек адабиёти намояндалари орасида Абдулла Қодирий, Ойбек, Абдулла Қаҳҳор ҳаёти ва ижоди тўғрисида жуда кўп ёзилган. Умарали Норматов улар ҳақида энг кўп ёзганлардан бири, аниқроғи, пешқадамидир. Мунаққиднинг

бутун ижодий фаолияти марказида шу уч сиймо туради. Унинг “Қодирий боғи”, “Ўткан кунлар” ҳайрати”, “Қаҳҳорни англаш машаққати”, “Устоз ибрати” китоблари, Ойбек ижодига бағишланган мақолалари ўзбек адабий танқидчилигида ўзига хос ўрин тутади. “Истеъдод кўлами” да мунаққид Абдулла Қодирий, Ойбек, Абдулла Қаҳҳор асарлари тўғрисидаги кўп йиллик кузатишларини ўзига хос тарзда ихчамлаштириб умумлаштиради ва ҳар доимгидек, янги фикр айтади. Умарали Норматов нафақат ушбу суҳбатда, бошқа мақола, тақриз, хотира, эсселарида ҳам нимадир дейиш, қандайдир янги гап айтишга чоғланади ва мунаққиднинг бу ҳаракат, интилишларида у чинакамига адабиёт одами, шу сирли, сеҳрли олам фуқароси экани кўринади.

Йиллар одамнинг бўй-басти, қиёфа-кўринишига, албатта, турли ўзгаришлар “киритади”. Табиатнинг азалий бу “ҳукми”дан ҳеч ким қочиб қутулолмайди. Вақт кишининг жисмига эмас, руҳияти, маънавияти, ҳаётга қарашларига ҳам шубҳасиз таъсир этади. У, жумладан, мунаққид, адабиётшуносга ҳам “фармон” беради. Шундай экан, Навоий, Бобур ижоди, Абдулла Қодирий, Ойбек, Абдулла Қаҳҳор ва бошқа шоир, адибларнинг асарлари турлича талқин қилиниши табиий ҳол. Матёқуб Қўшжонов, Озод Шарофиддинов сингари адабиётшунос, мунаққидларнинг “Ўткан кунлар”, “Навоий”, “Қутлуғ қон”, “Сароб” асарлари ҳақидаги дастлабки мақолалари уларнинг шу хусусдаги кейинги мулоҳазалари билан таққосланса, муайян фарқ, тафовут кўринади. Бундай “манзара” Умарали Норматов ижодий фаолиятида ҳам яққол сезилади. Энг муҳими, орадан йиллар ўтиши билан, унинг адабиётга меҳри ортиб, қарашлари теранлашиб боргани кишини қувонтиради. Умарали Норматов етмиш ёшдан ўтганида Абдулла Қодирий, Ойбек, Ҳамза, Ғафур Ғулом асарларида шу пайтгача эътибордан четда қолиб келган ўринлар мавжудлиги ва улар жиддий аҳамиятга эга эканлигини топиб кўрсатди.

Унинг айни мулоҳазалари навқиронликка хос шижоат, ёниқ эҳтиросга йўғрилгани билан диққатни жалб этди. Мунаққид Абдулла Қодирий, Ҳамза, Ғафур Ғулом асарларида халқ кулгисининг ифодаланиши ва унинг аҳамиятини,

айтиш мумкинки, ўзига хос тарзда кашф этади. Унинг “Навоий” романига оид “Персонаж меъмори” мақоласи хусусида шундай дейиш мумкин. Мунаққид “Шум бола” қиссасига янгича нуқтаи назардан қараб, мафкуравий-сиёсий тазйиқ шароитида муаллиф ҳақиқатни айтишда қандай йўл тутганини очиб берди. “Паранжи сирлари” драмасидаги қаҳрамонлар образи янги қирраларини, Ҳамзанинг халқ тилидан фойдаланишдаги маҳоратини теран таҳлил этди. Мунаққиднинг бу хусусидаги мулоҳазалари худди Озод Шарофиддиновнинг “Истиқлол қурбони ёхуд ўзлигидан маҳрум этилган шоир” мақоласи сингари санъаткор Ҳамза тўғрисидаги тасаввурни ойдинлаштиришга муносиб ҳисса бўлиб қўшилди. Буларнинг барчаси Умарали Норматовнинг адабиётга чексиз меҳри ва унинг мунаққид ва инсон сифатидаги юксак маънавиятидан далолат беради.

Ҳар бир бадиий асар – алоҳида бир олам. Бу сирли-серҳли оламни ҳар ким ўз диди, таъби – маънавияти даражасида англайди. Асл асарлар нафақат китобхон, ўқувчилар онги, дунёқарашига, балки адабиёт тарихига ҳам самарали таъсир кўрсатади. Абдулла Қодирий, Ойбек, Абдулла Қаҳҳор асарлари анча вақтдан бери адабий жараёндаги ўзгаришлар даражасини белгилашда ўзига хос мезон бўлиб келади. Янги асарлар бу адибларнинг роман, ҳикояларига таққосланади. Умарали Норматов Ойбек асарлари мукаммал жилдлиги нашр этилишига бағишланган суҳбатда: “Менинг назаримда, “Ўткан кунлар”, “Сароб”, “Қутлуғ қон”, “Навоий” яхлит ҳолда ўзбек романчилигига замин бўлган, кейинги тараққиёти, етакчи тенденцияларини белгилаб берган асарлардир. Сўнгги қирқ-эллик йил давомида ўзбек романчилиги, асосан, шу тўрт асар ғоявий-поэтик бойлиги доирасида ривожланиб келди” дейди. Мунаққиднинг бу каби мулоҳазалари адабий танқидчилик ва адабиётшунослик бир-бирига уйғун, вобасталиги, улар ўртасига “хитой девори” қўйиш тўғри эмаслигини кўрсатади. Хусусан, Умарали Норматовнинг мақола, тақриз, суҳбатларида адабиётшуносга хос кузатиш, мунаққидга хос тезкор мулоҳаза ўзаро бирлашиб кетади. Бу ҳам унинг сўз санъати сеҳридан бениҳоя мутаассир бўлиб юриши, унга чин дилдан

меҳр қўйгани ° адабиёт одамига айланиб кетганидан келиб чиқади. Мунаққид ўзининг қай тарзда адабиёт одамига айлангани хусусида мулоҳаза билдираркан, мактабда, ўқувчилик кезларида ўқиган асарларини эслаб: “Айни шу асарлар менинг келажагимни ° тақдиримни ҳал қилган, деб дадил айта оламан.

Ўша кезлари келгусида, албатта, адабиёт муаллими бўлишни, умр бўйи сўз санъати мўъжизалари оламида яшашни, пайти келиб, ўқувчиларга қалбимдаги ҳайрат, ҳис-ҳаяжонларимни тўкиб солишни ният қилган эдим” дейди. У чин дилдан орзу қилган экан, ниятлари ижобат бўлиб, мақсадига тўла-тўкис эришди: Марказий Осиёдаги нуфузли олий ўқув юртида талабаларга ярим асрдан бери дарс бериб келади, Олий педагогика институти, Республика ўқитувчилар малакасини ошириш марказий иститутида профессор-ўқитувчилар, муаллимларга замонавий адабиёт бўйича маърузалар ўқийди. Минглаб ўқувчилар, талабалар у ёзган дарслик, ўқув қўлланмаларидан сабоқ олади. “Қалбидаги ҳайрат, ҳис-ҳаяжонларини тўкиб солиб” неча юзлаб мақола, тақриз, суҳбат, йигирмадан ортиқ китоб чиқарди. Айтишга осон, бундай натижаларга у осонгина эришмади. Муттасил меҳнат қилиш туфайли буларга муяссар бўлди. Сўз санъатига чинакам меҳри унга иштиёқ билан ишлаш ° мутолаа қилиш, ёзиш лаззатини бахш этди. Одам касбига меҳр қўйиб, иштиёқ билан ишламас экан, у кўпчиликнинг бири бўлиб юраверади. Атрофдаги тарафдорлари мақтаб, ҳар қанча тарғибот-ташвиқот этмасин, у шу соҳанинг одами сифатида эътироф этилмайди. Умарали Норматов сўз санъати сеҳрига ошуфта экани, унинг йўлида заҳмат чекиб келаётганини эса барча бирдай тан олади.

У қалбига адабиётда азалдан улуғлаб келинган эзгу хислатларни жо этганини устозларига ҳамиша эҳтиромда экани, адабиётда улар амал қилган ақидаларни садоқат билан давом эттираётганидан ҳам билса бўлади. Умарали Норматов ҳам худди Абдулла Қаҳҳор, Озод Шарафиддинов, Матёқуб Қўшжонов сингари истеъдодли ижодкорларни, ёшларни қўллаб-қувватлайди. Уларнинг ижоди, асарларининг фазилати тўғрисида эҳтирос билан тўлиб-

тошиб мулоҳаза билдиради. Қалбини тўлқинлантирган, уни ҳаяжонга солган асар ҳақида, албатта, матбуотда чиқишлар қилади. Умарали Норматов қатор ёшларни, хусусан, Зулфия Қуролбой қизини, биринчилардан бўлиб, истеъдодли ижодкор сифатида тарғиб-ташвиқ этди. Зулфия Қуролбой қизи асарларининг ўзига хос жиҳатлари тўғрисида тўхталаркан: “Адибанинг “Ёзсиз йил”, шунингдек, “Қуёш нега чиқаверади?”, “Бахтсизлик маликаси” ҳикояларида персонажлар тушиб қолган чигал вазият, ўша кезлари улар қисмати, табиати, руҳиятида юз берган эврилишлар, қабоҳат ва эзгу туйғулар муҳорабаси ифодаси “Машаққатлар гирдоби”, “Армон асираси” романларидагидан бутунлай ўзгача. Романларда инсон қисмати, табиати, руҳиятидаги жараёнлар ҳаётдаги ижтимоий силсилалар билан алоқадорликда содир бўлса, ҳикоялардаги ҳолат, тушуниш ва тушунтириш мушкул бўлган, қисман, “илми ғойиб” га дахлдор қисмат жумбоғи, тақдири азалнинг “шева”лари, қолаверса, шахс тафаккури, “онг оқими” нағмалари, инсон табиатидаги туғма фазилат ва иллат, улуғворлик ва тубанлик, даҳолик ва ожизлик, нафосат ва дағаллик орасидаги азалий зиддиятларнинг ҳосиласи тарзида талқин этилади” дейди. Мунаққид бошқа ижодкорларни ҳам шу тарзда “кашф” этади. Унинг ижодий фаолиятида Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор ижоди талқини алоҳида ўрин тутса-да, ёш адиб, шоирлар асарлари тўғрисидаги мақола, тақризлари ҳам сон-салмоғи жиҳатидан ундан асло кам эмас. Бу ҳам мунаққиднинг сўз санъатига астойдил меҳр қўйгани, унинг айнан шу оламда яшаб, нафас олишидан далолат.

Айрим адабиётшунос, мунаққидлар бир “объект” ни ушлаб олади-да, умр бўйи унинг атрофида қолиб кетади. Агар кимдир унинг “объекти” хусусида бирор мулоҳаза билдирса, албатта, ғаши келади, аюҳаннос солади. Ваҳоланки, Навоий, Бобур, Муқимий, Фурқат ёки Ҳамза ҳаёти ва ижоди ҳеч кимга хусусий мулк, шахсий томорқа қилиб берилмаган. Умарали Норматов кўламни кенг олиб, баланд миқёсда фаолият олиб борадиган мунаққидлар сирасига киради. У аввал адабий жараён билан муттасил танишиб боради. Ўзини тўлқинлантирган, ҳис-ҳаяжонга солган асарлар тўғрисида

мулоҳазаларини, таъкидлаганидек, албатта, матбуотга тақдим этади. Бу осон, жўн иш эмаслигини барча ҳам бирдай билавермайди. Янги асар тўғрисида ёзиш нечоғлик машаққат эканини бошидан кечирган кишигина ҳис қилади. Албатта, ҳар қандай юмуш, иш заҳмат эканлиги бошга тушганда билинади. Ўзининг бошига тушмагунча одам дард, оғриқ, ташвиш, муаммони ҳис қилмайди.

Кишилар иссиқ, совуқ, шамол, нур каби табиат ҳодисаларини дарҳол сезишади. Лекин одамлар улардан ҳам кўпроқ Сўздан таъсирланишади. Улар иссиқ, совуқ, шамол таъсирини муайян муддат ўтгач, албатта, унутишади. Аммо мақтаб ёки ёмонлаб айтилган бир оғиз калимани ҳар бир киши бир умр ёдида тутади. Бу худди нафас олиш, овқатланиш, сўзлаш сингари одамзоднинг табиий хусусияти саналади. Ҳар бир одам ўзи тўғрисида айтилган сўзни хотирасининг тўрига жойлаштириб қўяди. Шу боис илоҳий китобларда “унутгин” дейилмасдан, кечиримли бўлиш фазилат эканлиги уқтирилади. Бундан аён бўладики, сўз мислсиз қувватга эга. Бу илоҳий мўъжиза орқали кишини турли ҳолатга солиш мумкин. Тиғ жароҳати битади. Тил жароҳати эса битмайди. Сўз етказган жароҳат маддалаб, ҳамиша оғриқ беради. Унинг жароҳатидан доим қон силқиб туради. Ўқувчи ҳам, мунаққид, адабиётшунос ҳам асарлар тўғрисида сўз юритганда, баҳо берганда масаланинг мана шу нозик жиҳатини, албатта, эътиборга олиши жоиз. Чунки шеър, ҳикоя, қисса, драма, роман – ижодкорнинг узоқ изланишлари, машаққатли меҳнати “мева”си. Ҳар бир киши эса меҳнати қадрланишини истайди. Муносиб қадрланса, қувонади. Аксинча бўлса, унинг дилига жароҳат етади. Абдулла Қодирий, Чўлпон, Ойбек, Абдулла Қаҳҳорни калтаклаб, уриб, сўкиб, ҳақорат қилишмаган. Улар асарлари тўғрисидаги баланд-паст гаплардан азият чеккан. Шу оғриқдан руҳан, жисмонан хасталанган.

Адабиётнинг асл асарларидан беҳад таъсирланиб ҳаяжонга тушган одам, табиийки, бадиий жиҳатдан ночор асарларнинг ҳам кам-кўсти, заиф ўринларини ҳам бирданига пайқайди. Умарали Норматов шундай кишилар сирасига киради. У асл асарларни эҳтиросга тўлиб, таъриф-тавсиф этгани

ҳолда, заиф асарлар хусусида шовқин-сурон кўтармайди. Аниқроғи, буни ўзига эп кўрмайди. У ижодкорнинг машаққатли изланишини эътиборга олади. Уни инсон сифатида қадрлайди, ижодкорга азият етказмай, деб ўзини тияди. Бундай муносабат, албатта, табиатан талашиб-тортишишга мойил кишиларга унча хуш келмайди. Чунки ундайлар жиққамушт бўлаётганларни томоша қилишдан мириқади. Ўзи ҳам ким билан бўлса-да, мунозара қилиш, уришиш учун доим енг шимариб туради. Бундайлар кимдир жабр чекса, бепарволик билан "бу – табиат қонуни" деб қўя қолишади. Меҳр-шафқат ҳисси жуда суст бу кимсалар аслида қалбида қаҳр қайнаб тошишидан қийналади. Уларнинг кўриниши, юриш-туриши, овозидан аламзада эканлиги сезилади. Ўзини ўзгалардан устун санайдиганларнинг гап-сўзи, хатти-ҳаракатлари Садриддин Айнийнинг "Эсдаликлар" асарининг "Парвардигорхўжа" бобини ёдга солади. Унда насл-насабини пеш қилиб, бошқаларни назар-писанд қилмайдиган Сайид Акбархўжанинг ғаройиб феъл-атвори баён этилади. Кишилар Сайид Акбархўжани ҳурмат қилиб, гаштак (гап)га чақиришади. Бир меҳмонхона одам икки соат кутса-да, у келмайди. Эртаси куни келмагани сабабини сўрашганида, Сайид Акбархўжа "Ғирт саводсиз бўлган уй эгаси менинг отимни атаб, "фалончи ҳалигача келмади" деганини ўз қулоғим билан эшитдим. Бухоро мадрасаси толиби бўлган мен каби бир кишининг номини тилга олишга саводсиз бир деҳқоннинг ҳаққи борми, ахир? Бу одобсизлик эмасми? Шунинг учун меҳмонхонанинг эшиги олдидан қайтиб келдим" дейди. Шунда унга: "Сиз катталик қилиб, отангиз томонидан берилган номдан орланар экансиз, сизга ўзингизга муносиб улуғ бир ном бериш керак, токи у номни тилга олиш билан биз сизни фаҳмлайлик. Бу муносиб ном Худонинг оти бўлган "Парвардигор"дир. Оламда бу номдан каттароқ ном йўқ. Айниқса, бу номга сизнинг авлодий унвонингизни қўшиб, "Парвардигорхўжа" десак, Худонинг номидан ҳам каттароқ бўлади. Бу ном билан сизни атасак, шаънингизга зиён қилмаса керак" деб айтишади. (Айний С. Асарлар. Саккиз томлик. 5-том. – Т.: "Тошкент" Бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 312 б. – 109-бет.) Такаббурлик, таъна қилиш, айб қидириш энг қабиҳ иллатдир. Кишининг

табиати ушбу иллатлар билан булғанса, бу унинг иши, фаолиятига ҳам таъсир кўрсатади. Такаббур кимсаларнинг ўзида йўқ ҳалолликни бошқалардан талаб қилиши жуда кулгили туюлади. Чунки бу дунёда барча бир-бирини кўриб, кузатиб юради. “Фалони қандай? Фалони ўзгариб қолибдими?” сўроқлари кундалик муомала-мулоқотда фаол қўлланиши ҳам шундан далолат беради. Ҳар бир кишига, у ким бўлишидан қатъи назар, ҳаракат-амалига қараб, баҳо берилади. Умарали Норматов асарлар тўғрисида мулоҳаза юритганда ҳам, ижодкорлар, устозлари, сафдошлари, ҳамкасабаларини тавсифлаганда ҳам, юқорида эътироф этилганидек, кўпроқ уларнинг фазилатларига урғу беради. Ҳеч қачон ўзини “биринчи план”га қўйиб гапирмайди. Айримлар икки гапининг бирида “мен” деб ўзини кўз-кўз этади. “Нафосат гурунглари” муаллифи такаббурларга хос бундай иллатдан, ҳар қалай, холи. У асарларга ҳам, одаларга ҳам авайлаб муносабатда бўлади. Бу ҳам унинг адабиётда улуғланган инсоний сифатларни қалбига, табиатига сингдирганини билдиради. Албатта, Умарали Норматов ҳам бекаму кўст, мукаммал одамга айланиб кетган эмас. Унинг ҳам мақола, тақризларида давр руҳи бор. Шароит, вазият тақозосига кўра, айрим асарларни меъёридан ортиқроқ мақтаб юборган. Баъзи “мавсумий” ижодкорларни “классик” дейишгача бориб етган. “Соцреализм – очиқ система” деб кўп ёзган. Бир сўз билан айтганда, замонга боққан. Шундай бўлиши ҳам табиий. Чунки одам ҳар қанча ақлли, донишманд бўлмасин, у – замонасининг фарзанди. Ҳар бир одам, истаса-истамаса, замоннинг йўриғига бўйсунади. Ҳеч ким даврнинг умумий оқими, ундаги ҳукмрон қарашларга кескин қаршилик кўрсатолмайди. Ҳамма ўз замони талабларига “давр тақозоси”, “шундай бўлиши керак” деб қарайди. Одам алдангани, хато қилганини кейинчалик пайқайди. Умарали Норматовнинг ҳам, бошқа мунаққид, адабиётшуносларнинг ҳам соцреализм тўғрисидаги чиқишлари замона зайли эди. Ўша пайтда адабиётшунос, мунаққидларнинг ҳеч бири соцреализмни инкор этган эмас эди. “Замона зайли”га пешвоз чиққанларни оқлаш ёки қоралашдан олдин одам ўзини ўшаларнинг ўрнига қўйиб кўриши керак. Барча замонларда ҳам душман мавҳ бўлгач, ботир

кўпаяди. Шўро даври “дағдаға”сидан бехабар, уни танасида татиб кўрмаганлар ўша замон зулми остида яшаб ижод қилганлар тўғрисида билиб-билмасдан, англаб-англамасдан ҳар хил гапларни гапиради, уларни аямасдан танқид қилади. Аммо бундан қандай наф чиқади? Қандай натижага эришилади? Нафи, натижаси шуки, бундайлар ўзларининг шуҳратпарастлик хусурини бир оз қондиради, холос. Ўтмишнинг ўлчовлари бугунги кун мезонларига мос келмайди. Ҳар бир даврнинг, ҳар бир жойнинг ўз тартиб-қоидалари, тош-тарозиси бўлади.

Умарали Норматов, бугун, шўро даври адабий методи ҳақида мулоҳаза билдирар экан, соцреализмни “очиқ система” дейиш “унинг қатъий чегараларини – имкониятларини кенгайтириш йўлидаги бир уриниш эди. Бу уриниш, масалан, бизда Қодирий, Чўлпон каби адибларни, “Ўткан кунлар”, “Абулфайзхон”, “Сароб”, “Жалолиддин” каби асарларни оқлаш, энг муҳими, мавжуд “қолип”ларга асло сиғмайдиган А.Орипов, Э.Воҳидов, Р.Парфи, О.Матжонлар шеъриятини, О.Ёқубов, П.Қодиров, Ў. Ҳошимов, Ш.Холмирзаев, Мурод Муҳаммад Дўст, Эркин Аъзамлар ҳикоя , қисса, романларини ҳимоя қилиш воситаси эди...”дейди. Одам ўзи ҳақиқат деб билган, меҳр қўйган нарсасини ҳимоя қилиш, асраб-авайлаш учун ҳар қандай воситадан фойдаланади. Шундай экан, шўро даврида ҳам ўз юрти равнақи, жумладан, санъат, адабиёт ривожи учун жонкуярлик билан хизмат қилганларни айблаш, жиноятчига чиқаришдан олдин, озгина андиша қилиш, “Ўзим ким? Адабиёт равнақи йўлида қанча хизмат қилдим? Бошқаларни оқлаш, қоралашга маънавий ҳаққим борми?” дея ўзига ўзи савол бериш керак. Афсуски, айримлар бировнинг адашиши, янглишишини пойлаб туради ва унга ташланиб, бадном этишга уринади. Умарали Норматов унга қилинган маломатларни жуда осонлик билан енгди. Тўғрироғи, таъналарга кўп-да парво қилмади. Бундай пайтда унга сўз санъатига бўлган меҳри қувват бўлди. Ҳақиқатда ҳам киши соҳасига астойдил меҳр қўйса, йўлда дуч келадиган машаққату маломатлар унга тўсиқ бўлолмайди. Аксинча бўлса, салгина қийинчиликдан ҳам ҳафсаласи пир бўлиб, киши нима қиларини бўлмасдан

қолади. Бозор иқтисодига ўтиш бошланган кезлари кўпчилик касб-корини кўп марта ўзгартирди. Юзага келган иқтисодий қийинчилик кўпчиликни шундай қилишга мажбур қилди. Адабиётшунос, мунаққидларнинг ҳам ўз ишидан кўнгли совиб, анча-мунчаси бу “майдон”ни тарк этди. “Нафосат гурунглари” муаллифи эса ўта оғир пайтда ҳам мунаққидлик фаолиятини бир зум сусайтирмади. Аксинча, янада фаоллашди. У 60-90 йилларда – 30 йилда ўнта китоб нашр эттирган бўлса, истиқлол даврида ҳам шунча китоб чоп эттирди. Аввалги ўттиз йилда чиқарган китоблари кейинги ўн саккиз йилдаги китоблари қаршисида ҳажми – босма табоғи жиҳатидан ҳам, мазмун-мундарижасига кўра ҳам анча кичкина, жуда жўн кўринади. У мустақилликни олтмиш ёшида қарши олди. Лекин истиқлолга эришилганидан кейин навқиронликка хос ёниқ шижоат билан меҳнат-ижод қилди. Айтиш мумкинки, у бу даврда мунаққидлар пешвоси бўлди. Адабиёт назариясида эришилган энг сўнгги янгиликлардан хабардор бўлиши баробарида биринчилардан бўлиб, уларни ўқувчиларга етказди.

Мунаққиднинг Ҳамидулла Болтаев, Жаббор Эшонқул, Раҳимжон Раҳмат билан суҳбатлари бунга мисол бўла олади. Муҳими шундаки, у адабиётнинг назарий масалалари хусусида барча тушунадиган тарзда мулоҳаза юритади. Айрим адабиётшунослар сингари фикрларини эга-кесимсиз чийратма жумлаларда баён этмайди. Масалан, адабиётда асарлар жанрини белгилашда кўп чалкашликлар учрайди. Умарали Норматов ушбу муаммони ҳал қилишда ўзининг аниқ тавсиясини беради. Унингча, асарнинг : “жанр хусусияти аввало қаҳрамон билан уни қуршаб олган муҳит, шароит орасидаги муносабат кўламига қараб белгиланади”. Ёки “Бадиий конфликт, гарчи унинг ифода тарзи, хиллари қанчалик турли-туман бўлмасин, пировард натижада, ҳаётдаги зиддиятларнинг инъикоси-ку!”дейди. Умарали Норматовнинг назарий муаммолар хусусидаги бу каби фикрларини филолог эмас, ҳар қандай ўқувчи бемалол тушунади. Баъзи адабиётшунос, мунаққидларнинг эса мақоласи, китобини ўқиганда нима тўғрисида гап кетаётганини илғаб бўлмайди. Уларни ўқиш, мутолаа қилиш кони азоб. Улар

ўзларининг турли термин, атамаларга тўла, ўқиган одамни асабини қақшатадиган “хат”ини “мураккаб услуб” деб аташади. “Мураккаб услуб”чиларнинг даъвосича, улар “катта фикр” айтармиш. “Катта фикр”ни эса ҳамма тушунадиган тарзда ифода этиб бўлмасмиш... Мунаққид, адабиётшуноснинг мақола, китоби математика, физикага оид тадқиқотлардан шуниси билан фарқ қиладики, у мутахассисларни эмас, барча ўқувчиларни қизиқтиради. Шундай экан, мунаққид, адабиётшуноснинг китоби, мақоласи барчага бирдай тушунарли бўлиши, яъни филологияга доир тадқиқотларда фикр аниқ, тиниқ баён этилиши керак.

Афсуски, аксарият ҳолларда бу унутилади. В.Белинский, Н.Добролюбовнинг адабий-танқидий мақолалари шоир, адибларнинг асарлари даражасида омма эътиборини қозонгани таъкидланади. Ёки О.Шарофиддинов, М.Қўшжоновнинг мақола, китоблари худди шеър, ҳикоя, қисса, роман сингари иштиёқ билан ўқилади. Умарали Норматовнинг суҳбат, эсселари хусусида ҳам шундай дейиш мумкин. У бадиий асар, адабий жараён, адабиёт назарияси, адабиёт ўқитиш методикаси тўғрисидаги мулоҳаза, қарашларини осон, бир ўқишда тушуниладиган қилиб ёзади. Аниқроқ айтганда, мунаққид адабиётни бугунги кун, ҳаёт тўғрисидага ўй-кечинмаларини изҳор этиш воситага айлантириб олади. Шу боисдан унинг мақола, тақриз, суҳбатларида эҳтирос акс этади. Бу эҳтирос эса мунаққиднинг адабиётга меҳри юксаклиги, унинг сўз санъатида эъзозланган эзгу ақидаларни қалби, руҳига сингдирганидан келиб чиқади.

Адабиёт тарихи, унинг муайян даври, ижодкор босиб ўтган йўлга баҳо берганда, биринчи навбатда, ўша пайтдаги вазият, даврнинг талабларини эътиборга олиш керак. Умарали Норматов XX аср адабиётидаги мураккабликлар тўғрисида сўз юритганда шундай йўл тутади. Айримлар барчанинг диққатини ўзига қаратиш, ўзини доно-ю донишманд кўрсатиш мақсадида Абдулла Қаҳҳор ижодига қарата “тош” отганида у “Қаҳҳорни англаш машаққати” китобини ёзиб, ижтимоий давр мураккбликлари, улуғ адибнинг ижодий маҳоратини кўрсатди. Мунаққид бадиий асарларни,

ижодкор шахсини ҳамиша ижтимоий ҳаёт билан боғлиқ ҳолда таҳлил қилади. Асар қаҳрамонларини ҳаётдаги одамларга таққослайди. Умарали Норматов мақола, тақриз, суҳбатлари марказига муҳим бир муаммони қўяди ва қатор асарларни қиёслаш асосида шу хусусда сўз юритади. Айрим адабиётшунос, мунаққидлар бир йилда, нари борса, иккита-учта мақола ёзади ва уч-тўрт қоғоздан ошмайдиган бу "нарса"лардан бирор маънони уқиб бўлмайди. Сабаби, улар "катта фикр" оқимига хос мураккаб услубда битилган...Худди шу "мураккаб услуб"и туфайли тилшунослик, фалсафа, тарих, санъатшуносликка оид талай мақолаларни ўқиш машаққат. Амаллаб ўқилганда ҳам нима дейилганини тушуниб бўлмайди. Кишининг "хат"и эса унинг ҳарактерига хос анча-мунча жиҳатларини аён этади. Адабиётшунос, мунаққиднинг услуби ҳам унинг ички олами, феъл-атворини кўрсатади. Бағри кенг, билимдон муаллифларнинг мақоласи билан танишиш кишига ҳар доим мароқ бағишлайди. Равон услубда ёзилган, фикр аниқ –тиниқ баён этилган бундай мақолаларни ўқиб тугатганингни сезмай қоласан. Бурама, чийратма жумлаларда битилган, турли термин, атамалар қалаштириб ташланган "нарса"ларга дуч келганда, кўз олдингда чиркин, қора аллақандай шарпа тургандай туюлади...

Мураккаб, мавҳум услубда ёзадиганлар атрофдагиларга яхши, ажойиб инсон сифатида кўринса-да, нимадандир аламзадага ўхшайди. Ижодкорларнинг услубини уларниг шахсияти, феъл-атвори билан боғлиқ ҳолда ўрганиш жуда қизиқарли мавзу. Афсуски, бизда бу йўналишда тадқиқотлар олиб борилмаган. Шоир, адиб, адабиётшунос, мунаққид, санъатшунос, тарихчиларнинг бадиий асарлари, илмий тадқиқотлари тўғрисида сўз юритилиши, уларга баҳо берилиши, албатта, дуруст. Аммо уларнинг шахсиятини англашга имкон берадиган мақолалар яратилса, бу бадиий асарлар, илмий тадқиқотлар мазмун-моҳиятини янада чуқурроқ идрок этишга олиб келади. Масалан, Виктор Шкловскийнинг "Лев Толстой" китоби шундай салмоққа эга тадқиқотлар сирасига киради.

Умарали Норматов асарларни таҳлил қилиш, адабий жараёнга ёндашиш, ижодкорлар ҳаётини ёритиш ва мулоҳазаларини ифодалашда равонлик, аниқликка интилади. У бу борада устозлари анъанасига амал қиласа-да, аммо ўз “хат”и, услубини намоён этади. Шоир, адиб, адабиётшунос, мунаққид қачон ўз услубини топади? Қачонки сўз санъатини муқаддас билиб, унга чин дилдан ихлос қўйса ҳамда шахс сифатида “мен”ига эга бўлса! Шунда унинг асарлари, тадқиқотлари бошқаларникидан алоҳида ажралиб туради. “Нафосат гурунглари” муаллифининг китоблари, мақолалари, шубҳасиз, шундай салмоққа эга. У салкам ярим асрдан бери ўзбек адабиётшунослиги, адабий танқидчилигида ўз “овоз”ига эга ижодкор сифатида фаолият кўрсатиб келади. Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор, Саид Аҳмад, Эркин Воҳидов каби ўнлаб улкан шоир, адиблар, кўплаб ижодкорлар ҳаёти ва ижодининг ўрганилиши тўғрисида сўз юритилса, албатта, Умарали Норматовнинг мулоҳазаларига мурожаат қилинади.

Адабиётшуносликнинг қатор назарий муаммолари, хусусан, реализм, соцреализм тўғрисида баҳслар марказида у бўлгани, албатта, эътироф этилади. Миллий адабиётимизда мансуранинг шаклланиши Иброҳим Ғафуров номи билан боғланса, Умарали Норматов ўзбек адабий танқидчилигида “адабий суҳбат”нинг оммалашиши, мустақил жанрга айланишига бош-қош бўлгани таъкидланади. (Қаранг: Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2008)

Одамнинг овозида унинг ички дунёси акс этгани каби ижодкорнинг асари, тадқиқотида унинг дунёқараши, маънавияти кўринади. Бу дунёқараш, маънавият унинг ҳаёт тарзи, кишилар билан муомала, муносабатида ҳам яққол сезилади. Умарали Норматов адабиётда эъзозланиб келинган эзгу қадриятларни қалбига сингдиргани, унинг маънавияти шу асосга мустаҳкам боғлангани боис инсон табиати беҳад нозиклиги, каттами-кичикми, ҳамиша мулойим муомала, ширин сўздан яйраши, одам табиатан танқидни хуш кўрмаслиги, беписанд муомала барчага оғир ботишини жуда чуқур ҳис қилади. У табиатида ана шундай ажойиб фазилат мавжудлигидан адабий

танқидни “Сўз санъати мўъжизаларини кашф этиш санъати” деб қарайди. Ижодкорнинг изланиши, меҳнати, шахсига ҳурмат кўрсатади, истеъдодларни ҳамиша эъзозлайди. Буларнинг барчаси Умарали Норматовнинг адабиётга бўлакча меҳри, унинг мунаққид ва инсон сифатидаги юксак маънавиятидан далолат беради.

Улуғбек ҲАМДАМ

ИНШО

(Устоз адабиётшунос, проф. У. Норматовнинг “Ижодкорнинг ҳароратли сўзи” китобига тақриз)

КИРИШ:

Ўзбек адабий танқиди, унинг бугунги савияси, келажакдаги тақдири устоз адабиётшунос олимни ўйлатади, қаердадир севинтирса, қаердадир ташвишга солади. Аммо танқид ҳақида куюнчаклик билан қанча ёзмасин, барибир, мунаққиднинг нияти эзгу. Яъни ўзбек адабий танқиди юксалсин, адабий жараёндан ортда қолмасин, аксинча, байроқни қўлга олган ҳолда олд сафга ўтиб юрсин! Чунки адабий жараён аввалида эмас, ортида юрган адабий танқид, бу асл танқид эмас, балки ана шу жараённинг аянчли соясидир. Буни олим нозик англаб, ҳис қилади ва туриб-туриб: “Инсоният ҳали улкан истеъдодлар хизматини муносиб қадрлаш даражасига кўтарилгани йўқ”, дея хитоб қиладики, бу дардли ҳайқириқнинг бир учи келиб танқидга тегади.

Шунда беихтиёр хаёлга америкалик машҳур скрипкачи Жошуа Белл келади. 2009 йилда қуйидагича бир эксперимент ўтказилади: жаҳонга машҳур, бир кун олдин “Бостон Симфоник Холл”да берган концертининг билет нархи 100-120 доллар бўлган скрипкачи оддий кийим кийган ҳолда метро бекатига тушиб келади ва тик турган кўйи 3,5 млн. доллар турадиган қимматбаҳо скрипкасида дунёларга донғи кетган мусиқаларини чала бошлайди. Шунда, биласизми, нима рўй беради? Ғоят ачинарли, аммо бугунги замонавий дунё ва замондош инсоннинг асл юзини очиб ташлайдиган, уларда яширин фожиани шундоқ кўз ўнгимизда намоён этадиган воқеа содир бўлади.

Скрипкачи 45 дақиқа мобайнида мусиқа чалади, лекин уни ҳеч ким танимайди, танимагани майли, шу вақт давомида 6 кишигина хиёл тўхтаб мусиқага қулоқ тутгандек бўлади, аммо соатларига қараб олгач, яна шитоб билан йўлларида давом этади. Атиги 20 киши пул беради, машҳур скрипкачи бор-йўғи 32 доллар пул йиғади. Энг қизиғи шуки, мусиқани астойдил эшитаман, деган саноқлиларнинг бари болалар бўлади. 5 ёшли бир бола ана ўшаларнинг орасида эди, бироқ ишга шошаётган онаси унинг қўлидан тортиб олиб кетади. Яъни катталарнинг ҳаммаси ўз қисматининг, кундалик турмуш ташвишларининг, ҳаёт тарзларининг асири. Уларнинг мусиқа тинглашга мутлақо, ҳа, мутлақо имконлари йўқ. Бас, бошқа пайтлари катта-катта пул бериб ҳам концертига кира олмайдиган скрипкачининг шундоқ оёқлари остига келиб текин концерт бериб турганида ҳам оддий одамлар бир муддат тўхтаб, мусиқасини тинглай олмайдилар. “Демак, оддий бир жойда бўлса, гўзалликни кўрмас, ҳеч ким кутмаган маконда юз берса, санъат асарини эътиборсиз қолдирар эканмиз-да! Қиссадан ҳисса – яна бунга ўхшаш не-не мўъжизаларни ҳар куни, ҳар он назардан соқит қилиб, уларда ғофил ҳолда яшаётган эканмиз?” деган саволни қўйишади клип ижодкорлари.

Худди шундай, бугунги ўзбек адабиётида ҳам юқоридаги ҳолни ёдга соладиган воқеалар анчадан бери бор. Қаршисида тўхтаб тафаккур қиладиган асарлар оз бўлса-да, яратилди, яратилаётир. Лекин ўқувчи метродаги одамлар каби бепарво, беэътибор. Ҳатто, адабий танқид ҳам деярли шундай аҳволда, баъзан эса янада заъфарон ҳолларга тушиб туради у: асосий эътиборни чинакам санъат асарларига қаратиш ўрнига, кўпинча, ўртамиёна қораламалар билан андармон бўлиб умрини ўтказади. Ҳа-ҳа, айнан умрини ўтказади... Чунки ўзлигини умрбоқий асарларга бағишламаган адабий танқид ўша асарлар тарих саҳнасидан тушиши билан кўздан ғойиб бўлади, яъни унутилади. Нафақат бугуннинг, балки ҳамма замонларнинг танқидчиси бу аччиқ ҳақиқат устида жиддий ўйлаб кўрмоғи шарт!..

“Хўш, бу гапларнинг ушбу китоб ва унинг муаллифига нима дахли бор”, деган ҳақли савол туғилади. Гап шундаки, Умарали Норматов ана ўша

скрипкачининг олдида бир зум бўлса-да тўхтаган, тўхтай олган камсонли тингловчи-танқидчиларимиздан! Бундай деяётганимнинг сабаби, агар, бугунги адабий жараённи энг кўп ва хўп кузатаётган тўртта олим бўлса, ўшаларнинг биттаси, шубҳасиз, Умарали ака ҳисобланади. Бир қарашда осон юмушдек туюладиган жараённи кузатиш иши, аслида, жуда машаққатли, жасорат ва матонат, сабр ва тоқат, нуктадонлик ва адолат туйғусини, бутун бошли умрни, унинг баҳор, ёз, куз ва қиш фаслларини ёдга соладиган ҳамма даврларини бутунича сарфлашни талаб қилувчи, адабиёт илмидаги энг оғир вазифалардан биридир. Адабий жараён бу – у ёки бу даврда яшаётган миллат кайфияти акс этган кўзгу, демак. Зеро, ҳақиқий ижодкор ҳам, чинакам олим ҳам ўз даври билан бирга яшайди, яъни даврининг уриб турган томирига ташхис бармоғини қўйиб, унинг дардига малҳам қидириб тонг оттиради...

АСОСИЙ ҚИСМ:

Таниқли адабиётшунос олим, кўпчилигимизнинг устозимиз, филология фанлари доктори, профессор Умарали Норматовнинг навбатдаги, эндигина сиз азиз ўқувчи танишиб чиққан, тўрт қисмдан иборат “Ижодкорнинг ҳароратли сўзи” номли китоби устоз мунаққиднинг ўзигагина хос бўлган услубда битилган. Ўзига хослик, аввало, олимнинг кўпчилигимиздан, аниқроғи, кўпчилик адабиётшунослардан фарқ қилган ҳолда, адабиётга ҳали-ҳанузгача муқаддас олам сифатида қарашда давом этаётгани ва бу қарашларини жўшқинликка йўғрилган муҳаббат, таҳлил ва танқид билан омихта қилганида кўзга яққол ташланади.

Одатда, ўз соҳасида энг баланд марраларни забт этган мутахассис олимнинг ҳар қандай мавзуда ёзган мақоласида шу соҳага тааллуқли кўпгина сиру асрор яширинган бўлади. Чунончи, Умарали Норматовнинг ушбу тўпламдан жой олган исталган мақоласини кўринг, у хоҳ ўтган аср адабиётимизнинг дарғалари ижодига бағишланган бўлсин, хоҳ замонавий адабиётимиз вакиллари асарларига, фарқи йўқ, уларнинг барида бутун бошли адабиётимизга аҳамиятли қандайдир фикр-мулоҳаза борлигининг гувоҳи бўласиз.

Китобнинг биринчи қисми ***“Янгиланаётган адабий жараён”,*** деб аталиб, унда шу кеча-кундузда яратилаётган ўзбек адабиёти намуналарига назар ташланади. Иккинчи – ***“Адабиётимиз дарғалари”,*** деб номланган қисмида олим адабиётдаги миссиясини бажариб, бошқача айтганда, адабиётимиз ривожига ўз ҳиссасини қўшиб улгурган катта авлод ижодкорлари ҳақида сўз юритади. ***“Хотиралар тилга кирганда”*** дейилган бўлимида эса, “мозийга қайтиб иш кўрилади” – XX аср аввалида ижод қилган ёзувчи-шоирлар оламига эътибор қилинади. Айни дамда, хотиралар бугунги ижодкорларга алоқадор мулоҳазалар билан ҳам пайваста этилади. Китобнинг тўртинчи – ***“Адабий суҳбатлар”,*** дейилган фаслида устоз адабиётшунос адабиётимизнинг долзарб мавзулари борасида қатор суҳбатлар уюштиради. Ушбу китобнинг таҳлил ҳадафи ўлароқ, Андижондан Қорақалпоғистонгача, ёшдан қаригача, наср, назм, адабий танқид, дарслик, қўйингки, турли жанрларда ижод қилган олим, ёзувчи, шоирларнинг бадиий, адабий-танқидий ва эссе йўналишидаги асарлари танланган. (Бу асарлар ҳақида юритилган мулоҳазалар диапозони эса яна-да кенг). Чунончи, Тошкент адабий муҳитида кўпчилик яхши билмайдиган, аммо вилоятларда ўз қалами билан яхшигина ном қозонган ёзувчи, шоирлар ҳам домланинг назаридан четда қолмаган. Жиззахлик ёзувчи Туроб Мақсуднинг “Қайтмас тўлқинлар” романи, бухоролик носир Жўра Фозилнинг “Соҳилдаги уй” ҳикояси, пойтахтда энди-энди тилга туша бошлаган ёшлардан Муяссар Тилавованинг “Кўк ёл қўшиғи” ҳикояси, сурхондарёлик Дилрабо Норқулованинг қатор шеърлари шулар жумласидан.

Китобга кирган турли мавзу ва йўналишдаги мақоларни диққат билан мутолаа қилар эканман, бир нарса менинг хаёлимни доимо банд этиб турди. У ҳам бўлса, устоз мунаққиднинг ҳаёт ва адабиётга бўлган муносабати! Бўлганда ҳам муҳаббатга қоришган муносабати! Эътиқод даражасига юксалган муносабат!.. Шунда ўзимга ўзим дедим: олисдаги (ёдингдаги) ота-онангу ёнингдаги дўсту ёринг, бағрингдаги бола-чақангу қалбингдаги ширин орзуларинг қадар севмагунча адабиёт сени ўз яқинига йўлатмайди, ичкарига

киритмайди, ундаги сиру асрордан баҳраманд этмайди, йўқ! Умарали аканинг шу ёшида ҳам тиним билмай ўқиб-ўрганиб, туғилган жойию йилидан, касб корию мансаб-мартабасидан қатъий назар, бутун бошли Ўзбекистонимиз ижодкорларига баравар қараб, “йилт” этган истеъдод маҳсулини кафтдаги ниҳолдек авайлаб-асраб таҳлилу тадқиқ этишининг замирида, туб-тубида ана ўша муҳаббат, ана ўша муносабат ётибди!

Умарали Норматов тадқиқот услубига хос жиҳатлардан бири – устоз мунаққид ижодкорларни, уларнинг тадқиқ этилаётган асарларини ўз даври билан бирга олиб ўрганади. Мисол учун, “Олтин зангламас” мақоласида қуйидагиларни ёзади: “Шуҳрат ва умуман, ўрта авлод адиблари ижоди ҳақида фикр юритганда шу ҳолатни, улар адабиёт майдонига қадам қўйган кезлардаги чигал муҳитни, албатта, назарда тутмоқ даркор. Шуҳрат шеърияти, насрий асарлари, драматургиясидаги қатор кам-кўстлар, заифликлар, бир чеккаси ана шу ҳолат билан изоҳланади. Айни пайтда биз якдиллик билан олтмишинчи йиллари ўзбек адабиёти тараққиётида янги босқич бошланганини, мана шу босқич ривожига забардаст адибимиз Шуҳрат ҳам энг яхши шеърлари, романлари билан муносиб ҳисса қўшганлигини, адабиётимизнинг галдаги ривожига муайян ижобий таъсир кўрсатганлигини мамнуният билан эътироф этамиз”. Мунаққид мақоласини шундай сўзлар билан якунлайди: “Бош асари номини унинг ўзига, шахсиятига, ижодий меросига ҳам нисбат бериш мумкин, дарҳақиқат, олтин зангламас”. Худди шу фикрни домланинг ўзига (домла сиймосида у мансуб бўлган авлодга), у амалга оширган, ошираётган заҳматли, аммо шарафли ишга нисбатан ҳам бемалол қўллашимиз мумкин.

Профессор Умарали Норматов одатда, ўзи ўрганаётган ижодкор мансуб даврни чуқур билиб олишга ҳаракат қилади. Мабодо, мазкур ижодкор тирик ва домлага замондош бўлса, аксар ҳолда олим уларнинг ўзлари билан ҳаётда яқин мулоқотда бўлган чиқади. Бошқача ифода билан айтганда, устоз мунаққид адиб, шоир ва олимни фақат китоблари орқалигина эмас, балки ҳаёти, шахсияти, ижоддан ташқаридаги амалиёти воситасида ҳам яхши билади. Кўринадики, адабиётшунос олим У.Норматовнинг тадқиқот ишларида

биографик метод мезонлари устун мавқега эга. Қолаверса, мунаққид қандай гапирса, шундай ёзади. У тўлиб-тошиб гапиради, тўлиб-тошиб ёзади ҳам. Домлани мен баҳорда ўзанига сиғмай оқадиган тўлин дарёга ўхшатаман. Мунаққиднинг ўзига хос услуби шу тўлғинликда ҳам мужассам. Бу услуб шаклда эргаш гапли қўшма гапнинг кўп ишлатилишидан тортиб, мазмунда аналитик таҳлил руҳидан, то бадиа руҳигача бир-бирига пайвандланиб, қўшилиб-чатишиб юзага келадиган бой услубдир.

Устоз мунаққид А.Қодирий, Шуҳрат, Саид Аҳмад, Мирмуҳсин, П.Қодиров, О.Ёқубов, Х.Тўхтабоев, А.Орипов каби катта авлод асарларини қандай билағонлик билан таҳлил этса, Н.Эшонқул, А.Йўлдош каби бугунги авлод ижодини ҳам шундай муҳаббат, билим ва ҳарорат билан таҳлилу тадқиқ этади. Бу жиҳати билан домла биз тенги авлод мунаққидларидан кескин фарқ қилади. Яъни олим ўз тадқиқотлари билан авлодлар ўртасига кўприк ташлайди, ёшроқ мунаққидлар, масалан, Мирмуҳсин асарларига тўхталмаган, тўхталганда эса асосан танқидий ёндашган бўларди. Умарали Норматов Мирмуҳсин асарларидан ҳам фазилатлар қидириб топади: “Эҳтимол, ёзувчи кейинги романлари “Дегрез ўғли”, “Чотқол йўлбарси”, “Илдизлар ва япроқлар”, “Меъмор”, “Темур Малик”, “Илон ўчида”, “Умид”дагидек бадиий мукаммалликка, таъсирчанликка эриша олмагандир. Аммо уларда ҳам эътиборга лойиқ лавҳалар, эпизодлар мавжуд”. Бизнинг авлод мунаққидлари эса бироз “торлик” қилган, уч юз-тўрт юз саҳифали романни унинг ичидаги бир-икки “эътиборга лойиқ лавҳалар”и учунгина ёқлаб гапирмаган бўларди. Бу нарса бир томондан, танқидчилар авлодлари ўртасидаги фарқни кўрсатса, бошқа томондан, устоз мунаққиднинг ёзувчи Мирмуҳсин билан даврдош эканлигини англатади. Албатта, шахсиятдаги ўзига хослик (бағрикенглик) масаласи ҳам бор. Демак, домланинг фикрлари, юқорида айтилганидек, авлодлар ўртасини бир-бирига боғлайдиган ришта вазифасини ўтамоқда. Чунки илмнинг детерминизм мезонлари нуқтаи назаридан қаралганда ҳам тамомила бири иккинчисига ўхшамаган иккита авлод ўртасида-да ўзаро алоқадорлик узвлари мавжуд бўлганига гувоҳмиз.

Китобда идеал ва қаҳрамон муаммоси устоз мунаққидни такрор ўзига жалб этади. Бу бежиз эмас. Сабаби, кейинги 20-25 йил мобайнида юртимизда сиёсат, иқтисод, маданият, қадрият, хулласи калом, барча соҳаларда қандай натижаларга олиб келаётганидан қатъий назар жиддий ўзгаришларга юз тутилди. Бунинг оқибатида эса инсон ва жамият дунёқараши ўзгарди. Демак, жамиятда энг оддий кишиларга қадар, ёшдан қаригача, ҳамманинг орзу-мақсадлари ва идеаллари бошқачаланди. Табиийки, янги идеаллар янги қаҳрамонлардагина ўзини намоён эта олади. Ўзгача ифода билан айтганда, бугун адабиётдаги идеал ва қаҳрамон масаласи дунёни бадиий-эстетик қабул қилишдаги энг муҳим масаладир. Ҳатто, қўрқмай айтиш жоизки, бош масаладир. Адабиётшунос олим адабиётнинг ана шу бош ва энг муҳим масаласини теран англайди ҳамда у ҳақда яна бир катта адабиётшунос олим, профессор Ҳ.Болтабоев билан баҳс-мунозараларга бой суҳбатга толади.

ХУЛОСА:

Куни кеча шоир ва танқидчи Раҳимжон Раҳмат билан телефон орқали устоз ва адабиётшунослигимизда у босиб ўтган, ўтаётган йўл ҳақида фикрлашар эканмиз, ўзимизча шундай ўйларга бордик: Умарали Норматовдек юртимизнинг чинакам зиёлиларини ҳеч иккиланмасдан миллатимизнинг фахри, ғурури деб атасак бўлади. Сабаби домла ҳам инсонлик, ҳам олимлик шаънига доғ туширмай келаётган камсонли зиёлиларимиздан ҳисобланади. Чунки. у чинакам олим ўлароқ, адабиёт илми воситасида ўзи мансуб миллат қалбию онгига қулоқ тутиб, ҳақиқий инсон ўлароқ эса, миллат севинчию қайғусига шерик, дарддош бўлиб келаётир, энг муҳими, устоз адабиётшунос бу йўлдан ҳеч қачон ва ҳеч бир даврда ортга чекинган ва ё чалғиган эмас. Зеро, манзилни кўзлаб йўлга тушган Улуғ Йўлнинг чин Йўловчиси ундаги қийинчиликлар – шамолу бўронлар, қору ёмғирлар туфайли ортга қайтиб кетмайди, аксинча, кўзини уфқларга тиккан кўйи юришда давом этади...

Д.Қуронов

“КЕЧА ВА КУНДУЗ” РОМАНИНИНГ ИЛК ВА ҚАЙТА НАШРЛАРИДАГИ ТАФОВУТЛАРГА ДОИР

Мақолада “Кеча ва кундуз” романининг 1936 йилдаги илк нашри билан қайта нашрлари матнида кузатилувчи тафовутлар ҳақида сўз юритилади. Мавжуд тафовутлар муаллиф ижодий иродасига дахл қилиш деб баҳоланиб, бу қараш қиёсий таҳлил асосида далилланади.

Калит сўзлар: нашр, илк нашр, асос манба, асосий матн, ёндош матн, сарлавҳа, эпиграф.

Об одном различии между первым и последующими изданиями романа Чулпана “Ночь и день”

Д.Куронов

В статье речь идет о различиях, имеющих место в тексте первого и последующих изданияй романа “Ночь и день”. Существующие различия оцениваются как игнорирование творческой воли автора, что обосновывается на основе сопоставительного анализа.

Ключевые слова: издание, первое издание, базовый источник, основной текст, побочный текст, заглавие, эпиграф.

One difference between the first and subsequent editions Chulpan's novel "Night and Day"

D.Kuronov

The article deals with the differences in the text of the first and subsequent editions of the novel "Night and Day". The existing differences are assessed as ignoring the creative will of the author, which is justified on the basis of a comparative analysis.

Key words: edition, first edition, basic source, main text, side text, title, epigraph.

“Кеча ва кундуз” романининг қайта нашрларида энг кўп зарар кўрган матн унсури сифатида эпиграф кўрсатилиши керак. 1936 йил нашрида улуғ рус

адиби Максим Горькийнинг: “Маърифат (билим) чоғиштириб кўриш билан ҳосил бўлади, бизнинг ёшлар эса ўз кўрганларини ҳеч нима билан чоғиштиролмайдилар; улар кечмишни билмайдилар ва шу учун ҳозирги замоннинг нмалигини етарли даражада очиқ англаёлмайдилар”,- деган сўзлари эпиграф қилиб олинган [1]. Бу эпиграф романнинг “Шарқ юлдузи”даги илк қайта нашрда [2.64] ҳам бор, бироқ шундан кейинги нашрларда у тушириб қолдирилган. Жумладан, 1991 йилда чоп қилинган “Яна олдим созимни” тўпламида ҳам, Чўлпон “Асарлар”и 3 жилдлигининг 1994 йилда чоп этилган 2-жилдида ҳам, хуллас, кейинги нашрларнинг ҳаммасида. Нега?

Аввало, камина 3 жилдликнинг 2-жилдини нашрга тайёрлаганим учун аниқ биламанки, нашриётга топширилган қўлёзмада эпиграф бор эди, унинг тушириб қолдирилганини китоб чоп этилгачгина билганмиз. Шундай экан, эпиграфнинг тушириб қолдирилиши учун масъуллик ё нашриётнинг, ё ўша вақтларда ҳали мавжуд назорат идораси (цензура ёки адабий доираларда “лит”)нинг зиммасида. Фикримизча, йиллар давомида адабий асарларни шўро мафкураси нуқтаи назаридан сарак-пучакка ажратиб келган ва буни ўзининг бош вазифаси деб билган “лит” Горькийдан олинган эпиграфга эътироз қилмаса керак эди. Шунинг учун бу ҳолда ташаббус нашриётдан, аниқроғи, нашриёт муҳарриридан чиққани ҳақиқатга яқинроқ. Сабаби эса ушбу масалада муаллиф матнининг дахлсизлиги принципи эмас, давр руҳ-кайфиятининг устуворлик этиб қолгани. Истиқлол арафаси ва истиқлолнинг илк йиллари жамиятда аксилшўровий кайфият ниҳоятда кучли бўлгани сир эмас. Шунинг таъсирида шўро билан, унинг мафкураси билан боғлиқ неки бўлса инкор қилина бошлаган, хўлу қуруқ баробар ёна бошлаган эди. Жумладан, шўро замонида “инқилоб бўронқуши” дея эъзозланган Максим Горький ҳам. Шу кайфият хукмрон бўлган бир шароитда нашриёт муҳаррири эпиграфни ўринсиз деб билган ёки ўз вақтида Чўлпон ҳам уни мажбурият орқасида келтирган бўлса керак деб ўйлаган бўлса эҳтимол. Худди шундай ёндашув, бизнингча, эпиграфнинг “Яна олдим созимни” тўпламида тушириб қолдирилишига ҳам сабаб бўлган бўлиши мумкин. Кейинги нашрларда эса шу анъана давом эттирилди, аниқроғи, кейинги нашрлар шу икки нашрга таянди – эпиграф унутилди, худди ҳеч қачон бўлмаган каби.

Дарвоқе, “Кеча ва кундуз”ни инглиз тилига ўгирган Кристофер Форт худди шундай ўйлар экан. Инглиз тилидаги нашрнинг илк саҳифасида “Кеча ва кундуз. Биринчи китоб” дейилгандан сўнг ҳавола белгиси қўйилиб, саҳифа остида изоҳ берилади: “Романнинг 1988 йил вақтли матбуотдаги нашрида биринчи эпиграф сифатида Горькийнинг 1931 йилда ёзилган “Меҳнат учун”

мақоласидан олинган мана бу цитата эпиграф қилиб олинган”. Шундан сўнг эпиграф матни келтирилади-да, ортидан яна таржимон изоҳи берилади: “Чўлпон ҳаётлик вақтида чоп қилинган матнда, худди 1988 йилдан кейинги нашр матнларидаги каби, бу эпиграф бўлмаган” [3]. Кўриб турганимиздек, К.Форт эпиграф “Шарқ юлдузи”даги нашрда пайдо бўлиб қолган деб билади. Таржимоннинг бу фикрга келиб қолишига, бизнингча, 1936 йил нашрининг тўлиқ варианти билан танишмагани сабаб бўлиши мумкин. Худди, масалан, Андижондаги Чўлпон ёдгорлик музейида сақланаётган нусха каби: унда романнинг асосий матни бошланган 5-саҳифагача бўлган иккита титул варағи йўқ. Ҳолбуки, мазкур титул варағларининг иккинчиси роман биринчи қисмининг сарлавҳаси бўлиб, эпиграф шу саҳифадан ўрин олган эди. Бошқа томони, 1988 йилда бу эпиграф “антисовет руҳда” деб баҳоланиб келган романнинг қайта нашр этилиши учун ҳимоя воситаси бўлгани ҳам бор гап, фақат у Кристофер Форт тасаввур қилганидек йўқдан бор бўлган эмас.

Чўлпон романига Горькийдан эпиграф олгани 1936 йилда ҳам, албатта, ўзига хос ҳимоя воситаси эди. Зеро, энг юқори расмий доираларда ҳам “улуғ пролетар адиби” дея эътироф этилувчи совет адабиётининг тимсоли бўлмиш ёзувчининг сўзлари қора рўйхат бошида турган “миллатчи адиб”ни бўлажак ҳужумлардан озми-кўпми ҳимоялаши мумкин эди. Бироқ, агар фақат шунинг учунгина Горькийдан эпиграф олганида, Чўлпоннинг чўлпонлиги қолмас эди. Шу боис ҳам адиб шундай кўчирмани танлаганки, у ҳимоя қилишдан ташқари ўзининг асл муддаосини англатиб, нима демоқчи эканлигига, ғоявий-бадиий ниятига ишора қилиб ҳам туради [6.57]. Зеро, эпиграф матнига диққат қилинса, у орқали адиб “ёшлар ўз кўрганларини” (яъни ижтимоий ҳаётда юз бераётган воқеалар, мияларига сингдирилаётган қарашларни) чоғиштириб кўриб “маърифат (билим) ҳосил қилишлари” учун ўтмишни бадиий қайта яратаётганини, токи қиёс натижасида улар “ҳозирги замоннинг нималигини етарли даражада очиқ англасин” деб ният қилганини айтмоқчи бўлганини тушуниб олиш қийин эмас. Бошқача айтсак, эпиграф бу ўринда ҳам асосий ниятни пардалаш – “ниқобланиш” воситаси, ҳам хос ўқувчига ўша ниятга мос мазмунни етказиш воситасига айланади. Шу жиҳати билан эпиграф романдаги айни мақсадга хизмат қилувчи поэтик воситалар тизими унсурига айланади [4.114-127]. Демак, агарки эпиграф бажараётган функция бу тарз тушунилиши мумкин экан, унинг қайта нашрларда тушириб қолдирилаётгани номақбул ҳол, муаллиф ижодий иродасига қўпол равишда дахл қилишдан бошқа нарса эмасдир.

Юқорида Кристофер Фортдан келтирилган кўчирмадаги “биринчи эпиграф” бирикмаси бежиз эмас: “Шарқ юлдузи” нашрида аввал Горькийдан

олинган сўзлар, остидан эса “Ҳамал келди – амал келди” мақоли эпиграф сифатида келтирилган, яъни иккита эпиграф берилган. Кейинроқ, “Яна олдим созимни” тўпламида иккинчи эпиграф якка ҳолда қолдирилган. “Совет адабиёти” журнали романдан парча берганида ҳам шу мақол бир қарашда эпиграфдек кўринади. Сабаби, парча журналда “Кўклам нашъаси” номи билан эълон қилинган, шу билан бирга “Ҳамал келди – амал келди” мақоли ҳам матндан ажралиб турган ҳолатда йирикроқ ҳарфлар билан берилган [5.8]. Натижада, гарчи ёзувда эпиграф ўлароқ шакллантирилмаган эса-да, у ҳам бир қарашда эпиграфга ўхшаб кетади. Ҳолбуки, романнинг 1936 йил нашрида бу мақол ҳеч қандай эпиграф эмас, балки асосий матндаги илк жумла сифатида келади [1]. Кўряпмизки, “Ҳамал келди – амал келди” мақолини эпиграф сифатида бериш “Шарқ юлдузи” журналидаги нашрдан бошланган анъана бўлиб, муаллифга алоқаси йўқ экан. Демак, то ҳануз давом этаётган ушбу анъанага ҳам чек қўйиб, муаллиф матнини (қўлёзма бўлмагач, адиб кўрган илк нашр матнини шундай деб қабул қилиш мумкин) аслига мос кўринишга келтириш зарур экан.

Чўлпон ифодавийликни кучайтириш мақсадида ўз даври берган техник имкониятлардан тўлақонли фойдаланишга интилганини алоҳида таъкидлаш керак. Роман эпизодларидан бирида нойиб тўра Мирёқуб Мавлоно Адоники экан дея тортиқ этган қўлёзмани ўқиб, унинг бошқа одамга тегишли экани, маҳаллий муллалар бу нарсаларни яхши билмасликларини айтади. Албатта, адиб бир томони ҳақ бўлган нойиб тўранинг бу писандасини аламини ичига ютиб “эшитади”, бироқ ҳар не аччиқ бўлса-да тан олишга мажбурлигини ҳам теран ҳис қилади. Хуллас, роман концепциясини ифодалаш учун ғоят муҳим эпизод. Бироқ ҳозир гап у ҳақда эмас, балки ўша ҳолатнинг қандай тақдим этилганида. 1936 йил нашрида Адоники дейилаётган қўлёзма аслича, яъни араб ёзувида битилган ва тагига муҳр босилган қўлёзма сурати кўринишида берилган. Шеърнинг ўзи форсийда бўлгани учун пастда кичик шрифт билан ўзбекча сўзма-сўз таржимаси берилган. Қайта нашрларда эса қўлёзма сурати йўқлиги учун нойиб тўра “Хўп, қани... ўқиб кўрайлик” деганидан кейинроқ изоҳ сифатида берилган насрий баён келади: «Гулрангли кўз ёшлари ва сарғайган юзлар ажиб гўзал бўладилар, худди зар юргизилган ёқут каби гўзал бўладилар. Сен агар бодом сингари бошдан-оёқ кўздан иборат бўлсанг, ҳеч нарса кўролмайсан, аммо севги сурмаси ила очилган кўз равшан бўлади”. Ҳолбуки, 1936 йил нашрида нойиб тўранинг “Хўп, қани... ўқиб кўрайлик” деган гапидан сўнг қўлёзманинг сурати берилган. Яъни ўқувчи аввал шу суратдан форсча шеърни ўқиши (у вақтда араб ёзувини ўқийдиганлар жуда кўп бўлган), сўнг эса изоҳдаги насрий баён билан танишиши мумкин бўлган. Эътибор қилинса,

сўзма-сўз таржима асосий матнга тааллуқли эмас, яъни у нойиб тўра тилидан берилмаётганини билиш қийин эмас. Зеро, агар аксинча бўлганида, нойиб тўра қўлёзмани қўлига олибоқ синхрон таржима қилаётган бўлиб чиқар ва бу ҳолда сал ўтиб Мирёқубнинг “Байтнинг маъноси нима, тўра?” деб сўрагани мутлақо ортиқча бўлиб қолур эди. Маълум бўляптики, Чўлпон қўлёзманинг суратини асосий матн унсури, сўзма-сўз таржимани эса изоҳ сифатида берган. Шундай экан, бундан муайян бадиий мақсад кўзланган бўлиши табиий. Қўлёзма суратининг асосий матн унсурига айланиши бадиий мотивировкага, яъни тасвирланаётган воқеанинг ўқувчи наздидаги ҳақиқатга монандлик, “реалистиклик” даражасини орттиришга хизмат қилади.

Худди “Адонинг қўлёзмаси” каби, 1936 йил нашрида Султонхоннинг Ҳакимжонга ёзган номаси ҳам расм шаклида берилган. Султонхон қўлига ариза деб тутқазган хатни очиб ўқиркан, Ҳакимжон “Худоё тўвба! Бу нима гап?” дея шошиб қолади. Мирзани беҳад шошириб, ҳаяжонга қўйган ўша ҳолат қайта нашрларда мана бу тарзда тавсифланади:

“Чироққа яқин олиб борди. Бир чой қоғознинг орқасига оддий қарандаш қалам билан:

Фатонатлик эй яхшилар сарвари,
Башармусен ё малоик, ё пари,
Жафо қилсанг, кўп ошиқнинг дафтари,
Не гуноҳим, менга танҳо айладинг, —

деб тўрт хат байт ёзилган. Тагига жуда саводсиз ва хунук хат билан қўйидаги сўзлар ортдирилган эди:

Дардингизда эзилиб адо бўлдим,
Кўришмак иложи бормикин?”

1936 йил нашрининг айни шу жойида Чўлпон матбаа имкониятларидан ифодавийликни кучайтириш учун ниҳоятда усталик билан фойдаланади, сўз билан айтган гапларини визуал жиҳатдан ҳам далиллаб қўйишга интилган. Чунки унда “Бир чой қоғознинг орқасига оддий қарандаш қалам билан” дейилгандан сўнг араб ёзувидаги қўлёзма сурати қўйилган бўлиб, унда шеър яхшигина ҳуснихат билан битилган. Шу сурат остида, шеърий парча кичик шрифтдаги лотин ёзувида такрорланган. Яъни, гарчи саҳифа остида бўлмаса-да, буни изоҳ, демакки, асосий матндан ташқарида деб ҳисоблаш тўғрироқ бўлади. Давомида, “Тагига жуда саводсиз ва хунук хат билан қўйидаги сўзлар ортдирилган эди” дейилгач, ҳақиқатан ҳам хунук ва саводсизларча хат билан араб ёзувида битилган қўшмисра сурати берилиб, унинг остида ҳам юқоридагича тарзда лотин ёзувида такрорланган. Яъни бу ўринда ҳам лотин ёзувидаги матн – изоҳ, у ёндош матнга тааллуқли. Қайта нашрларда шеърий

мисраларнинг фақат ҳозирги ёзувда берилгани, биринчидан, ёндош матн унсурининг асосий матн унсурига айланиб қолишига, иккинчидан, илк нашрда мавжуд визуал ифоданинг изсиз йўқолишига олиб келган. Ҳолбуки, матбаа имкониятлари ўтган давр мобайнида чандон ўсса-ўсганки, зинҳор пасайган эмас. Демак, бунда ҳам илк нашр билан қайта нашрлар орасидаги тафовут учун масъулият нашрга тайёрловчилар зиммасига тушади.

Хулоса шуки, адабий асар матни тушунчаси асосий матн билан бирга ёндош матн унсурларини ҳам тўла қамраб олади. “Кеча ва кундуз” мисолида ёндош матн унсурлари, хусусан, сарлавҳа блоки, эпиграф, матбаа воситалари ҳам асарнинг қабул қилиниши ва тушунилишида ғоят муҳим аҳамият касб этишига яна бир карра кўриш мумкин. Чўлпон романининг илк ва қайта нашрлари мисолида юритган фикрларимиз бадиий асар матнидаги ҳар қандай унсур, хоҳ у асосий матнга ва хоҳ ёндош матнга тааллуқли бўлсин, бирдек аҳамиятли эканини яна бир карра тасдиқлайди. Шундай экан, нафақат “Кеча ва кундуз” романи, балки умуман жадид адабиёти намуналарининг қайта нашрларида ёндош матн унсурларини аслига (илк нашрга) адекват шаклда бериш зарурдир. Бу эса адабий меросни қайта нашрга тайёрловчи мутахассислардан ҳам, ношир ва матбаачилардан ҳам бадиий матн ҳақидаги қарашларига таҳрирлар киритиш, ёндош матн унсурларига ҳам муаллиф ижодий иродасининг намоёни сифатида қарашни тақозо этади.

Адабиётлар:

1. Чўлпон. Кеча ва кундуз.- Тошкент: Ўздавнашр, 1936
2. Шарқ юлдузи.- 1988.- №2.- Б.64
3. Cho‘lpon. Night and Day. Night.- Boston, 2019
4. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси.- Т.: Шарқ, 2004.- Б.114-127
5. Чўлпон. Кўклам нашъаси. // Совет адабиёти.- 1935.- №3.- Б.11-15
6. Қуронов Д. Чўлпон: ҳаёти ва ижодий мероси.- Т.: Ўқитувчи, 1997.- Б.57

Ахмедова Шоира Нематовна,
БухДУ профессори, ф.ф.доктори

МУНАҚҚИДНИНГ АДАБИЙ СУҲБАТЛАРИ

Аннотация. Мақолада мунаққид У.Норматовнинг адабий суҳбатлари таҳлил қилиниб, жанр ривожига қўшган ҳиссаси очиб берилган. Асосан, “Талант тарбияси” китобига кирган суҳбатлар таҳлилга тортилган.

Калит сўзлар: мунаққид, адабий суҳбат, адабий танқид, талант, ижод, жараён, суҳбатдош, адабиёт ривожи.

Ўзбек танқидчилигида ёзувчи, шоир билан танқидчининг адабий-танқидий суҳбати, асосан, XX асрнинг 70 йилларида ривожланди. Бу йилларда тараққий этган суҳбатлар бадиий ижоддаги муаммоларни қамраб олишга ҳаракат қилингани, адабиётнинг юксалиши учун курашишга қаратилгани нуқтаи назаридан катта аҳамиятга эга. Адабий-танқидий суҳбат жанрини ривожлантиришга йирик мунаққид У.Норматов катта ҳисса қўшди.

Адабиётшуносликда ўз сўзига эга, етук танқидчи Умарали Норматовнинг “Талант тарбияси” китоби [1] шакл жиҳатидан ҳам ўзига хос кўринишга эга. У ҳозирча ўзбек танқидчилигида нашр этилган бадиий маҳоратга доир китобларнинг биронтасига ҳам ўхшамайди: унда танқидчи ижод, маҳорат сирлари ҳақида бевосита ижодкорларнинг ўзлари - турли авлодга мансуб ёзувчилар билан адабий суҳбат олиб боради. Шу йўл билан адибларнинг “дахлсиз” дунёсига - ижод лабораториясига кириб боради. Уларнинг тажрибаларини умумлаштиради, улардан ёш ижодкорлар учун ибратли сабоқ-хулосалар чиқаради; айни пайтда китобда ёш, истеъдодлар тарбияси, ижоди, умуман, ҳозирги адабий жараён билан боғлиқ муҳим масалалар ёритилади.

Масалан, Ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидов билан олиб борилган суҳбатнинг асосий мавзуси китобнинг сарлавҳасида ҳам акс этиб турган “талант тарбияси” ҳақида. Шу боис танқидчи суҳбатни ҳам “Талант тарбияси”

деб номлаган. Танқидчини, аввало, талант, истеъдод, уларни тарбиялаш, ҳозирги кунда талантли ижодкорларга муносабат каби масалалар қизиқтиради. Шунинг учун “бадиий талант туғма бўлади, агар одамда бадиий ижодкорлик хислатлари бўлмаса, уни тарбиялаш, ўқитиш йўли билан ҳосил этиш асло мумкин эмас. Бироқ шу туғма талантнинг, кишидаги истеъдод қирраларининг очилишида теварак-атрофдагиларнинг, муҳит, шароитнинг роли жуда катта” эканлигини таъкидлар экан, танқидчини баъзида чинакам истеъдодларнинг очилмай қолиб кетиши, баъзида шунчаки ҳавас йўлига кириб кетиши, “ўртача” ижодкорларнинг кўпайиб бораётгани, булар эса адабиётнинг сифатига салбий таъсир кўрсатаётгани ташвишлантиради.

Танқидчи талант тарбияси муаммосидан бироз чекиниб, суҳбатдошининг диққатини талант табиати, бадиий талантнинг энг сеҳрли нуқтаси саналган илҳом онларига қаратади. Танқидчи шу ўринда адабий танқидчиликнинг бир камчилигини очиб беради: адабиётшунос-танқидчилар истеъдодсиз киши сўз санъатининг қонуниятларини қанчалик чуқур билгани билан ҳеч нарсага эриша олмаслигини эътироф этадилар, аммо “профессионал билимдонлик туфайли талантли ёзувчи нималарга эришганлигини етарли равишда” кўрсатиб беролмаяптилар. У.Норматов бу фикрларида ҳақ. Мазкур адабий суҳбатдан шундай хулоса чиқариш мумкин:

А) у адабиётнинг, адабий танқиднинг ўсишига, тараққиётига ижобий таъсир кўрсатади;

Б) ижодкорнинг ижод лабораториясига кириб, унинг бадиий ижод сирларидан воқиф бўлиш, уни китобхонга кўрсатиш имконияти суҳбатда кўп бўлиши аёнлашади;

В) танқидчи шеъриятни яхши тушунадиган, атрофлича таҳлил қила оладиган шеършунос сифатида ҳам намоён бўлади.

Ўзбекистон халқ ёзувчиси Асқад Мухтор билан олиб борилган “Ижодкорнинг “дахлсиз” дунёси”, деб номланган суҳбатда сарлавҳа код вазифасини ўтаб, бутун суҳбатнинг моҳиятини ўзида акс эттира олганки, бу танқидчининг услубий маҳоратидан далолатдир. Танқидчи суҳбатни ёзувчи

билан китобхон муносабати масаласидан бошлайди. Китобхонларнинг ҳар бир асарнинг ёзилиш жараёни, ижод психологияси билан қизиқишлари, ёзувчи номига хатлар ёзиши, юзма-юз учрашув, конференциялар уларнинг савияси ўсиб бораётганини кўрсатади.

Мазкур адабий суҳбатда танқидчи билан ёзувчи адабиётдаги баъзи назарий муаммолар: ижод психологияси, наср билан назм муносабати, ҳаётий далил ва тўқима, традиция ва новаторлик, ёзувчи билан китобхон муносабати каби масалалар ҳақида фикр алмашдилар. Бу суҳбат, биринчи навбатда, ижодкорлар учун, иккинчи ўринда, китобхонлар учун маълум аҳамиятга эга. Шунинг учун бундай суҳбатларни уюштириш адабий жараён учун, адабиёт ривожи учун зарур.

Танқидчи ижодида шундай суҳбатлар борки, уларда икки суҳбатдош кўпроқ адабиётдаги назарий муаммолар хусусида ўзаро фикр алмашадилар. У.Норматовнинг ‘‘Ҳаётий тажрибадан бадиий ҳақиқатга’’ деб аталган ана шундай руҳга эга суҳбати ёзувчи Мирмуҳсин билан олиб борилган. Бу суҳбатнинг ўзига хослиги, олдинги суҳбатлардан фарқли бир жиҳати шуки, унда танқидий руҳ кучлироқ, яъни мунаққид ёзувчи яратган баъзи образлардаги камчиликларни ‘‘гап келганда отангни аяма’’ нақлига амал қилган ҳолда танқид қилади. Масалан, у ‘‘Дегрез ўғли’’ даги Арслон ‘‘қалбидаги нур кўринмай’’ қолганлигини асос қилиб олади. Суҳбатда тарихий шахслар ҳаётининг бадиий талқинида ‘‘тўқима’’нинг роли, ўрни масаласи, қаҳрамоннинг туғилиши ва шаклланишида ўзгаларнинг, биринчи галда устозлар яратган қаҳрамонларнинг таъсири, турли ижодкорлар асарларидаги муштарак томонлар ва ҳар бир ёзувчининг ижодий индивидуаллиги каби масалалар хусусида фикр алмашадилар.

Кузатишларимиздан аниқ бўлдики, мазкур адабий суҳбат, аввало, ёзувчининг индивидуал қиёфасини, ижод психологиясини очиб беради. Адиб ижодининг номаълум қирраларини ёритиш билан бирга уни ташкил этувчи суҳбатдош-мунаққиднинг ҳам қиёфасини кўрсатади.

Саид Аҳмаднинг “Уфқ” трилогияси, асарнинг ёзилиш жараёни, ижоднинг ўзига хослигига бағишланган суҳбат ҳам қизиқарли, ўқувчини ўзига жалб қила олади. “Уфқ” трилогияси яратилиб, ўқувчилар ҳукмига ҳавола этилгандан сўнг қайта-қайта чоп этилди, таҳлил қилинди, унга бағишланган тадқиқотлар яратилди. Суҳбатнинг асосий мақсади - адибнинг 15 йиллик меҳнатини, асар атрофида кечган баҳсу мунозараларни сарҳисоб этиб, у ҳақдаги сўнгги сўзни адибнинг ўзидан эшитиш бўлиб, суҳбатдош ўз мақсадига эришгани маълум бўлади.

Ёзувчи Одил Ёқубов билан олиб борилган “Роман табиати: талаб ва имкониятлари”, деб аталган суҳбатда танқидчи романнинг энг муҳим белгиси - асарда романга хос тафаккурнинг мавжуд бўлиши нуқтаи назаридан масалага ёндашади. Ёзувчи ҳам бу муаммога жаҳон ва рус адабиёти тажрибаларидан келиб чиқиб, ўзбек романларидаги камчиликларни очиб беради. Суҳбатдошлар қаҳрамон концепцияси масаласини О.Ёқубов романларидан келиб чиқиб ёритадилар. Танқидчининг “ёзувчи инсон қалбига чуқурроқ кириб борса, ижодий оригиналлик учун йўл очилаверса керак”, деган мулоҳазаларига ёзувчи ҳам қўшилади: “Албатта, адабиётнинг бош вазифаси инсон қалбини тасвирлаш Чернишевский айтмоқчи, инсон руҳининг диалектикасини ифодалаб беришдир”. Шу тариқа муқарробонлар (Шамси Қайси Розий ҳамсуҳбатларни шундай деб атайди) [2,359] роман табиати, роман жанрининг тақдири кўп жиҳатдан адабий тажрибанинг ўзи тақозо этаётган жумбоқларни ҳам назарий, ҳам амалий томондан тўғри ҳал этиш зарур деган хулосага келиб, суҳбатни якунлайдилар.

“Характердаги эстетика” деб номланган суҳбат сарлавҳасиданоқ адабий танқид ҳақида эканлиги аёнлашади. У ёзувчи П.Қодиров билан олиб борилган. Суҳбатдошлар ўша даврда “Адабий-бадиий танқидчилик ҳақида” қабул қилинган қарорнинг беш йиллиги муносабати билан адабий танқид борасидаги ўзгаришлар ҳақида мулоҳазаларини ўртоқлашадилар. Шу муносабат билан танқидчилик предмети, назария ва методологияси, принцип ва вазифалари, танқидчи истеъдоди, унинг адабиёт, китобхон олдидаги бурчи

ҳақида кенг фикр алмашади, баҳсларга муносабат билдирадилар. Шунинг бир бўлаги - танқидчи истеъдоди масаласига суҳбатдош - танқидчи қизиқади. Ёзувчининг тасаввурича, адабий танқид ҳам фан билан бадиий ижоднинг чегарасида, улар бир-бирига пайванд бўлиб чатишган ва икки соҳанинг фазилатлари бирлашиб синтезга айланган жойда юзага келади.

Суҳбатдаги: “Адабиётимизни жонли бир организм деб тасаввур этсак, танқидчилик - шу вужуднинг қонини тозалаб турадиган жигар вазифасини ўтайди” (149-бет), деган мулоҳазалар адабий танқиднинг ўзига хос хусусиятини, моҳиятини кўрсата оладиган ҳаққоний баҳо. Бу суҳбат ўқувчига танқидчиликнинг моҳияти ҳақидаги қарашларини кенгайтиришга ёрдам беради.

Машҳур болалар ёзувчиси Х.Тўхтабоев билан ўтказилган “Саргузашт ташвишлари”, деб аталган суҳбат мавзуси сарлавҳасиданоқ маълум бўлиб турган саргузашт, детектив асарларга муносабат, ёзувчининг ижод лабораториясига кириш, асарларининг ички моҳияти, ёзилиш жараёни ҳақида, бугунги болалар адабиётидаги нуқсонлар ҳақида боради.

“Талант тарбияси” китобидаги суҳбатлар XX аср 70 йилларнинг маҳсули, шунинг учун ўша даврнинг излари бўлиши табиий.

У.Норматовнинг бу жанрда фаоллигини “Қалб инқилоби”, деб аталган 1986 йилда нашр этилган китоби ҳам намоён этади. Унда “Адабий суҳбатлар” рукни остида иккита суҳбат (Омон Матжон ва Ў.Ҳошимов билан олиб борилган) ҳам фикримизнинг яққол далилидир [3].

Хулоса қилиб шуни айтиш лозимки, адабий суҳбатлар адабиётнинг ривожланишига, юксаклиги учун курашишга ёрдам беради. Адабий-танқидий суҳбатлар суҳбатдошларнинг қалби ва ижодий қиёфасини ҳам чуқурроқ англаб олишда китобхоннинг ёрдамчиси вазифасини ўтай олади. Бу тарздаги адабий суҳбатлар адабиёт мухлислари, бошловчи ижодкорлар учун илмий-маърифий аҳамиятга эгалиги билан ҳам ажралиб туради.

Ўзбек адабий танқидида фаол бу жанрнинг ривожида бугун муборак 90 ёшини қаршилаётган кекса олим, фидойи мунаққид У.Норматовнинг ўзига хос ўрни борлигини юқоридаги кузатишларимиз яққол кўрсатади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Норматов У. Талант тарбияси. Тошкент. “Ёш гвардия”. 1980. Кейинги ўринларда шу китобнинг бети кўрсатилади.

2. Шамси Қайси Розий. Ал-муъчам. Душанбе. “Адиб”, 1991. саҳифа 359.

3.Норматов У. Қалб инқилоби. Тошкент. “Ғ.Ғулом” номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1986.

Умида Расулова

Филология фанлари доктори

ОЛИМНИНГ СИРЛИ ОЛАМИ

Илму маърифатнинг маҳзанини англаш душвор, бунда заковат, қаноат, қунт, сабот муштараклиги муҳим саналади. Инсон кўнглидаги поклик, шаффофлик ўз соҳасига содиқлик, масъулликда намоён бўлади. Йиллар давомида китоб аҳлини Қодирий боғига сайрга чорлаган, ёш қаламкашларни Ижод сеҳридан воқиф айлаган, қизиқувчан талабага Қаҳҳорни англаш машаққатидан таҳсил берган, билағон болага Саргузашт сардорини ҳамроҳ қилган, Умидбахш тамойилларни кашф этган олим Умарали Норматов адабий жараённинг фаол кузатувчиси ҳисобланади.

Атоқли профессор Саид Аҳмад, Пиримқул Қодиров, Ўткир Ҳошимов, Тоғай Мурод, Улуғбек Ҳамдам, Исажон Султон каби ижодкорлар яратган асарлар бадийяти, қаҳрамонлар дунёқараши борасида оҳорли мулоҳазалар билдиради. У синчков мунаққид сифатида адабиётимиздаги эстетик

тамойилларни, назарий муаммоларни биринчилардан бўлиб тадқиқ этаркан, бунда ижодкор лабораториясини, поэтик дунёсини ҳам инобатга олади. Ёш истеъдодларни сўз салмоғи, шукуҳини ҳис этишга, миллий, маънавий бойликни асрашга даъват этади. Адабиёт илмини қисмати деб билган олим глобаллашув жараёнида ҳам маданий меросимизни авайлаш, миллий анъаналарни тарғиб этиш борасида залворли қарашларини илгари суради. Умарали Норматов ўзбек адабиётининг бугунги манзарасини ҳам ватан, оила, ахлоқ масалалари билан уйғунликда кўришни истайди.

Ўзбекистон Миллий университетида ярим асрдан зиёд фаолият кўрсатган бу инсоннинг маъруза, суҳбатидан баҳраманд бўлган илму толиб, ҳамкасблар, ижодкору шогирдлар унинг фитратидаги самимийлик, жўшқинлик, эркинликни ҳис қилган. Умарали Норматов танқиднинг тақриз, адабий портрет, муаммоли мақола, адабий суҳбат жанрлари ривожига ҳам муносиб ҳиссасини қўшмоқда. “Ижодкорнинг дахлсиз дунёси”, “Талант тарбияси”, “Қалб инқилоби” каби асарларда адиб биографияси, давр адабий муҳити, бадиият масалалари қамраб олинади. Олим холислик ва ҳалоллик мезони ила бадиий яратиқларни баҳолашга, истеъдод меҳнатини қадрлашга риоя этади.

Ўзбек танқидчилигида қодирийшунослик, қаҳҳоршунослик илмий мактаблари ривожида олимнинг муносиб ҳиссаси бор. Вақтли матбуот саҳифаларида адабий метод, йўналишлар борасидаги баҳсларда ҳам Умарали Норматовнинг асосли, теран мулоҳазалари дарҳол эътиборни тортади. Ҳозирги адабий жараёндаги ўзгаришлар, жаҳон адабиётидаги янгиликлардан бохабар мунаққид сафдошлари, шогирдлари билан бу борада адабий суҳбатлар уюштиради, кенг жамоатчилик, китоб мухлисларининг фикрини ҳам инобатга олади. Озод Шарафиддиновнинг илк шогирди Умарали Норматов доим устозини эъзозлаган, унинг сийратидаги ҳақиқат, садоқатни қадрлаган. Ёдимда, 2002 йилда Шарқшунослик университетида амалий лойиҳани тасдиқлатиш мақсадида Умарали Норматов, Абдуғафур Расулов билан раҳбарлар ҳузурида йиғилганмиз. Бу лойиҳа доирасида Озод

Шарафиддиновнинг “Ижодни англаш бахти” асари нашр этилиши режалаштирилган.

Ҳайъат аъзолари иқтисодий томондан барча нарсани назорат қилиб, кўплаб лойиҳани тасдиқламаган. Айрим кишилар мунозара жараёнида фикрини асослай олмай, муддаога эришолмаган. Навбат бизга келиб, сўзга Умарали Норматов чиқади. Уларнинг эҳтиросли нутқлари, дадил қарашлари барчанинг диққатини тортган, регламентга ҳам риоя этилмаган. Сўзлари якунида навбатнинг Абдуғафур Расуловга берилишини сўраб, унинг ҳам лойиҳа салмоғи борасидаги мулоҳазасини тинглашга чорлаганида ҳайъат раиси туриб, ҳеч қандай эътироз йўқлигини, лойиҳа тасдиқланишини маълум қилган. Амалий лойиҳа натижасида яратилган монография ҳозирги кунда ҳам мутахассислар томонидан севиб мутолаа қилинади. Кўринадики, ўз соҳасини пухта билган, аниқ мақсад билан фойдали илмий тадқиқотлар яратган олимлар турли даврада ўз ғояларини етказа олганлар.

Озод Шарафиддинов маслаҳати билан бошланган давраларда Умарали Норматов, Худойберди Тўхтабоев, Эркин Воҳидов, Абдуғафур Расулов, Иброҳим Ғафуров, Ўткир Ҳошимов, Неъматилла Иброҳимов, Хуршид Дўстмуҳаммад, Ҳамидулла Болтабоев, Шуҳрат Ризаев каби олиму ижодкорлар ҳамкорлиги мустаҳкамланиб борган. Бу адабий гурунг янги асар тақдимоти, мунаққид ва санъаткорнинг кўнгил мулоқотига айланиб, адабиёт, маданият, тарих, эстетика, фалсафа соҳасидаги қизғин мунозараларнинг майдони бўлган. Даврадаги кишиларнинг интеллекти, диди, хаёлларини адабиёт ва санъат олами бирлаштириб турган. Адабиётшунос нигоҳидан ўтган, моҳир тингловчи эътиборига ҳавола этилган бадиий асар холис фикр, баҳо боис пишиб, етилиб, тўйинтирилиб маромига келган. Айтиш жоизки, бу нафосат гурунгида адабий жараёндаги янгиликлар, ёш истеъдодлар, жаҳон адабиётидаги ўзгаришлар борасида самимий фикр алмашилган. Мазкур жараён йиллар силсиласида етук асарлар тақдим этилишига имкон яратган.

Умарали Норматов Фанлар академияси, Ёзувчилар уюшмасидаги илмий, бадиий кенгашларда ҳам фаол қатнашиб, бугунги кун долзарб

муаммоларини ҳал этишга ҳиссасини қўшиб келади. У, аввало, ҳар бир янги асар бадииятини баҳолаш, саёз асар кўпайишига йўл қўймаслик, китобхон ёши, дунёқарашига монанд яратилган матн пухталигини кузатиш борасида зарур маслаҳатини аямайди. Олим жаҳон адабиётидаги модернизм, структурализм, постмодернизм оқимига хос хусусиятларнинг бугунги ўзбек шеърияти, насрида намоён бўлиш ҳолати борасида ҳам залворли мулоҳазаларини билдиради. Умарали Норматов янгиликнинг маданий, ижтимоий қатламга таъсирини англатишда маънавий аҳкомларни қадрлаш, инсон сийратидаги одамийликни эъзозлаш ақидасини қувватлайди. Ўзбек адабиётининг дунё маданиятидаги мақомини асраш мақсадида ижодкор томонидан яратилган тимсол, характерларда унинг ўзлиги, ориятини кўрсатиш муҳимлигини эслатади.

Заҳматкаш, фидойи Умарали Норматов бугун 90 ёшга тўлди. Унинг умр йўлдоши маъсума Венера ая домланинг бу мартабага эришишида доим суянчиқ бўлдилар. Адабиётнинг садоқатли, бағрикенг муҳибларига Яратгандан соғлиқ, хотиржамлик тилаб қоламиз.

Обиджон КАРИМОВ,
НамДУ доценти, ф.ф.н.

ИЖОДКОР ОЛИМНИНГ АДАБИЁТГА БАХШИДА ҲАЁТИ

Йиллар – инсон умрининг пиллапоялари каби уни юқори мартабаларга кўтаради. Йиллар – йўллар каби мақсад манзилларига етказади. Йиллар – кеча-кундуз интилишдан ва изланишдан тинмайдиганларни бахту иқбол билан сийлайди. Устозимиз Умарали Норматов бугун қутлуғ ёшларини нишонлар эканлар, кечган умрларидан мамнунлик ва масрурлик туйишга мушаррафлар. Боиси, адабиётга ошуфта халқимизга қатор-қатор илмий рисолалар ёзиб туҳфа этдилар, кўплаб ўзларига ўхшаган зукко адабиётшунос шогирдлар тайёрлаб, улар камолотига қанот бердилар, ҳозир ҳам ижоддан тинмаяптилар, ёшларга ибрат

бўлгудек даражада фаоллик кўрсатиб келмоқдилар. Бу унча-мунча инсонларга насиб этавермайдиган толе, омад ва бахту саодатдир, албатта.

Ҳадиси шарифларда "*Устоз отангдек улуғ*" деб ёзилган. Зеро, бу фикрларда заррача муболаға йўқ. Мен илм йўлида кўп заҳмат чекиб, минглаб адабиёт ихлосмандларига устозлик қилган ҳаётини илм-фан ривожига бахшида этган серқирра олим, севикли ёр, дилбандларига вафодор ота бўлмиш Ўзбекистон фан арбоби, филология фанлари доктори, профессор Умарали Норматовни ҳурмат ва эҳтиром билан тилга оламан ва бунга ҳақлиман. Домла чин маънода адабиётшунос олим, талабчан муаллим. Мен ҳам илм йўлида қанча муваффақиятларга эришган бўлсам, устознинг насиҳатларидан, ёзган китобларидан деб биламан. Устоз яратган китоблар мени адабиёт оламига етаклаган.

Мен домла қўлида таҳсил олмаган бўлсам-да, уларнинг китобларидан таниганман, уларни ўқиб шу даражага етдим. Устоз билан яқинроқ танишиш 1981 йилда насиб этган, ўшанда мен малака ошириш курсига келган эдим. Домланинг *энг сермаҳсул, энг билимдон, камтарин ва самимий*, шу билан бирга, *эътиқодига содиқ инсон* эканига ёркин гувоҳ бўлганман.

1986 йилда мен Ўзбекистон фанлар академияси қошидаги Тил-адабиёт институти аспиранти эдим, бир дўстимнинг ҳимояси сабаб домла ишлайдиган Тошкент давлат университети (ҳозирги ЎзМУ)га боргандим. Устоз Илмий Кенгаш раиси экан. Ҳимоя ниҳоятда тартибли, савол-жавоблар, баҳсу-мунозаралар остида ўтди. Катта-катта олимлар, уларнинг салобати дўстимни шошириб қўйди. Устоз ўтирганларга ва ҳимоя қилаётган дўстимга қарата ҳеч қандай ҳаяжонланишга ўрин йўқлигини, фикрларни исботи билан дадил айтишни қайта-қайта таъкидлади. Бу муносабат дўстимни ўзига бўлган ишончини ошириб, дадил-дадил гапирди ва муваффақиятли ҳимоя қилиб олди. Кейин бир пиёла чой устида устоз мени кўриб қолдилар ва дарҳол танидилар. Ҳайрон қолдим: ана кенг тафаккур эгаси бўлган бағри кенг олим, шогирдларнинг меҳрибон, керак бўлган пайтда, ёрдамини аямайдиган ғамхўр мураббий! Ич-ичимдан суюниб, тасаннолар айтдим, ўрни келганда менинг ишларимга, раҳбарим ва диссертация мавзусига қизиқдилар ва

самимий маслаҳатлар бердилар. Ўша вақтда илмий раҳбарим академик, филология фанлари доктори, профессор Салоҳиддин Мамажонов эди. Устоз менинг раҳбарим билан жуда яқин эканлар. Менга ўзларини яқин олиб кўп маслаҳатлар бердилар. Ҳатто “Гулистон” журналида чиққан Ҳалима Худойбердиева ҳақидаги мақоламни ҳам ўзлари билиб мени анча руҳлантирганлари кечагидек эсимда. Бу орада мен оиламда оғир йўқотишларни бошимдан кечирдим, Наманганга қайтиб, ҳам оиламга қарадим, ҳам ишимни давом эттирдим. Бунинг устига устозим Салоҳиддин Мамажонов вафот этдилар. Шу тариқа ишимни маълум муддат давом эттира олмадим. Умарали ака олдига ҳам бора олмадим. Мен аспирант бўлган институт раҳбари академик Бахтиёр Назаров бир куни чақириб, илмий ишларимнинг қандай кетаётганига қизиқдилар. Кейин акаларча оҳангда “*академик Салоҳиддин Мамажонов иккимизнинг ҳам устозимиз эдилар. Сени аспирантурада ўқиган пайтларингдан яхши биламан. Кел, энди ўзим раҳбарликни зиммамга олай, илмий ишингни охирига етказ*”, – дедилар. Кейин академик, филология фанлари доктори, профессор Бахтиёр Назаров раҳбарлигида илмий тадқиқот ишимни давом эттирдим. Илмий ишимга алоқадор кўплаб мақолаларим ва монография бевосита устоз маслаҳатлари ва кўрсатмалари асосида дунёга келди. Ҳимоя вақти яқинлашиб, автореферати чиққач, устоз Умарали ака Норматов олдиларига бордим. Бағри кенг инсон мендан бир оз хафа ҳам бўлдилар, лекин қўлимдаги автореферати кўриб ёш боладай суюниб кетдилар ва менга анча далда бердилар. Тақриз ҳам ёзиб, ўзлари Кенгашга топшириб кетибдилар. Аллоҳим менга бағри кенг, сахийқалб устозларни рўпара қилганига чин дилдан шукроналар айтдим...

Устоз қаерда бўлмасин, илм ва адолатни бош мезон деб билди ва ўзига шиор қилиб олди: талабаларни ўқитадими, тадқиқот ёки рисолалар ёзадими, барида юқорида ўлчовга қатъий амал қилди. Шу бўлса керак, шогирдлари устозни ҳақиқатгўй олим сифатида қадрлайдилар. Устознинг 60 дан ортиқ китоб, дарслик ва ўқув қўлланмалари, 600 дан ортиқ илмий-назарий мақолалари ҳамон адабиёт ихлосмандлари томонидан эзгуликка, маърифатга хизмат қилиб келмоқда. Мактаб ўқувчилари учун адабиёт дарсликлари, филологлар учун ҳамкорликда ёзган дарсликлари шулар жумласидандир. Бугун бирор адабиётшунос йўққи,

домланинг китобини ўқимаган, унинг фикрларидан иқтибослар олмаган бўлса. Буларнинг барчаси устознинг узоқ йиллар қилган ҳалол меҳнатлари самарасидир.

Устознинг бахти шундаки, “Ўзбекистон Қаҳрамони” Озод Шарафиддиновдек кучли билим ва тафаккур эгасига шогирд бўлган. Устози сабаб Ойбек, Ғафур Ғулом, Абдулла Қаҳҳор, Шайхзода каби ХХ аср ўзбек адабиётининг йирик вакиллари билан суҳбатлашган, уларни кўрган. Шу боис, улар ҳақида ёзган тадқиқотлари, баҳсталаб мулоҳаза-ю мунозаралари ҳаққонийлиги билан мутахассислар диққатида бўлиб келмоқда. Устоз Абдулла Қаҳҳор ҳақидаги “Маҳорат сирлари” китоби 1968 йилда босилиб чиққан. Айтиш мумкинки, мазкур китоб бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини, қадрини йўқотмаган. Устознинг Абдулла Қодирий, Чўлпон, Ойбек, Ғафур Ғулом, Шуҳрат, Мирмуҳсин, Одил Ёқубов, Пиримқул Қодиров, Саид Аҳмад, Эркин Воҳидов, Худойберди Тўхтабоев, Хуршид Дўстмуҳаммад каби ёзувчиларнинг ижоди ҳақидаги тадқиқотлари ҳақида ҳам илиқ фикрлар айтишга ҳақлимиз. Булар олимнинг адабий танқидчилик соҳасида ҳам беназир эканини исботлайди. Мунаққиднинг элликка яқин адабий суҳбатлардан иборат “Ижодкорнинг дахлсиз дунёси” (Тошкент, 2008), “Ижодкор сеҳри” (Тошкент, 2007), “Уфқларнинг чин ошиғи” (2008), “Нафосат гурунглари” (2010) китобларида суҳбат жанрининг янгича сайқал топганига гувоҳ бўламиз. Олимнинг суҳбатлари ижодкорнинг камёб қирраларини очиб беришга хизмат қилиши шубҳасиз. Устоз Умарали Норматов Озод Шарафиддинов билан бир қаторда машҳур фанимиз дарғалари Ғулом Каримов, Субутой Долимов, Фозила Сулаймоноваларни устоз сифатида алоҳида эҳтиром этади, уларни қатор тадқиқотларида хотирлайди. Шу билан бирга, ҳаммаслак, ҳамкасб дўстларини ҳам эътироф этишдан чарчамайди. Кўнгил киши бўлган устоз фазилатларини эслаканман, халқимизнинг севимли шоири Эркин Воҳидов томонидан айтилган қуйидаги мисралар ёдимга тушди:

Соҳибқирон ётар устоз пойида,
Жомийни пир тутган Навоий ҳазрат.
Устоз буюк деган буюк қоида,
Бу қайтар дунёда азалий ҳикмат.

Афлотунга шогирд эди Арасту,
Ул шогирдга шогирд бўлди Искандар.
Бу олтин силсила давоми мангу,
Ўзи устоз бўлар устоз кўрганлар.

Машҳур ёзувчимиз Абдулла Қаҳҳор "*Агар ёзувчининг ахлоқ кодекси тузиладиган бўлса, мен ҳалоллик ва шижоатни биринчи модда қилиб қўяр эдим*", - деган эди. Умри давомида ҳалоллик ва шижоатни, камтарлик ва самимийликни ўзига шиор қилиб олган устоз ана шу таърифга тўла арзийди. Фурсатдан фойдаланиб, эл ардоғидаги устозимизни табаррук ёшлари билан чин юракдан муборакбод этаман. Яна узоқ йиллар яқинлари ардоғида азиз ва зўр ҳурмат-эътиборда бўлиб юришларини Яратгандан сўраб қоламан.

Хуршида Ҳамроқулова,
филология фанлари доктори

УМАРАЛИ НОРМАТОВ САБОҚЛАРИ

Умарали Норматов XX аср ўзбек ижодкорларини фундаментал тадқиқ қилган забардаст олимлар қаторида туради. Устознинг фақатгина Абдулла Қаҳҳор ижоди юзасидан олиб борган тадқиқотларининг сони ўндан ортади. Абдулла Қаҳҳор ижодидан баҳс этувчи, адиб ижодини холис баҳоловчи қарашлар "Маҳорат сирлари"дан бошланиб, "Қаҳҳорни англаш машаққати" асарида ўзининг чўққисига кўтарилди. Айтиш мумкинки, мазкур рисолада устоз ўзигача бўлган фикрларни инкор этмаган ҳолда адиб ижодини белгиловчи омиллар, хусусан, "Сароб", "Қўшчинор чироқлари", "Синчалак", "Ўтмишдан эртаклар" асарлари ҳақида янги қарашларини баён этди.

2000 йиллар устоз раҳбарлигида Абдулла Қаҳҳор ижоди юзасидан номзодлик тадқиқотини олиб бораётган илк кезларим эди. Абдулла Қаҳҳор ижодига қўл урмаган деярли атоқли адабиётшунослар қолмаган, улардан фарқли адиб ижодига баҳо бериш, айниқса, йиллар давомида адабий

танқиднинг қайта-қайта объектига айланиб келаётган “Сароб” романи ҳақида жўяли фикр айтиш масъулияти елкамда эди. Шу вақтнинг бирида устоз университет нашриётида 200 нусхада чоп этилган “Қаҳҳорни англаш машаққати” китобининг ҳар бир нусхасини синчиклаб кўздан кечириш, хатоларини қора қалам билан текшириб чиқиш вазифасини қўйди. 200 та китобнинг ҳар бир саҳифасини қайта-қайта назардан ўтказиш давомида нима учун бу вазифани менга топширганларини англаб етдим. Тушунишимча, бу иш устознинг илм йўлида менга берган илк сабоғи эди.

50 саҳифадан иборат бўлган рисола Абдулла Қаҳҳор шахсияти ва ижодининг асосий кредосини белгилаган муҳим манба эди. Рисолада Абдулла Қаҳҳор шахсиятига хос белгилар асарлари билан қай даражада ҳамоҳанглик касб этганига алоҳида эътибор берилган эди. Тадқиқотда ёзувчининг бениҳоя мураккаб қиёфаси у яратган образлар, танланган сюжетлар, тиғиз концентрик жараёнларда ҳаракатланувчи инсон қисмати тасвири орқали очиб берилган эди. Ёзувчи асарларининг хронологик кетма-кетликда таҳлил қилиниши орқали адиб қарашларидаги ўсиш-юксалиш паллаларининг намоён бўла бориш тарзи менга “Сароб” романи таҳлилида ўзига хос йўл, калит вазифасини ўтади. Умарали Норматов муайян асар ҳақида фикр билдирар экан, образлар моҳиятини очишга киришар экан, бадиий таҳлилнинг ҳамма методларидан унумли фойдалана олгани, шунинг учун у танлаган асарлар кенг ва атрофлича таҳлил қилиниши, мунаққиднинг назаридан асар матни остидаги сир-синоатлар ҳам четда қолмаслиги маълум бўлади. Муҳими, устоз мунаққид ҳар бир фикрдан керакли калит сўзларни топа олади. Бу калит сўзлар асарни яхлит ҳолда идрок этишда ижодкор шахсияти, асар ёзилган пайтдаги руҳий жараёнларни англаш имконини беради. Натижада, асарнинг актул қатлами билан унинг эстетик қатлами ҳам очила боради.

“Қаҳҳорни англаш машаққати” китобида устоз ҳақли таъкидлаганидек, Абдулла Қаҳҳорнинг қизғин ижодий фаолияти XX асрнинг энг фожеий палласига, яъни 30-50 йиллар шароитига тўғри келган эди. Бу давр мустабид яккаҳоким мафкура, совет адабий сиёсати таъсири ва тазйиқи остида кечди.

Унинг ноҳуш таъсири адиб ижодида акс этиши табиий ҳол эди. Шунга қарамай, “Аллоҳ берган беназир истеъдод, ноёб шахсий фазилатлар – ўзига хос ўткир нигоҳ, фуқаролик туйғуси, қатъият, ирода-бардош, ҳақгўйлик, ҳалоллик ва шижоат туфайли[1]” Абдулла Қаҳҳор замонаси талотумларидан юқори кўтарила олди. Умарали Норматов Абдулла Қаҳҳорнинг шўро даврининг “тутуруқсиз мунофиқона адабий сиёсатини, ҳам “сийлов”, ҳам дабдабаю таъқибларини татиб кўрган адиб” бўлганини қайд этар экан, ундаги ноёб фазилатлар асарларига кўчиб ўтганлиги, бу эса уларнинг умрзоқлигини таъминлаган омиллардан бири эканини эътироф этади. Мунаққид Абдулла Қаҳҳор ижодини унинг шахсий биографияси билан боғлиқликда ўрганган олим сифатида адиб тутган позицияга баҳо беради.

Умарали Норматов талқинида Абдулла Қаҳҳор ҳикояларига хос хусусиятлар, асарларининг мумтоз асарлар сирасига кириши қуйидагиларда кўринади:

1.Абдулла Қаҳҳорнинг совет воқелигини қўйиб, кечмишга юз ўгириши, замоннинг илғор кишилари, ижобий қаҳрамонлари қолиб, қандайдир кичик одамлар, қолоқ кимсалар ҳаётидан асарлар ёзиши ёзувчининг ўзи ҳам англаб етмаган онг ости туйғулари билан боғлиқлиги.

2. Адиб қуллик психологиясининг мудҳиш оқибатларини асарларида кўрсата олганлиги, шунингдек, ёзувчи бот-бот муте одамлар образини у ёки бу усулда тасвирлашга мойил бўлганлиги.

Бу ҳол адиб ижод лабороториясига чуққурроқ кириш заруратини беради. Негаки онгда, шуурда акс этган воқелик бадиий асардан жой олади.

3. Бу ҳикояларнинг пафоси Чўлпон, Қодирий асарлари руҳи, қатор персонажлари талқини билан оҳангдош эканлиги. XX аср адабиётида Чўлпон анъаналарини изчил давом эттирган адиб ҳам айнан Абдулла Қаҳҳор эканлиги. Агар Чўлпон ижодида шахс эрки масаласи очиқ ифодаланган бўлса, Абдулла

[1] Норматов У. Қаҳҳорни англаш машаққати. –Т.: Университет,2000, 3-бет.

Қаҳҳор ижодида шахс эркининг мутелик психологияси остида қолгани улкан фожиаларни келтириб чиқарганлиги.

Абдулла Қаҳҳор туғма ҳикоянавис эканлиги, бошқа жанрдаги асарларида ҳам ҳикояга хослик сезилиб туришини устоз шундай изоҳлайди: “Қаҳҳор истеъдоди бадиий тафаккур тарзи ҳар жиҳатдан ҳаёт ҳодисаларини ҳикоя шаклида кўриш, идрок этишга мойилдир[2]”. Синчиқлаб назар ташланса, адиб яратган қаҳрамонларнинг аксарияти ўзининг прототипига эга. Оддий ҳаётий воқеаларнинг бадиият даражасига кўтарилиши ёзувчининг ўзига хос ишонтириш кучида. Муаллиф ҳодисага ўзгартириш киритаётганда ҳаёт мантиғига, бадиият қонуниятига асосланган. У.Норматов Абдулла Қаҳҳор руҳият мусаввири эканлигини Бабар ва Туробжон тасвирида яққол кўрсатади. Асарни қисмларга ажратиб, кейин уни бир бутун ҳолда яхлитлаштиришга асосланган структурал ва персонаж руҳиятига чуқур кириб борадиган психоаналитик таҳлил “Анор” ҳикояси мисолида ўзгача сайқал топар экан, мунаққид қаҳрамонлар қалбидаги меҳригиёни топади. Ва ана шу меҳригиё асарни бошдан охиргача тутиб турган куч эканлигини аниқлайди.

Умарали Норматов Абдулла Қаҳҳор шахсиятига оид фактлардан улар остида яшириниб ётган таг маъноларни илғайди. Натижада асарларидаги сюжет кўп қатламли маъноларга эга эканлигини ойдинлашади. Маълум бўладики, адиб ҳақидаги фактлар, ёзувчининг ўзи ҳақида билдирган фикрлари ҳам асарлари моҳиятидаги туб маъноларни тўла равишда англашга асос бўла олмайди.

Устоз мунаққид “Сароб” романи поэтикаси ҳақида ўзигача айтилмаган муҳим фикрни илгари суради. Яъни “Қаҳҳордек реалист санъаткор бу хил расмий мафкура билан қуролланган, синфий рақибларни асло аямайдиган жангари курашчиларнинг ҳақиқий башарасини билган, лоақал холис реалист савқи табиий сажия орқали беихтиёр англаган. Эҳтимол бундай шахсларни асло ижобий қащрамон қилиб бериш мумкин эмаслигини, айни ўша кезларда

[2] Қаҳҳорни англаш машаққати, 12-бет.

улар ҳақида бор ҳақиқатни айтиш, ифодалаш мушкул эканини тушунган, ҳис этган ҳолда, яхшиси, бундай шахсларни асарга киритишдан ўзини тийган бўлиши ҳам эҳтимолдан ҳоли эмас[3]". У.Норматовнинг "Сароб" қаҳрамонлари ҳақида айтган "Бу роман биринчи галда хазон бўлган муҳаббат, увол бўлган умр достони, икки кўркам ёшнинг - бир-бирига муносиб, аслида бахт учун туғилган, аммо табиатидаги ожизликлар туфайли ҳаётда чалғиган, адашган қалбларнинг аччиқ фожеий қисмати, руҳий изтироблари ҳақидаги асар сифатида ўқувчини ҳаяжонга солади[4]" деган хулосаси XX асрнинг 30 йиллари ҳақида тасаввурларимизни бир қадар тиниқлаштиради. У.Норматов "Сароб"нинг ҳар уч вариантига тўхталар экан, охирги вариантда бош қаҳрамон руҳиятида кечган ўзгаришлар ҳам мантиқий асосига эга эканлигини кўрсатади. Шу нуқтаи назардан қаралса, "Сароб"нинг биринчи ва учинчи вариантлари талқинидаги Саидий образи ўзининг турфа қиёфаси билан намоён бўлган мустақил образ ҳисобланади. Саидий фожиаси, аввало, оилада бахтга эришмаганида эди. Сорахон унинг таъбидаги аёл бўлмади. Хатто, унда ўртача аёл белгилари ҳам мавжуд эмас эди. Унинг жамият кишиси бўлмагани, яхши ёзувчи бўлиб ҳам етишмагани, борингки, шўро одами бўла олмагани ҳам фожиасидаги асосий сабаб бўла олмас эди.

XX аср 30 йилларнинг суронли даври, янгилик ва эскилик орасидаги муттасил кураш, одамнинг тинкасини қуритар даражадаги очлик ва қаҳатчилик, ҳадик ва қўрқув аралаш яшашга маҳкумликка ҳеч бўлмаса оиладаги ҳаловат чек қўйиши мумкин эди. Саидийга қисмат шуни ҳам раво кўрмади. "Сароб"даги ёрқин персонажлардан бири Муродхўжа домла, образига тўхталар экан, мунаққид унинг миллатчи экани, ёхуд, адиб талқинида миллатчиликни фош қилувчи образ тимсолида гавдаланганига эмас, биринчи галда унинг инсон сифатида паст-баланд жиҳатларига назар ташлайди. Унинг "табиий инсоний зиддиятлари, ожизликлари билан жаҳон адабиётида мавжуд

[3] Қаххорни англаш машаққати, 21-бет.
[4] Қаххорни англаш машаққати, 22-бет.

шу турдаги персонажлар сифатида турувчи ёрқин характер” эканлигига урғу беради. Умуман, Умарали Норматов “Сароб” персонажларини аввало инсон сифатида кўра билади.

Мунаққид “Қўшчинор чироқлари” романи, унинг тақдири каби масалаларни ёритар экан, роман “Сароб”нинг мантиқий давоми бўлганига эътибор қаратади. Шунингдек, “Қўшчинор” ҳақидаги фикрлар асосида романнинг яна бир варианти юзага келгани, асардаги сохта ижтимоий конфликт асар баҳосини пасайтиргани, ночор драматизм, пишиқ ишланмаган характерлар, схематизм асар қийматига жиддий путур етказганини таъкидлайди. У.Норматов айни роман тақдиридан муҳим ҳулоса чиқарилади. Яъниким, ўзи шахс эркини куйлаган адиб шу асари орқали эрксиз инсон қисматини тақдирида кўришга мажбур бўлади.

Абдулла Қаҳҳорнинг “Синчалак” қиссасини танқидчилар замонасозлик руҳида битилган деган қарашларига қарши ўлароқ, У.Норматов Саида образи тасвиридаги киноявий жиҳатларга эътибор қаратади. Бу образ замиридаги жамики мусбат ва манфий жиҳатлар илдизини очиб берганини таъкидлайди. Саида образига хос шиддат, эркакларга хос қаттиққўлликни оиласининг ўтмиши билан боғлар экан, инсон руҳиятининг чегар билмас оламига , қондан ўтган ирсий белгиларга ҳам алоҳида урғу беради. Шунингдек, шўро сиёсатининг мудҳиш асоратини ўзбек хотин-қизлари тақдирида қандай асорат қолдиргани асардаги Кифоятхон, Меҳри, Тожихон, Ойниса образлари мисолида тадқиқ қиладики, бу асарнинг асло замонасозлик руҳида ёзилмагани, Саидани фақат замонасининг фаол пешқадам, дунёни ўзгартиришга қодир одами сифатидаги образ эмас, балки, Саида фонида давр сиёсатининг ўзбек хотин-қизларига ножўя таъсири қандай мудҳиш оқибатларга олиб келгани, муҳими, оиладай муқаддас даргоҳга путур етгани, бу эса жамиятдаги мувозанатга ҳам салбий таъсир қилиши мумкинлиги ҳақидаги фикрлар одамни бефарқ қолдирмайди.

Мунаққид Абдулла Қаҳҳорнинг XX аср 50-60 йилларидаги фаолиятини эринмай таҳлил қилар экан, адиб шахсиятидаги журъат ва шижоат унинг

бутун фаолиятига сингиб кетганини бадиий қаҳрамонлари тақдири ва ҳаётий мисоллар асосида кўрсатиб беради. Менинг назаримда, Устоз “Қаҳҳорни англаш машаққати” рисоласини тақдим қилиш асносида инсон умр йўлида, ҳаётий фаолияти давомида, илм йўлида ўзининг мустаҳкам қарашларига эга бўлиши зарурлигини, шахсиятда собитқадамлик зарурлигини, айниқса илмий фаолият шахсият мустаҳкамлиги асосида қарор топишини таъкидлаган эдилар.

М.Худойқулова
БухДУ мустақил тадқиқотчиси

У.НОРМАТОВ АДАБИЙ СУҲБАТЛАРИДА БАҲСНИНГ ЎРНИ

Аннотация. Мақолада адабиётшунос олим У.Норматовнинг адабий суҳбатларида баҳс-мунозаранинг ўрни масаласи ёритилади.

Адабиётшуносликда илмий-назарий муаммоларни ёритишда, ижодкорларнинг ижод лабораториясига кириб, бадиий ижод жараёни ва сирларидан воқиф бўлиш, уни китобхонга кўрсатишда адабий суҳбатнинг имконияти катта. Бундай суҳбатлар адабиётнинг, адабий танқиднинг ўсишига, тараққиётига ижобий таъсир кўрсатади. Шу билан олиб борилган баҳслар муаммоларнинг қайсидир жиҳатини ёритишга ёрдам беради.

Адабиётшунос олим Умарали Норматовнинг «Талант тарбияси» китобига кирган баҳс-суҳбат ҳақида фикр юритмоқчимиз. Умуман олганда, ҳозиргача адабиётшуносликда баҳс-суҳбат ҳақида фикр юритилмаган. Адабий суҳбатларнинг турлари ва адабиёт ривожидаги ўрни ҳақида адабиётшунос олима Ш.Ахмедова тўхталиб ўтган[5], аммо монографияда баҳс-суҳбат ҳақида мулоҳазаларга ўрин ажратилмаган.

Суҳбатларда кўпинча адабиётдаги муаммолар тўғрисида баҳс кетади. Масалан У.Норматов шоир Э.Воҳидов билан қилган суҳбатида буни кўришимиз мумкин. Танқидчи ҳозирги шеъриятимиз ҳақида кўплаб мақолалар чиқаётган бўлса-да, шеъриятнинг шаклий томонлари ҳақида махсус тадқиқот, мақола яратилмаганлигини танқид қилади. «Шеърнинг ички тўқимаси, тузилиши, ҳиссий оҳанги, ритми, қофияланиш тартиби, шеърда маъно ва мантиқ йўналиши, бир сўз билан айтганда, шеърий асар поэтикаси, ундаги мутаносиблик қонуниятлари» аниқ таҳлил этилмаяпти. Шоир Э.Воҳидов ҳам бу масалага ўз муносабатини билдиради: ёш шоир, ёзувчиларда, баъзан катталарда ҳам талабчанлик туйғуси камайиб кетяпти. Шу боис талантларни ёшликдан тарбиялаш, ёшликдан заргарликка ўргатиш, қунт ва чидамни сингдириш зарурлигини уқтиради.

Шоир ёш ижодкорларнинг шеър техникасининг ибтидоий талабларига ҳам риоя қилмайдиганлари, уларнинг шеърида хаяжон борлиги, шавқ борлиги, лекин шеърий маданият йўқлигини кўрсатар экан, уни рассомлик мактаби, мусиқа мактаби в.ҳ. ҳамма санъат турларининг мактаби борлиги ажаблантиради. Суҳбатдош олдига баҳсли шундай савол қўяди: Нега энди шоирлик, ёзувчиликнинг мактаби йўқ? Москвадаги Горький номли адабиёт институти сингари ёзувчига профессионал билим берувчи мўътабар даргоҳлар республикамизда ҳам бўлиши кераклигини таъкидлайди[1].

Танқидчи баҳс мавзуини ўзгалар тажрибасини ўрганиш, адабий ворислик анъаналарига муносабат масаласига буради. Шоирга бевосита мурожаат

[5] Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқиди жанрлари. Тошкент. “Фан”. 2008.
[1] Норматов У Талант тарбияси. Тошкент. «Ёш гвардия». 1980, 14-бет.

қилиб, унинг арузда ёзилган асарлари теварагидаги қизғин баҳсларга қарамай, ҳамон арузда ижод этишни тўхтатмаганлигининг, ундаги ғазалга шайдоликнинг сабаби нимада эканлигини сўрайди. Шоир аруз атрофидаги баҳсларга аралашмаганлигининг сабабларини кўрсатади. Бу масалада «энг зўр ва ҳақ гапни» айтган Жамол Камолнинг сўзларини мисол қилиб келтиради.

Суҳбатни жонли ва қизғин олиб бораётган танқидчи У.Норматов шоирнинг «Ёшлик девони» халққа манзур бўлиб, «гўё арузнинг янги ҳаёти бошланаётганлигидан далолат» эканлигини таъкидлар экан, бу жанрнинг ривожи билан боғлиқ айрим муаммоларга суҳбатдошининг диққатини қаратади: сўз санъатида ҳам прогресс ҳодисаси борлиги, вақтлар ўтиши билан баъзи адабий шаклларнинг ўз умрини тугатишга қандай қарашини билмоқчи бўлиб, баҳсга тортади. Шоир « Нимаики яшаётган экан, демак, у керак: демак, у хизмат қиляпти. Сиз айтмоқчи, «умр кечириб келаётгани» йўқ. Ҳамма гап истеъдодда. Истеъдод нафаси бор жойда ҳаёт бор,-деб жавоб беради.

Танқидчининг саволига суҳбатдош ўзининг “Фурсатинг етмайди доим, ҳеч қачон етган эмас, Меҳнатинг битмайди доим, ҳеч қачон битган эмас” деган ғазали билан жавоб беради. Шу ўринда У.Норматов ғазал ҳақидаги фикрига ҳам танқидий муносабат билдиради: «яшириб нима қиламиз, шу ғазалдаги фикрлаш тарзингизда ҳам анъанавийлик устунроқ...». Кейин у шоирнинг бармоқдаги шеърлари билан аруздаги шеърлари орасидаги баъзи фарқларни ҳам очиб беради: аруздаги китобийлик, традицион образлар арузнинг маълум даражада чекланганлигини кўрсатмайдими, дея баҳсга киришади. Шоир эса буни рад этади: «Чекланганлик аломати эмас, ўзига хослик белгиси дейилса тўғрироқ булади».-дейди. Мисол тариқасида Ғ.Ғуломнинг бармоқда ёзилган шеъридан келтириб, фикрларини асослайди.

Баҳс-суҳбатда шоирнинг «эксперимент, тажриба деганда нуқул миллий шеъриятга аввал кўринмаган шакллар, ифодаларни олиб киришнигина тушуниш бирёқламалик бўлади, мавжуд традицияларни янгилаш, бойитиш, унинг янги имкониятларини қидириб топиш ҳам экспериментнинг бир

кўринишидир» деган илмий-назарий аҳамиятга эга қарашлари китобхон учун ҳам, ёш ижодкорлар учун ҳам керакли мулоҳазалардир.

Танқидчи суҳбат охирида яна Э. Воҳидов ижоди билан боғлиқ масалага тўхталади. Яъни унинг таржимонлик фаолияти, «Фауст» таржимаси устидаги жиддий ишлари ҳақида сўзлаб, шеърий таржима шоирнинг бутун илҳомини, ижодий саховатини олиб қўймаяптимикан деган ташвишдан хавотирда эканлигини билдиради. Шоир эса бу фикрни рад этади, ҳатто арузда бўлгани каби таъна, дашномлар эшитганини эътироф этади. У бадиий таржимани, унинг миллий маданий тараққиётдаги бебаҳо қадр-қимматидан ташқари, «профессионал» маҳоратни чуқур ўзлаштириб олишини, «Ватан ва жаҳон маданиятини ўрганишнинг беқиёс воситаси деб билади». Шоирнинг таржима ҳақидаги мулоҳазалари ва «энг муҳими, таржима ижодкорнинг масъулият туйғусини оширади, ўз бўй-бастини жаҳон маданияти чўққилари билан қиёс қилишга чорлайди, бинобарин, ижодкорни оригиналда ҳам асарлар ёзишдан сақлайди» деган қарашлари муҳимдир. Бинобарин, адабий суҳбатдан шундай хулоса чиқариш мумкин: шоир билан танқидчи суҳбати баҳс-мунозарга асосланган бўлса-да, эркин савол-жавоб, бир-бирини тушуниш руҳида қурилганлиги билан ажралиб туради.

Мунаққиднинг «Қалб инқилоби» деб аталган адабий суҳбати Ўзбекистон халқ шоири Омон Матжон билан олиб борилган. Унда шеъриятда ўзига хослик ва муштараклик муаммоси баҳс орқали ёритилади. “Бу суҳбатнинг ҳам бошқа суҳбатлардан фарқли жиҳатлари бор. Олдинги суҳбатларда икки суҳбатдош кўпинча бир-бирини қўллаб-қувватлаб фикр юритишади”[6]. Баҳс характеридаги бу суҳбатда шоир кўп ҳам танқидчининг фикрига қўшилавермайди, шарқона маданият даражасида туриб уни рад этади. Масалан, танқидчи шеъриятдаги тавсифийлик, мадҳиябозлик, риторика, дидактика, қуруқ патетика, шиорбозликдан чекиниш ҳозирги шеъриятга хос муштарак фазилатлардан бири деб қарайди. Шоир эса бу фикрга қўшилмайди.

[6] Ш.Ахмедова .Кўрсатилган диссертация.

«Шундай эмас-ов, менимча! Шеърбозликнинг бу очофат ва мечкай кўриниши андак шаклини ўзгартириб, «маъни ирод» қила бошлайди-ёв!»[1] .

Суҳбатда шоир яратган асарларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳам очила боради. Масалан: танқидчи Э.Воҳидовнинг «Руҳлар исёни» билан О.Матжон достонини қиёслар экан, «Ҳаққуш қичқириғи» ўзгачароқ- унда бевосита афсона, ривоятлар ёки ривоятнома нақллар келтирилади, баъзан эса реал воқеалар, далилларга афсонавий, мажозий тус берилади, реал ҳаётий ҳодисалар ривоят тилида мажозий тусда ифода этилишини ижобий баҳолайди.

Шоир шеъриятда шакллар масаласига кўп диққат қилади: «Шаклнинг имкониятлари чексиздир. Шеърият шаклларини ишлатишда шоир дизайнер бўлиши лозим»-деб ҳисоблайди. Шакл мужассам мантиқдир. Шоир шаклдаги изланишларда камчиликлар кўплигини афсус билан тилга олади.Кўринадики, баҳс орқали шоирнинг шеъриятни англаши, орзулари, қалбидаги армонлари чуқур ёритиб берилган.

Мунозарали суҳбатлар ҳам У.Норматов ижодида учрайди. Баҳс характеридаги бундай суҳбатга адабиётдаги муаммоли бир масала асос қилиб олинади. Мунаққид У. Норматов билан бўлиб ўтган суҳбат М.Саъдий томонидан уюштирилган бўлиб, у танқидчи билан танқидчи орасидаги мунозарали суҳбат намунасидир[7]. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетасининг 1995 йил 44-сонида “Баҳс” рукни остида У.Норматовнинг “Ғаройиб робиталар” номли мақоласи эълон қилиниб, кўпгина баҳсларга сабаб бўлди. Суҳбатдан мақсад, мана шу мақоладаги айрим баҳсга чорловчи фикрларнинг таҳлилини мунаққиднинг ўзидан эшитиш, У.Норматовнинг ижодий методлар бўйича қарашларини чуқурроқ англаш эди. Унинг асосий мавзусини XX аср адабий жараёнидаги жадид адабиёти, реализм (соцреализм) тушунчаларини таҳлил қилиш ташкил этади. Уни ўқиган китобхон адабиёт ва адабиётшуносликдаги баъзи бир чалкаш муаммоларнинг ечимини топгандай

[1] Норматов У. Қалб инқилоби. Тошкент.1986.297-бет..
[7] Ш.Ахмедова. “Ўзбек адабий танқидининг жанрлар. Фил.фанл.доктори .....дисс. 2011. 138-бет.Тошкент.

бўлади. Суҳбатдошларнинг фикрлаш тарзи, бир-бирига муносабати китобхоннинг эстетик дидини ўстиришга хизмат қила олади. Суҳбатнинг аҳамияти мана шунда.

Кўринадки, адабий баҳслар, айниқса, адабиётдаги муҳим бир муаммони кўтариб чиқиши, бошқа ижодкор ва олимларнинг шу масалага диққатини тортиши, китобхоннинг илмий-эстетик тафаккурини ўстиришга кўмаклашиши жиҳатидан ҳам ўрганишга лойиқ. Баҳс жараёнида ҳам танқидчилик истеъдоди бошқалар кўрмаган нарсани кўришда кўринади, шу билан бирга танқидчининг диққати нимага қаратилиши, танқидчи талантининг йўналиши, мақсади масаласи ҳам ниҳоятда муҳим бўлиб қолади.

Obidjon KARIMOV,
NamDU dotsenti, f.f.n.
Ilhomjon DARMONOV,
AL o‘qituvchisi

ERKIN VOHIDOV IJODIDA ESSE JANRINING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqimizning sevimli shoiri, “O‘zbekiston Qahramoni” Erkin Vohidovning “Shoir-u she’r-u shuur”, “Sarhisob” kitoblaridan joy olgan publisistik maqolalar tahlil qilingan. Shoirning esse janridagi mahorati o‘ziga xos tarzda o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Qahramoni, publitsistika, esse, maqola, “sof adabiyot”, nasr, yozuvchi, proza, iste’dod.

Xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidovning “Shoir-u she’r-u shuur” va “Sarhisob” nomli to‘plamlari asosan publitsistik maqolalardan iborat. “Shoir-u she’r-u shuur” kitobidan jami qirq sakkizta maqola joy olgan. Biz yuksak ehtiromga loyiq ijodkorning publitsistik maqolalarini shartli ravishda mavzu jihatdan quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Kitob “O‘lmas so‘z” maqolasi bilan ochiladi. Bu maqola 1985-yilda yozilgan bo‘lib, unda yozuvchining burchi haqida fikr yuritiladi. Dastlab yozuvchi

umumjahon adabiyoti oldidagi muhim bir savolni o‘rtaga tashlaydi: ijodkor, sen kim tomondasan? Xayolingda millionlarning orzu-umidimi yoki tor bir guruhning manfaatimi?.. Bu haqda shoir Erkin Vohidov shunday yozadi:

Zamin cheksiz samo mulkida tanho,
Tirik sayyorakim, balqib turipti,
Har lahza u borliq va yo‘qlik aro
Simob qatrasidek qalqib turipti.

Tinchlik uchun kurash jahon xalqlarining umumiy ishiga aylangan bir davrda, adolat va jaholat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash har qachongidan ham keskinlashgan bir paytda, ayniqsa, yozuvchi betaraf bo‘lolmaydi. Har qanday yuzaki gaplarni “sof adabiyot”, “umumdunyoviy g‘oya” deb adabiyotga olib kiraverish yaxshi emas[1]. Har kim o‘zi xohlagan fikr bilan adabiyotni yuqori pog‘onaga olib chiqolmasligini aytib o‘tyapti. Erkin Vohidov mazkur maqolasida bir chet ellik shoir bilan o‘tkazgan suhbatini ham eslab o‘tadi. Keltirilishicha, u: “Men so‘z harflarining ma’no ifodasi ustida ishlayapman. Satrlardagi harflar past-baland yozilishi so‘z ma’nosini hissiy ifodalashga yordam beradi”, -degan javobni beradi. Uning gapiga qaraganda, xalq dardiga oshnolik, tinchlik, ozodlik, adolat uchun kurash yozuvchining ishi emas emish... Shunga o‘xshagan “she’riyat xizmatchilari” bilan muloqot qilganda yana bir bor bizning adabiyotimiz dunyoda eng ilg‘or, jahon xalqlari orzu-umidlari, kurashlari bilan tutashgan adabiyot ekanidan ko‘ksing g‘ururga to‘ladi (Erkin Vohidov). Bunday so‘z adabiyotimiz mavqeini yanada oshiradi va yozuvchiga katta mas’uliyatni yuklaydi. Xalqning ishonchini oshiradigan birdan bir narsa ijodkorning jangovor, kerak bo‘lsa, qudratli so‘zi bo‘lishi kerakligini qayta-qayta takrorlab o‘tadi. Maqolada shunday bo‘lishini orzu qilaman, deydi. Bu bilan ayrim ijodkorlarga qarata so‘zga alohida e’tiborli bo‘lishini eslatadi. Chindan ham, ardoqli va atoqli yozuvchimiz, o‘zbek romanchilik maktabi asoschisi Abdulla Qodiriy adabiy ijodkorlarga qarata “ ... so‘z so‘zlashda, undan jumla tuzishda xiyla andisha kerak” deb bejizga aytmagan.

Erkin Vohidov maqolaga shunday yakun yasaydi: “*Yozuvchi kelajak mulkining dastyori, xizmatchisi, Odamzod ertangi kunining qo‘shiqchisi. O‘lmas so‘z yaratish yo‘lidagi zahmatkash, Uning so‘zi millionlar qalbida aks-sado topsagina o‘lmas so‘zbo‘ladi*” [2, 11-бет].

Mazkur bobdan o‘rin olgan “San’at va tafakkur” publitsistik maqolasi, ayniqsa xarakterlidir. Erkin Vohidov xalq sevgan san’atkor hisoblanadi. Ijodkor o‘z muxlislari bilan tez-tez uchrashib turadi. Shunday uchrashuvlarda muxlislari shoirga: “She’riyat nima?” degan savolni qayta-qayta berishadi. Shoirga bu takror bo‘lsa ham: “She’riyat go‘zal fikrning go‘zal ifodasi” deb javob berishdan charchamaydi. Shoirning bu javobidan she’riyatning jamiyat hayotidagi kurashchan

vazifasini tushunib yetmagandan yoki she’rning haqiqat sadosi, dardli yurak nidosi ekanini bilmaganidan emas, shoir ruhiga go‘zallik olami yaqinroq bo‘lganidan, bolalikdan sharq she’riyatiga maftun bo‘lganidan, sharq she’riyati ruhida tarbiya topganidan deb bilish, menimcha, to‘g‘ri bo‘lar edi. Buni shoir ham haqli ravishda e’tirof etadi.

Shoir ma’lum bir jamiyatda ma’lum bir davr “she’riyat mana bunday bo‘lmog‘i kerak, adabiyot mana bunday bo‘lmog‘i kerak” degan g‘oya mavjudligini eslab o‘tarkan, Alisher Navoiy zamonini eslaydi. Chindan ham yaxshi bilamizki, o‘sha zamonda asl she’riyat forsiy tilda yozilishi shart deyilgan. Barcha ijod ahli bunga amal qilishi lozim edi. Pushkin zamonida she’riyat qora xalq tushunchalari, qo‘shiqlaridan baland turmog‘i kerak, degan g‘oya hukmron edi.

Erkin Vohidov “Alisher Navoiy, Pushkin, Mayakovskiy, Hamza kabi shoirlarni milliy she’riyat tarixining burilish nuqtalarida turgan iste’dodlar” deya baholaydi. Ularning faoliyatida yaqqol ko‘rinadigan iste’dod tabiatiga ham tahsinlar aytadi. Shoir iste’dodni bunday ta’riflaydi: “*Iste’dod – bu mumkin bo‘lmaganni mumkin qilish, hukmron estetik prinsiplarga yangilik kiritish, she’riyat mana bundoq bo‘ladi, deb, yangicha nuqtai nazar bilan chiqib, shunga odamlarni ishontirish demakdir*”.

Shoir ko‘p mamlakatlarda bo‘lgan, u yerlik xalqlar bilan uchrashgan, suhbatlar qurgan. Ularni bir-biridan ajratuvchi katta farqlarni kuzatmaydi, balki birlashtiruvchi belgilar ko‘pligiga amin bo‘lgan. Olamda eng ilg‘or g‘oyalardan biri xalqlar do‘stligi g‘oyasidir, degan xulosaga kelgan. Shoirlik san’ati haqida gapirganda, bu iste’dod ham tug‘ma bo‘lishini, bolalikdan o‘zining nozik jihatlarini namoyon eta bilishini alohida urg‘u bilan ta’kidlaydi. Tug‘ma iste’dod bo‘lmasa-da, she’riyatga havas bilan adabiyotga kirib qolganlar bir umr havaskorlikda qolib ketishini aytadi. Chunki inson qalbidagi iste’dod uni ijodkor sifatida elga, she’r ahliga tanitadi. Shoirona iste’dodni ta’rif etib bo‘lmaydi. Shoirona iste’dod – bir qaraganda olamga hayrat ko‘zi bilan tik boqish san’ati va o‘zga insonlarni hayratga solish san’ati bo‘lib ko‘rinadi, yana bir qaraganda esa el dardiga oshno bo‘lish qobiliyati bo‘lib tuyuladi.

Iste’dod ma’lum ta’rifga sig‘maydi, u mehnat asosida yuzaga keladi. Iste’dod bo‘lmagan taqdirda ming mehnat qilsin, baribir foydasi yo‘q. 99 foiz mehnat qilsa-yu tug‘ma iste’dod bo‘lmasa u shoirlik baxtidan mahrum bo‘ladi. El-yurt muhabbatini qozonish uchun tug‘ma iste’dodning o‘zi ham kamlik qiladi.Shoir ruhan, fikran zamon darajasida bo‘lmog‘i, xalq hayoti to‘lqinlari ichida keng quloch otmog‘i kerak. Shoir fikrlari o‘rinli. Erkin Vohidov oldiga bir yosh shoir aruzda yozgan g‘azallarini beradi. G‘azallar tiniq, ravon, badiiy obrazlarga boy. Lekin fikrlar hammasi o‘tgan zamon, o‘tgan asr ruhida. Bu bilan bugungi she’r

ixlosmandlarini aslo asir etib bo‘lmasaligini aytadi. Bunga Erkin Vohidov Navoiy g‘azallarini misol keltiradi.

Zero, shoir g‘azallaridan bahramand bo‘lganimizda XV asr farzandining bugungi kishilar ruhiga qanchalik yaqin kelolganidan hayratlanib tasannolar aytamiz. Chindan ham, chiroyli yozishning o‘zi ham hech qachon she’r bo‘lmagan, bo‘lmaydi ham. Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy aytganidek:

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Bu chiroyli bitilgan baytda go‘zal san’at bor. Odam va g‘am – qofiyadosh so‘zlar har ikkisi ikki joyda ikki xil ma’no rangiga ega. Erkin Vohidov buni shunday tahlil qiladi: “Sen odam ersang, el g‘amidan g‘ami yo‘q – ya’ni parvosi yo‘qkishini odam dema – ya’ni maxluq deb bil”. Yoki:

O‘ltirmoq el ichra yuqoriroqdin,
O‘ltirmoq el ichra yuqoriroq bil.

Erkin Vohidov baytni yaxshi tushunadi va shunday tahlil qilmoqchi bo‘ladi: “Ikki satr so‘nggi ikki harfdan tashqari aynan takrorlangan va ajoyib san’at ishlatilgan. Ma’nosi: eldan yuqoriroq o‘ltirishdan ko‘ra el ichida o‘ltirishni afzalroq – yuqoriroq bil ”. Shoir baytni qayta-qayta o‘qirkan, so‘zlarning ma’no farqlashdagi o‘rniga ham bee’tibor emasligini bilamiz. Shoir aytmoqchi birinchi satrdagi “el ichra” *nisbat* ma’nosida, ikkinchi satrdagi “el ichra” *o‘rin* ma’nosida. Ya’ni birinchisi yuqoriroq o‘rinni ikkinchisidagi yuqoriroq – afzallikni, ya’ni nisbatni bildiradi. Shoir Erkin Vohidov baytda qo‘llangan go‘zal san’atni payqay oladi va bu yerda go‘zal san’atgina emas, balki juda muhim va saboq bo‘larli chuqur insoniy g‘oya o‘z ifodasini topganini ayta biladi. Daho san’atkor qo‘llagan san’at olijanob g‘oyani ifoda etishga xizmat qilganini e’tirof etgan. Yana Alisher Navoiyning ko‘plab g‘azallarida qo‘llangan harf san’atlariga ham alohida munosabat bildirib o‘tgan.

Erkin Vohidov fikricha, an’anaviylik o‘z ichiga ko‘p tushunchalarni oladi; g‘oyaviylik, obrazlilik, mantiqiy izchillik, ichki musiqiylik ham an’anaga kiradi. Umuman, she’riyatning kishi qalbiga yaqinligi, inson dardi, hasrati, quvonchi ifodasi ekani ham an’anaviy hodisa. Yangi-yangi ifoda shakllari ham an’anaviy hodisa. Faqat bulardan to‘g‘ri foydalanish kerak, aks holda an’anaviylik buzilishi mumkin. Oddiy didsizlik inson ruhiyatiga singmaydigan, ong, qalb qabul qilmaydigan shaklbozlikdir. Erkin Vohidov bundan ogoh etadi.

Erkin Vohidov musiqani sevadi, uni yaxshi his etadi. Gazallari shuning uchun ham aruz qoidalariga oson tushadi. Shoir buni o‘zi ham tasdiqlaydi va Asqad Muxtor, Husniddin Sharipov she’rlariga munosabat bildirib o‘tadi. Ushbu maqolada shoir g‘azallariga bastalangan qo‘shiqlar va ijrochilariga ham o‘z fikrini bildirib

o‘tgan. Bu aqola 1978-yilda yozilgan. Bugungi kun nuqtai nazaridan aytadigan bo‘lsak, bugun shoirning ko‘plab g‘azallari kuyga solinib ijro etilayotgani ham quvonarli holdir.

San’at haqidagi fikrlarini davom ettirar ekan, sharq adabiyotida ham, g‘arb adabiyotida ham faxriya deb atalgan uslub borligini ta’kidlab o‘tgan. Pushkinning “Haykal” she’ri shu uslubda yozilganini ham e’tibordan qochirmaydi. Navoiy haqida quyidagilarni yozadi: “*Navoiy ham “Xamsa” muqaddimasida Firdavsiyning o‘ttiz yilda yozgan asarini o‘ttiz oyda yozardim, men turk tilida she’r bitib Turku Xitoyu Ajamni hayratga soldim...* ”. Bunday faxriya o‘z ijodidan qanoat tuyg‘usini sezgan ijodkorda bo‘lishini ta’kidlagan. Shunday fikrlarni bayon etish bilan birga o‘zida doimo qilolmagan ishlari, yozolmagan satrlari tinchlik bermasligini iztirob bilan tilga oladi. Shoir ko‘proq qaynoq hayot ichida bo‘lishni, odamlarga faqatgina she’rlari bilangina emas, so‘zi, munosabati, kurashi ham kerakligini ochiq aytadi.

Hajman kichik bu publitsistik ruh bilan sug‘orilgan maqolada Erkin Vohidov olamshumul masalani tashlagan va o‘z maqsadiga erishgan.

Suhbat avvalida adabiyotimizning mavqeyi, bahs qilishga, katta talablar qo‘yishga arziydigan jihatlari borligini alohida bir faxr bilan aytadi. Adabiy til haqida fikr bildiradi. O‘sha vaqtdagi olimlar, ko‘zga ko‘ringan adabiyotshunoslarimizning adabiyotning joni bo‘lgan, uning san’at ekanini belgilaydigan tili haqida yetarli darajada qayg‘urmayotganliklarini baralla aytadi. Saviyasi pastroq asarlar, o‘qish mumkin bo‘lmagan darajadagi asarlarni munaqqidlar (ya’ni, tanqidchilar) “*tili jindak g‘alizroq, qashshoqroq, lekin bu kamchilikdan qat’iy nazar asar zavq bilan o‘qiladi, katta ahamiyatga molik*” deb qo‘yadilar[8]. Bu fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, shoir qalbi to‘lmayapti.

Erkin Vohidov yoshlar ijodini muntazam kuzatib borar ekan, xoh she’riy asar, xoh nasriy asar past darajada qolib ketayotganini, tilning u qadar boy emasligi ko‘zga tashlanayotganini achinish bilan ta’kidlab o‘tadi: “*... ba’zi asarlarning tili rasmiy yozishmalar tilidan farq qilmaydi. Na biror tashbeh, na bir obrazli ibora... Butun kitob sanoqli so‘zlar atrofida aylanayotganga o‘xshaydi*”.

Jasoratli yozuvchi Erkin Vohidov o‘zbek adabiy tilining rivoji, mavqeyi uchun tinmay kurashgan. Tilimizning benihoya boy va go‘zalligini ta’kidlagan holda uning sofligi, baland sahnaga chiqishi uchun jonini fido qilgan. “Xalq tilining toza bulog‘iga yuragini ochib qo‘ymagan ijodkorning ko‘lmakka aylanib qolishi tabiiy”ligini har deslatib turadi. Yana aytadiki, adabiy ijod umrning yarmini emas, hammasini talab qiladigan ish, hatto butun umr ham kamlik qilishi mumkin. Shuni hisobga olib, ijod ahliga imkonlar yaratish kerakligini, qo‘shimcha ta’tillar, ijodiy safarlarni ko‘paytirish masalalarini ko‘tarib chiqadi.

Erkin Vohidov. Shoiru she’ru shuur. Toshkent, 1987, 22 – bet.

Erkin Vohidovning “Aruz haqida” nomli publitsistikasi 1972-yilda yozilgan. Unda shoir studentlik chog‘ini, ya’ni 21 yoshligini eslaydi. O‘sha vaqtda “O‘zbekiston madaniyati” gazetasi (hozirgi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftanomasi) aruz haqida bahs boshlagan edi. “Ko‘ngildagi gaplar” publitsistik maqolasi “Sharq yulduzi” jurnalining anketasiga javob tarzida 1969-yilda yozilgan. Bu vaqtda Erkin Vohidov 33 yoshda edi. Men adabiyot ixlosmandi sifatida Erkin Vohidov ijodiga, o‘ziga ham shaxs sifatida alohida ehtirom bilan qarayman. Ijodkor she’r yozadimi, maqola yoki boshqa janrlarda asar yozishidan qat’iy nazar kitobxon bilan, muxlislari bilan o‘rtoqlashayotgandek sezadi va bu imtihondan osongina o‘tib oladi. Buni qarangki, 33 yoshida, yana sobiq totolitar zamonning ayni kuchaygan davrida ko‘nglidan kechayotgan og‘riqli fikrlarni, millatining ertangi kuni fojialarini qalbdan his qila bilgani kitobxonni o‘yga toldiradi. O‘ylaymanki, shoir yanglishmagan...

Suhbat avvalida adabiyotimizning mavqeyi, bahs qilishga, katta talablar qo‘yishga arziydigan jihatlari borligini alohida bir faxr bilan aytadi. Adabiy til haqida fikr bildiradi. O‘sha vaqtdagi olimlar, ko‘zga ko‘ringan adabiyotshunoslarimizning adabiyotning joni bo‘lgan, uning san’at ekanini belgilaydigan tili haqida yetarli darajada qayg‘urmayotganliklarini baralla aytadi. Saviyasi pastroq asarlar, o‘qish mumkin bo‘lmagan darajadagi asarlarni munaqqidlar (ya’ni, tanqidchilar) “*tili jindak g‘alizroq, qashshoqroq, lekin bu kamchilikdan qat’iy nazar asar zavq bilan o‘qiladi, katta ahamiyatga molik*” deb qo‘yadilar. Bu fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, shoir qalbi to‘lmayapti.

Erkin Vohidov uchun adabiy maktab bo‘lgan ustoz ijodkorlar haqidagi maqolalar “Qarzdorlik” bobidan o‘rin olgan. Bu bobga o‘n uchta maqola jamlangan. Alisher Navoiy, Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, G‘ayratiy, Zulfiya, Pushkin, Sergey Yesenin, Mirzo Tursunzoda kabi buyuk shoirlar haqida suhbatlar, tahlillar berilgan.

Qisqasi, esse adabiyotimizda o‘ziga xos yo‘nalishda, ko‘rinishda mustahkam joy olib bormoqda. Tadqiqotchilarimiz esa buni o‘rganishda davom etmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkin Vohidov. Shoiru she’ru shuur. Toshkent, 1987.
2. Erkin Vohidov. Iztirob. T., “O‘zbekiston”, 1992.
3. Erkin Vohidov. Umrim daryosi. Saylanma. 3-jild.T., 2001.

Каримов Ҳалимжон Ўринович
Андижон давлат университети доценти

“ТАНАЗЗУЛ” РОМАНИДА ТУРКИСТОННИНГ РУС БОСҚИНИ АРАФАСИДАГИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ МАНЗАРАЛАРИНИНГ АКС ЭТТИРИЛИШИ

Аннотация.

Етук адабиётшунослар томонидан эътироф этилаётган “Таназзул” тарихий романи Қўқон хонлигининг Россия империясининг босқини арафасидаги ижтимоий-сиёсий ҳолатини акс эттиради. Асар муаллифи тарихий воқеаларга таянган ҳолда амир Темур салтанатининг қолдиқлари бўлган уч хонликнинг таназзулга юз тутиши сабабларини қизиқарли воқеалар орқали бадиий акс эттиради.

Калит сўзлар: Қўқон хонлиги, Худоёрхон, ўрис босқини, Тошкент беклиги, Оқмасжид қалъаси, Қипчоқ-қирғиз овуллари, қозоқ бийлари, навкарлар, отлиқлар, қамал.

Шонли тарихга эгамиз, деймизу, нима учун истиқлолга эндигина 29 йил бўлди ҳолос?! 50 йил, 100 йил олдин ким эдик? 200 йил олдин қаерда эдик?! Халқимиз ва давлатимиз эришаётган улкан ютуқларни оддийгина қабул қилаётган ёшларимиз, ўқувчилар ва талабалар билан суҳбатлашар эканман, бугунги, эртанги авлод ана шу саволларга жавоб бера оладими? Бугунги шукуҳли кунларнинг қадрига етиб, шукрини қила оладиларми, деб ўйга толаман. Демак, ёшларимизга тарихдан сабоқ бериш, уларни ўқитиш ва ўргатишдан тўхтамаслигимиз, унинг самарали воситаларини топишимиз ва яратишимиз зарур. Бунда бизга ҳар доимгидай бадиий асарлар, бадиий адабиёт ёрдамга келади!

Шундай ўйлар билан банд кунларнинг бирида деярли тасодифан Саъдихон Мавлавихон ўғлининг “Таназзул” романи қўлимга тушиб қолди.

Ўттиз йилдан ошиқ вақтдан бери адабиётшунослик илми ва ижод билан шуғулланиб, адабий жараённи баҳоли қудрат кузатиб келаётган бир муаллим сифатида шуни қатъий ишонч билан айта оламанки, роман жанри ёзувчига инсонлар ва замонларни тўла-тўкис тасвирлаш имконини берувчи энг юксак жанр бўлиб, ҳар қандай ёзувчи унга ўзидан ўзи қўл уравермайди. Катта эпик асар яратишга жазм қилган адиб, аввало, ҳикоя ва қиссаларда тажриба тўплаши, шунчаки қаламини чархлаш эмас, балки уларни ўқувчиларга маъқул қила олиши зарур деб ҳисоблайман. Адабиёт тарихида истисноли ҳолатлар борлигига қарамасдан бирон бир ҳикояни қойил қилмасдан туриб роман

кўтариб келадиган ёзувчилардан шубҳаланишга ҳаққимиз бор. Ахир Чингиз Айтматовдек буюк ёзувчи ўзининг реалистик ҳикоялари ва гўзал қиссалари билан дунёга донг таратгандан кейингина машҳур романларини ёзишга журъат этганини унутиб бўладими? Саъдихон Мавлавихон ўғли деган ёзувчи ким бўлди экан? Она Ватанимиз тарихидаги мураккаб давр ҳақида оз эмас, кўп эмас ***роман*** ёзишга қандай журъат этди экан, деган ўй- хаёл билан "Таназзул"ни ўқир эканман, саҳифадан саҳифага силлиққина ўтаётганимни, боблардан бобларга ўтганим сайин шубҳалар тарқалиб, асар ўзига ром этаётганини сеза бошладим.

Ўзбек киносининг яхши режиссёрларидан бири Зулфиқор Мусоқовнинг "Осмондаги болалар" филъмида бир эпизод бор. Мутахассислар англашилмовчилик туфайли ёш йигитча томонидан ёзилган киносценарийни машҳур ёзувчининг асари сифатида ўқиб, жуда юқори баҳо берадилар. Асар "Болтабоев"нинг эмас, "Ҳамдам"ники эканлиги маълум бўлгач, фикрларидан қайтиб, сценарийни яроқсизга чиқарадилар. "Таназзул" романи ҳақида мушоҳада юритар эканман, юқоридаги эпизодни бежизга эсламадим. Бугунги ўзбек адабий танқидчилигининг, юмшоқ қилиб айтганда, бўшашиб қолганлигининг асосий сабаби таниш-билишчиликнинг авжига чиққанида, бадиий асарни баҳолашда унинг қандай ёзилганлигига эмас, ким томонидан ёзилганлигига эътибор қилаётганимиз билан боғлиқдир. Ўзим ҳам буюртма тақризларни ёзганимни эътироф этган ҳолда, асар муаллифини ёзувчи сифатида эшитмаганлигимни ва бир-биримизни танимаслигимизни писанда қилиб ўтмоқчиман.

Лекин ушбу мақола ёзилиб эълон қилингунга қадар, мен таниқли ёзувчи Набижон Боқий орқали Саъдихон Мавлавихон ўғли билан телефон орқали танишдим. Очиғини айтсам, телефон орқали мулоқотлар менинг ҳайратимни янада оширди. Маълум бўлдики, муаллифнинг бадиий адабиётга ёки адабиёт илмига зарра алоқаси йўқ экан. Касби бўйича қурувчи-инженер бўлиб, шу соҳа ташкилотларида ишлаган, бир неча тилларни ўзлаштирган, Ватанимиз тарихини синчковлик билан ўрганган, лекин бирон бир бадиий асар тугул, мақола ҳам ёзмаган экан! Яна бир маълумотдан сўнг менинг ажабланишим чинакам ҳайратга – илоҳий фалсафага йўғрилган ҳайратга айланди. Саъдихон тўра Мавлавихон ўғли Эшонжонов улуғ авлиёларимиздан бўлган Аҳмад Яссавий ҳазратларининг авлодларидан эканлар. Худоёрхон замонида Ўратепа шаҳрининг мушовири (йиғилган солиқларни хон хазинасига топширувчи) бўлиб, ўрисларга қарши урушда қаҳрамонларча ҳалок бўлган Бузрукхўжа эшон Шокирхон тўра ўғли ёзувчининг бобокалони экан (романда Бузрукхўжа эшон персонажлардан бири сифатида иштирок этади). Ижодкорлар Оллоҳга

яқин кишилардир, деган ҳикматга ихлосим ортди. Ахир адабиётимизнинг сўнгги юз йиллик тарихида қанчадан қанча истеъдодли ёзувчилар бўлишига қарамасдан, Туркистоннинг Россия империяси томонидан босиб олиниши арафаларидаги сиёсий-ижтимоий ҳолат, халқларимизнинг турмуш тарзи, руҳияти, савияси, буюк салтанатнинг аянчли аҳволга тушиб қолиш сабаблари, таназзул ва истибдоднинг илдизларини акс эттирадиган эпик асарни яратишга ҳеч ким жазм этмаган эди. Буюк қудрат соҳиби эҳтиёжга айланиб бўлган бу вазифани мутлақо тажрибасиз авлиёзодага раво кўрган бўлса не тонг!

Албатта, гап нима ҳақида ёзилишида эмас, балки қандай ёзилишидадир. Ҳамма гап ана шунда. Қалами чархланмаган ёзувчининг романни профессионал даражада маромига етказиб уддалай олгани мисли кўрилмаган ҳодисадир. Бунинг устига тарихий романнинг бир эмас, икки эмас, балки етти китобдан иборат бўлишига нима дейсиз?! Шу маънода асар ҳам, унинг муаллифи ҳам адабиётимизда алоҳида ҳодисадир. Буни 2020 йил 22 декабрь куни Ўзбекистон Миллий кутубхонасида “Таназзул” романининг беш китоби тақдимотида сўзга чиққан ва роман сўз бошисини ёзган олимлар – профессор Қозоқбой Йўлдошев, профессор Улуғбек Долимов, ёзувчи ва олим Хуршид Дўстмуҳаммад, профессор Баҳодир Каримов, профессор Равшан Маҳмудов кабилар ҳам эътироф этдилар.

“Таназзул” романининг биринчи китоби XIX аср ўрталаридаги Туркистоннинг Россия империяси босқини остида қолиши арафаларидаги воқеликни ўз ичига олади. Абдулла Қодирий бу даврни “тарихимизнинг энг кир ва қора кунлари”, деб бежизга “белгиламаган” эди. Буюк Амир Темур салтанатининг инқирози натижасида пайдо булган уч хонликнинг бири бўлган Қўқон хонлиги бу даврга келиб, ўзаро ички урушлар натижасида иқтисодий, сиёсий, ҳарбий жиҳатдан таназзулга юз тутган, жаҳолат ва калтабинлик авж олиб, мамлакат дунё тараққиётидан узилиб қолган эди. Жаҳондаги геосиёсий ҳолат, буюк давлатларнинг дунёни тақсимлаб олишга, ўзга мамлакатлар ва халқларни ўз тасарруфларига олишга интилишлари, ҳар қандай мамлакатдаги бошбошдоқлик ва ноиттифоқлик, хонавайронликка сабаб бўлиб, алалоқибат бутун бошли халқлар ва давлатларнинг мустамлака зулмига маҳкум бўлишларини кўрсатиш роман ва унинг муаллифининг ғоявий-бадиий мақсадини ташкил қилади.

Адабиётимизда тарихий мавзуда ёзилган асарлар оз эмас. Лекин рус босқини арафасидаги даврни ўз ичига қамраб олувчи романлар Абдулла Қодирийнинг маълум ва машҳур “Ўтган кунлар” ва “Меҳробдан чаён” романлари эди холос. Ушбу романларда гарчи тарихий воқеалар ва шахслар асарнинг умумий руҳига усталик билан сингдириб юборилган бўлса-да, тарих

ҳаётий-маиший воқеалар ва қаҳрамонлар учун фон вазифасини бажарган эди. “Таназзул”да эса ёзувчи асосий эътиборини тарихий воқеаларга – она юртимизнинг чет эл босқини остида қолишининг илдизларини кўрсатишга қаратадики, айнан бу хусусият асарга эътибор қилишимизга сабаб бўлди. Шу билан бирга, романда ёзувчи фақат ҳодиса ва фактларнинг қули бўлиб қолмаганлигини ҳам алоҳида таъкидлаш керак. Тарихий воқеалар Мусулмонқул мингбоши ва унга содиқ жоҳил кишиларга қарама-қарши бўлган, Худоёрхон бошчилигидаги хонлик таназзулини бартараф қилишга уринган кишиларнинг жонли образлари, уларнинг кескин курашлари ва мураккаб тақдирлари орқали тасвирланади. Бу ҳол асарнинг ўқишли бўлиши билан бирга, унинг роман жанри талабларига жавоб беришини ҳам таъминлайди.

Асар воқеалари милодий 1852 йил август ойида Қўқон хони Худоёрхоннинг Тошкент ҳокими Нормуҳаммад қушбеги билан тил бириктириб, калтабинлиги ва жоҳиллиги туфайли тараққиётга тўсқинлик қилаётган ўз қайнотаси Мусулмонқул мингбошини “ўртадан кўтариш” мақсадида Тошкент шаҳрига ёлғондан қўшин тортиб келиш воқеасидан бошланади. Чирчиқ дарёси бўйларида Тошкент лашкарлари Худоёрхон бошчилигидаги қўшин билан бирлашади. Мусулмонқул озгина қипчоқ қўшини билан Билкиллама деган жойга қочади. Шундан сўнг роман муаллифи ўқувчини Тошкент яқинидаги воқеаларнинг асосини ташкил қилувчи тарихимизнинг янада мудҳиш кунлари бўлган - ўн йил аввалги воқеликка бошлаб кетади. Тарих ҳақиқатига кўра ўн йил аввал, яъни 1842 йилнинг эрта баҳорида Бухоро амири Насруллохон Қўқон хонлигини босиб олиб, атоқли шоира Нодирабегим, унинг ўғиллари Мадалихон, Султон Маҳмудхон ва уларнинг яқинларини қатл қилдиради ва манғитлардан бўлган Иброхим Хаёлни тахтга ўтқазади. Манғитларнинг зулми кучаяди. 70 кундан сўнг Қўқон халқи исён кўтариб, қипчоқ ва қирғиз жамоалари билан бирга манғитларни Қўқондан ҳайдайдилар. Шералихоннинг тахтга ўтириши, Мусулмонқул бошчилигидаги қўшиннинг Ўшдаги исённи бостириш учун кетганидан фойдаланиб хоннинг ўлдирилиши ва Муродхоннинг тахтга чиқиши, Мусулмонқулнинг Қўқонга қайтиб 9 кун хонлик қилган Муродхонни ўлдириши ва Худоёрхонни тахтга ўтқазиши, Фарғона мамлакатининг Мусулмонқул ва қипчоқлар таъсирида қолиши, ёш хоннинг мустақиллик учун кураши ва бу йўлдаги ҳаракатлари, мураккаб халқаро сиёсий аҳвол Буюк Британия ва Россия каби давлатларнинг ўша шармандали ички урушлардан фойдаланиб қолишга, халқларимизни қул қилиб, Туркистонни мустамлакага, катта давлатлар ўртасидаги плацдармга айлантиришга интилишлари

“Таназзул” романининг асосий сюжетини ташкил қилади. Энг муҳими, тарихий воқеалар турли халқлар ва элатларнинг вакиллари бўлган жонли образлар, ўша давр кишиларининг турмуш тарзи, савияси, ўзига хос характер қирралари, муҳаббати ва жонли мулоқотлари ишонарли манзаралар фонида содда ва ширали тил орқали тасвирланади. Асардаги ўша давр шаҳар ва қишлоқларининг манзаралари, жуғрофий номлар, кўплаб тарихий шахслар, давлат ва ҳарбий мансабларнинг келтирилиши, уларга берилган изоҳлар, персонажларнинг индивидуал тарзда, шеваларга хос сўзлашишлари асарнинг ишонарли чиқишини таъминлаган. Муаллиф тарихий материални яхши ўрганган, шунга қарамасдан, тарихий фактлардан тўлалигича эмас, балки тарихий роман жанри табиатига яраша фойдаланганини ҳам таъкидлаш керак. Чунки тарихий романга маълум бир давр манзарасини очиб беришга хизмат қиладиган фактларнигина киритиш мумкин. (Акс ҳолда асар хроникага айланиб қолиши ҳеч гап эмас.) Фақат шуни ёдда тутиш лозимки, бунда тарих хақиқати бузилмаслиги ва соҳталаштирилмаслиги шарт. Тарихий романларда ёзувчи бошдан оёқ тарихий воқеалар, фактлар ва шахсларга асосланади. Бундай асарларда ижодкор ҳам ёзувчи, ҳам тарихчи олим сифатида ҳаракат қилади. Тарихий манбалар, архив ҳужжатлари ва бошқа ўтмишга доир ҳужжатлар устида иш олиб боради. Айрим муваффаққиятли ҳолларда ёзувчи конкрет тарихий воқеа ёки шахснинг ҳали фанга маълум бўлмаган қирраларини кашф ҳам қилади. Улуғ рус ёзувчиси М.Горький тарихий романлар ҳақида фикрлар экан: “Менимча санъаткор (ёзувчи) – кўпроқ тарихчи ва у мутахассис тарихчиларга қараганда яхшироқ тарихчидир,” – деб бежиз ёзмаган эди. [М.Горький и современные писатели / Литературное наследство,-Т.:1970.-с 62] Чунки тарихни яхши билган ёзувчи тарихчи олимдан фарқли ўлароқ қалин қоғозлар қатидаги жонсиз фактлар ва шахсларни ҳаракатлантиради, уларни жонлантира олади. “Таназзул” романида кўплаб тарихий шахслар иштирок этади, уларнинг ичида Худоёрхон, Мусулмонқул мингбоши, Нормуҳаммад қушбеги, Муродхон, Саримсоқбек, Ҳокимойим каби тарихий шахслар ўзига хос характер қирраларини намоён қилувчи жонли қаҳрамонлар сифатида гавдаланади.

Алоҳида таъкидлаш керакки, Қўқон давлатининг сўнгги ҳукмдори Худоёрхон ҳақида бизда салбий муносабат шаклланиб улгурган. Халқимизнинг аксарияти Амир Темур салтанати парчаланиши натижасида барпо бўлган уч хонликнинг сўнгги хонларига Ватанимизни ўрис босқинидан ҳимоя қила олмаган маънавий-маиший бузуқ шахс сифатида қараб келади. Романда Худоёрхон образи мамлакатни иқтисодий, сиёсий ва ҳарбий жиҳатдан мустаҳкамлашга ҳаракат қилган, чет эл босқинчиларига имкон қадар

қарши кураша олган мард ва жасур, шу билан бирга, даврнинг қурбони бўлган ночор жонли шахс сифатида гавдаланади.

Ўтмишнинг реал манзарасини яратиш учун тарихнинг аниқ фактлари билан бадиий тўқиманинг уйғунлашуви керак бўлади. Тарихий асар муаллифи ўз хаёлининг маҳсулларидан - тўқима образ ва воқеалардан – агар улар тарихий жараённинг ёритилишига, тарихий шахснинг чинакам характер қиррасини очишга, умуман, тарихий хақиқатни англашга ёрдам берса – кенг миқёсда фойдаланиш ҳуқуқига эга. Агар ижодкор маълум тарихий давр ҳақида чуқур билимга эга бўлсагина, уни чуқур ҳис қила олсагина, тарихий шахс ҳаёти ва фаолияти ҳақида жиддий ва маъноли асар яратиши мумкин. Факт ва тўқима уйғунлиги тарихий асар муаллифи учун беқиёс имкониятлар яратади. “Таназзул” романида тарихда номлари учраса-да характер эътибори билан тўқима образлар сирасига кирувчи Баҳодир шиғовул, Умарали понсод, Саидбек, Олтиной, Қилич, Боймурод, Эшбой, Жонибек каби образлар тарихий шахслар ва воқеаларга жон бахш этиб турувчи персонажлар сифатида ёдда қолади.

Аввал таъкидлаганимиздек, бадиий насрнинг кичик жанрларида кўп ҳам танилмаган ёзувчининг илк романи ҳар қандай камчиликлардан ҳоли эмаслиги шубҳасиз. Айрим воқеаларнинг асоссиз равишда тезлаб кетиши, баъзи ўринларда персонажларнинг ёзувчининг буйруғи билан – замонавий кишиларга хос сўзлашиши, асар қаҳрамонларини ичдан тасвирлашнинг етарли эмаслиги каби тажриба асносида бартараф бўлгувчи камчиликлар борки, бу ҳам, бизнингча, тарихий мавзудаги катта ҳажмли асар учун ҳал килувчи аҳамиятга эга эмас.

XIX асрнинг 1-ярмида бошланган Ўрта Осиёдаги хонликларнинг инқирозга юз тутишига кўплаб омиллар сабаб бўлган эди. Сиёсий, иқтисодий, ҳарбий жиҳатлардан дунё тараққиётидан узилиб, орқада қолган хонликлар ижтимоий, маънавий-маърифий жиҳатдан ҳам таназзулга юз тутган эди. Қўқон хонлигида юз берган қипчоқлар қирғини воқеаси ана шу инқирознинг натижаси ва белгиси бўлиб тарихда қолган. Мусулмонқул мингбошининг ҳаддан ошиқ зулми ва калтабинлиги, унинг паноҳида шаҳарларга кўчиб келиб зўравонлик қила бошлаган қипчоқларнинг сурбетлиги пировардида шаҳар аҳолисининг ғазабини қўзиган ва қипчоқларнинг оммавий қирғинбарот қилинишига сабаб бўлган эди. Шунга қарамасдан, мазкур биродаркушлик воқеалари ҳамма замонларда Туркистон халқлари учун шармандали, мусибатли, “қора кунлар” сифатида баҳоланиши, қораланиши шарт! Ҳар қандай бадиий юксак асар каби тарихий мавзудаги асар ҳам албатта замонавийдир. Чунки ўтмиш ҳақидаги яхши асар замонавий ўқувчига билим,

маълумот, завқ-шавқ бериш билан бирга, ҳамма даврлар учун умумий бўлган гуманистик ғояларни тараннум этади ва тарихдан сабоқ олишга, таҳлил қилиш ҳамда хулоса чиқаришга даъват этади. Романдаги рус амалдорлари Перовский ва Карпиннинг ўзаро суҳбатлари орқали Россиянинг Туркистонга қилган уруши азалдан режалаштирилган бўлиб, буюк давлатлар ўртасидаги қарама-қаршиликнинг натижаси эканлиги англашилади. “Ўзаро қанча кўп жанг қилишса, бизга шунча яхши. Иккала томон ҳам бир-бирини гўштини еб, ҳолдан тоя берсин. Урушдан қайси бири ғолиб бўлиб, чарчаб чиқса, ана ўшанда улар билан гаплашамиз.”- [Саъдихон Мавлавихон ўғли “Таназзул”, I китоб, 2017: 536-бет.] Бу катта қарама-қаршилик, атрофимиздаги катта давлатларнинг экспансионистик сиёсати кейинги ўн йилликларда, ҳаттоки ҳозирги замонда ҳам турли кўринишларда давом этиб келаётганлиги кишини ҳайратлантиради. Беихтиёр юртбошимизнинг давлатимиз мустақиллигини мустаҳкамлаш йўлидаги саъй-ҳаракатларини, бу йўлдаги қийинчилик ва мураккабликларни англагандай, ҳис қилгандай бўламиз.

Mahammadiyev Ahadjon Ro‘ziboy o‘g‘li
ADU, o‘qituvchi

URUSH MAVZUSIDAGI ASARLARDA BADIIY PSIXOLOGIZM VA KONFLIKT

Annotatsiya: *Urushdagi odamning ruhiyati tasviri badiiy psixologizm va konflikt asosida yoritib berilgan. Qahramon ruhiyatining yoritilishida badiiy psixologizmning o‘rni va roli haqida fikr yuritilgan. Qahramon ruhiyati uning nutqi va kechinmalari yordamida namoyon bo‘lishi va konfliktlarning badiiy psixologizmga ta`siri o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy psixologizm, qahramon ruhiyati, konflikt, konflikt turlari, mavzu yoritilishi, inson obrazi, personaj ruhiyati.*

Badiiy asarlarda inson ruhiyati turli tasvirlar orqali yoritib beriladi. Eng avval insonning ruhiy holati tasviri asarga qo‘yilgan problema yuzasidan kelib chiqib yoritiladi. Yana bir tomoni ham borki, asarning tanlangan mavzusi va unda yoritilmoqchi bo‘lgan muammo ham qahramon ruhiyatini belgilovchi omil hisoblanadi. Qahramon ruhiyati badiiy psixologizm bilan bog‘liq bo‘lib, avvalo, badiiy psixologizmning nima ekanligi haqida ozroq to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Badiiy psixologizm – badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini

yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami” [Quronov D. v.b., 2013:48-bet]. Bundan ko‘rinadiki, badiiy psixologizm asarda qahramon yoki personaj ruhiyatini ochib beruvchi vosita va bu orqali yozuvchi qahramon ruhiyatini ochib berish bilan bir qatorda uning ichki olamini va dunyoqarashini, uning ichki kechinmalarini ham tasvirlay oladi. Badiiy psixologizm asarda tanlangan mavzu jihatidan farqli ravishda bo‘ladi. Urush mavzusidagi asarlarda ko‘proq qahramon ruhiyati ichki va tashqi ziddiyatlar asosida yoritib beriladi. Ichki ziddiyatlar deyilganda qahramonning o‘zi bilan kechadigan va tashqariga yo‘naltirilgan kechinmalari bo‘lsa, tashqi ziddiyat uning muhit yoki shu muhitdagi odamlar bilan kechuvchi jarayonlar orqali yuzaga chiquvchi ruhiy jarayon tushuniladi. Hozirgi o‘zbek nasrida urush mavzusi qalamga olingan ko‘plab asarlar bor. Ularni birlashtirib turuvchi tomonlari ham aynan ichki va tashqi ziddiyatlar bo‘lib, bu holat qahramonning ruhiyatini ham namoyon qiladi. Bunday asar qahramonlari doimo ichki va tashqi olam bilan konfliktda bo‘ladi. “Konflikt (lot, conflictus-to‘qnashuv) – personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini topadigan o‘zaro to‘qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar” [Quronov D. v.b., 2013:143-bet]. Demak, konflikt qahramonning ruhiy dunyosi bilan yoki muhit bilan sodir bo‘lishi mukin bo‘lgan holat hisoblanar ekan. Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asarlarda asosan qahramonning ichki dunyosi bilan kechadigan qarama qarshiliklar asosiy planda bo‘lsa, Afg‘on urushi mavzusidagi asarlarda ichki va tashqi konfliktni ham ko‘rishimiz mumkin. Negaki, asar uchun yagona ta`sir qiluvchi jihat davr nuqtayi nazari ekanligini inobatga olsak, asar mavzusi jihati va davr holatidan e`tibor qiladigan bo‘lsak, Ikkinchi Jahon urushi mavzusidagi asarlarda qahramon ruhiy dunyosidagi ziddiyatlar ko‘zga tashlanadi. Chunki bu davr kishilari uchun urushda qatnashganlar qahramon hisoblangan va badiiy qahramon faqatgina o‘zi bilan kurashishga majbur edi. Konfliktning ikkinchi turi kamroq ko‘zga tashlanadi. Aynan shunday mavzuda yozilgan Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” nomli qissasida ham qahramon Normat polvonning urushdan keyingi hayoti va undagi ruhiyat tasviri qalamga olingan. Asarda Normatning urushdagi holati faqat o‘zi bilan o‘zi qolganda faqat eslash holatlari orqali yoritiladi va bundan anglashiladiki, ijodkorning asosiy maqsadi urushni tasvirlash emas, balki, urushning inson hayotiga ta`siri qay darajada ekanli, insonning ruhiy olamini qay darajada o‘zgartirib yuborishidir. Asarda Normatning ayoli Anzirat bilan odamlarnikiga mehmon bo‘lib borish masalasida gaplashgan joyida Normat tilidan quyidagi gap aytiladi:

- Mening borgim kelmaydi deyapsanmi! – zorlandi Normat. – Borsam odamlar so‘rayverishadi. [N. Eshonqul., 2006: 24-bet].

Ayni shu nutq orqali qahramonning ruhiy dunyosi yoritiladi. Chunki, qahramon urushdan qaytgandan keyin o‘z uyiga o‘rnashib olib xuddi odamlardan berkinganday yashaydi va o‘z olami bilan yolg‘iz qolishni, odamlarga ko‘rinmaslikni istaydi. Agar odamlarga ko‘rinadigan bo‘lsa, ular urush haqida savol berishi va uning endi tozalanayotgan ruhiy olamiga ziyon yetishi mumkin. Urushda bir inson boshqa bir insonni o‘ldiradi va bu uning ruhiyatiga qattiq ta`sir qiladi. Shuning uchun qahramon odamlardan holi bo‘lishni, iloji boricha urushning asoratlarini unutishni istaydi. Uning maqsadi nutqi davomida anglashiladi :

-Falon falon emish, pismadon pismadon emish, chinmi, odam qoni daryo bo‘lib oqib, shaharlarni seldek oqizipti, chinmi, deb.[N. Eshonqul.,2006:24-bet].Ayni shu gaplari bilan Normat nima sababdan insonlardan qochishi va ular bilan kamroq muloqot qilishga intilishini asoslaganday bo‘ladi. Aslida esa, u o‘zining ruhiy iztiroblaridan va azoblaridan qochayotganligi ko‘zga tashlanadi.

-Urushni eslasam, ko‘nglim ayniydigan bo‘p qolgan. Eslasam, boshim aylanadi, yuragim kuyib ketaberadi… Xuddi, meni birov hozir otib ketadigandek tuyulaveradi. [N. Eshonqul., 2006: 24-bet]. Bu yerda hech qanday konflikt yoki ruhiy holat tasviri ko‘zga tashlanmayotgandek tuyuladi. Lekin, Normatning aynan shu gaplari orqali uning ichida kechayotgan ruhiy iztiroblar va ichki qarama-qarshiliklar bor holida ko‘rsatilgan. Normat o‘zini qahramon deb emas, balki, urush o‘zining ma`naviy va ruhiy dunyosini yemirgan, endi esa shu asoratlarning o‘rnini o‘z oilasi va yaqinlari bilan to‘ldirmoqchi, barcha iztiroblarni shu orqali unutmoqchi bo‘lgan oddiy odam sifatida tasavvur qiladi. Urush sababli yemirilgan ruhiy dunyosini o‘z ayoli va bolalari mehri orqali sayqallamoqchi bo‘ladi. Afsuski hayot u o‘ylagandek, tasavvur qilgandek rahmdil bo‘lib chiqmaydi. Bundan ko‘rinadiki, urush o‘zidan keyin ham insonning ruhiy dunyosini o‘zi istagan darajada o‘zgartirib yubora oladi.

Biz yuqorida ko‘rgan holatlar insonning bir tomonlama va faqatgina o‘zining ichki olami bilan kechadigan ziddiyatli jarayonlar edi. Birinchi Jahon urushi mavzusidagi asarlarda aksariyat holatlarda qahramon muhit bilan emas faqatgina o‘z ruhiyati bilan ziddiyatlarga boradi va konfliktning bir ko‘rinishinigina namoyon qiladi. Lekin ana shu konflikt orqali biz qahramonning ichki dunyosini anglash bilan bir qatorda ruhiy olamida kechuvchi jarayonlarni ham tahlil qila olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Afg‘on urushi qalamga olingan asarlarda esa konfliktlar tizimi ham, badiiy psixologizm ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Afg‘on urushi mavzusi qalamga olingan O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani qahramoni

Rustamning ruhiy holati ham o‘ziga yarasha. Bu asarda Rustam ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchi ko‘rinishi urushga bormasidan avvalgi holati bo‘lib, bunda u juda qaysar va o‘z bilganidan qolmaydigan ko‘rinishda bo‘lsa, ikkinchi ko‘rinishi urushdan, harbiy xizmatdan qaytgandan keyingi holati. Urushdan oldingi holatini Shahnoza paxta paytida kasal bo‘lib qolgandagi shifokorni olib kelishi, yana qaysarlik qilib kechqurunda mashina topib kelib uni shifoxonaga olib ketishi va keyin ham shifoxonaga qatnash kabi bir nechta voqealar bilan izohlash mumkin. Shu o‘rinda shifokorning Rustam haqida aytgan gaplari uning haqiqiy tasviriga o‘xshaydi:

“ - O‘n besh chaqirimga traktorga bosib olib kelgani yetmagandek…” [O‘. Hoshimov., 2002: 9-bet]. Yaxshilab e`tibor qaratadigan bo‘lsak Rustam urushdan oldin ma`naviy va ruhiy dunyosi pok inson edi. U hammaga yaxshilik qilishni istaydigan va hattoki yaqindagina tanishgan, hali yaxshi tanimaydigan kursdosh qiziga ham jon-dilidan yordam berishga intiluvchi samimiy va oliyjanob inson. Rustamning urushdan oldingi hayotida hech qanday ruhiy iztirob ham, konflikt ham ko‘zga tashlanmaydi. Ijodkor urushni to‘g‘ridan to‘g‘ri tasvirlamasdan, balki, Rustamning kundaligi orqali yoritishga harakat qiladi va eng asosiysi o‘quvchiga Rustamning xizmatdan keyingi holatini keltiradi. Rustamning urushdan keyingi ruhiyati tasviri esa badiiy psixologizm va konfliktlar orqali yanada jonli tarzda tasvirlanadi. Rustamning kundaligida quyidagi yozuv keltirilgan:

“- Otaman! – dedim o‘kirib. – Hammangni otaman! O‘zimniyam otaman!

….Keyin nima bo‘lganini bilmayman”. [O‘. Hoshimov., 2002: 62-bet]. Bu Rustamning urushdagi holati tasviri. Uning ruhiy dunyosidagi evrilishlar ko‘rsatilgan. U urushga ketmasidan avval dunyoni o‘z tasavvuricha ko‘radigan, hammaga yaxshilik sog‘inuvchi, ota-onasining yonida mudom shod bo‘lib yurguvchi bir o‘spirin yigit edi. Urush esa uni bir zumda katta odamga aylantirdi va o‘zining mashaqqatlarini totib ko‘rishga majbur qildi. Tinch hayotdan birdaniga urush ichiga tushib qolgan Rustamda ziddiyatlar ana shu joydan boshlab yetila boshladi va u endi birdaniga butun urush aybdorlariga qarata o‘zining hukmini e`lon qildi. Rustam bilar ediki, urushdan qaytib ham tinch yashay olmasligini. Chunki uning fe`lida shu jarayon mavjud bo‘lgan holda, urush shu fe`lni rivojlanish bosqichiga olib chiqib berdi va oqibatda Rustam shu ruhiy iztirobning qurboniga aylanib qoldi. Ijodkor aynan qahramon ruhiyatini ochib berishda konfliktning uchala turidan ham foydalangan. Rustam ziddiyatlarning har turlisiga duch keladi va ularni ba`zida yengadi, ba`zida esa ular qarshisida chorasiz qoladi. Konliktning uch turli ekanligi va ularning qanday ekanligi quyidagicha ta`riflanadi “….konfliktning uchta turini farqlash mumkin: 1) xarakterlararo; 2) qahramon va muhit: 3) ichki (psixologik)” [Quronov D. v.b., 2013:144-bet]. Demak bundan ko‘rinadiki, asarda

konfliktning uchala turi ham ishtirok etgan va ular o‘z o‘rnida qahramonning ruhiyatini ochib berish uchun xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T. Akademnashr. 2013.
2. Nazar Eshonqul. Urush odamlari. Qissa. “Sharq” nashriyoti. 2006
3. O‘. Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. 2002.

Тожиддинов Тошпўлат Шокиржон ўғли
АДУ, Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси ўқитувчиси
996393272 toshpolat. tojidinov@mail.bk.ru

МИСРА ШАКЛИНИНГ МАЗМУН ИФОДАСИДАГИ ЎРНИ

Аннотация: Ушбу мақолада мисранинг одатий шаклини ўзгартириш орқали шеър мазмунига кўрсатилган таъсирлар таҳлил қилинган. Мисра шакли билан боғлиқ ушбу жараён шериятдаги янгиланишларнинг натижаси сифатида баҳоланган.

Таянч сўзлар: Мисра, мисранинг одатий шакли, мисра синиши, мазмун.

Резюме: В данной статье анализируются влияния, изменяющие содержание стихотворений, через изменение обичной формы полустишия. Процесс, связанный с формой полустишия,оценивается как резулътат обновления поэзии.

Ключевые слова: Полустишие,обычная форма полустишия, содержани.

Resume: In this article the effects to the meaning of the poem by changing common form of thr raw were analyzed. The process which is linked to of raw was grfded as the result of development in poetry

Key words: Raw, common form of raw, divide of raw, content.

“Шеърнинг алоҳида сатрига жойлаштирилган бўлаги мисра деб юритилади…Бироқ унинг мисра деб аталиши учун катта-кичиклигининг аҳамияти йўқ. Мисра охирида зарб бўлиши, ўзидан сўнг сезиларли пауза мавжудлиги билан характерланади…”[Қуронов Д., 2018: 313-бет]

Мисра банддан фарқли доим ҳам маълум мазмун ифода қилиш мажбуриятини олмайди. Шунга кўра бандларга ажратилган шеърларда мисра бандда ифодланган нисбий тугаликка эга мазмуннинг таркибий қисми бўлса, бошидан охиригача ягона фикр асосига қурилган шеърларда умумий шеър

мазмунининг бир бўлагидир. Мисранинг одатий шакли шеър ёзилаётган вазн қонуниятлари асосида шаклланади. Аруз вазнида баҳр, бармоқ вазнида бўғинлар сони ва туроқнинг такрори мисра шаклини белгиловчи мезон бўлиб хизмат қилади. Аруз ва бармоқда мисралардаги рукун ҳамда туроқланиш тартиби бузилиши ритмда ўзгаришни келтириб чиқаради, шеърий нутқни бузади. Лекин вазн талабларини бузмаган ҳолда мисра шаклини ўзгартириш билан шеър мазмунига таъсир қилиш ҳоллари ҳам кузатилади. Ва албатта, бундай ҳоллардан маълум бадиий мақсад кўзланган бўлади.

Мана, минг йилларки 6
соҳилда ётган 5
Қақраган бу тошга сув теккани йўқ 6+5
Қуёшнинг 3
оловли селида қотган, 8
Чеккани оҳи йўқ 6
Оҳ чеккани йўқ 5 [Қўчқоров У., 1987: 8-бет]

Шеърдан олинган парчани шоир бармоқ вазни қонуниятлари асосида тўрт мисра кўринишида шакллантириш мумкин эди. Бунда мисралардаги бўғинлар сони 11 тадан тақсимланар ва бу тақсимланиш 6+5 шаклида туроқланган бўлар еди. 1-2-6-7 сартларнининг бўғинлар сонига таяниб мисралар туроқ чегарасидан икки қисмга ажратилган дейиш мумкин бўлса-да, бутун ҳолда сақланган учинчи мисра ва 6+5 тартибидаги туроқланишни бузаётган 4 ва 5-сатрлар шеърнинг бундай график шаклидан маълум бадиий мақсад кўзланганига ишора қилади. Эътибор берилса, 1-2-4-5-6-7 сатрларни мисра деб баҳоламадик. Чунки 1-2 сатрлар биргаликда биринчи; 4-5 сатрлар учинчи; 6-7 сартлар тўртинчи мисрани ташкил қилади. *“...ҳар бир сўз ёки сўз бирикмаси алоҳида сатрга жойланган бўлса, уларнинг ҳаммасини мисра дейиш тўғри бўлавермайди, чунки уларда зарб бўлгани ҳолда, мисра паузаси мавжуд емас”.*[Қуронов Д., 2018: 314-бет] Бу ўринда ҳам шаклий, ҳам интанатсион жиҳатдан яхлит мисрани икки сатр шаклида бўлиб ифодалашдан кўзланган маълум бадиий мақсад мавжуд. Айни шэърда бу мақсад ижодкор муҳим дея санаган қисмни ажратиб кўрсатиш билан боғлиқ. Сатрга бўлинган қисм алоҳида зарб билан ўқилади ва ўз навбатида ўқувчининг диққатини тортади. Юқоридаги мисраларнинг сатрларга бўлиниши оқибатида алоҳида зарбга эга бўлган қисмларни аниқлаймиз.

Биринчи мисранинг бўлиниши биринчи сатрда қолган **“минг йилларакиˮ** бирикмасини алоҳида таъкидлашга хизмат қилаган. Бу ўринда шоир ўзи тасвирламоқчи бўлган **“узоқ вақтˮ** мазмуни учун **“минг йилˮ** жумласини етарли деб билмайди. Унинг таъсирини янада кучайтириш

мақсадида алоҳида оҳанг билан айтилишга шароит яратади. Бу муддатнинг нақадар узоқ еканлигини таъкидлаш мақсадида уни биринчи сартда қолдиради ва бу билан ўқувчида бу вақт залвори ва ақлга сиғмас даражада узоқ давом этишини англаб етиши учун бир оз фурсат яратади.

Учинчи мисранинг бўлиниши еса, биринчи мисрадан фарқли, кейинги сатрга кўчирилган **“оловли сели”** бирикмасининг алоҳида оҳанг билан айтилиши учун хизмат қилади. Бу ўринда ижодкорнинг шу вақтгача ижобий образ ифодачиси сифатида қўлланиши одат тусига кирган қуёш нури *(ҳаёт тимсоли)*га янгича *(салбий)* мазмун *(олов—куйдирувчи, сел—бузғинчи)*юклаётганига ишора бор. Бу тасвир шеърнинг муҳим нуқтаси бўлиб мисранинг бўлиниши унинг ўқувчин эътиборидан четда қолишининг олдини олади.

Охирги мисранинг бўлиниши эса ҳар иккала қисмнинг алоҳида оҳанг билан айтилишига хизмат қилган. Бу билан ҳар иккала қисм парчанинг асосий образи **“тош”** билан тўғридан тўғри боғланади. Шунга кўра **“…тошнинг чеккани оҳи йўқ”, “…тош оҳ чеккани йўқ”** мазмуни англашимиз мумкин бўлади. Юқоридаги шеърдан фарқли бир мисрада муҳим саналган жиҳатлар бирдан ортиқ бўлиши ва уларнинг ҳар бири алоҳида эътиборни талаб қилиши ҳам мумкин. …

Бу ғамларни

кўкрагингга

битта-битталаб

Қадаш дармон.

Чидаш фармон.

(Қалаш армон). [Тоғаев Я., 1988: 36-бет]

Ижодкор мисранинг бундай шакли орқали ўқувчига масаланинг нақадар жиддий еканлиги, уни ўзгача талқин қилиш мумкин емас дея уқтиришни мақсад қилган. Шоир **“Бу ғамларни”** бирикмасини алоҳида сатрда қолдириш билан ўқувчини диққатини тортади. Айни вақтда у юқорида таърифлаган *“ғамларини”*, **бошқа ғамларни емас;** қуйида ўқиладиган ҳукмлар фақат шу ғамларга тегишли, **бошқа ғамларга эмас”** мазмунини ифодалаган. *“…кўкрагингга”* жумласининг ажратилиши эса “бошингга, кўзингга ёки бошқа жойингга емас, балки айни кўкрагингга” дея тушинилиши учун зарур бўлса, *“битта-битталаб”* жумласининг ажратилиши дардни кўкракка қай тарзда жойлаш тартибини айни таъкидлашга қаратилган. Бу қисмларни зинапоя шаклида жойланиши эса шеърий нутқни кўтарилиб борувчи оҳанг билан ўқиш заруратини туғдиради. Дастлабки уч сатрдаги кўтарилиб борувчи

оҳанг қуйидаги уч сартда ҳам, гарафик шакнинг айни бир хил эканлиги сабабидан, ритм сифатида такрорланади.

Зинапоя шаклида ифодаланган мисра бир вақтда пасайиб борувчи оҳангни ифода этишга ҳам хизмат қилиши мумкин. Бундай ҳоллорда оҳангнинг кўтарилиб бориши, ёки тушиб бориши зинапоянинг таркибий қисми бўлган сўз, сўз бирикма ифода қилган мазмун билан боғлиқ бўлади.

Ухлаб ётар

вазмин

осуда [Қўчқоров У., 1986: 30-бет]

Бу ўринда *“осуда”* сўзининг юқоридаги қисмларга нисбатан паст оҳангда айтилиши сўзнинг лексик маъносини тўла ифода этади, “осудаликка путур етказмайди”.

Мисранинг бўлиниш сабабларидан яна бири унинг бошқа бир мисра билан мазмуний алоқда бўлганлиги билан боғлиқдир.

Шамоллар эрмаклаб ўйнар

Хазонни—

Тақдир чирпиратиб отади ерга. [Рустамова Х., 2003: 5-бет]

Вазн талаби билан биринчи ва иккинчи мисралардаги бўғинлар сони тенг бўлиши керак. Кўринадики *“Хазонни”* жумласи шаклан биринчи мисранинг таркибий қисми. Мисрадан **“Хазонни шамоллар эрмаклаб ўйнар ”** мазмуни англаш мумкин. *“Хазонни”* жумласини алоҳида сатрга кўчирилишининг сабаби унинг мазмуний жиҳатдан иккинчи мисрага ҳам бирдек тааллуқли эканлигида. Шунга кўра мисрадан **“Хазонни тақдир ерга чирпиратиб отади”** мазмунидаги тушунча ҳосил бўлади. Мазмунан кейинги мисрага ҳам тааллуқли бўлган жумланинг кейинги мисрада ҳам такрор қўлланишига вазн қонуниятлари йўл бермайди. Яъни мисрадаги боғинлар сони биринчисидан ортиб кетади.

Қақраган лабларнинг

қоқ ўртасидан

бир гул ўсиб чиқар

бир куни

бир сўз ўсиб чиқар

илдизи

нақ юракда унинг[Тоғаев Я., 1993: 14-бет]

Икки банднинг ўртасида ягона мисранинг қўлланиши бу мисрани банд сифатида қабул қилиш дегани эмас. *“Энг кичик банд—икки мисра”*.[1.314] Бу

ўринда ҳам юқоридаги каби ҳолатни кузатиш мумкин. Ундан фарқли бу шеърда алоҳида сатрга ажратилган қисм шеърнинг мисраларидан биригина эмас, балки ҳар иккала банддан англанган мазмуннинг таркибий қисмидир. Шеърнинг ҳар иккла бандида тугал воқелик тасвирланган. Ажратилган мисра эса тасвирланган воқеликнинг содир бўлиш вақтини кўрсатади. Унинг ажратилиб, икки банд орасида қўлланиши эса бу қисмнинг ҳар иккала бандга бирдек тегишли эканлиги билан боғлиқ. Унга кўра шеърдан **"Бир куни *қақраган лабларнинг қоқ ўртасидан бир гул ўсиб чиқар"*** ва **"Бир куни *илдизи юракда бўлган бир сўз ўсиб чиқади*"** каби мазмунлари тушунилади.

Хулоса қилиб айтилса, мисрани сатрларга ажратиб ифодаланиши мазмуннинг англанишида ўзига хос вазифа бажаради. Бу вазифалар: фикрни алоҳида ажратиб таъкидлаш, кучайтириш; такрорларнинг олдини олиш, бир неча мисра ва бандларга тегишли умумий мазмунни ягона шакл билан ифода қилиш кабилардан иборатдир. Бундай ўзгаришлар вазн талабини бузмаган ҳолда амалга оширилади ва мисранинг айни хусусияти ушбу амалиётнинг қимматини янада оширади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари.-Тошкент. Навоий университети, 2018;

2. Қўчқоров. У. Уйқудаги минора.-Тошкент. Ёш гвардия,1987;

3.Тоғаев. Я. Кўклам қалдирғочлари.- Тошкент. Ёш гвардия,1988;

4. Қўчқоров. У. Акссиз садолар.- Тошкент. Ғафур Ғулом,1986;

5.Рустамова. Х. Нажот.-Тошкент.Маънавият,2003;

6. Тоғаев. Я. Тасалли.- Тошкент. Ғафур Ғулом,1993;

Шаҳло Ҳожиева,
ЎзМУ доценти, (PhD).
Дилшода Анорбоева,
ЎзМУ талабаси.

“РУҲЛАР ИСЁНИ” ДОСТОНИДА ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Аннотация: Эркин Воҳидов эл фарзанди эди. Унинг “Руҳлар исёни” достонида шоир эркни куйлайди. Демак, элни севган шоир, халқининг ҳурликка, истиқлолга эришиши жуда истайди. У Назрул Ислом образи орқали ана шундай буюк орзуни ўз олдига мақсад қилган эди. Ушбу мақолада шу ҳақда фикр юритилган**.**

Калит сўзлар: эрк, озодлик, исён, ҳинд, мусулмон, кофир, ғазот, обиҳаёт.

Ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидов - ўзбек адабиётининг забардаст вакили, шеъриятимизнинг гултожи, ғазаллари, юморлари, бир сўз билан айтганда ўткир қалами орқали юракларга муҳрланган серқирра ижодкор. Шоирнинг етук дурдона асарлари фалсафийликка, донишмандликка, халқчилликка бой. Шоир сўз қўллашда ҳам ниҳоятда маҳоратли. Унинг асарлари юракка яқин, ўқиётган қалбларни уйғотади, сергакликка тортади.

Мана шундай қалбларни уйғотувчи, кишини мушоҳадага чорловчи, фалсафий маънога бой бўлган асарларидан бири бу – “Руҳлар исёни” достонидир. Достон XX асрнинг биринчи ярмида яшаб ўтган, оташқалб ҳинд шоири Назрул Ислом ҳаётига бағишланади. Достон ҳақида сўз борар экан адабиётшунос олим Умарали Норматовнинг қуйидаги сўзларини келтиришни жоиз топдик: ““Руҳлар исёни” – аввало қаҳрамонлик достони. Унда муаллиф асримиз бошларида чақмоқдек ярақлаб, шеъриятда ўчмас из қолдирган, исёнкор шеърлари билан бутун Ҳиндистон ярим оролини ларзага солган ҳаётини эл – юрт эрки, бахти йўлига фидо этган оташин бенгал шоири Назрул Ислом жасоратини улуғлайди. Айни пайтда “Руҳлар исёни” – фожеий достон”[9][2.27].

Ўша вақтда Ҳиндистон мустамлака давлат эди, шоир эса бу тутқунликни, қарамликни йўқ қилиш учун нафақат ижодини, умрини, хатто ўз эркини бахшида этган. Достондаги барча воқеалар Назрул Ислом атрофида бирлаша-ди. Лекин бу ерда фақат шоир қисмати тасвирланмайди, ўқувчи воқеалар ривожини, ривоятларни ўқир экан, унинг замирида чуқур тагмаъно борлигини ҳис этади. Асар ёзилган йилларга назар ташласак, бу вақтда

[9] Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърият. Тошкент, Ўзбекистон миллий кутубхонаси. 2006, 27-бет.

юртимиз ҳам мустамлака давлатлар қаторида эди. Эрк деб куйлаган ҳинд шоири эса А.Қодирий, Чўлпон, У.Носир каби асл миллатимиз шоирларининг озодлик учун курашларини ёдга солади.

Достондаги бўлимлари ҳақида сўз юритсак. Абадият ҳақида ривоят – карвоннинг фалокатга учраши айнан, кимсасиз саҳрода юз беради. Фалокатдан омон қолган шахс эса обиҳаётни ичган кимсани сўзларини тинглаб, абадий ҳаётга эришишга чўчийди.

Ҳаётга – ку
Тўймас кўзинг,
Яшайсанми умрбод?
Мангу ҳаёт учун ўзинг
Ярайсанми,
Одамзод?

Саволга сиз қандай жавоб берар эдингиз? Обиҳаётни ичасизми ёки йўқ! Саҳродаги одам ҳам абадийликка кўнмади, исён қилиб обиҳаётни тўкиб юборди. Бу ерда бир кишининг саҳрода ёлғиз қолишида ҳам фалсафийлик бор. Негаки, киши ёлғиз қолгандагина ўзини тафтиш қилиши юқоридаги саволга теран ўйлаб жавоб бериши мумкин. Бу ерда моҳият кўп ёки оз яшашда эмас, балки инсонга берилган умрни қанчалик ибратли, мазмунли ўтказишда, назаримизда.

Истеъдод – Аллоҳ томонидан берилган иноят. Назрул Исломнинг истеъдоди истибдодга дош бера олмади, “ҳақсизликка кўнди олам, аммо шоир кўнмади”, чунки истибдод замирида адолатсизлик, зулм, “оқ ўргимчакдек қонни сўриш ” бор. Натижада шоир шеъри орқали исён қилди. Исён қўшиғи – шоир халқни ғафлат уйқусидан уйғотишга чақиради, қулликка қарши исён қилади, натижада ҳинд уни жобон, мусулмон эса кофир деб атайди. Назрул Исломни “ҳали ёш”, “эс ҳуши йўқ”, “жон қадрига етмасликда” айблашади. Лекин бу ерда яна бир масала бор ҳақсизликни, зулмни ҳамма била туриб кўз юмди, айбни эса замон зўрлигига ағдаришади. Агар ҳамма ҳақсизликка била туриб кўз юмса ватанни ким қутқаради, ким эрк учун курашади деган савол туғилади. Жавоб эса фидойилик ривоятида. Аскар даврлар оша келаётган удумга, жоҳилликка қарши бош кўтаради. Оқибат уни манфур кимсага чиқаришди. Аммо илк бор ўша машъум одатга ҳукм ўқилди, жаҳолатнинг бир илдизига болта урилди. Достоннинг кулминатция нуқтаси ҳам айнан шу “Жаҳолат тўғрисида”ги ривоятдир. Ривоятдан олдин келадиган “Ғалаён” бобида жаҳолатнинг яна бир кўриниши намоён бўлади. Динларидаги фарқ низога сабаб бўлолмайди. Ҳинд билан мусулмон ўртасидаги жангдан ким манфаатдор эканлиги, нифоқ уруғини экканларнинг нияти ушалаётгани, бу

тупроқда ҳосил бераётгани, бу ҳодисаларни шодонлик билан “ҳўплаб қора қаҳвони, деразадан оқ тан жаноб можарони кузатаётгани” айтилади.

Сизнинг асл ёвингиз ким –
Билиб қўйинг,
Одамлар!
Улар
Узоқ юртдан келиб
Ерга букиб шонимиз,
Бизни бизга
Душман қилиб
Сўрмоқдалар қонимиз –

дея шоир халқни ғафлатдан уйғотмоқчи бўлади. Афсуски халқда жоҳиллик чуқурроқ илдиз отганини кўришимиз мумкин, негаки икки ёнидаги соқчи – “сен кабилар йўқолса , тинч – омон яшар эдик” дейди, соқчилар нени билади, ахир жаҳолатда гуноҳ йўқ. Жаҳолат тўғрисидаги ривоятда ҳам шундай. Табиб ўзи даволаган кишилари томонидан ёқилади, шу ерда жаҳолатнинг ҳақиқий моҳияти очилади. Ундан “шифо олди одам, олам шифо олмади”. Чунки, табиб басир кўзни очибди –ю, лек нодон, гумроҳ, халқнинг кўзларини оча олмади. Кишиларнинг жоҳиллигидан фарёд қилган ҳаким “Ёқинг” – дея сўрайди. Ажабки, шу гулхандан халқнинг кўзи очилади. Йиллар ўтиб унга ҳайкал қўйишади. Аммо, ҳинд халқининг кўзи қачон очилади? Назрул Исломдек фарзанди, ҳимоячи шоиридан айрилгандагинами?

Достондаги воқеа-ю ривоятлар бир ипга маржондек тизилган. Улар турли хил даврларда бўлиб ўтсада, уларни жаҳолат, нодонлик, исён бир-бирига боғлаб туради. Бобур насли тарихидаги энг қаро бир варақ ҳам Аврангзебнинг отасига қарши исёни туфайли юзага келди. Бу ҳол эса Абдулатифнинг Улуғбекка қарши исёнини ёдга солади, фарқи эса Аврангзеб қўлини ота қони билан бўямайди. Бундай воқеалар тарих саҳифаларида жуда кўп учрайди.

Назрул Исломнинг кўзларига оқшарпалар кўрина бошлайди, тинимсиз қийноқлар охир оқибат унинг саботини кемиради. Олий руҳлар эса уни зиндонга раво кўрмай руҳини олиб кетадилар, тор зиндонда эса фақат жисми қолади. Энди шоирнинг руҳи озод, кўкда парвоз қилади. Нега айнан олий руҳлар уни зиндонга раво кўрмайди, чунки олий руҳлар фақатгина пок дилларга ёр бўлиб, самимийлик, тўғрилик бор жойда улар ҳам мавжуд бўлишади. Аммо руҳи олий руҳлар билан юрган шоир, юрти озод бўлганини кўрди-ю, ҳис этмади. Етмиш беш йил умр кўрди-ю, аммо ўттиз икки ёшида бу дунёни “ташлади” .

Дунё яралибдики, кун билан тун, ўт билан сув, яхши ва ёмон бир – бири билан ёнма ён. Достонда мана шу ҳақиқатлар инкор этилмайди, борича қоғозга тўкилади. Шунинг учун асарнинг қадр қиммати пасаймади. Шоирларнинг битта ютуғи – ўзлари айтмоқчи, ўқувчиларга етказмоқчи бўлган фикрларини “қоғозга ўраб“ айта оладилар. Эркин Воҳидов ҳам кўнглидан кечирганларини, халққа айтмоқчи бўлганларини достондаги воқеалар, ривоятлар орқали ифодалайди. Назрул Исломнинг исёни, халқига айтганлари муаллифнинг дилидан чиқаётган ҳайқириқ эди. Эпиграфга олинган сўзлар ҳам Чўлпоннинг “Кишан кийма, бўйин эгма, Ки сен ҳам ҳур туғилгансан” шеърини эслатади. Бундан кўринадики, қарамлик йилларида барча халқларнинг мақсади, орзуси битта – озодлик, ҳурлик бўлган. Қарамликнинг, қулликнинг битта сабаби бор - жаҳолат. Халқ эса оқни қорадан, яхшини ёмондан ажрата олмайди. Бундай вақтларда юрт якдил бўлиш ўрнига бир-бири билан уришиб, қон тўкишади. Муаллиф достондаги қаҳрамон баҳонасида ижодкорларнинг ҳаётдаги ўрни, бурчи, Аллоҳ томонидан берилган истеъдодини халқнинг манфаатлари йўлида сарф этиши кераклигини достонда яққол ифода этган. Зиммасидаги юкни англаган ижодкорлардан эса мана шундай дурдона асарлар туғилади ва мангу яшайди. Эркин Воҳидовнинг “Руҳлар исёни” достони ана шундай асарлар сарасига киради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Воҳидов Э.“Руҳлар исёни ”.Т.;Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1980й
2. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърият. Тошкент, Ўзбекистон миллий кутубхонаси. 2006.
3. Ҳамдам Улуғбек. “Жаҳолатга қарши исён” мақоласи. Зиё.уз.

Нигора Пардаева
Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети
таянч докторанти (PhD)

АНБАР ОТИН – ЗУЛЛИСОНАЙН ШОИРА

Аннотация

Мақолада зуллисонайн шоира Анбар Отиннинг тожик тилидаги ижоди ҳақида мулоҳаза билдирилган. Шоиранинг тожикча ғазалларининг поэтикиси,

мазмуни, ғояси хусусида қисқача маълумот берилди. Тожик тилидиги айрим ғазаллари таҳлилга олиб кирилган.

Калит сўзлар: шоира, зуллисонайн, ғазал, бадиий санъат, таҳлил.

Адабиёт халқлар, миллатлар ўртасидаги дўстлик, биродарлик, ҳамжиҳатлик, меҳмондўстлик каби фазилатларни, маданий-маънавий алоқаларни боғлашга хизмат қиладиган воситалардан бири эканлиги маълум. Адабиётимиз тарихида Лутфий, Алишер Навоий, Огаҳий, Нодира, Муқимий, Фурқат, Дилшоди Барно каби кўплаб ижодкорлар туркий тил билан биргаликда форс-тожик тилида ҳам қалам тебратганлар. Икки тилда бирдек ижод қилган шоирлар зуллисонайн шоирлар деб аталган.

Зуллисонайн (арабча: икки тиллик) икки тилда муваффақиятли қалам тебратган шоирларга нисбатан қўлланиладиган атама[Салаев Ф. Қурбонниёзов Г., 2010: 74-бет].

Зуллисонайнлик – икки тилда ижод қилиш халқлар дўстлиги ва адабиётлар ҳамкорлигини мустаҳкамловчи яхши анъана саналади.

Халқлар ўртасидаги адабий алоқаларнинг мустаҳкамланишига ҳисса қўшган шоиралардан бири Анбар Отиндир. Анбар Отин XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида Қўқонда яшаб ижод этган. Шоира туркий тил билан биргаликда тожик тилида ҳам ижод қилган. Унинг тожикча ғазал, мухаммас, рубоий жанрларига оид асарлар ёзгани маълум. Икки тилда ижод қилган шоиралар ҳақида Э.Шодиев шундай фикр билдиради:“Улар ўзларининг ўзбек ва тожик тилларидаги асарлари билан адабий алоқаларимиз ривожига салмоқли ҳисса қўшдилар. Дилшоди Барно, Анбар Отин, Муаззамхоним сингари шоиралар икки тилда ижод этиб, икки тилда девон тартиб бердилар” [Шодиев Э., 1976: 101-бет].

Шоиранинг тожик тилидаги ғазаллари ҳақида дастлаб адабиётшунос олима Маҳбуба Қодирова ўз тадқиқотларида маълумот беради [Қодирова М., 1975]. Олима 1977 йилда “XIX аср ўзбек адабиётида инсон ва халқ тақдири (Ўзбек шоиралари ижоди мисолида)” номли монографиясида шоиранинг 10 дан ортиқ ғазалларини ўзбекча таржимаси билан нашр эттиради.

Шоира асарлари тожик олимлари томонидан ҳам тадқиқ этилган. Тарихчи Аҳрор Мухторов ўзининг “Дильшод и её место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX начале - XX вв” асарида шоиранинг устози Дилшоди Барно ва Анбар Отиннинг ҳаёти, ижоди, адабий меросини тадқиқ қилади [Мухторов А., 1969].

Анбар Отин тожик тилида ёзган ғазалларида ватанга бўлган муҳаббати, устозлари, фарзандлари, рус халқига бўлган дўстона муносабатини тасвирлаш

билан бир қаторда, даврнинг ижтимоий-сиёсий ҳаёти, маданий-маърифий жабҳасидаги камчиликлар, мазлум халққа давлат амалдорларнинг ўтказаётган жабр-зулми, бой кишиларнинг камбағал кишиларга бўлган муносабатлари, дин пешволарининг кирдикорлари ва қора ниятларини ошкора қаламга олади. Ватаннинг озодлиги, юрт тинчлиги, жамият адолати ва миллатнинг ёрқин келажаги борасидаги қарашларини ўз асарларида акс эттиради. Шоира ғазалларида ташхис, таносуб, ҳасби ҳол, иқтибос, талмеҳ, ташбеҳ каби бадиий санъатлар ҳамда пейзаш (табиат тасвирлари) тасвири, турли хилдаги қушлар образларидан унумли фойдаланади. Шоира ғазалларида Анбарой, Анбарнисо, Анбаро, Анбар, Анбар отун тахаллусларини қўллайди.

Шоира устозлари изидан боради, уларга эргашади. Шеърият илмини ўргатган, унга таълим-тарбия берган устози Дилшоди Барнога бағишлаб “Барнои ман”, “Отунбибижон” номли ғазаллар ёзади.

Шоира доимо элу юрт дарди билан ёниб яшайди. Уларнинг ғам-аламини ўзиники деб билади.

Баҳри ман зиндаги ҳар соату ҳар он азиз,

Як сухан бинвишта монам қадри ў аз жон азиз.

Ҳар калима гуфтани ман баҳри халқи шўрбахт,

Ложарам, дар айни ҳангомаш худи инсон азиз.

Таржимаси:

Мен учун турмушда ҳар соат ва ҳар он азиздир,

Бир сўз ёзиб қолдирайким, унинг қадри жондин азиз бўлсин.

Менинг ҳар бир сўзимнинг айтилиши бахтсиз эл учундир,

Бунда боис шуки, айни шу вақтда инсоннинг ўзи азиздир [Қодирова М., 1977: 174-бет].

Шоира ҳар бир дақиқани қадрлайди. Ундан унумли фойдаланади. Ўз асарларини келажак авлод учун қадрли бўлишини сезади. “Бахтсиз эл” дея халқининг аянчли турмуши, ҳаёти ва барча нарсадан мосуво эканлигига ишора қилади. Бироқ инсон ҳамиша азиз бўлиб қолаверишини таъкидлайди.

Шоира бойларга мурожаат қилар екан, уларнинг зиқналиги, қўл остида ишловчи кишиларга қилган ёмонликларини, заҳматкаш халқ меҳнати эвазига бойлик орттирганликлари урғу бериб шундай тасвирлайди.

Ба тавонгар гуфтам: Эй ту, то кай жон надиҳи?!

Ғаразам ин, ки ба мурдан жон осон надиҳи!

Важҳи бадхоҳии ман ин, ки ту бадхоҳи ҳама,

Роҳати жони ту анду рўзи дархон надиҳи.

Таржимаси:

Бойга: Эй сен, қачонгача жон бермай юрасан дедим,

Менинг ғаразим шуки, сен осонлик билан жон бермайсан.

Сени ёмон кўришимнинг важҳи шундаки, сен ҳаммага ёмонлик тилайсан,

Ваҳоланки, ўшалар сенинг жонинг роҳатидир, лекин сен уларга ноз-неъмат дастурхонини ёзмайсан [Қодирова М., 1977: 174-бет].

“Сени ёмон кўришим”,-дея шоира уларга бўлган нафратини ошкора баён этади. Бунда фақат шоира нафрати эмас, балки мазлум халқнинг ҳам уларга бўлган ғазаби акс этган. “Сен уларга ноз-неъмат дастурхонини ёзмайсан” мисралари орқали эса барча давлат амалдорлаи, боз-зодагонларнинг хасис ва очкўзликларини, уларни бировларнинг ҳақларини ҳам тортиб олишларига урғу беради.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, шоиранинг тожик тилида ёзилган асарлари икки халқ ўртасидаги адабий, маърифий алоқаларни янада мустаҳкамлашга хизмат қилди. Шоира ҳамма миллат ва элатларни қадрлайди. Халқлар дўстлигини олқишлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мухторов А. “Дильшод и её место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX начале - XX вв. – Душанбе.: Изд-во Дониш, 1969.
2. Салаев Ф. Қурбонниёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли луғати.- Т.: Янги аср авлоди. 2010.
3. Шодиев Э. Зуллисонайн шоиралар. Ўзбек адабиёти тарихи масалалари (Мақолалар мажмуаси).-Т.: Фан. 1976.
4. Қодирова М. XIX аср ўзбек адабиётида инсон ва халқ тақдири (Ўзбек шоиралари ижоди мисолида). Филология фанлари доктори... диссертация.- Тошкент., 1975.
5. Қодирова М. XIX аср ўзбек адабиётида инсон ва халқ тақдири (Ўзбек шоиралари ижоди мисолида). Монография. – Т.: Фан, 1977.

Tursunoy Jarkinova Abdumajitovna
Adabiyotshunoslik yo`nalishi magistranti

UMARALI NORMATOVNING ADABIY PORTRET YARATISHDAGI MAHORATI

ANNOTATSIYA

Adabiyotshunos, munaqqid Umarali Normatov o‘zbek adabiy tanqidchiligining rivojida o‘z o‘rniga ega. Adabiy jarayonning dolzarb muammolari ustida qizg‘in munozaralar olib boradi. Shoir va yozuvchilar ijodiga o‘zgacha tarzda yondashadi. Maqolada olimning adabiy portret yaratishdagi mahorati tahlil qilishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: adabiy tanqid, adabiy portret, xotira, adabiy o‘y, esse, novatorlik, munaqqid

Adabiy tanqid adabiyotshunoslikning asosiy va muhim qismi hisoblanadi. Tanqid aslini noaslidan ajratmoq ma’nosida adabiy jarayonda bo‘layotgan o‘zgarishlarga befarq qarab tura olmaydi. Adabiy tanqid har vaqt fidokorlikni talab qiladi. Uning qat’iy talablari zuvalasi pishiq munaqqidlarni yetishib chiqishiga undaydi. Tanqidchilikning bir necha yetuk olimlari qatorida adabiyotshunos, munaqqid Umarali Normatovning alohida o‘rni bor. Umarali Normatovga xos bo‘lgan hozirjavoblik, novatorlik, adabiyotga o‘zgacha nigoh bilan qarash uning har bir maqolasida aks etganligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Tanqidchi adabiy tanqidning turli janrlarida qalam tebratgan, o‘z mahoratini ko‘rsatgan. Umarali Normatov olib borgan adabiy suhbatlari ilmiy jihatdan izchil, teran mantiq asosiga qurilgan. Munaqqidning adabiy xotiralari, esselarida hayotiylik va badiiylik uyg‘un holatda beriladi.

Umarali Normatov “ilmiy-biografik tadqiqotning keng tarqalgan janri”[10] bo‘lmish adabiy portretda ham o‘z mahoratini ko‘rsata olgan. “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” kitobida bu janrga shunday ta’rif beriladi:

“Adabiy portret tub mohiyati bilan yozuvchi tarjimai holiga, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, ijodning ma’rifiy va ma’naviy ahamiyatiga dahl qila oladigan janrdir”.

Adabiyotshunosimiz, tanqidchimiz Umarali Normatovning adabiy portret janrida yaratilgan bir necha maqolalarida xuddi shu belgilarni ko‘rishimiz mumkin. Munaqqid “ Ijod sehri” asarining “Yorqin siymolar” bobida Qodiriy, Asqad Muxtor, haqidagi maqolalarini adabiy portret janrida yozgan desak xato bo‘lmaydi deb o‘ylaymiz.

Adabiy portretning mundarijasini boyitadigan muhim jihatlariga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

1. San`atkorning shakllanish jarayoni va bunda davr ham muhitning ta’sirini ochish;
2. Ijodkorning qiyofasi va individual uslubini shakllantirgan omillarni ko‘rsatish;
3. San’atkorning shaxs sifatidagi fazilatlari, nuqsonlari va ularning ijodida tutgan o‘rnini ko‘rsatish;[11]

Umarali Normatov “Qodiriy mo‘jizasi” maqolasida ham ijodkorning qiyofasi, boy me’rosini yuqoridagi xususiyatlarga tayangan holda ochib beradi. Qodiriyning bosib o‘tgan yo‘li, asarlariga singgan ulkan mazmun munaqqidning mulohazalari orqali ko‘z oldimizda gavdalanadi. Qodiriy fenomeni, badiiy mo‘jizasini boshlab bergan “Uloqda” hikoyasidan tortib, turkum hajviyalari, “Obid ketmon” qissasi, “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, publitsistik chiqishlarigacha bayon etadi. Qodiriyning ruhiy-ma’naviy dunyosini uning ijod yo‘li, asarlari, qismati orqali ochib beradi.

[10] Nazarov B va boshq. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi., 2012: 365-bet.
[11] Nazarov B va boshq.O‘sha kitob. 366-b.

“XX asr kuychisi” maqolasida esa Asqad Muxtor portretiga chizgilar beradi. Asqad Muxtorning she’riyati va prozasining mavzu ko‘lamiga diqqatini qaratadi. Ijodkorning “ Chinor”, “Davr mening taqdirimda” romanlarini shakl jihatdan o‘ziga xosligini e’tirof etadi. Ijodkorning “men”ini ko‘rsatishda adabiy suhbatlardagi fikriga ham tayanadi. Uning shaxsiga xos bo‘lgan jihatlarni asarlari bilan bog‘liqlikda ochib berishga uringan:

Asqad Muxtor shaxsiga xos muhim xususiyatlardan biri tabiatan uning izlanishga nihoyatda moyil ekanligidir. U butun ijodi davomida o‘z ishlaridan, yozganlaridan qoniqmay izlanib, yangilik qidirib, hayotning, yashashning ma’nosi haqida betinim o‘y surib o‘tdi.[12]

Olim asarlarini tahlil qilgan holatda ijodkorning to‘laqonli portretini yaratadi. “Nasrning munavvar yo‘li” maqolasi ham Odil Yoqubov ijodiy yo‘li haqida mushohadalardan iborat. Maqola xotiradan boshlanadi va uning hayot va ijod yo‘li, asarlari haqida fikrlar beriladi. Adabiy xotiradan boshlanishi, sodda, tushunarli tarzda berilishi o‘qiguvchini jalb qiladi. Umarali Normatov adabiy o‘ylari, xotiralarida, tadqiqotlarida ijodkorlar shaxsiyatiga hurmat bilan qaraydi.

Olimning asarga yondashishda o‘ziga xos uslubi bor. Adabiyotshunos soddalikka, teranlikka intiladi. Shu sabab ham munaqqidning mushohadalari hech kimni befarq qoldirmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nazarov B va boshq. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. T.: ”Tafakkur qanoti”, 2012. – 396 b.
2. Normatov U. Ijod sehri. T.: “Sharq”, 2007. – 352 b.

[12] Normatov U. Ijod sehri. T.: «Sharq», 2007. — 95-BET

Kamol Hakimov
A. Navoiy nomidagi
Til va adabiyot universiteti
1-bosqich magistranti

JONKUYAR TANQIDCHINING HAYOTIY YO‘LIGA NAZAR SOLISH ORQALI TANQIDCHILIKNI ANGLASH

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tanqidchiligining yirik vakili,yosh olimlar ustozi Umarali Normatovning hayotiy,ilmiy,ijodiy ishlariga,bir so‘z bilan aytganda,o‘ziga xos ilmiy-amaliy uslubiga qisqacha baho berishga baholi qudrat harakat qilinadi. Shuningdek, maqoladan U. Normatovning shogirdlarining,do‘stlarining fidoyi olim haqidagi go‘zal xotiralari,adabiy tanqidchilik haqidagi mulohazalar ham bayon etiladi.
Tanqidchilarning adabiyot ichidagi xatti-harakatlari,bir badiiy asarga turlicha yondashuv jarayonida olimning qanday yo‘l tutgani ma'qulligi haqida ilm ahlining taniqli vakillarining fikrlari ham maqoladan o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar:adabiy suhbat,tanqid san'ati,ilhom,kasb,problematik maqola,estetik tuyg‘u,savodxonlik.

Universitetda o‘qib yurgan kezlarimizda "Adabiy tanqidchilik" fanidan ma'ruza qiluvchi ustozimiz Shoira Ahmedova hammamizga bitta tanqidiy maqola yozishni vazifa qilib berganlar.Va menga A.Qahhorning "Sarob" romani haqida yozish vazifasi qo‘yilgan. Demoqchimizki,ilgari "tanqidchilik" deyishsa,asardan bir kamchilik, kemtiklik topishga kirishib ketishni hamda buni "qoyilmaqom" qilib "uddalagach", o‘zimizda yo‘q xursand bo‘lib yurishni benuqson yo‘l deb o‘ylardik.

Holbuki,tanqidchilar adabiyotning benuqson bo‘lishiga ko‘mak beruvchilar ekanini yoxud qusurli asarlar yozgan ijodkorlarni ijodda bequsur bo‘lishiga yaxshilik ila yordam beruvchilar ekanini keyinroq tushundik.

Tanqidchi bo‘lishni istagan odamlarda, birinchi navbatda estetik tuyg‘u benihoya o‘tkir bo‘lishi lozim,u san'at go‘zalligini nozik his qila bilishi,badiiy adabiyotdan chinakamiga zavqlana olishi shart.

Estetik tuyg‘uning zaifligi,san'atdagi go‘zallikni payqay bilmaslik san'atni bir tomonlama tushunishga,uni faqat g‘oyalar yig‘indisidangina iborat deb talqin

qilishga,tanqidchini esa asarda tasvirlangan voqealarni,xarakterlarni "yaxshi" yoki "yomon" deb baholovchi qoziga aylantirib qo‘yishga sabab bo‘ladi[2,199-bet].

Biz ilk tanqidiy maqolar yoza boshlagan vaqtda mana shu "qozi" kabi yo‘l tutganimizni bilmagan ekanmiz.

Hayotda bir kishining hammaga ham birdek yoqishi mumkin bo‘lmagan holatdir. Siz agar tor yo‘lakda oldingizda og‘ir yuk ko‘tarib kelayotgan kishiga yo‘l bersangiz,u kishi sizga rahmat aytadi,ammo ortingizdagi xuddi shunday yuk bilan turib,siz sabab biroz kutib turishga majbur bo‘lgan kishi,albatta,bu ishingizdan xursand bo‘lmaydi.Badiiy adabiyotda ham shunga o‘xshash holat mavjud.

Adabiyot san'atning so‘z bilan,so‘zning ma'no boyliklari,badiiy jozibasi,murakkab hayoti bilan bog‘liq turi.So‘zda muayyan darajada o‘z aksini topmaydigan narsa,hodisa... yo‘q.Adabiyot so‘zni mo‘jiza sifatida his etishdan boshlanadi[5,142-bet].

Ijodkor va tanqidchi olim do‘st bo‘lishi kerak.Ularning bir-biriga raqibdek munosabatda bo‘lishi birining ikkinchisidan ustunroq ekanini isbotlashga bo‘lgan harakati!

Tanqidchi ham ijodkor.Yozuvchi,shoir ko‘proq obrazlar vositasida qalbga ta'sir qilsa,tanqidchi shu obrazlar mohiyatini ilmiy asosda ochish yordamida ta'sir qiladi.Biri obrazlar yo‘lidan,boshqasi mantig‘ini ochish yo‘lidan boradi.

Tanqidchining vazifasi asardagi voqelik va undan kelib chiquvchi idealning amal qilish qonunini aniqlash,bu idealni hayot bilan solishtirib,qiyoslab o‘z fikrini aytishdir[5,181-bet].

Tanqidchining vazifasi,burchi haqida gap borar ekan,bular haqida munaqqid Umarali Normatov shunday javob beradi:"Yaxshi tanqidchining burchi-chinakam yaxshi asarni qo‘lida guldasta bilan kutib olish;Yaxshi tanqidchining vazifasi-chinakam yaxshi asarning mohiyatini ochib berish"["13-studiya" ko‘rsatuvidagi suhbat].

Biz yuqorida "qozi"lik qilgan ekanmiz,deganda shuni nazarda tutgandik,ya'ni tanqid-faqat kim yo nimanidir qoralash.

Aslida,haqiqiy tanqidchining ishi kitobxon ilg‘amagan jihatlarni,avvalo,ilg‘ab,mavjud bir asarni kitobxonning ko‘ziga yanada go‘zalroq,g‘ayritabiiy tarzda ko‘rsatishdan iborat ekan.

Tanqid san'atining chinakam asari xuddi proza,poeziya,rassomlik,musiqa... san'atining yuksak namunalari kabi haqiqiy estetik lazzat bag‘ishlashga qodir[5,148-bet].

Nazarimda,yozuvchi,shoirlar dono;tanqidchilar undan-da donoroq bo‘lishlari zarurdek.

Qozoq shoiri O‘ljas Sulaymon aytganidek,tanqidchi o‘ta darajada savodxon kitobxon.
Adabiy tanqidchilikning asl ma'nosi-munozaraga kirishish.Ammo haqiqiy tanqidchi o‘z kasbdoshlari yoki ijodkorlar bilan emas,asarlarning o‘zi bilan,asarlarda ko‘tarilgan g‘oyalar bilan munozaraga kirishadi.
Kasb azal-azaldan odamlarni bir-biriga yaqinlashtirib kelgan.Lekin bu yaqinlik haqiqiy samara berishi uchun professional saviya nihoyatda zarur...El qatori bir adabiyotchi bo‘lish uchun odamga ko‘p narsa kerak bo‘ladi.Agar inson o‘z hayotida Farhod-u Majnunlar kabi,Hamlet va Raskolnikovlar singari ... dramalarni boshidan kechirmagan bo‘lsa,shunday murakkab holatlarga tushmagan bo‘lsa,shaxs sifatida o‘shalarday qalbga,ma'naviy olamga ega bo‘lmasa,bu qahramonlarni,bu asarlarni,ularni yaratgan yozuvchilar dunyosini keragicha chuqur his qilishi,idrok etishi qiyin[5,141-bet].
O‘ylashimcha,namunali ustoz,go‘zal shaxs,yetuk olim Umarali Normatov mana shunday professional saviya va qobiliyatni o‘zida jo qilgan, Alloh tomonidan ato etilgan havas qilgulik darajadagi ilm sohiblaridan biri.
Bu olimning qaysiki kitobini,maqolasini o‘qimang-samimiylik,samimiylik...
Qaysiki suhbatini tinglamang-soddalik,soddalik...
Soddalik va samimiylik go‘zallikning asosi emasmi?!
Ilmiy rahbarim adabiyotshunos olim Bahodir Karimov o‘z ustozlarining ijodini o‘rganishdek sharafli,mas'uliyatli vazifani bizga topshirganlaridan boshimiz osmonda!Ammo qo‘rqish ham yo‘q emas.
Boisi katta insonlar,buyuk shaxslar ijodini o‘rganishda tadqiqotchining kichkina odam bo‘lib qolishi-fojia.Dunyoqarashning,intellektning tor bo‘lishi-fojia.
Shunday ekan,Erkin Vohidov ta'kidlaganidek "kichkina
kattalar"dan bo‘lishdan nomus qilgan holda,bunday torlikdan vijdonimiz uyalgani holda,Allohdan madad so‘rab ishga kirishish-yagona yo‘l. Boshqa chora ham yo‘q!
To‘satdan bunday hissiyotga berilishimizning sabablari sifatida U.Normatov haqida ba'zi ma'lumotlarni keltirsak:
- bobolari o‘zining sevimli qorabayir otini Sa'diyning "Guliston" va "Bo‘ston" asarlariga almashganlar;
- olim xususiy nashriyotlarda bosilib chiqayotgan saviyasi sust asarlarga salbiy munosabatda bo‘lib,hozirgi tanqidchiligimiz shu borada ortda qolayotganiga urg‘u beradi;
- shogirdlari respublikadagi eng ilg‘or olimlar:Hamidulla Boltaboyev,Bahodir Karimov, Dilmurod Quronov,Ulug‘bek Hamdam...;
- adabiy suhbatni adabiy tanqidning janriga aylantirgan olim;

- munaqqid sifatida yozilayotgan asarlarni kuzatmaydi,balki o‘sha asarlarning ichida yashaydi (H. Boltaboyev fikri);
- adabiyotning urib turgan tomirini qo‘lida ushlab turadi. Talabasidan bir narsa o‘rganishdan uyalmaydi.O‘z avlodining dunyoqarashi bilan qolib ketmadi,zamon bilan birga qarashlari ham yangilanib bordi (Ulug‘bek Hamdam fikri);
- hali ham yoshga o‘xshaydi,boisi domlada haligacha hayrat degan,hayajon degan fazilat yo‘qolgan emas.O‘qigan asarimizni o‘quvchiga yetkazish uchun bizga U.Normatovning hayrati,hayajoni kerak bo‘ladi (Bahodir Karimov fikri);
- A.Qodiriyga,A.Qahhorga uning muhabbati sig‘inish darajasida edi (Ibrohim G‘afurov fikri).["Yonimizda,yodimizda" ko‘rsatuvidagi suhbatlardan]
- 31 yoshida filologiya fanlari nomzodi;
- 47 yoshida filologiya fanlari doktori;
- 50 dan ortiq adabiy-tanqidiy asarlar,500 dan ko‘p maqolalar muallifi;
- ikkita tanqidchiga alohida hurmat bilan qaraydi:Ozod Sharafiddinov,Matyoqub Qo‘shjonov.

Shubhasiz,yuqoridagi manbalar ushbu olim hayoti va ijodini o‘rganishga bel bog‘lagan har qanday tadqiqotchi uchun mas'uliyat,sinov,mashaqqat...

Ustoz 90 yoshga qadam qo‘ydilar-hamonki bardam,jismlari ruhoniyatlari kabi baquvvat...

Ushbu she'r go‘yo ustozga atab yozilgandek:

Soching oqarishi,bel bukilishi,
Tish tushish-qarishga bo‘lolmas nishon.
Bemehnat yashagan yigit-yigitmi?!
Mehnatkash chol undan ming bor navqiron[4,4-bet].

Yoki Usmon Nosirning "Tiriklik ne kerak
bemehnat,beg‘am" degan,G‘afur G‘ulomning "Tiriklik ko‘rkidir:mehnat,muhabbat" satrlari ham ustozning she'rdagi suratidek...

Xalqimiz orasida bir ishga qo‘l uradigan bo‘lsang,kalla o‘zingniki,do‘ppingni yerga qo‘yib,bir o‘ylab ol,degan gap bor.Buning zamirida bir ishga kirishishdan avval yetti o‘lchab,bir kes,degan ma'no bor.

Domla qaysi asarni tahlil qilsa,ushbu tahlilda samimiylik,adabiyotga hurmat,garazgo‘ylikdan yiroqlik,tabiiylik,haqqoniylik birinchi planga chiqadi.

Subyektivlik,shaxsiy adovat domlaning ijodiga mutlaqo yot bir narsalardir.Shu sabab bo‘lsa kerak, jonkuyar ustoz o‘zidan kattaroq avlod tanqidchilarining hurmatiga sazovor bo‘lgan:

- U.Normatov "Yozuvchi falsafasi va mahorat" maqolasida davrning katta g‘oyalarini,muhim gapini ... "Davr mening taqdirimda","Imon","Qonli sarob" kabi asarlar misolida isbotlaydi.Maqolada bu asarlar keng tahlil qilinmaydi,biroq

tanqidchining fikrlari,hukmlari aniq tahlil,chuqur mushohadaning natijasi ekani ravshan sezilib turadi[3,77-78-betlar].

U.Normatovning yozuvchilikni xaraktershunoslik,xarakter yaratishni esa adabiyotning bosh masalasi degani;asarda koʻtarilgan masala qanchalik jiddiy boʻlmasin,u xaraktet mohiyatidan kelib chiqmasa,barchasi bekor,degan toʻgʻri fikriga raddiya berish ... maqbul yoʻl emas[2,205-206-betlar].

A.Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanida dor maydonidagi Anvar tilidan oʻz taqdiri,oʻz orzusi,oʻz shaxsiyatini qanday bayon etgan boʻlsa,nazarimizda,"Davr mening taqdirimda" asaridagi Ahmadjon obrazi haqida toʻxtalar ekan,U.Normatov goʻyo oʻz shaxsiyati haqida guvohlik bergandek:"Shunisi muhimki,Ahmadjon hayotda juda koʻp mashaqqatlarni boshidan kechirsa-da,oʻzini baxtiyor his etadi.Chunki chekkan jafolari zoye ketgan emas.Ahmadjon hayotini,kuch-quvvatini,aqlini katta maqsadlarga,asrning buyuk ishlariga fido etgan.Ahmadjon oʻzining Vatan va davr oldidagi ijtimoiy burchini yuksak darajada anglab yetadi va uni sharaf bilan ado etadi. Kitobxon ham uning hislariga hurmat bilan qaraydi,uning eng baxtiyor inson ekaniga,uning yoʻli chinakam baxt yoʻli ekaniga toʻla ishonch hosil qiladi"[3,78-bet].

Olimning yoshlarga qarata aytuvchi soʻngsoʻzi:"Mustaqillikning qadriga yeting".

Demak,ulugʻ ustoz biz-yosh olimlarga,umuman,kelajak avlodlarga ham ilmiy,ham ijodiy,ham hayotiy,ham vatanparvarlik darslaridan saboq bergan;oʻz asarlari orqali yosh adabiyotshunoslar haqiqat yoʻlida adashib ketmasliklari,zulmatlarda qolmasligi uchun qoʻlida chiroq ushlab,yoʻl koʻrsatgan mehribon ustoz sifatida yuzlar bilan yuzlashgan holda yashayveradilar,qadrlanaveradilar,ustozlik qilaveradilar!

Ishonamizki,hali ustozning rejalari,qiladigan ishlari tugagan emas,chunki doimiy harakatdagi inson uchun "intiho" soʻzi begona!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbek adabiy tanqidi.T.,Turon-Iqbol,2011.
2. Norboy Xudoyberganov. Soʻz kurashga chorlaydi. T.,Gʻafur Gʻulom,1979.
3. Nuriddin Shukurov. Bu olam sahnida. T.,Gʻafur Gʻulom,1982.
4. Shukrullo. Javohirlar sandigʻi. T. ,Gʻafur Gʻulom,1977.
5. "Kamalak"(adabiy-tanqidiy yillik toʻplam). T. , Yosh gvardiya,1990.

Nizamova Umida Sandjarovna
Andijon Mashinasozlik Instituti assistenti
umidanizamova18@gmail.com
Khamzayev Sanjarbek
Iqtisodiyot yonalishi 2-bosqich talabasi

UMARALI NORMATOVNING ILMIY IJODI

Annotatsiya

Ushbu maqolada biz adabiyotshunos va o‘qituvchi Umarali Normatovning ijodi va o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi haqida bayon qilmoqchimiz . Mazkur maqolada U. Normatovning ilmiy faoliyati sintezi olim-tanqidchining adabiy jarayonda, yangi o‘zbek adabiyoti tarixida paydo bo‘lgan barcha yangiliklarni halollik bilan, samarali tahlil qilgani, talqin qilgani va uning ilmiy yutuqlarini kuzatishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: tanqidchi, o‘zbek adabiyoti, adabiyotshunos, fan arbobi, olim-tanqidchi, ma'naviy meros, ma'naviy-axloqiy.

Til va adabiyotni tan olish va hurmat qilish - tinchlikni saqlashning kalitidir. Har bir til o‘ziga xosdir. Uning xalq mentaliteti va urf-odatlarini aks ettiruvchi o‘ziga xos iboralari mavjud. Bizning ismimiz singari biz ona tilimizni bolaligimizda onadan o‘rganamiz. Bu bizning ongimizni shakllantiradi, unga singdirilgan madaniyatga singib ketadi. 1999 yil noyabrda UNESCO bosh konferentsiyasi tomonidan e'lon qilingan Xalqaro ona tili kuni har yili 2000 yil fevralidan beri til va madaniy xilma-xillik va ko‘p tillilikni targ‘ib qilish uchun nishonlanadi. Tillar moddiy va ma'naviy merosimizni saqlash va rivojlantirishning eng kuchli vositasidir.

Ona tili va adabiyoti fani o‘quvchilar o‘rtasida umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashda asosiy manba hisoblanadi. Til va adabiyot o‘qituvchilari haqida maqola.

Maqolada biz adabiyotshunos va o‘qituvchi Umarali Normatovga nisbatan kuzatuvimizni bayon qilmoqchimiz.

Koʻp yillar davomida ona tili va adabiyoti oʻqituvchisi sifatida ishlagan professorlar ishonch bilan aytish mumkinki, talabalarda umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash ularning ona tilidagi darslar va mashgʻulotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Universitetlar oʻquv dasturida ona tili darslarining kamligiga qaramay, ular har bir darsdan va darsdan tashqari ishlardan talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash maqsadida foydalanishga harakat qilishadi.[Bill Bryson,2009 chap-2]

1974-2000 yillarda Oʻzbekiston Milliy Universitetining oʻzbek filologiyasi kafedrasini boshqargan. Bu yillarda u bilan oʻzbek adabiyotida O. Sharafiddinov, A. Aliev, A. Rasulov, N. Xudoyberganov, S. Sodiqov kabi taniqli shaxslar ishlagan. B. Karimov, A. Ulugov, R. Buchkarov. D. Kuronov. V. Hamdam. Ular va oʻzbek adabiyoti rivojiga qoʻshgan hissalari tufayli u nafaqat oʻz mamlakatida, balki chet ellarda ham tanildi.

Bizning tarbiyamizning maqsadi avlodlar oʻrtasidagi uzluksizlikni ta'minlash, axloqiy qadriyatlarni, keksa avlod avlodlarining bilimlari va tajribalarini, madaniyat asoslarini, insoniyat, xalq, mamlakat tarixiga hurmatni etkazishdir.

1957 yilda U. Normatov ommaviy axborot vositalarida nashr etishni boshladi va shu vaqt ichida u 500 dan ortiq maqolalar, 50 ga yaqin adabiy asarlar, 20 ta kitob, shu jumladan darsliklar, oʻquv qoʻllanmalari va boshqalarni nashr etdi U. Normatovning ilmiy faoliyati sintezi olim-tanqidchining adabiy jarayonda, yangi oʻzbek adabiyoti tarixida paydo boʻlgan barcha yangiliklarni halollik bilan, samarali tahlil qilgani, talqin qilgani, umumlashtirganligining yorqin dalilidir.

U. Normatovning asosiy kitoblari "Oʻzbek nasrining ufqlari" (1974), "Kamolot" (1982), "Ruhdagi inqilob" (1986), "Qodiriy bogʻi" (1996), "Umidli tendentsiyalar" (2000).). U. Normatov "Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi" (1981), Oʻzbekiston Davlat mukofoti laureati (1989).

Sovet hokimiyati yillarida u oʻz zamondoshlarining asarlarini oʻrganishni boshladi, ularning aksariyati endi hayotda boʻlmagan. Uning tadqiqot ishlari natijalari "Umidbaxsh tamoyillar" (Umidga moyillik), "Tafakkur yodusi" (Aql nuri), "Kakorni anglash mashagati" (Kaxxar asarlarini tushunish uchun), "Kungillarga" kabi asarlar uchun asos yaratdi. kochgan shehriyat ruhga kirdi), "Ustoz ibrati"

(Oʻqituvchining ta'limoti), "Ijod sehri" (Asarning sehrli asari), uning asarlari rus, tojik va turk tillarida nashr etilgan. Bundan tashqari, ilmiy faoliyatida realizm masalalari, XX-asr oʻzbek adabiyoti, adabiy jarayon hamda adabiy tanqidchiligining oʻziga xos xususiyatlari, shuningdek, Qodiriy, Sh. Xolmirzayev, P. Qodirov, Oʻ. Hoshimov va boshqa ijodkorlarning asarlari bilan bogʻliq masalalar muhim oʻrin egallaydi.
[U. Normatov,1968-y, 9-12 бб].

Nihoyat, U. Normatov 1962 yilda filologiya fanlari nomzodligi, 1978 yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Oʻzbek adabiyoti rivojiga qoʻshgan ulkan hissasi uchun unga Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan fan arbobi (1981), Xamza nomidagi Davlat mukofoti laureati (1989), Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi (1992) unvonlari berilgan.), "Toshkent davlat universitetining mohir oʻqituvchisi" (1998). Adabiy tanqidiy maqolalarini nashr etgani uchun "Sharq yulduzi", "Guliston", "Tafakkur" jurnallari unga sovrin topshirdi.

2006 yil 3-yanvarda esa 75 yoshga toʻldi. Ushbu yubiley sanasiga qadar Oʻzbekiston Milliy Universitetining oʻzbek filologiyasi kafedrasida uning barcha asarlari kafedra kutubxonasida toʻplandi va uning asarlari bibliografik roʻyxati tuzildi, u erda uning tarjimai holi nashr etilgan, barcha asarlari sanalari va asar turlari boʻyicha tasniflangan.

Mening fikrimcha, adabiyotda yosh avlodni axloqiy tarbiyalash uchun nihoyatda katta imkoniyatlar mavjud. Bizning vazifamiz shu imkoniyatlardan darslarimizda maksimal darajada foydalanish. Albatta, har bir asar tarbiyaning bir tomonlama yoʻnalishiga ega emas, bitta asarda siz vatanparvarlik, ona tiliga hurmat, bagʻrikenglik, oila haqida, ota-onalarga nisbatan mehr-oqibat, ezgulik va yovuzlik haqida tarbiyalash elementlarini topishingiz mumkin, va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Bill Bryson “ The mother tongue” The New York 2009 chapter 2
2. Ur P. *Discussion that work: Task–Centered fluency practice*. Cambridge, UK: Cambridge University Press. 1981.
3. Umarali Normatov. Mahorat sirlari.Toshkent.1968-y, 9-12 бб.
4. Ziyouz.uz
5. https://zen.yandex.ru/m

Karimova Yulduz Baxtiyorovna
FDU 2-kurs magistranti (+998998910263)

“MAFTUNKOR ISHQ MUJDALARI”DA BOBUR SHAXSIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyotshunos olim Umarali Normatovning “Maftunkor ish mujdalari” maqolasi asosida Bobur va uning “Boburnoma” asari tahlil qilingan. Bobur Mirzo shoh, olim, ijodkor sifatida yoritilgan. “Boburnoma” asaridan hikmatli so‘zlar keltirilgan va izohlangan. Bobur lirikasiga xos xususiyatlar keltirib o‘tilgan.

Tayanch iboralar: ijodkor shaxsiyat, hikmat, xalq og‘zaki poetik ijodi, qoliplovchi hikoyalar, syujet linyalari, maqol, g‘oyaviy mazmun.

Adabiyotshunos olim Umarali Normatov adabiyotimizning hamma sohalarida qalam tebratgan sermahsul ijodkor hisoblanadi. Ustozning yozganlari shunchaki qo‘ldan chiqqan narsalar emas. Har bir so‘z va ibora o‘ta sinchikovlik bilan tanlangan. Har bir fikr va jumla chuqur tahlil qilingan. Xususan, olimning “Maftunkor ishq mujdalari” [13] maqolasida Xayriddin Sultonning 1992-1996-yillari

[13] [Normatov U., 2006: 3-son].

“Boburiynoma” asari ustida ishlashi jarayonida yozilgan fikr-mulohazalarini tahlil qilib, muallif shaxsiga fikr bildirib o‘tilgan. Ustoz Bobur Mirzo ta’rifiga alohida e’tibor beradi: “Milliy adabiyotimiz tarixida hech qaysi adib o‘zi haqida bu qadar “ko‘b va xo‘b” yozgan, haq gapni mardona turib baralla aytgan emas. Buni Boburning o‘zi ham yaxshi bilgan, oshkora e’tirof etgan:

Har vaqtki, ko‘rgaysen mening so‘zumni,
So‘zumni o‘qub anglag‘aysen o‘zumni”.

Muallif tahlil jarayonida eng samarali usuldan foydalanadi. Avvalo, ijodkor shaxsi bilan bog‘liq voqealar bilan ketma-ketlik asosida tahlil qilib boradi. Bobur Mirzoning mardlik va muruvvatda, zakovat va matonatda tengsiz shaxsiyatiga maftun bo‘lib qolgan ijodkorga taxsin aytib, unga hamrohlik qilib boradi.

Bobur o‘zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida anchagina asarlar yaratgan bo‘lsa-da, ularning hammasi bizga yetib kelgan emas. Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan va o‘sha davr o‘zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo‘lgan “Boburnoma” asaridir.

Bu asar nafaqat tarixiyligi balki, xalq og‘zaki ijodi manbalariga boyligi bilan ham alohida ahamiyatlidir.

Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli – xalq og‘zaki ijodi (folklor) hisoblanadi. Muallifning noma’lumligi, yillar mobaynida turli aytimchilar tomonidan sayqallanib, takomillashib, mukammal shaklga ega bo‘lish xalq og‘zaki ijodi namunalariga xos asosiy belgilardir. Og‘zaki ijod har qanday yozma adabiyotga tayanch vazifasini bajargan. Yozma adabiyotning eng muhim yutug‘i shundaki, u unutilmaydi va keyingi avlodlarga o‘zgarmay yetib boradi. Bu ikkala adabiyot turi doimo yonma-yon yashaydilar va bir-birining rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Beliniskiy aytganidek: “Adabiyot doimo ommaviylikka suyanadi, o‘z tasdig‘ini jamiyat fikridan oladi…”[14]

[14][V. G. Belinskiy., 1977].

“Xalq hayoti bilan mustahkam bog‘langan adabiyot har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlarini, ruhiyatini, fikrlash, yashash tarzini akslantirishi tabiiydirki, bu – adabiyotning milliyligini vujudga keltiradi”[15]

U. Normatov aytganidek: “Bobur Mirzo qismatining o‘zi bir tilsim, uni moddiyuncha tafakkur orqali tushunish, tushuntirish mushkul, unda g‘oyibona ilohiy bir ma’no mujassam. G‘oyat tahlikali vaziyatda taxtga o‘tirgan kundan boshlab saltanat himoyasi yo‘lida ona yurtida olib bprgan samarasiz kurashlari, nihoyat, Hind elida buyuk imperiya tiklagunga qadar chekkan zahmatlari – bir inson bolasi dosh berishi mumkin bo‘lmagan mislsiz ko‘rgiliklardir”[16]. Boburning “Boburnoma” asarida xalq tilidan olingan va mashaqqatli hayoti davomida o‘zi orttirgan tajribalarga asoslangan hikmat va maqollar juda ko‘p. Muallif ularni asarda o‘z o‘rnida mohirona qo‘llay olgan. O‘z millatini urf-odati bilan birga afg‘on, eron, hindlarning rasm-rusumlari-yu, xalqona ijodlarini qadrlagan Bobur “Boburnoma” asarida batafsil yoritishga harakat qilgan. Ayrimlari forsiy ruboiy shaklida berilgan bo‘lsa-da, mazmunan hikmatni o‘z ichiga olgan umummilliy meros hisoblanadi. Quyida shu baytlar mazmuni va hikmatlar sharhi berilgan:

- Tashvishlanish, hovliqish vajsizdir. Xudoning taqdiri nima bo‘lsa, shundan boshqasi bo‘lmaydi. Bu ish oldindan bo‘lgani uchun, bu to‘g‘rida hech nima demaslik kerak.

- Agar oyog‘ing band bo‘lsa, rizoni oldinga qo‘y, agar tanho suvori bo‘lsang, o‘z boshingcha bor, ya’ni jahonga bog‘langan bo‘lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo‘l, agar hech narsaga bog‘lanmagan kishi bo‘lsang, yo‘lingdan qolma, keta ber.

Bobur azaliy taqdirni nazarda tutib, inson qismati oldindan belgilangani va bu qismatga odam xohlasa xohlamasa bo‘ysunishi shart ekanligini ta’kidlaydi. U hamisha atrofidagilardan o‘zini yuqori tutib dimog‘lanmadi. Aksincha, uni tanti va oliyjanobligi uchun bek-u navkarlar hurmat qilib, ortidan ergashdilar.

[15] [Umurov H., 2010: 45-50-bet].
[16] [Normatov U., 2006: 3-son].

-Yengiltak achchig‘langanda tig‘ bilan qo‘lin kesar, so‘ngra afsus qo‘li orqasin tish bilan chaynar.

Bu misra shoir Binoiy ruboiysidan keltirilgan bo‘lib, Bobur ikkisi mushoira aytadi. Bobur bu mushoirani “Boburnoma” asariga kiritadi.

- Ishlar o‘z vaqtida bajarilishi kerak: vaqtida bajarilmagan ish sust bo‘ladi, sust.

Bu huddi o‘zbek xalq maqolidagi “Qolgan ishga qor yog‘ar” degandek. Chunki o‘z vaqtida bajarilmagan ishda natija bo‘lmaydi.

- Eshittimki, qutluq tabiatli Jamshid bir bulog‘ boshida tosh ustiga shunday deb yozgan ekan: bu bulog‘ tepasida bizlar singari ko‘p kishilar kelib o‘lturdilar, ketdilar va yo‘q bo‘ldilar. Olamni mardlik va zo‘rlik bilan oldik, lekin o‘zimiz bilan go‘rga eltmadik.

Obburdan quyiroq bir chashma tushgan bo‘lib, shu chashma yonidagi toshga Bobur forsiy baytni bittiradi.

- May lazzatini mast bulur, xushyorlarga bundan nima bahra.

Bobur bir uzum navini angur deyishlarini yozadi. Undan tayyorlangan chog‘irlar juda xushtam bo‘lib, yaxshi mast qiladi.

- Umr bo‘yi o‘zimni yaxshilik bilan maqtadim, o‘zimni zohid va taqvodor qilib ko‘rsatdim. Ishq kelgach, zohidlik qayda qoldi-yu, yaxshilik nima bo‘ldi? Xudoga shukrki, o‘zimni sinadim. Ushbu hikmat Mironshoh mirzoning nabirasi Kichik mirzo tomonidan bitilgan ruboiydir.

Bu hikmatlar asosan forsiy baytlar orqali berib borilgan bo‘lib, Bobur ularni ayrimlarini hayotiy tajribasi asosida o‘zi yaratgan.

Eduard Xoldenning “Bobur insonlar ichida eng botiridir” degan ta’rifiga qo‘shimcha qilib “Bobur insonlar ichida eng rostgo‘yidir”deya Xayriddin Sulton aytsa, Umarali Normatov “Bobur ijodkorlar ichida eng samimiysidir” deya fikr bildiradi. She’riyatida, “Boburnoma” sahifalarida haqiqat Bobur hayotining bosh mezoni, asl mohiyati sifatida ko‘rinadi. Maqolada Xayriddin Sulton asarini tahlil qilgan olim aslida o‘z ichida necha yillardan buyon yashirinib yotgan tuyularni aks ettirishga ham intiladi va yuksak natijaga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. Maftunkor ishq mujdalari. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. T.;2006. 3-son
2. Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent - 2010
3. V. G. Belinskiy. Adabiy orzular. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977.
4. www.ziyouz. com

Бекзод Ибрагимов,
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва
адабиёти университети магистранти

XX АСР БОШЛАРИДА ЎЗБЕК-ЖАДИД ШЕЪРИЯТИДАГИ ЯНГИЛАНИШЛАР

(Боту шеърлари мисолида)

***Аннотация**: Мақолада XIX аср охири – XX аср бошларида юзага келган маърифатпарварлик, жадидчилик ҳаракати негизида вужудга келган янгича адабиёт, хусусан шеърият Боту (Маҳмуд Ходиев) ижоди мисолида таҳлил этилади. Бунда асосан, жадидчилик ғоясининг тарғиботи, шаклий ўзгаришлар, услубий янгиланишлар мисоллар ёрдамида кўрсатиб берилади.*

***Калит сўзлар**: жадидчилик, жадид адабиёти, Боту, Фитрат, Чўлпон, миллий уйғониш адабиёти, шеър, истиқлол, ижтимоий руҳ.*

XIX аср охири – XX аср бошларида юзага келган маърифатпарварлик, жадидчилик ҳаракати аввало, адабиётимизда катта еврилишларга сабаб бўлди. Дунё адабиёти билан кенг таниша бошлаган боболаримиз ўзбек шеъриятида ҳам турли шакл ва услубларни, янги жанр ва методларни қўллаб кўра бошлади. Натижада халқона тилга яқин, даврнинг ижтимоий муаммолари акс этган ўзгача бир шеърият юзага келди. “Миллий уйғониш (жадид) адабиёти XIX аср охирларида юзага келган мазкур ҳаракат ғояларининг адабий-бадиий ифодаси эди. Лекин гап шундаки, у жадидчиликнинг шунчаки бир кўргазмаси (иллюстрадияси) бўлиб қолмади, чинакам адабиётга айланди. У янги

адабиётни бошлаб берди. Авжи тараққийси 1915-1925 йилларга тўғри келди[17]”.

Дарҳақиқат, ўша даврдаги дунё адабиётидан улгу олиб шаклланган шеъриятга янгича методлар кириб кела бошлади. Таниқли адабиётшунос Умарали Норматов таъбири билан айтганда, “Фитрат, Чўлпон, Ойбек ва 20-йилларда улар изидан борган қатор истеъдодли шоирлар шеърияти яхлит ҳолда бизда Оврупа янги адабиётига ҳамоҳанг символизм адабий ҳодиса даражасига кўтарила бошлаганлигини тасдиқлайди.[18] Ўша давр шеъриятида нафақат маъно-мазмун жиҳатидан, балки шаклий-услубий янгиланишлар юзага келди. Бу биринчи навбатда Чўлпоннинг халқона руҳда битилган ўйноқи шеърларида ўз аксини топган бўлса, кейинчалик Ойбек ижодида янги бир босқичга кўтарилди. Аслида, бу каби услуб ва шаклларни янгиланиш ҳам деб бўлмайди. Чунки ижодкорнинг айтмоқчи бўлган гаплари, ғояларини турли рамз ва символлар асосида ифодалаши, лирик кечинмалардан кўра ижтимоий мавзуларнинг устуворлик касб этиши неча йиллардан бери аста-секин етилиб келаётган жараён эди. Жадид шеъриятида эса бу нарса янада яққол намоён бўлди. Ана шу даврнинг ёрқин ижодкорларидан бири Боту (Маҳмуд Ходиев) шеърларини таҳлил этиш орқали ҳам барча ижодкорлар учун умумий бўлган янгиланишларни кузатиш мумкин.

Наим Каримов Маҳмуд Ходиев ҳақида ёзар экан, уни бахтли юлдуз остида туғилган эди, дейди. “У 1919 йили ёзган дастлабки шеърлари билан Фитратдек аллома шоир назарига тушади. Ёш шоирнинг ёруғ келажагига ишонган устоз уни “Чиғатой гурунги” ташкилоти йиғилишларига жалб этиб, унда тарихга, Ватанга, миллатга муҳаббат туйғусини уйғотади. Ўзининг, Чўлпон ва Элбекнинг шеърларидан таркиб топган “Ўзбек ёш шоирлари” (1922) тўпламига унинг ҳам шеърларини киритади. Бундай катта ишончга

---

[17] *Б.Қосимов. (2004). "Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти". Тошкент: "Маънавият".*

[18] *Дунёни янгича кўриш эҳтиёжи (Умарали Норматов ва Улуғбек Ҳамдам суҳбати) 2001 йил декабр — 2002 йил феврал, Тошкент. «Жаҳон адабиёти» журнали, 2002 йил, 12-сон*

сазовор бўлган Боту устозлар умидини оқлаш учун ўз устида қаттиқ ишлайди. 1925 йили унинг “Умид учқунлари”, 1929 йили эса “Тўлқин товушлари” тўпламлари чоп этилади”[19].

Ёш бўлишига қарамай устозлари қатори шеърлари тўпламларга киритилиши, газета-журналлардан ташқари алоҳида тўплам ҳолида ҳам чоп этилиши Ботунинг чинакам истеъдод соҳиби эканидан дарак беради. Бундан ташқари, у ижтимоий ҳаёт билан доимий алоқада бўлиб, халқ дардини, одамлар орасидаги норозиликлар, кўнглидаги исённи шеърларига сингдира олган. Бошқа жадидлар қатори озодликнинг, тараққиётнинг бирдан-бир йўли илму маърифатда, ўқиш ва изланишда эканини яхши ҳис этган. Битиклари орқали ватандошларини бунга қайта-қайта даъват этган. “Ёз куни” деб аталган табиат тасвирига бағишланган лирик шеъри сўнгида ҳам “Қиш ўтди эмди, эй туронликлар, Битсин ялқовлик, туркистонликлар!”, дея хитоб қилади.

Шунингдек, шоирнинг “Ўзбек қизига”, “Куз кунида” каби шеърларида ҳам лирик-психологик тасвирлар билан бирга ўткир ижтимоий муаммолар ўз аксини топади. Айниқаса, ўзбек қизининг ҳуқуқсиз ва эрксизлиги, улғайгандан сўнг тақдир ҳукми билан азоб-уқубатларга гирифтор бўлиши, ёшликдаги ўйноқилик, эркинлик, севинч порлаган юзлар турмуш ташвишлари ила барбод бўлиши қаттиқ танқидий руҳда ифода этилади. Жумладан, “Ана сўнгра қоп-қоронғу зиндонда йиғлаб-сиқтаб ўлимингни кутарсан.” каби мисралари кишини жиддий ўйга толдирмай қўймайди. “Куз куни” шеърида эса баҳоридан айрилган япроқларнинг сарғайиб, ўлим шамолларини кутиб туриши, бир пайтлар севги булбулини ошуфта қилган гулларнинг, “ўз тусин йўқотган бу сўлғин чечаклар”нинг тўкилиш кунини кутиб туриши образли тарзда тасвирланади. Шеърнинг энг катта кулминацияси эса энг охирги сатр ҳисобланади, бизнингча: “Бу кунги ҳолатни кимса сезмасди”. Ҳа, куз ҳукмрон юртда ҳамма нарса сўлишга, сарғайиб тўкилишга маҳкум бўлмоқда. Не-не

[19] *Наим Каримов. Истиқбол йўлида кечган умр. “Жаҳон адабиёти”, 2013 йил, 5-сон*

чечаклар, азим чинорлар япроқ тўкиб, ҳаёт билан видолашмоқда. Энг аламлиси, буни ҳеч ким сезмаяпти. Ҳаммасини табиий жараён каби қабул қилмоқда. Юртнинг эгалари бир томошабин каби ҳиссиз кузатмоқда.

Ботунинг “Темир қозиқ юлдузига” шеърида ҳам 16 ёшли йигитнинг катта орзулари, абгор юртини озод, юпун халқини ҳур кўриш истаги акс этади:

Қўрқинч, жонсиз, тип-тинч, улкан, қайғу-алам чўлида
Қийноқ билан бита ёзган мен йўқсилга йўл кўрсат.
У йўл билан бу кенг чўлдан узоқлашиб кетайин,
Кўнглимдаги энг муқаддас тилагимга етайин,
Кетиб кўриб, сўнгра... истар экан битайин!

Ҳақиқатдан ҳам ўша пайтлари мустамлака зулмидан эзилган халқ бир сўз айтишга, ҳақини талаб қилишга қўрққан, шунинг учун шоир уларни жонсиз деб атамоқда. Ҳеч кимдан бир садо чиқмайдиган тип-тинч қайғу-алам чўлида бундай яшаб бўлмайди. Осмонга қараб айқиришдан, юлдузлардан нажот кутишдан ўзга чора йўқ. Кўнгилдаги энг муқаддас тилакка етиш учун ҳамма нарсага тайёр. Жадид адабиётининг энг муҳим хусусиятларидан бири ҳам айнан мана шундай символлар, образлар ёрдамида ижтимоий ҳаётга аралашиш, одамларнинг кўнглида озгина бўлса-да, эрк, истиқлол ғояларини сингдириш, ғафлат уйқусидан уйғотишдан иборат эди.

Ижтимоий руҳ жадид адабиётининг энг асосий хусусиятларидан биридир, десак янглишмаймиз. Умарали Норматов таъбири билан айтганда, “Ўзбек ёзма адабиёти ўзининг кўп асрлик тарихи давомида ҳеч қачон XX асрдагидек ижтимоий ҳаёт масалаларига бу қадар яқин келган, фаол аралашган эмас.”[20]

Боту Москвада ўқиб, дунё кўриб, Есенин, Маяковский, Луначарский каби юксак истеъдод эгалари билан фикр алмашиб, тажриба орттириб, ижоди ҳам янада такомилга эришиб қайтади. Шу билан бирга, ижтимоий-сиёсий жараёнларда фаол иштирок эта бошлайди. Қатор раҳбарлик лавозимларида

[20] *Умарали Норматов. Ижод сеҳри. “Шарқ” НМАК. Тошкент - 2007*

ҳам ишлайди. Жумладан, Самарқанд округ партия ташкилоти тарғибот ва ташвиқот бўлимига мудир, «Аланга» ёшлар журнали муҳаррири, «Қизил қалам» адабий уюшмасининг ташкилотчиси ва раҳбари, 1929 йил 28 августдан Халқ маориф комиссари ўринбосари сифатида фаолият кўрсатади. Унинг бу каби фаолияти замирида миллий мактаблар ва миллий кадрларга эътибор бериш масаласи турарди. У Халқ маориф комиссарлиги ва унинг шахобчаларидаги кадрларни маҳаллий миллат вакилларидан тайёрламасдан туриб, ўзбек халқи маорифи ва маданиятини юксалтириш мумкин эмаслигини теран тушунди ва бу борада қаттиқ кураш олиб борди. Айни шу курашлар халқимизнинг энг истеъдодли ва онгли вакилларидан бўлган Маҳмуд Ходиевни қатағон қурбонига айлантирди.

Шоир олис юртларда касал бўлиб, саргардон юрган кезлари ёзган бир шеърида бор аламларини, дарду ҳасратларини қуйидаги сатрларга жамлашга ҳаракат қилади:

Мен яшаш майдонида қўрқиб курашданми қочай?
Ёвга ёв бўлган амалга мен ўзим нурми сочай?
Қанча ғавғо, қанча савдо кулса кулсин, бир кўрай,
Кўнгилга кўнглимни қайд этган тилакдан ўргилай!.

Боту ижодида бу каби изтиробга тўла, элу юрт дардини акс эттирган мисралар, шеърлар кўп. Уларни бирма-бир таҳлилга тортсак, китобларга-да сиғмайди. Энг муҳими бу шеърлар бошқа жадид шоирлари ижодий мероси қатори XX аср бошларида халқ онгига таъсир эта олди, мудроқ юракларни уйғота олди. Шу сабабли ҳам бу асарлар ҳали кўп тадқиқотлар учун манба бўлиб хизмат қилади.

Isomiddinova Ravshanoy Dilshodjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
91282-47-40

IKKINCHI JAHON URUSHIDA AYOL QIYOFASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida ayol obrazining realistik tasviri. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida urushdagi ayollar qiyofasi. Ikkinchi jahon urushidagi ayollarning o‘ziga xos xarakterlari. Ayol obrazining urush davridagi tahlili. Robiya va Qora amma obrazlarining o‘zbek adabiyotidagi roli.

Kalit so‘zlar: polifonik asar, bosh g‘oya, ko‘p planli, realistik obrazlar, personajlar tili, epizodik obrazlar, makon kategoriyasi, qistirma hikoyalar, zamon va makon kategoriyasi.

“Ikki eshik orasi” romani keng planli, keng tarmoqli, ko‘povozli polifonik asar hisoblanadi. Ayol, avvalo, yaratuvchanligi bilan ulug‘lanadi, sharaflanadi. Zero, adibning o‘zi “Ayol” nomli publisistik maqolasida Onaning yaratuvchanlik qobiliyatini kurrai zaminga qiyoslab yozgan fikrlari bilan buni dalillaydi: “Ona mehrini to‘sadigan qudrati mana shundadir. Ehtimol, ona yurt, ona tili, ona vatan degan iboralar mana shundan kelib chiqqandir. Ehtimol, ona – yer degan ibora shundan kelib chiqqandir. Shuning uchun ham men yer kurrasini ayolga o‘xshataman” [Hoshimov O‘., 2016: 465 – bet]. Shu ma’noda, O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanini ikkinchi jahon urushidagi ayollar jasorati haqida yozilgan betakror asar deyish mumkin. Adib haqida gap ketganda taniqli munaqqid Umarali Normatovning quyidagi fikrlari xarakterlidir. “ Ilk qissasi “Cho‘l havosidan” tortib, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobiga qadar, barcha asarlariga xo mushtarak holat shuki, ular betakror, Benazir, sirli musiqiy ohang bilan yozilgan. Muallif qo‘lidagi qalam go‘yoki yozmaydi, balki qalami uchidan so‘zlar musiqa singari quyilib keladi; uning hikoya va qissalari kuydek yangraydi, romanlari ko‘p ovozli sinfoniyani eslatadi…” [Normatov U., 2007: 149- bet]. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, yozuvchi xalqchilligi, yuksak mushohadaga boyligi bilan alohida ajralib turadi. “Ikki eshik orasi” romanida, hatto, eng kichik epizodik tasvirlarda farzandiga bo‘lgan cheksiz mehri va muhabbati yuqori pardalarda kuylanadi va ta’sirchan hikoya etiladi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov: “Shartlilik badiiylikning mezoni sifatida asardagi bosh g‘oyani to‘laqonli ifodalashga xizmat qiladi. Haqiqiy badiiy asar ko‘p g‘oyali bo‘ladi. Asardagi barcha g‘oyalar, barcha unsurlar ana shu bosh g‘oya atrofida markazlashib, uni yorqin va to‘laqonli ifodalanishiga xizmat

qiladilar” – deydi” [Sarimsoqov B., 2004: 34- bet]. Olim e’tirof etganidek, “Ikki eshik orasi” romanida ham bosh g‘oya urushdan jabrlangan o‘zbekning, uch avlodning fojiaviy qismatini keng planda ochib berishdir. Ammo asardagi juda ko‘plab taqdirlar, maishiy lavhalar, psixologik tasvirlar, qistirma hikoyalar, epizodik obrazlar barcha-barchasi bosh g‘oya atrofida birlashib, jipslashgan. Jumladan, asira ayol hikoyasi ham ana shunday badiiy maqsad yo‘lida kiritilgan. Qora amma obrazi bilan g‘amboda Ona haykali, Qora amma bilan noma’lum soldat monumental haykalining kiritilishi ham asardagi bosh g‘oyaga juda uyqash keladi. Binobarin: “General haykallardan uzoqlarga ma’yus termilib o‘tirgan Ona paydo bo‘ldi. U katta - katta, sertomir qo‘llarini tizzasiga qo‘yib, boshini quyi solib o‘tirar, ko‘zlarida cheksiz mung... umid bor edi. Negadir vujudim seskanib ketdi. Axir bu....ammam-ku. Qora ammamning o‘zi-ku! No‘g‘ayqo‘rg‘onga, uyiga borganda xuddi shu alpozda o‘tirganini ko‘rganman” [Hoshimov O‘., 2016: 519-bet]. Mazkur parcha ikkinchi kurs talabasi Muzaffar tilidan hikoya etiladi. Motamsaro Ona haykali aslida, ramziy ma’noda urushda o‘z sadoqat va sabr-matonatini ko‘rsatgan o‘zbek ayollarining timsoli. Asar qahramoni Muzaffar g‘amboda Ona haykali bilan Qora amma o‘rtasidagi o‘xshashliklarni juda nozik hissiyot bilan ilg‘aydi. Boshini quyi solib, sertomir qo‘llarini tizzasiga qo‘yib, ko‘zlariga mung bilan uzoqlarga tikilib o‘tirgan Ona haykali aslida Qora amma taqdiriga ramziy ishora beradi. Qora amma o‘g‘li Kimsanni urush tugaganiga yigirma yildan oshib ketsa ham kutaveradi. Zero, farzandi dog‘ida kutaverib ado bo‘lgan ayol va onaning ruhiy holatini shu bir kichik parchada ham kuzatishimiz mumkin: “- Bola-m! – Qulog‘imning tagida yangragan faryoddan seskanim ketdim. – Onasining go‘riga tushgan bola-a-am! – Ammam dadamning qo‘lidan yulqinib chiqdi-yu, kalovlanib, yigit haykaliga talpindi. Yugurib borib haykalni quchoqladi. – Onasini dog‘da qoldirib ketgan Kimsani-i-im! Jon bolam. Jonim bolam! – U haykalning kaskali boshidan quchoqlab o‘pa boshladi. Ro‘moli sirg‘alib tushib, haykalning avtomatiga ilinib qoldi. Oppoq sochlari to‘zg‘ib ketdi” [O‘sha asar 520- bet]. Unda qatnashayotgan personajlar esa qalamga olingan davr, muhit va joyning aniq vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Bu badiiylikning muhim shartlaridan biri bo‘lib, hayotiylik va xalqchillik fazilatlarini ta’minlashga yordam beradi. Badiiy asarda zamon va makon kategoriyasi yozuvchi dunyoqarashi hamda adabiy tafakkuri darajasi bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Adib o‘zi qalamiga olayotgan davr hamda hudud to‘g‘risida yetarli ma’lumotga, tugal xulosaga ega bo‘lishi kerak. Romanning muhim ijtimoiy, umuminsoniy, zamonaviy qimmati ham ana shunda yozuvchi uzoq davrlik voqealarni, ko‘plab insoniy taqdirlarni bosh qahramonning bir necha soatlik kechinmalari ichiga jo etadi. Shunisi xarakterliki, muallif voqealarga bevosita aralashmaydi, muxtasargina so‘z boshidan keyin u

bevosita ko‘rinmaydi, so‘z, ixtiyor butunasiga qahramonlarning o‘zlariga beriladi. Qahramonlar esa o‘z boshlaridan o‘tganlarini o‘zlari so‘zlashga kirishadilar. Shu paytga qadar bizda asar voqealarini qahramon tilidan hikoya usuli bor edi. Bunda voqea ko‘proq bir, goho ikki personaj tili, nigohi orqali berilar, ba’zan bir necha personaj boshidan o‘tganlarini hikoya qilib berar edi. Bir emas, bir necha personajlar tilidan hikoya qilingan asarlarda har bir personaj sarguzashti ko‘pincha mustaqil, tugal hikoya yoki qissa shaklini olar edi. “Ikki eshik orasi”da esa o‘zgacha manzaraga duch kelamiz. Bir – ikki epizodni mustasno qilganda unda alohida mustaqil, tugal sarguzasht yo‘q; asarda bir necha sarguzashtlar yondosh holda biri - biri bilan tutashgan, chirmashgan holda berilgan. O‘nga yaqin har xil tabiatli, har xil yoshdagi personaj, buning ustida ular umr pog‘onasining turli bosqichlarida turib sarguzashtlarini hikoya qiladilar. Ko‘p o‘rinda bir hodisa ikki yoki bir necha personaj nuqtai nazaridan hikoya qilinadi, baholanadi. Masalan, Ra’noning xiyonati ham uning o‘zi, ham uni shu yo‘lga boshlagan Umar zakunchi, ham Robiya tili, nuqtai nazaridan beriladi; bir hodisa uch shaxs nigohida uch xil talqin etiladi... Bu hol asarga o‘ziga xos polifonik xususiyat, serjilo ma’no baxsh etadi, asar dramatizmini kuchaytiradi, o‘quvchida hodisaga nisbatan qiziqishni oshiradi. Asarda Ra`no qora amma va Robiya obrazlariga nisbatan qarama – qarshi xarakterda ifodalanadi. Ya`ni qora amma va Robiya o‘sha davrning qiyinchiliklariga sabr hamda ulkan matonat bilan bardosh bera oladigan ayol qiyofasida tasvirlanadi. Yozuvchi bu ikkala obrazni shunday mahorat bilan tasvirlaydiki, ularning birisi o‘g‘lining o‘lganiga ishonmay, butun umr uning yo‘liga intizor bo‘lib kutgan mushtipar ona bo‘lsa, ikkinchisi esa yosh bo‘la turib birovning farzandiga onalik qilib, mehr – muhabbatini ayamay butun umrini unga bag‘shida qilgan, beg‘ubor o‘zining orzularidan voz kecha olgan matonali qiz. Ra`no obraziga to‘xtaladigan bo‘lsak, u yuqorida aytganimizdek yengiltabiat, vafosiz o‘zbek ayoliga xos bo‘lmagan o‘zgacha bir xarakter orqali ochib beriladi. U o‘z turmush o‘rtogini urushdan qaytishini kutmaydi va xiyonat ko‘chasiga qadam qo‘yadi, uning bu qilayotgan xatti – harakatlari farzandining kelajakdagi taqdiri uchun qora dog‘ bo‘lib qolishini u hatto o‘ylab ham ko‘rmaydi. Ra`no va Robiya obrazlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Adib ularni ruhiyati, xarakteri va taqdirlarini qarama-qarshi ravishda tasvirlaydi. Robiyada o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan barcha xislatlar mavjud bo‘lib, u hattoki o‘z farzandlik burchini deb muhabbatidan voz kecha olgan mardonavor, jasoratli ayol qiyofasida gavdalanadi. Ra`no esa buning aksi. Ra`no obrazi orqali yozuvchi o‘sha davrdagi ya`ni urushdagi ayollarning qismati, ularning qiyinchiliklarga qay darajada ulkan bardosh bilan sabr qila olishini yoritib bera olgan. “Ikki eshik orasi”da esa odamlar taqdiri bilan qiziqish ustun, uni “taqdirlar romani” desa bo‘ladi. Romandagi taqdirlar o‘z

navbatida kontseptual xarakterga ega. Yozuvchi qahramonlar taqdiri talqinida hamisha romandagi bosh kontsepsiyadan, ya'ni odamlar qismatidagi urush bilan aloqador jihatlardan kelib chiqib ish ko‘radi. Umar zakunchi obrazini va boshqa ayrim personajlarni mustasno etganda, qolgan barcha qahramonlar qandaydir urush jafosini chekkan urush odamlaridir. Muzaffar urush davri chigalliklari tufayli tirik yetimga aylanadi, ko‘p jabr-sitamlarni boshdan kechiradi va pirovardida uning sevgi fojiasi ham urush keltirgan chigalliklarga borib taqaladi. Sevgilisi Munavvar urush qoldirgan ma'naviy jarohatlar qurboni bo‘ladi. Tuqqan onasi Ra'no urush to‘zonlari ichra dovdirab, yo‘ldan toyib hayot so‘qmoqlariga kiradi; boqqan onasi Robiya ko‘ngil bergan yigitidan judo bo‘lib tutingan tog‘aga xotin, Muzaffarga esa o‘gay ona bo‘lib qoladi. Qora amma o‘g‘lining sevgilisini o‘z inisiga unashtirishga, ikki o‘g‘lidan judo bo‘lgan Oqsoqol esa o‘z kelinini boshqa birovning nikohiga o‘tkazishga majbur bo‘ladi... Roman muallifi ko‘p o‘rinlarda qahramonlarning g‘oyat keskin, murakkab, chigal, mushkul daqiqalardagi ruhiy holatlarini mahorat bilan ifoda etadi. Ayniqsa, Oqsoqolning olomon oldida kelinini ko‘ngil qo‘ygan nogiron yigitga nikohlab berish lavhasi, o‘sha murakkab lahzalardagi Oqsoqolning g‘oyat tig‘iz, ruhiy holati; Komil tabibning Robiyaga jangda halok bo‘lgan ikki ko‘ngil rozini izhor etishdagi dramatik kechinmalari, jangda yarador bo‘lib qaytgan Shomurodning suyukli go‘zal xotini xiyonatidan voqif bo‘lgan kezlardagi iztiroblari, Ra'nodagi ikkilanish holatlari, so‘ng aldanib chekkan alam va pushaymonlari, adadsiz qalb qiynoqlari – bunga o‘xshash lavhalar tasviri har bir insonni yuragini larzaga soladi. Umuman olganda, yozuvchi asarda ikkinvhi jahon urushidagi ayollari tasviri deb turli xil xislatga ega ayollarni tasvirlab berib o‘tadi. Asosiy eng mukammal va haqiqiy ayol va ona bu Qora amma obrazida to‘liq namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. –T.; Sharq, 2016. 465 – bet
2. Normatov U. Yangi o‘zbek adabiyoti . –T.; Universitet, 2007. 149 – bet
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari.-T,;Sharq, 2004. 34- bet

Yunusaliyeva Gulbahor Arabboy qizi
FarDU magistranti +998993498549 @Bahora_1007

XAYRIDDIN SULTONNING “KO‘NGIL OZODADUR” QISSASIDA OBRAZ VA G‘OYA

Annotatsiya. *Maqolada mustaqillik davri o‘zbek qissalariga xos yangilanishlar Xayriddin Sultonning Ko‘ngil ozodadur” qissasi tahlili orqali tadqiq etilgan. Qissadagi obraz va g‘oya yozuvchi individual uslubi orqali yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qissachilik, modernizm, estetik ideal, badiiy asar tili, ramziylik, shartlilik, poetik mazmun.*

Bugunga qadar o‘zbek qissachiligiga oid bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda qahramonlar ruhiy holatiga alohida e’tibor qaratilgan. Mustaqillik davri qissalari o‘zining qahramonlar ruhiy holatini o‘zgacha tasvirlashi bilan ajralib turadi. Bu davrda sho‘ro davridan farq qiluvchi yangicha badiiy-estetik idealni aks ettiruvchi asarlar yaratila boshladi. Qissachilikda poetik izlanishlar istiqlol davrida yanada ko‘proq namoyon bo‘ldi. Bu davrda insonni ijtimoiy hayotning bir namoyondasi emas, balki o‘ziga xos bo‘lgan ma’naviy olam egasi sifatida kashf etishga e’tibor kuchaydi. Bundan tashqari bu davr qissalarida tasvirda shartlilikka, ramziylikka katta e’tibor berila boshladi. “Mustaqillik davri adabiyotining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi jihatlardan biri shundan iboratki, bir guruh yozuvchilar yangicha badiiy shakl bilan adabiyotimiz ufqlarini kengaytiruvchi asarlari bilan adabiyot olamiga kirib keldilar. Ma’lum bir davrga, muhitga, shaxsga xizmat qiladigan soxta qahramonlarni adabiyotga olib kirgan sho‘ro davriadabiyotidan butunlay farqlanib turadigan istiqlol davri adabiyoti o‘ziga xos ovoz va uslubga ega bir guruh iqtidorli ijodkorlarni kashf etdi. Ular yaratgan asarlar mazmun – mundarijasi, shakliy qurilishi, ifoda yo‘sinioningo‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularda o‘ziga xos zamon va makon tushunchalari qorishib, o‘ng bilan tush ayqash – uyqash keladi. Voqea – hodisalar real hayotda emas, xayolparast qahramonning xayoli, ongida kechadi; u dunyo bilan bu dunyo orasidagi chegaralar yo‘qolib, tiriklar bilan o‘liklar o‘zaro muloqot qilishadi. Biroq yuzaki qaraganda mantiqsizlikdek tuyulgan hodisalar asarni o‘qisangiz, ma’lum ma’noda, mantiqiy falsafa, izchil dard, teran ma’no borligini ko‘rish mumkin”[Doniyorova Sh. “Tasvirdagi evrilishlar” O‘zbek tili va adabiyoti 2002. 3-son 69-bet] Iste’dodli

yozuvchi,o‘zining insoniylik tuyg‘ularini badiiy adabiyotga olib kirgan ijodkor Xayriddin Sultonning asarlari ham shu jihatdan xarakterlidir. Atoqli adabiyotshunos, munaqqid Ibohim G‘ofurov so‘zlari bilan aytganda, “Xayriddin Sulton oddiy odamlarning yuraklaridagi ma’naviyat gavharini, insonni insoniylik darajasida mo‘tabar qilib turadigan xislatlarni teran va yorqin badiiyat bilan tasvirlashga alohida e’tibor qaratadi”. Darhaqiqat, adib qalamiga mansub “Ko‘ngil ozodadur” qissasi ham yuqoridagi barcha fikrlarning yaqqol isbotidir. Qissa asarning bosh qahramoni, yosh va soddadil yigit G‘ulom tilidan hikoya qilinadi. Asar voqealari kuz faslidan boshlanadi. “O‘sha yili kuz shunday tiniq, shunday ma’yus kelgan ediki, beixtiyor odamning yig‘lagisi kelardi. Kechalari shaharda xazon yoqilardi.” Ayni shu tasvirning o‘ziyoq asar va uning bosh qahramoni G‘ulomning ichki dunyosida kechayotgan xorg‘inlik, sukunat va norozilik his-tuyg‘ularini ochib berishga xizmat qiladi.

Asarning bosh qahramoni – G‘ulom. Qahramonga tanlangan ism ham muayyan poetik mazmunga ega. Shu ismning o‘ziyoq qahramonning ijtimoiy hayotdagi mavqeyini, ichki dunyosi, fe’l – atvoriga monand jihatlarniva xarakterini namoyon qiladi. U o‘z ichki olamining quli. Lekin u o‘sha davrdagi mansabparast amaldorlarning quli emas. Chunki u sof vijdon va ozoda ko‘ngil sohibi. “ G‘ulom – mohiyatan e’tibori ila butun, yaxlit obraz, uning ma’naviy olami yuksak. Shu xislat uni ommadan – hammadan ajratib turadi. Qissadagi voqealar uning fe’l - atvoriga, kayfiyatiga, kechmish hodisalarni tahlil qilishiga muvofiq holda rivojlanib boradi”[Karimov B. “Badiiy so‘z ohangrabosi”]. G‘ulom asardagi Gulxaniy obrazini hozirgi zamon bilan bog‘lab turuvchi shaxs desak ham bo‘ladi. G‘ulomning parishonxotirligi, chalkashib ketgan xayolot dunyosini ochib berish uchun asarga Gulxaniy obrazi majoziy bir vosita sifatida kiritilgan. G‘ulom “Zabulmasal”ni shu darajada sevib mutolaa qiladiki, natijada u asarni ichida yashay boshlaydi va asar muallifi - Gulxaniy bilan xayolan muloqot o‘rnatadi. Eshmuhammedov domlaning ta’biri bilan aytganda “tarixan cheklangan” “Zarbulmasal”ga oshno tutingan, soddagina G‘ulomning taqdiri orqali zamondagi chirkin illatlar fosh etiladi. Adib nega Zarbulmasal”ga murojaat qiladi? Xayriddin Sulton ko‘p asarlarida moziyga va tarixiy shaxslarga murojaat qiladi. Adib asarlaridagi Amir Temur, Z.M. Bobur, A. Qodiriy shular jumlasidandir. “Ko‘ngil ozodadur” qissasida ham tarixiy shaxs bo‘lgan Muhammadsharif Gulxaniyni adabiyotga olib kiradi. Adibning maqsadi: “Zarbulmasal” asarini kitobxonga yanada anglatish. Asarda bosh qahramonning pokligi,soddaligi, atrofidagi yaxshi-yomon insonlarning xarakteri, zamondagi adolatsizliklarni ochib berish va ularga G‘ulomning munosabatini ko‘rsatib berish uchun “Zarbulmasal”dagi matal va hikmatlardan mohirona foydalanilganligini ko‘ramiz. Asarda maqol va hikmatlar shunday mahorat bilan qo‘llanilganki, G‘ulom

doimo qandaydir vaziyatda yechimsiz qolsa, Gulxaniy tilidan bir matal aytib beriladi va bu matal masalaning yechimi bo‘libgina qolmay, G‘ulomning ham, kitobxonning ham yuzida beixtiyor kulgi uyg‘otadi. Yengil kulgi ostida esa zamonning achchiq haqiqatlari berkinib yotadi. Qissada Gulxaniy tilidan aytilgan “Qum yig‘ilib tosh bo‘lmas, qul yig‘ilib bosh bo‘lmas”, “Yaxshilar bilan yurding – yetding murodga, yomonlar bilan yurding – qolding uyatga”, Yumruq yukunib biyk bo‘lmas, echki yugurib kiyik bo‘lmas”, “Ikki kema tutganlar qoldi g‘arqob ichinda”, “Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyulmas” kabi ko‘plab maqollar ham asarning tub mohiyati va bosh qahramonning holatini ochib berishga ifoda qilgan. Asarni o‘qir ekanmiz, undagi maqol va hikmatli so‘zlarni nechog‘lik hayot haqiqatlariga monandligi, tarbiyaviyligi va xalqimizning donoligigaga lol qolamiz. Shuningdek, kitobxonda beixtiyor “Zarbumasal”ga bo‘lgan ishtiyoq ortib ketadi. Adibning eng katta yutug‘i ham necha ming yil avval yashab o‘tgan tarixiy shaxsni bugungi kun va shu ijtimoiy tuzumdagi insonlar obrazi bilan bog‘lay olganligidadir. Asarda pok vijdonli, chin ilm odami bo‘lgan G‘ulomga qarama-qarshi xarakter egasi bo‘lgan, pul quliga aylangan Shodiyor obrazi kiritilgan. Shodiyor va G‘ulom obrazlari orqali o‘quvchi oq-qorani osongina ajratadi. Qissada ma’naviy tubanlik yosh tanlamasligi, muhitdagi chirkin illatlar zamonaning G‘ulomdek zabardast va ilmli insonlarini halok etishi asoslanadi. Bunday nafs bandalarini, tuban kimsalarni hayotimizda ham ko‘plab uchratishimiz mumkin. Asarni anglash orqali “Adabiyot – hayotning in’ikosi” ekanligiga yana bir boramin bo‘lamiz.

Asar haqida filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim shunday yozadi: “Ko‘ngil ozodadur” haqida har bir o‘quvchi o‘z fikri, o‘z xulosasini bildirishi mumkin. Nazarimda, qissa inson taqdirining anglab bo‘lmas sir, nihoyatda mushkul jumboq ekani haqida bahs qiladi. “Zarbulmasal” kitobidan olingan “Taqdirni tadbir yengi bilan yopib bo‘lmas”, degan chuqur ma’noli hikmat mana shu sirli jumboqni yechishda o‘ziga xos ochqich –kalit bo‘lib xizmat qilishi mumkin.”

Qissa til xususiyatlari, shakl va mazmun, hikoya qilib berish yo‘sini jihatidan ham boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Asarda sharqona milliy adabiyotning zamonaviy modern bilan uyg‘unlashuvini ko‘rishimiz mumkin. Qissa biz o‘rganmagan g‘ayriodatiy uslubda, o‘zgacha tilda yozilgan. Uslub va badiiy matn tili asarga shu darajada singib ketganki, bu kitobxon va matn o‘rtasida to‘siq paydo qilmaydi, aksincha, o‘quvchi asarni sodda va ravon anglay oladi. Qissaning til xususiyatlari ham asar badiiyligini yanada oshirib bergan. Zero, “…xalq tili boyliklaridan, ifoda va tasvir imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish orqali til badiiyatini yuzaga keltirish ijodkor mahoratining bosh mezoni hisoblanishi bilan birga, umuman, adabiyotning badiiyligini belgilovchi mezon bo‘lib xizmat qiladi”[SarimsoqovB., “Badiiylik mezonlari”.-T:120-bet.].

“Bir ayyomi nafarjomda barchamizni mashvaratga chorladilar, guras – guras kelib kursilarni ishg‘ol etdik, besh – o‘n soniya o‘tib Rohibar salovat va ziyo to‘kib, anvoyi atirlar isini anqitib huzurimizga tashrif buyurdilar, ortlarinda sochi barra qo‘zi terisidek jingalak Muovin, qo‘llarida lagan, oyoq uchinda pildirab keldilar.”[Sultonov. X. “Ko‘ngil ozodadur”- T: Yangi asr avlodi, 2019. 291 – bet]

Asardagi ushbu parcha yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir. Adib qissada bugungi kun odami –yosh ilmiy xodimning o‘zidan necha asr oldin yashagan tarixiy shaxs – Muhammadsharif Gulxaniy bilan xayoliy suhbatlari, bir uyda yashashiga o‘quvchini shu qadar ishontiradiki, kitobxon bu voqeani fantastik asar deb hisoblamaydi, aksincha, kitobxon beixtiyor asar qahramonining hamrohiga aylanadi.

Asarda go‘zal uslub modernizmning belgilari yaqol sezilib turadi. Shuning uchun ham asarda olamni aks ettirishning norealistik uslubi ko‘zga tashlanadi. Bunda xayol sintezi orqali tasvirni yuzaga chiqarib berish kuzatiladi. G‘ulom va Gulxaniy o‘rtasidagi voqealar buning yorqin misolidir.Adib qissada Gulxaniyning “Zarbulmasal”idagi qahramonlarni yengil kulgi ostida hozirgi davr kishilari bilan solishtiradi va shu orqali zamonning yolg‘onchilari–yu maddohlarini fosh etadi. Buni G‘ulom Gulxaniyga qarata aytgan ushbu fikrlarda ko‘rishimiz mumkin: “Eh mavlono Gulxaniy, agar chindan ham tarixan cheklangan bo‘lmaganingizda, Muhammad Yusufboydek go‘l bir kimsa – yu Yodgor po‘stindo‘z kabi lof bandasini shunchalar mazammat qilmagan bo‘lur edingiz! Axir bular bugungi men ko‘rgan odamizod orasindagi turfa zotlarga qiyos etilsa, arshi a’loda uchib yurgan farishtalar kabi pokdomon emasmi? Bilmaysizki, men xizmat va himmat kamarini bog‘lagan mo‘tabar idorada bir rohibar bor edi, lak ming Yodgor po‘stindo‘zlaringiz yolg‘on bobida uning oldida ip esholmay qolardi”[Sultonov.X.“Ko‘ngil ozodadur”- T: Yangi asr avlodi, 2019. 291 – bet]. Nosir G‘ulomning “rohibar”i misolida zamonaning yolg‘onchi amaldorlarini, muovin obrazi orqali maddoh kimsalarni, Shodiyor orqali otasining puliga ishongan, faxsh ishlarga, ichkilikka berilgan tarbiyasiz yoshlarni, uning otasi va tog‘asi misolida poraxo‘rlik avj olgan jamiyatni ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari Dinora opa, uning eri Sherlon va qaynotasi Rahmon bobo obrazlari orqali oilaviy munosabatlar masalalariga ham e’tibor qaratilgan. G‘ulom va Qunduzning munosabatlari esa shu chirkin zamonning zayli bilan darz ketgan pok va beg‘ubor sevgining yaqqol misolidir. Qissadagi asosiy g‘oya ko‘ngli va dunyosi pok bo‘lgan insonlarni G‘ulom timsolida jamiyatga tanitishdir. Balki, mana shunday qalbi poklikka, ezgulikka chorlamoqchi, yoki qalbi pok insonlarga hayotda yashash har doim ham oson bo‘lmasligini ko‘rsatmoqchidir. Qissada umuminsoniy g‘oyalarni yoritishda insonparvarlik ruhini kuchaytirish, ijtimoiy adolat tasvirini kengaytirish, ma’naviy – axloqiy qadriyatlarni talqin etish

tamoyili kuzatiladi. “Qissada yozuvchi ilgari surgan g‘oyalar ma’lum bir davr bilan cheklanib qolgan emas, bu yorug‘ olamda ko‘ngil odamlari ahli ma’ni bilan birga insoniy fazilatdan mosuvo, manfaat bandasi bo‘lgan kimsalar bor ekan, ular o‘rtasidagi ziddiyat va kurashlar davom etaveradi, ayni mavzu doimo dolzarb bo‘lib yangi – yangi asarlar dunyoga keladi”, - deb yozadi professor Bahodir Karimov.

Asar bosh qahramon G‘ulomning shafqatsiz o‘limi bilan yakun topadi. Uni muhit bo‘g‘ib qo‘ygan edi. Muhit shu qadar nopoklikka qorishganki, insonlarni ham botqog‘iga tortib ketadi. G‘ulom bilimsizlik, nohaqlik, tarbiyasizlik, hayosizlik va adolatsizlikning qurboni bo‘ldi. Lekin zamon naqadar tuban va nopok bo‘lishiga qaramay, u ozoda ko‘ngli va pok qalbini saqlab qoldi. “G‘ulom o‘zidan, o‘zligidan butkul kechib, shu porloq alanga tomon ketib borar edi. Vujudi pardek yengil bo‘lib qolgan, lablari mahkam qimtilgan, go‘yo hozir bir himo bo‘ladiyu, osmon – falaklarga uchib ketadi. Parvozga chog‘langan ozod qush yanglig‘ ohista qanot qoqar ekan, “Ko‘ngil ozodadur, - deb shivirlar edi u, - ko‘ngil ozodadur, dunyog‘a arzi ehtiyoj etmaz…”[Sultonov. X. “Ko‘ngil ozodadur”- T: Yangi asr avlodi, 2019. 380 – bet].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboxonov M. “Hozirgi o‘zbek qissalarida psixologizm" Fil. Fan nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent. 2012 .
2. Doniyorova Sh. “Tasvirdagi evrilishlar” O‘zbek tili va adabiyoti. 2002.
3. Izzat Sulton ., Adabiyot nazariyasi. “O‘qtuvchi”.2005
4. Karimov B. “Badiiy so‘z ohangrabosi”. So‘z boshi.2019.
5. Rasulova U. " XX asr òzbek qissachiligi" (Poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari) doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2020.
6. Sultonov X. “Ko‘ngil ozodadur” – T,: Yangi asr avlodi. 2019.
7. Sarimsoqov B " Badiiylik asoslari va mezonlari. T,. 2014.

Севара Бабаева Бахтиёр қизи
Гулистон давлат университети
“Адабиётшунослик” йўналиши магистранти
Телеграм рақам: +998901074158

“БИЛГА ХОҚОН” РОМАНИДА БАДИИЙ ТИЛ ВА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ

Аннотация

Ушбу мақола замонавий ўзбек ёзувчиси Исажон Султоннинг “Билга хоқон” романи таҳлилига бағишланган. Мақолада асарнинг бадиий тили ва муаллиф бадиий тафаккурига эътибор қаратилади. Шунингдек, роман тилини таҳлил этишда турли композицион унсурлар ва бадиий-тасвирий воситалар ҳақида ҳам изоҳ ва маълумотлар келтириб ўтилган. Асарнинг тарихий жиҳатлари ва бугунги кундаги аҳмияти ҳақида фикр юритилади

Калит сўзлар: хронотоп, тарихий шахс, бадиий тафаккур, бадиий тил, поэтик нутқ, реципиент, пейзаж, портрет, сажъ ва ҳ.к.

Исажон Султоннинг “Билга Хоқон” романи муаллифнинг олдинги асарларидан, хусусан, “Боқий дарбадар”, “Озод”, “Генетик” романларидан хронотоп(макон ва замон) жиҳатидан кескин фарқ қилсада, бироқ муаллиф бадиий тафаккури бу тўртала романни ҳам бир-бири билан боғлаб туради. “Билга Хоқон” романи ўзбек халқининг энг қадимги, улуғвор ва покиза тарихидан ҳикоя қилади. Билга Хоқон, Кул тигин, Тўнюқуқ каби тарихий шахсларни битиктошлар орқали таниган, билган бўлсакда, уларнинг ҳақиқий руҳий олами, тафаккур ва ҳиссий дунёси билан яқиндан танишиш имконини бизга “Билга Хоқон” романи беради, десак муболаға бўлмайди. Нафақат шу учта тарихий шахс, балки уларнинг ботиний олами негизида ҳақиқий ўзбеклар, яна ҳам аниқроғи барча туркий халқлар ва қавмларнинг қадим аждодлари, уларнинг ҳаёт тарзи, тутумлари, дунёқараши, жасорат ва матонатлари, шу билан биргаликда, ушбу кўчманчи-чорвадор ота-боболаримизнинг ўзига хос камчиликлари ҳақида ҳам роман орқали ёрқин тасаввурга эга бўламиз.

Асар муқаддимаси Билга Хоқоннинг “Бутун ер юзи бир киши ўғлининг қизил қонига арзимайди”[21] жумласи билан бошланади. Бу ерда хоқон бутун

[21][Исажон Султон., Билга хоқон. Шарқ юлдузи. 2019: 17-бет.]

умри давомида ўз халқининг эрки учун қилган жанглари, ватан, юрт тинчлиги ҳар нарсадан устун бўлсада, яқин инсонларнинг қутлуғ қони (яъни бу ерда Кул тигин назарда тутилмоқда)буларнинг барчасиданда муқаддас эканлигини назарда тутади.

“Билга хоқон” романи – туркий халқларнинг ўн уч асрдан нариги даврдаги қайғулари ифодаси. Романнинг дебочасида Билга хоқон фақат иниси Кул тигиннинг ҳалок бўлганидан қайғуриб оҳу нола чекди. Билга хоқон Кул тигин тимсолида бутун турк хоқонлиги алплари ҳалокати учун кўз ёш тўкиб, ўз қайғусини изҳор қилди. Ёзувчи имкон қадар қадимги турк давридаги манзарани, қаҳрамонларнинг туркона табиатини, ҳеч нарсадан тап тортмас ботирлигини сақлашга ҳаракат қилган”[22]

Асар ватанпарварлик, жасорат, мардлик, фидокорлик, эрк учун кураш каби умрбоқий туйғуларни тараннум этади. Бош қаҳрамонлардан ташқари Ишбара Ямтар, Булут, Тўфон, Кур Шад, Эл Бўғу каби қаҳрамонлар ҳам ўз юртининг озодлиги йўлида мардонавор курашадилар ва қанчалар қудратли халқнинг фарзандлари эканликларини исботлайди. Эллик йил мобайнида табғачларга қарам бўлиб, оч-наҳор қолганида ҳам ўзликларини йўқотмай, “Ўлсак ўлайлик, бироқ ер билан бир бўлмайлик” дея ўз ор-номуси, эл-улус шаъни учун сон ва қурол-аслаҳа жиҳатидан ўзларидан бир неча баробар катта қўшинларга қарши саваш(жанг)га отланадилар. Бу йўлда, албатта, уларга Билга хоқон ҳам маънавий, ҳам руҳий, ҳам моддий томондан раҳнамолик қилади:

“ – Билиб қўй, ҳой будун! Киши ўғли ўлгани туғилармиш. Бир Тангри яшагай. Бу кун, йўқса эрта барибир ўлажаксан! Шунга дейман: қўрқма! Шоқолдайин очликдан ўлма! Силланг қуриб чўзилиб ётма! Ўлсанг бошингни кўтариб, тик ўл! Қолсанг кўксингни кериб-кериб яша!”[23]

Романда, шунингдек, турк халқининг қадимги диний эътиқодларига ҳам гувоҳ бўламиз. Яъни уларнинг Кўк тангрига сиғинишлари, имон келтиришларини кўриш мумкин. Улар шунчаки, сиғиниб қўя қолмасдан, балки, ҳар бир ҳатти-ҳаракатида, ҳаттоки ўй-хаёлида ҳам тўғри, ҳалол бўлишни тарғиб этади:

“ Тангри тоқдир. Тўғри элга кўмак бергайдир. Ўйингиз тўғри бўлса енгилмайсиз.

Тоқ Тангри истаса, кўмак бермоғи қулайдир...”

[22] [Насимхон Раҳмонов., ЎзА-Мангу битик тошлар илҳоми. 2020.]
[23] [Исажон Султон., Билга хоқон. Шарқ юлдузи. 2019: 30-бет.]

Асарнинг бадиий тилига эътибор қаратсак, персонажлар нутқида сажъ бадиий-тасвирий воситасидан моҳирона фойдаланилганлигига гувоҳ бўламиз:

“Кўзга **ёш келади**, атаганда кўнгилга **хўнграш келади...**”[24]

Кул тигин вафотидан сўнг акаси томонидан айтилган ушбу сўзлар бадиий тилнинг оҳангдорлигини оширади. Романнинг ўзига хос жиҳатларидан бири ҳам асар тилининг достонларга хос халқона ва миллий сўзларга бой эканлигида. Романни мутолаа қилар эканмиз, “ямтар”, “товшан”, “чумуртқа”, “ўтрикчи”, “булунг”, “сағанақ”, “кўзчи”, “черик” каби соф туркий сўзларга дуч келамиз. Бу сўзлар ҳозирги кунда адабий тилда қўлланилмасада, асардаги қаҳрамонларнинг миллий руҳини ифодаловчи восита, яъни тарихий ва архаик сўзлар сифатида катта аҳамиятга эга. Муаллиф асар тилидаги ритмикликни ошириш мақсадида товушлар оҳангдорлигига ҳам алоҳида эътибор қаратади:

“қараса, **ў**зи **ў**згалардан **ў**згача экан. **Ў**зғир, билагида, белида кучи бор экан, **ў**лгудай тикбош экан...”

Насрдаги бундай тасвирий ифодалар асарни достон каби равон ва мусиқий оҳанг билан ўқилишини таъминлайди.

Шунингдек, қаҳрамонлар нутқида туркий мақол ва маталлардан ҳам кенг фойдаланилганлиги асар тилининг жозибасини оширади:

“Илон ўзининг эгрилигини билмасдан,
туяга бўйнинг қийшиқ дер экан”,
“Қарға ғоз бўламан деса, бути йиртилибди”,
“Арслон ўкирса, от туёғи майишади”,
“Той от бўлса, от тин олур, ўғил эр етилса, отаси тин олур”
“Юпқа йиғин енгишга қулай эмиш,
Ингичка йиғин узишга қулай эмиш” ва ҳ.к.

Кўриниб турибдики, бундай мақоллардан ўринли фойдаланиш романнинг образлилигини ошириб, реципиентни қаҳрамонлар руҳиятининг ботинига олиб киришга ёрдам беради. Шу ўринда бадиий асар тили, яъни бадиий нутқнинг энг асосий хусусиятларидан бири ҳақида тўхталиб ўтамиз. Миллий тил ва адабий тилдан фарқли ўлароқ бадиий тил образлилик ва эмоционаллик котегорияларига эга. Гарчи бу хусусиятлар миллий тилда ҳам мавжуд бўлсада, улар бир-биридан фарқлидир:

“Бадиий нутқнинг хусусиятлари ҳақида сўз борганда энг аввал унинг образлилиги тилга олинади...

[24] [Исажон Султон., Билга хоқон. Шарқ юлдузи. 2019: 17-бет.]

Бадиий нутқ шунчаки информация етказмайди, балки лисоний образлар қаторини даврий кетма-кетликда яратиб боради ва пировардида ўқувчини яланг фикр-хулосага эмас, бадиий воқеликка рўбарў қилади. Шу боис ҳам ўқувчи ўша бадиий воқелик ҳақида шунчаки маълумотга эга бўлибгина қолмайди, унинг ичида яшаб, ҳис қилиб ўтади”[25]

Исажон Султон романдаги образли манзараларни яратар экан, турли композицион воситалардан, жумладан, пейзаж ва портретлардан унумли фойдаланади. Қиш фаслидаги жангдан олдинги изғиринли ҳолат қуйидагича акс этилади:

“Қаттиқ қиш ўз ёйини олиб теваракка муз ўқларини отган, қордан тўсиқ ясаб, изғирин черигини ёйган кез...”[26]

Китобхон кўз ўнгида жуда ажойиб манзара гавдаланади: яъни, қордан ясалган тўсиқли айлана деворга қўшин муз ўқлари билан ҳужум қилмоқда. Шундай тасвирлардан яна бирида қиш манзараси янада жозибали аксланади:

“Бир неча кун ёққан қор тингач, кўкка оймомо чиқди. У ер юзига оқ совуқларни юборди. Оғочлару ўтларни булдуруқлар билан безади, ёв каби билдирмай келиб, сув бетига табғачнинг безаклари каби безаклар чизди, ичидаги суви тўкилмай қолиб кетган идишларни тарс-тарс ёрди, қорни шундай тўнғитдики, оёқ остида кумушдай ғичирлаб сочилар бўлди...”[27]

Бу пейзаж орқали китобхонда ой образига нисбатан ҳам салбий, ҳам ижобий фикр пайдо бўлади. Қаҳратон қиш кунларида осмонда пайдо бўлган ой ер юзига ҳеч қандай ҳарорат бермасдан, балки совуқни яна ҳам кучайтираётгандек, ҳамма ёқни муз билан қоплагандек бўлсада, унинг сув бетларидаги музда акс этган нақшлари, оёқ остидаги қорнинг ёқимли ғичирлашига сабабчи эканлиги ёқимли манзарани изоҳлайди.

Шунингдек, муаллиф қаҳрамонлар портретларини ҳам асардаги хронотоп ва моҳиятдан келиб чиқиб, образли тасвирлайди:

“Ўтов олдида кенг елкали, барс тумоқли, ўзгалардан тикроқ бир киши ёнидагилар билан сўзлашиб турарди. Билга хоқон шундай экан.

Ўмизи кенг, кўкси қабариқ, оқ юзи узунчоқ экан. Ёноғи текис, кўзи қора, қоши ўртача қалин экан. Икки қаншарининг чизиғи чўзилиб жағигача тушган, пешанаси кенг, ўзи узун бўйли, кучли киши экан.

Ёнида чақмоқдай тез, қарчиғайдай ўзғир иниси Кул Тигин экан.

Кўзи бойўғлининг кўзидай, билгич йўриқчиси Тўнюқуқ экан”[28]

[25][Дилмурод Қуронов. , Адабиёт назарияси асослари. 2018 : 241- бет.]
[26] [Исажон Султон., Билга хоқон. Шарқ юлдузи. 2019: 22-бет.]
[27] [Исажон Султон., Билга хоқон. Шарқ юлдузи. 2019: 25-бет.]
[28] [Исажон Султон., Билга хоқон. Шарқ юлдузи. 2019: 26-бет.]

Асар бош қаҳрамони Билга хоқон барча туркий алпларнинг прототипи бўлиб, ташқи кўриниши жиҳатидан, албатта, халқ достонларидаги қаҳрамонларни ёдга солади. У ёнидаги баҳодирларданда ажралиб туради, иниси Култигин эса “чақмоқдай тез, қарчиғайдай ўзғир” эпитетлари билан сифатланади. Яъни Култигин ёш бўлсада, ундаги эр-йигитларга хос шижоат ва ўзғирлик ҳамиша акасининг қалбида унга нисбатан меҳр ва фаҳр туйғуларини ошириб келган. Маслаҳатчиси Тўнюқуқнинг кўзи рамзий маънода бойўғлининг кўзига ўхшатилган. Чунки бойўғли жуда эҳтиёткор қуш. Ҳеч қачон шошмашошарлик билан иш тутмайди. Тўнюқуқ ҳам ҳар қандай вазиятда узоқни кўра биладиган, Билга хоқонга фойдали тавсияларни бера оладиган доно маслаҳатчи эди.

Роман давомида халқ оғзаки ижодидан намуналарни ҳам учратиш мумкин. Халқнинг турмуш тарзи, кундалик ҳаётидан олинган лавҳалар ўзига хос эстетик завқ бағишлайди. “Қиз қувди” маросимида дўмбира жўрлигида бахши томонидан куйланган қуйидаги қўшиқ қаҳрамонлар руҳий ҳолати, дунёқарашини бир қадар очиб беради:

“Қиз қувди”
“Бу чопа кетаётган оқ қиз,
Ўзи тўлғин, соғ қиз!
Ўрта бўйли, чоғ қиз,
Ўйнагани боғ қиз.
Қора кўз, бодомқовоқ қиз,
Синли, сим-сиёқ қиз,
Ўзи семиз, туриш-турмиши ёғ қиз,
Тўғри ишга бўлайроқ қиз,
Туруми олайроқ қиз,
Сағриси кенгиш, дўнгиш қиз,
Танаси тўш қўйган, тўнгиш қиз...”[29]

Хулоса қилиб айтганда, Исажон Султоннинг “Билга хоқон” романи ўзбек адабиётида бадиий тафаккур, бадиий тил ва моҳият жиҳатидан ўзига хос ўринга эга бўлган, ўзбек халқининг қадим ўтмиши ва аждодлар руҳини куйловчи юксак бадиий савияли асар сифатида китобхонлар қалбида асрлар давомида яшовчи асардир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Исажон Султон. Билга хоқон. Шарқ юлдузи. 2019 йил.
2. Дилмурод Қуронов. Адабиёт назарияси асослари. 2018 йил.

[9][Исажон Султон., Билга хоқон. Шарқ юлдузи. 2019: 78-бет.]

3. Қозоқбой Йўлдош. Муҳайё Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. 2016 йил.
4. Насимхон Раҳмонов. ЎзА-Мангу битик тошлар илҳоми. 2020 йил.

Mo‘minov Begali Yunusovich
ADU, o‘qituvchi

JADID ADABIYOTIDA IJTIMOIY VOQELIK TALQINI

Annotatsiya: maqolada jadid adiblari ijodida davr ijtimoiy voqeligining badiiy talqini xususida umumlashma fikr va mulohazalar ifodalangan.

Kalit so‘zlar: *jadid adabiyoti, jadid dramaturgiyasi, badiiy obraz, badiiy g‘oya, ijtimoiy voqelik.*

Ma’lumki, adabiyotshunos Shuhrat Rizayev 1917-1924-yillarni o‘zbek adabiyotida dramaturgiyaning yetakchi janr bo‘lgan davri deb ko‘rsatadi. “Fitrat, Cho‘lpon, Hamza, G‘ulom Zafariy, Xurshid, Abdulla Badriy, Hoji Muin, Abdulla Avloniy, G‘ozi Yunus kabi dramaturglarning badiiy mumtoz, g‘oyaviy o‘tkir, janr e`tiboriga ko‘ra g‘oyat muvaffaqiyatli sahna asarlari shu davrda yaratildi va sahnalashtirildi”. Mazkur yillar oralig‘ida “Muxtoriyat yoki avtonomiya”, “O‘ch” (Hamza), “Portugaliya inqilobi” (Avloniy), “Hind ixtilolchilari” (Fitrat) kabi inqilobiy idealli, “Chin sevish”, “Abulfayzxon” (Fitrat), “Yorqinoy’ (Cho‘lpon) kabi inson va hayotning turli qirralari turfa rakurslarda, goh o‘tmish, goh kelajakka ekskursiya tarzida mualliflarning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, estetik ideallari aks etgan betakror asarlar yaratildi. Bu kabi asarlarda asosan jadidlar ijtimoiy voqelikni ideal jamiyat orzusi bilan bog‘liq holda aks ettirishga harakat qildilar.

Abdurauf Fitrat “Abulfayzxon” dramasi orqali o‘z hukmronligi ostida bo‘lgan xalqning turmush tarzi, og‘ir-yengili u yoqda tursin, saroyda bo‘layotgan hodisalardan ham bexabar, loqayd amrlarni qattiq tanqid qiladi. Jumladan, Ibrohimbiy otaliqning: “U elga yomonlik qildi, yurtni taladi, hukumat ishlariga qaramadi. Kecha-kunduz chog‘ir ichib yotdi,” degan so‘zlari aslida Fitratning alamli nidosi edi. Toj-u taxt talashish, mansab uchun har qanday qabihlikka tayyor

kimsalarga nafratdan tug‘ilgan fig‘on Xayol obrazi vositasida yanada yaqqolroq aks etgan. “Sen fazilatliq bilimlarning qo‘l, qanotlarini uzib tashlading. Inju tizg‘uchi adiblarning qalamlarini o‘choq supurgisiga aylanturding. Ota pichog‘i bilan bolalarini bo‘g‘uzlading. Bola xanjari bilan otalarni yiqitding… Dalaning erkini, shaharning tinchini, erlarning g‘ayratini, xotunlarnig ismatini talatdung…” Bu yerda muallif boylik, savratga emas, balki uni but darajasiga aylantirgan johillarga qarshi so‘zlamoqda va uning noroziligi ortida ilm-fan, madaniyat, asosiysi, xalq manfaatini himoya qiladigan odil hukmdor orzusi ham yo‘q emas edi. “Yurt qayg‘usi” sochmasida “Turkning yurti, ulog‘i, o‘chog‘i, Turoni yot qo‘llarg‘a tushdi” deb iztirob chekadi, “mening qo‘llarimdan tut” deya Temur ruhidan madad so‘raydi.

“Temur sag‘anasi” tragediyasida ko‘p yillardan beri mustamlakachilar zulmi ostida ezilib, xoru-zor bo‘lgan Turkiston xalqlarining dard-u alamlari va orzu-umidlari aks ettirilgan. Asarda mustamlakachilar zulmidan azob chekkan bir turk o‘g‘loni buyuk sohibqiron Amir Temur qabriga madad izlab boradi. Sohibqiron ruhiga mustamlakachilardan jazo-zulm ko‘rib, g‘am chekib ezilgan, qonli ko‘z yoshlari sel bo‘lib oqqan Turk elining qayg‘u-hasratlarini to‘kib, undan imdod izlaydi. Amir Temur sag‘anasi oldida tiz cho‘kib: “Xoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko‘mak istarga keldi”, - deb iltijo qiladi.

Muallif orzu-armonlarini Amir Temur tilidan gapirib, mana shu badiiy yechim orqali o‘z g‘oyalarini ifodalamoqchi bo‘ladi: “Men sizlarga ko‘p narsalarni yetkardim. Ne bo‘ldiki, bir zamonlar sharafli va jasur bo‘lgan bir millatning avlodlari hozir boshqa bir millatning zulmi ostida qolmish... Kimlar bog‘laringdan qushlaringni quvmoqda! Otalar merosidan nima oldingiz! Sizdan talab qilaman: xalqingiz, o‘lkani tuzatingiz, avlodlarimni hur yashamoqlarini ta’min etingiz. Agar bunday qilmasangiz, o‘lkangiz buyuk bir mozor holiga keladi”. Ko‘rinadiki, “Temur sag‘anasi” tragediyasida turk ulusining kuch-qudrati, buyuk qadriyatlari, ezgu an'analari ulug‘lanib, mustamlakachilikka, zulm va istibdodga qarshi birlashib kurashishga da'vat etiladi. Shu bilan birga, mullifning o‘zi yashab turgan jamiyatga, ijtimoiy hodisalarga nisbatan munosabati ifodalangan.

Cho‘lponning «Yorqinoy» dramasida ham asosan yurt va millat manfaati masalasi bosh mavzu bo‘lib qoladi. Garchi asarda Yorqinoy va Po‘lat muhabbati aks etgan bo‘lsa-da, drama finalida, boshqa jadid adiblari ijodida kuzatilganidek, bu otashin muhabbat vatan, xalq ishqi bilan almasha boradi. Po‘latnnig Yorqinoyga qarata “Toj-u taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor… Uni o‘ylash kerak. Uning g‘amini yeyish kerak…” degan so‘zlari beixtiyor Fitrat qahramonining “Hindistonni sevganim, seni sevganim emasmi?!” degan jumlalarini eslatadi. Demak, Cho‘lponnig ideali ham adolatparvar hukmdor va xalqning farovon hayoti bilan bog‘liq. Dramada Po‘latdan ham ko‘ra Yorqinoy o‘zinnig tadbirkorligi, jasurligi, botirligi bilan ajralib turadi. Drama xalq qahramonlik ertaklarini yodga soladi, lekin bu holat adib orzusini yaqqol aks ettirish uchun tanlangan badiiy usul ekanligi vajidan o‘zini to‘la oqlaydi. Pyesada Yorqinoyning sevgisi katta ijtimoiy muammolarni qo‘yishda bir vosita xolos.

Dramaning yetakchi qahramoni Yorqinoy xarakterida Cho‘lpon tasavvuridagi ideal o‘zbek ayollarining fazilatlari mujassamlangan. Cho‘lpon bu obrazni yaratishda xalq og‘zaki ijodining an`analariga amal qiladi. Ma`lumki, o‘zbek xalq dostonlarida, ertaklarida ayol obraziga katta ehtirom sezilib turadi – ularda ayollar to‘rt devor asirasi, nochor mushtipar, mungli kimsalar sifatida emas, ko‘pincha o‘z taqdirini o‘z qo‘li bilan yarata oladigan, o‘z baxti uchun kurasha oladigan, hatto qo‘liga qurol bilan adovat va haqiqatni himoya eta oladigan, hech qaysi jihati bilan erkak zotidan kam turmaydigan oqila, tadbirkor, shidlatli, jasur kishilar tarzida tasvirlanadi. Oysuluv, Barchinoy, Zulfizar, Malikayi Xusnobod, Ozodachehra kabi qahramonlar shular jumlasidandir. Yorqinoy ham shaddodligi, barkamolligi, o‘z baxti uchun dadil kurasha olishi bilan shu qahramonlarga o‘xshab ketadi. Ammo ayni chog‘da, “Cho‘lpon Yorqinoy obrazini yaratishda real hayotda mavjud biror shaxsni asos qilib olmagan” degan gapni aytib bo‘lmaydi. O‘tmish hayotimizda mardligi, donoligi, kurashchanligi bilan dong chiqargan ayollar ko‘p bo‘lgan. Jumladan, asrimiz boshlarida rus mustamlakachilariga qarshi kurashgan Qurbonjon dodhoh Farg‘ona vodiysida o‘z qahramonliklari bilan mashhur bo‘lgan. Xalq o‘rtasida u “Oloy malikasi,” degan nom bilan dovruq topgan. U zulmga qarshi bosh

ko‘targani, necha martalab rus jazo qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratgani ma’lum. Cho‘lpon Yorqinoy obrazini ishlashda ana shu afsonaviy qahramon siymosini nazarda tutgan bo‘lishi ham mumkin.

Dramadan shunday xulosa kelib chiqadiki, insonni inson qiladigan bir qancha qadriyatlar bor: sevgi, sadoqat, mehr-muruvvat. Biroq dunyoda ulardan ham zo‘rroq narsalar: nomus, mardlik insoniy g‘urur mavjud. Biroq nomus ham, mardlik ham, insoniy g‘urur ham faqat adolat va haqiqat qaror topgan joydagina bo‘ladi. Toju taxt Po‘lat uchun og‘ir yuk, bu yukni ko‘tarib yurishga majbur. Negaki Po‘latning o‘zi aytganidek, “toju taxtning orqasida el bor, yurt bor, xalq bor. Uni o‘ylash kerak. Uning g‘amini yeyish kerak”. Shu tarzda Po‘latning ajib bir fazilati namoyon bo‘ladi. U Yorqinoyni sevadi, biroq uning bu sevgisi el-u yurt sevgisi oldida ikkinchi o‘rinda turadi.

Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasi ishq-muhabbat mojarosini bir afsona tarzida bayon etuvchi romantik bir ertak emas, umumbashariy muammolar haqida bahs yurituvchi, erk va muhabbat, adolat va mardlik, e’tiqod va nomus haqida naql qiluvchi, ko‘pgina g‘oyalari bilan bugungi kunda ham qimmatini yo‘qotmagan ijtimoiy-falsafiy drama darajasiga ko‘tarilgan asardir.

Umuman, jadid adiblari ijodida ijtimoiy voqelik ularning estetik idealidan kelib chiqqan holda tasvirlangani davr ziyolilari bo‘lgan jadidlarning vatan va xalq ozodligi uchun har tomonlama kurashib yashaganligini ko‘rsatadi. Badiiy adabiyot esa ularning barcha maqsadlarini ifodalovchi eng asosiy vosita sifatida xizmat qilganligi va kishilar ma’naviyatini, ijtimoiy tafakkurini o‘zgarishiga katta ta’sir etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997.
2. Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. –Т.: Маънавият, 2000.
3. Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. I жилд. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1994.

Botirova Nargiza,
NamDU talabasi

TOHIR MALIK ASARLARIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada atoqli yozuvchi Tohir Malikning obraz yaratish mahorati qalamga olingan. Asar voqealari zamirida ushbu obrazlar mohiyati, o‘rni qay darajada ekani misollar asosida tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar*: milliy ruh, obraz, mahorat, satira, yumor, tanqid, kinoya, tasvir, uslub.*

Bilamizki, Tohir Malik obraz yaratishda juda ta’bi nozik ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning asarlari ibratli hikoyalarga boy. O‘ziga xos yozuvchilik uslubi, avvalombor – lo‘ndalik, mantiqiylik va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Tohir Malik yaratgan barcha asarlar kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi, chunki asarlari zamon va makon tanlamaydi. Adib ko‘p qirrali ijodkor. Hamma uchun manzur bo‘lgan ijod namunasi doimo eng sevimli asarlar ro‘yxatida turadi. Adib qator kinossenariylar va radiopyesalar muallifi hamdir. Uning ko‘plab asarlari turli tillarga tarjima qilingan. Uning o‘zi ham ko‘plab asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Har qanday adib-u shoir ijodida davr voqealari, xususan, o‘z shaxsiy hayotida ro’y bergan hodisalar, quvonchli va qayg‘uli voqealarning aks etishi tabiiy. Tohir Malikning “Hayot qayig‘i” asarida davr qiyinchiliklari, ko‘p bolali oilalarning hayot tarzi, zamonaning og‘ir damlarini chidam va bardosh ila qarshi olgan oilalar taqdiri hamda o‘zining bolalik yillari aks etadi. Masalan:

“Kechasi uyg‘onib ketib qarasam, ayam rahmatli qora chiroq nurida do‘ppi tikib o‘tiribdilar. Qo‘llari ishda-yu, ko‘zlarida yosh. "Nega yig‘layapsiz?" deb so‘radim. Javob bermadilar. Sababini oradan yillar o‘tib bildim. Tog‘amning "xalq dushmani" emasligi ma‘lum bo‘lib, "oqlanib" chiqqanlarida ikkinchi sinfda o‘qirdim. Dastlabki mashqlarim o‘shanda boshlangan. Ammo yozganlarimni talabchan tog‘amga ko‘rsatishga cho‘chir edim [Tohir Malik. Hayot qayig‘i, 2000: 24-bet].

Tohir Malik ijodining xalqqa yaqin bo‘lishidagi yana bir siri shundaki, yozuvchi hazil-mutoyibani xush ko‘radi. Bir qator hajviy asarlari, kulgilari bilan o‘quvchilarga zavq-shavq ulashadi. Adibning, ayniqsa, bolalarga mehri o‘zgacha. Shu boismi, uning asarlarida bolalarcha beg‘uborlik, bag‘rikenglik, samimiyatni ham ilg‘ash mumkin.

Tohir Malik dastlabki asarlarida o‘zbek xalqining hayot tarzini aks ettirgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida uning asarlari diniy-ma’rifiy tus oldi, ya’ni yozuvchi diniy ma’rifatni adabiyot orqali o‘quvchiga yetkazib berishga harakat qilgan va bu yo‘lda juda katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

Tohir Malik asarlarida – milliy ruh bor. Jumladan, “Shaytanat” asari qahramonlarining dunyoqarashi, o‘zini tutishi, muloqotlari – barchasida milliy, o‘zbekona ruh ufurib turadi. Bu asar mana shu tomoni bilan ham o‘quvchini o‘ziga rom etadi. Tohir Malik kabi yozuvchilar o‘zbek adabiyotiga o‘z qahramonlarini olib kirib, o‘z qiyofasini belgilashda xizmati katta. Asar sujetidagi voqealar turli yillarda bo‘lib o‘tadi. Unda Elchin san’atkor, hofiz yigit timsoli sifatida gavdalanadi. Dastlab uning turmush o‘rtog‘i Noilaning qimorga yutqazilishi va vahshiylarcha o‘ldirilishi haqida ma’lumot olamiz. Keyingi voqealar esa Asadbekning bolaligi haqida ketadi. 1949-yil 31-dekabr kunida sodir bo‘lgan voqealar aks ettiriladi.

Asarda Asadbekning o‘ng qo‘li hisoblangan Jamshid, Mahmud - chuvrindi, Haydar - Kesakpolvon obrazlari asosiy o‘rin egallaydi. Mahmud aqlli, uzoqni o‘ylab ish tutadigan kishi sifatida gavdalanadi. Haydar shoshqaloq, keyinini o‘ylamaydigan, xudbin, ayovsiz, yengiltabiat obraz qiyofasida aks ettiriladi. Jamshid esa indamas, sirli qiyofa, u bekning buyruqlarini bajaradi. Zaynab unga ko‘ngil qo‘yadi. Manzura - Asadbekning rafiqasi - aqlli, og‘ir-bosiq, vazmin tabiatli mo‘mina ayol. Farzandlari tarbiyasiga katta e’tibor qaratadi. Ikki o‘g‘lini chet elga o‘qishga yuborishadi. Voqealar Asadbekka tegishli bo‘lgan vino zovod voqealari, Asadbek oilasidagi shaxsiy muammolar uyg‘unligida rivojlanib, keskinlashib boraveradi.

Xullas, inson tabiatan olijanob – razil, omadli – omadsiz, baxtli – baxtsiz bo‘lishi faqat uning o‘ziga bog‘liq emas, balki u yashagan, harakat qilgan, unga

ta’sir qilgan sharoit va ijtimoiy muhitga ham bog‘liq. Asardagi obrazlarning milliy qiyofalarini sharoitga moslashtirib yoinki sharoit va muhit bilan kurashga solib tasvirlash chinakam realistik adabiyotga xos bo‘lgan hodisadir. Tohir Malik esa ana shuni asarda ko‘rsatib bera olgan.

Xalqimizda bir gap bor: Bolaligim-podsholigim! Agar biz o‘sha podsholik davrimizni yo‘qotib qo‘ysak-chi?! Unda o‘sha bolalik davrimizning nam nihol davrini kimlardir barbod qilib, yo‘ldan ursa-chi?! Yo‘qotilgan podsholik yillarini kim orqaga qaytara oladi?! Tohir Malikning “Alvido, bolalik yoxud to‘rt taqdirning to‘liq bayoni” asari bolalar tug‘ilishi bilan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmasligini, balki qamrab olgan jamiyat uni shu yo‘lga yetaklashi haqida yozilgan. Bu haqda adibning o‘zi shunday deydi: «Men o‘smirlar va yoshlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganligiga befarq qarab turolmayman. Bolalar axloq tuzatish koloniyalariga har borganimda yuragim eziladi. Ozod, erkin yashab, o‘qib, hunar o‘rganadigan bolalar bu yerga qanday tushib qoldilar?! Nahot, jinoyat olami ularga jozibali ko‘rinsa?! Men jinoyat olamini «Shaytanat», ya’ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar mamlakati deb atab, «Ehtiyot bo‘ling, jigarlarim, bu ko‘chaga yaqin yo‘lamang. Boshi berk bu ko‘chaning adog‘ida faqatgina azobli, xorli o‘lim topasiz», demoq niyatida yozdim. Yozganlarimni ogohlantirish deb qabul qilishlarini istardim», deydi. Darhaqiqat, asarning bosh g‘oyasi jinoyat olamiga kirib qolgan o‘smir-yoshlarning ayanchli taqdirini yoritish bilan bir qatorda bunga kim aybdor ekanligini ko‘rsatib berishdan iboratdir.

Tohir Malik o‘spirin bolalar obrazini yaratar ekan, qahramonlarning harakati, gap-so‘zlari, o‘y-xayollaridagi har bir ikir-chikirga, har bir detalga ma’no yuklaydi: Asardagi bolalar obrazi Asror, Qamariddin, Salim, Dilfuza, Sanjar kabilar mahorat bilan tasvirlangan. Asar qahramonlari zamona yoshlariga xos o‘z tabiati bilan ajralib turadi.

Tohir Malik “Alvido, bolalik” asarida Asror obrazini maktabda matematika, fizika fanlaridan a’lo bahoga o‘qiydigan, onasiga rahmdil, mehribon o‘g‘il, laganbardorlikni yoqtirmaydigan va g‘ururi baland, lekin biroz qaysar va Qamariddinning aytganiga kiradigan yigitcha obrazi sifatida gavdalantirgan.

Qamariddin esa hayotda qanday qilib bo‘lsa ham o‘z o‘rnini topishga intiladigan, ilmli insonlarga havas qiladigan, xiyonatni yoqtirmaydigan va unga qarshi kurashadigan yigit sifatida tasvirlangan. U birozgina manman, ayyor va onasini hurmat qilmaydigan, hayotdan alamzada o‘spirin. Tohir Malik “Alvido, bolalik” asarida “Bolalar uyida” tarbiyalanayotgan Qamariddin obrazi orqali “Bolalar uyi”ga tashlab ketilgan boshqa norasida bolalarning ham ichki kechinmalarini ochib bergan:

“Qamariddin tug‘ruqxonada ko‘z ochib, bolalar uyida tetapoya bo‘ldi, bolalar uyida esini tanidi. Ota-ona mehri, kindik qoni to‘kilgan uy degan tushunchalar unga begona. Qamariddin notanish odamlar kelib bolalarni olib ketishlarini bilgach, qandaydir umid bilan kimningdir kelishini, boshidan silashini, mahkam quchoqlab o‘pishini intiq kutardi. Odamlar kelishardi, ammo uni olib ketishmas edi. Ayiqpolvonday xunuk yurishini yoqtirmaymi, uni hech kim chaqirmas, boshini silamas, mahkam quchoqlamas, o‘pmas edi. U faqat buvisidan umid qilardi. Ammo buvisi nima uchundir uni olib ketmas edi. Ota-onalaridan umidlari uzilganda bolalar to‘planib olib afsonalar to‘qishardi” [Tohir Malik. Alvido, bolalik, 2004: 26-bet].

Qamariddin obrazidagi bola butun umr uni kimdir olib ketishini orziqib kutadi. Oldinlari buvisini olib ketishini kutgan bo‘sa, keyinchalik esa onasini kutadi. Buvisi uni olib keta olmasligini eshitganida oldinlari hayron qolardi. Keyinchalik buvisining vafotidan so‘ng sababini tushunib yetadi.

Dilfuza yaxshi do‘st, chiroyli va ozoda, otasiga mehribon, ammo qizlar bilan yaxshi chiqisha olmaydigan, darslarga qiziqmaydigan obraz sifatida tasvirlangan.

Ularning hayot yo‘li, o‘tmishi, voyaga yetgan muhiti, yashash tarzi, qiziqishlari, orzu-umidlari, dard-u armonlari turlicha. Biroq ularni birlashtirib turgan yagona narsa bor – bu ham bo‘lsa hayotda kimdandir yoki nimadandir alamzadalik. Ana shu alamzadalik bu yoshlarning hayotini zaharlashga, noto‘g‘ri qadam bosishlariga sabab bo‘lgan birinchi omildir. To‘g‘ri, bu yoshlarning jinoyat yo‘liga kirib qolishlariga sabab bo‘lgan omillar juda ko‘p. Ulardan yana biri loqaydlik, ha, aynan bola tarbiyasiga nisbatan oila, maktab, mahalla, umuman atrof-muhitning loqaydligidir. Muallif asar orqali hayotda tez-tez uchrab turadigan bu qaltis illatni

nafaqat ko‘rsatib beradi, balki bu illat yoshlar, qolaversa, millat kelajagi uchun xatarli ekanligi haqida bong uradi. Asardagi obrazlar tabiatini yoritib berish orqali insonlarning bir-biriga munosabati, ayniqsa, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi oilaviy muammolar va yechimlar haqida bayon qilingan.

Adib tarixda yuz bergan biror muhim voqea-hodisani o‘z sahifalariga muhrlab borgan. Tohir Malik o’z ijodida takrorlanmas badiiy topilma va obrazlar, badiiy tasvir vositalari ko’plab uchraydi. Yozuvchi o‘z asar qahramonlari tasviri bilan o‘quvchilarni mushohadaga chorladimi, demak, bunday tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlarning umri uzoqdir. Tohir Malik asrlar davomida ulkan ma’naviy xazinaga ega bo’lgan o’zbek adabiyoti tarixida o’z so’zini aytishga intildi va o’zining salmoqli adabiy merosi bilan bunga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohir Malik. Hayot qayig‘i. – Toshkent: Sharq, 2000. – 224 b.
2. Tohir Malik. Alvido, bolalik. – Toshkent: Sharq, 2004. – 226 b.

Diyorov Eldorjon Kupaysin o‘g‘li,
Guliston davlat uneversiteti filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili)
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ABDUQAYUM YO‘LDOSH – ISTIQLOL QISSANAVISI (“TIMSOHNING KO‘Z YOSHLARI”, “SUNBULANING ILK SHANBASI”, “YULDUZNING YO‘LI” QISSALARI TAHLILI”)

Annotatsiya: *Hammamizga ma’lumki, mustaqillik hamma qatori, adabiyotimizga ham yangilanish, yangi ruh olib keldi. Yozuvchi va shoirlarimiz yangi kuch ila ijod qila boshlashdi. Ajoyib yozuvchimiz Abduqayum Yo‘ldosh ham musataqillik yillarida sermahsul ijod qilib kelmoqda. Maqolada adib ijodiga uning qissalari tahlili orqali nazar solingan.*

Kalit so‘zlar: *Qissa, janr, janr tabiati, sujet, didaktik asar, obraz, personaj, tip,epizod ,portret, badiiy estetiklik, badiiy umumlashma, naturalistik asar, realizm, sentimental oqim.*

Badiiy adabiyot - bu tarbiya vositasi. Adabiyot insonni komillik sari yetaklovchi uni mukammallik tomon undaydigan eng muhim, eng samarali vositalardan biri. Ko‘hna adabiyot tarixi va hozirgi zamon qalamkashligiga qarasak ham bu fikrimizning qator isbotlarini ko‘ramiz. O‘zbek adabiyotining ilk darg‘alari bo‘lgan Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy (“Hibat ul-Haqoyiq”, “Qutadg‘u bilig”) kabi ijodkorlar didaktik tarzda ya’ni pand-nasihat yo‘sinida insonni kamolotga boshlasa, g‘arb adabiyotining qadimgi namoyondalari Gomer, Aristofan, Evriped kabi ijodkorlar hayotni tasvirlash orqali uning kamchiliklarini real ochib berish bilan yetuklik sari boshlagan. Demak, badiiy asar insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, uni mukammallik sari olib borishni o‘zining asosiy maqsadi qilib olgan.

Mustaqillikdan so‘ng butun asr davomida ma’lum bir mafkuraga xizmat qilib charchagan o‘zbek adabiyoti, shu jumladan, o‘zbek nasri ham yangi kuch ila qayta uyg‘ondi. E’tiqoddan insonga xizmat qilishga o‘tgan o‘zbek nasrida ham U.Normatov ta’biri bilan aytsak, “materiya birlamchi, ong ikkilamchi deb turmasang baloga qolasan”[U.Normatov., 2007: 335-bet] qabilidagi asarlardan ko‘ra, yuqorida keltirib o‘tganimizdek, insonni komillik sari boshlovchi, bir so‘z bilan aytganda, chinakam badiiy asarlar soni sezilarli darajada ko‘paydi. Xususan, qissanavislikda ham mafkurani ulug‘lashdan ko‘ra hayotdagi achchiq haqiqatlarni ochib berishga intilgan asarlar soni oshdi.

Atoqli adibimiz Abduqayum Yo‘ldosh ham aynan davr muammolari, insonning illat va kamchiliklari, shuningdek, uning his-tuyg‘ulari orqali o‘zini va boshqalarni anglashga, tushunishga, lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, insonni inson bo‘lishga chorlaydigan asarlar yaratdi. Abduqayum Yo‘ldosh qissalari ayni fikrimiz dalilidir. Yozuvchi qissalaridagi obrazlar chinakam hayotiy obrazlardir. Ularning ham qandaydir kamchiligi-yu qusurlari, yaxshi fazilatlari hayotda qanday bo‘lsa shunday tasvirlanadi. Yo‘q, bu naturalistik (hayotni qanday bo‘lsa shundayligicha ochiq tasvirlaydigan) asar emas. “San’atkor to‘g‘ridan-to‘g‘ri hayotdan nusxa ko‘chirmaydi, balki unga haqiqatan o‘xshash qilib yangi bir dunyo yaratadi, kashf etadi. Boshqacha aytganda, hayotiy haqiqatdan badiiy haqiqat yaratadi”[H.Umurov., 2001: 13-bet]. Yozuvchi qissalarida inson hissiyotlari yetakchilik qiladi. Aytmoqchi

bo‘lganimiz adib qissalarida hammani lol qoldiradigan badiiy umumlashmalar yaratmaydi. Aksincha, yozuvchi hayotdagi insonni badiiy mahorat bilan qog‘ozga ko‘chiradi. Muallif qissalari orqali hech kimga hayotdan dars o‘tishga, yashashning to‘g‘ri yo‘llarini ko‘rsatishga urinmaydi, balki ustoz adabiyotshunos olimimiz Qozoqboy Yo‘ldosh fikrlari bilan aytsak, tirik odamlarning jonli chizgilarini berish bilan o‘qirmanlarda ezgu ma’naviy sifatlar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi [Qozoqboy Yo‘ldosh., 2019: 430-bet]. Yozuvchining “Timsohning ko‘z yoshlari”, “Yulduzning yo‘li”, “Sunbulaning ilk shanbasi” nomli qissalarining obrazlari bir hayotning turli chog‘doshlari. Albatta, insonning bu inson degan nomga munosib bo‘lishi uchun ma’lum qonun-qoidalari yoki ko‘rsatmalari ham yo‘qligini adib aynan shunday obrazlar orqali ifodalaydi.

“Timsohning ko‘z yoshlari” qissasining bosh personaji *Munisa* ham hali hayotda o‘z yo‘lini topib ulgurmagan sodda, ishonuvchan va qissaning estetik qiymatiga ta’sir qilgan eng kichik va eng muhim narsalardan biri ya’ni 25 yoshlar atrofidagi qiz sifatida tasvirlanadi. Albatta, bu hayotda baxtini topolmayotgan qizdan baxtsizroq inson deyarli uchramaydi, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Aynan shu narsa va qizning o‘ziga oshkora qolganlarga pinhona ma’lum bo‘lgan asarda so‘zlar bilan ifodalanmasa-da, lekin hammaga aniq-tiniq bilinib turgan yoshi o‘tib borayotgan asar qahramoni Munisaning hayollari uni ming ko‘yga solib, aql ishonmaydigan tushga ishonishga majbur qiladi. Ma’lumki, qissaning janr tabiatida voqealar rivoji ustun turadi. Ammo A.Yo‘ldosh aynan voqealar rivoji, ajoyib portretlar, personajlarning xatti-harakatlari orqali ham ruhiyatning turli manzillarini ochib beradi. “Go‘yo yelkasidagi zil-zambil yukdan xalos bo‘lganday, qiz qaddini mag‘rur rostlab turar, ko‘zlari chaqnar, yuzi lovullab yonar, bu turish-turmushda har kungi Munisani emas kamida o‘n yilga yasharib ketgan quvonchi ichiga sig‘mayotgan, ta’bir joiz bo‘lsa, gurkirab turgan navjuvon qizni ko‘rish mumkin edi”. Ha, bu Munisaning yana bir qissa personaji Salomat opaning ahmoqona bashoratiga ko‘ra tushida timsohni ko‘rgandan keyingi holati edi. Hayotda inson eng quvonchli kundagina mana shunday alfozda bo‘ladi, baxtidan nihoyatda sarmast insonnigina qalamkash shunday tasvirlaydi, ammo Munisaning mana shu “baxt”i

uning eng katta fojiasi, asarning eng katta yutug‘i bo‘ldi, desak yanglishmaymiz. Munisaning keyingi allaqanday “posbon” bilan tasvirsiz tasvirlangan ishqiy hayoti va oxir-oqibat ruhiy kasallar shifoxonasiga tushib qolishi, umumiy qilib aytsak, bir insonning hayoti barbod bo‘lib ketishini muallif mahorat bilan qog‘ozga tushiradi. Asarning jonliligini oshirgan yana bir jihat uning *badiiy tili*dir. Qissa to‘liq muallifning tilidan hikoya qilib beriladi. Ya’ni qissaning personaji, bevosita kuzatuvchisi bo‘lib yozuvchi namoyon bo‘ladi. Adib bu asarning har bir detaligacha alohida yondoshganligi, asar nomi-yu qahramonlar ismlari va qissaga tanlangan epigraf ham asarga o‘zgacha estetiklik bag‘ishlab turgani yaqqol seziladi. Usmon Azim ijodidan olingan quyidagi she’r asarning umumiy, lo‘nda mazmunini o‘zida to‘liq aks ettiradi.

Yigit… Yigit bilan qancha ishim bor
Ammo qiz yigitni shunday suyardi-
Ki, goh termulardi hazin, beozor
Goho qo‘llarini ushlab qo‘yardi.

Ijodkorning adabiyotimizda kam uchraydigan oqim sentimentalizmda (aql-idrokdan his-tuyg‘uni ustun qo‘yish asosida uning ichki dunyosini ochib berishga intilish) yozilgan “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi uning ijodida yana bir cho‘qqi bo‘ldi. Adabiyotshunos olim uztoz T.Boboyev o‘z asarida bu oqim ijodkorlari to‘g‘risida quyidagi ta’rifni keltirib o‘tadi: “sententalistlar adabiyotda, asosan, oddiy odamlarni o‘z turmush sharoitida ko‘rsatishga harakat qiladilar” [T.Boboyey., 2002: 542-bet]. Yozuvchi ham oddiy bir insonning ichki olamini real hayotdagi ajoyib sujet bilan yoritib beradi. Adib bir qarashda hayotiy bo‘lmagan obrazni qanchalar tipik ekanligini sujet davomida ochib beradi. Hamxonasining har bahor sunbula oyi, ishxona muharriri tili bilan aytsak “jiyda gullagan” davrdagi tushkunliklari, iztiroblari go‘yoki bizga g‘alatidek. Ammo qissani o‘qish davomida yana bitta shunday obrazga duch kelamiz bu - qahramonimizning pinhona sevgilisi, hech kim bilmagan mahbubasi. Faqat ishqgina insonni har ko‘yga soladi, ishqgina insonni ichdan yemiradi. Asar sentimental ruhda bo‘lganligi uchun ham asarda inson his tuyg‘ulari ajoyib tarzda ochib beriladi. Qissadagi yilda bir marta qay yurtlardan

suyuklisini bir bor ko‘rish uchun kelgan va uni topolmayotgan ma’shuqaning hislarini quyidagi jumlalar ochib beradi: “- SUMga kirsak, kirib ketsak - keta qolaylik emasa – dedi chol xarsillab og‘ir-og‘ir nafas olarkan.

- Hozir, ota, hozir.

Yanglishishim mumkin emasdi: juvonning tovushi iztirobdan titrab ketdi. U yana menga, yo‘q-yo‘q, yon atrofdagilarga, toqatsizlanish, joniqish, vahima, g‘ussa, ilinj, qo‘rquv hissiyotlari qorishiq nigohini tikarkan, qo‘lidagi chaqalog‘i uchib ketishiga bir bahya qoldi”. Bu faqat yozuvchi mahorati emas, bu holatni faqat qalbi bilan his qila olgan yozuvchigina qog‘ozga tushira oladi. O‘qirman ham qalb bilan his qilsagina, bu oddiy tasvirning gavhar to‘la tubiga yetib boradi. Ayol suyuklisini qidirib, hatto qo‘lidagi bolani unutishi go‘yoki salbiydek ko‘rinib qoladi. Axir, u aynan suyuklisining farzandi, muhabbatining mevasi. U hamma narsani unutdi, hammaga va har joyga ilinj ruhida qarab, bir zumga hamma narsani unutdi, ha, afsuski, bolasini ham. Xuddi, “Timsohning ko‘z yoshlari”dagi kabi bu qissada ham adibning o‘zi yetakchi personajlardan bo‘ladi va asar yozuvchining tilidan hikoya qilinadi.

Badiiy asar tiliga to‘xtalib o‘tsak, Abdulla Qodiriyning shu so‘zlari esimizga tushadi: “So‘z so‘zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o‘zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb”[A.Qodiriy., 1995: 6-bet]. Qissada va umuman, adib asarlarida bunday muammoni uchratmaymiz. Ijodkor sodda, samimiy va xalqchil so‘zlardan har qanday murakkab ruhiy holatni ham ko‘rsatib bera oladi. Yozuvchining mahorati yana bir narsada ko‘rinadi. Ya’ni asarning o‘ziga xos jihatlaridan biri yetakchi obrazlarning ismlari keltirilmaydi. Qissada sujet, ruhiyat manzaralari, insonning qalbidagi ichki qarama-qarshiliklar shunchalar uyg‘unlashib ketganki, o‘qirmanlar ismlarining yo‘qligini deyarli sezishmaydi ham. Go‘yoki, qahramonlar ularning o‘zi. Adib va asarning asosiy yutuqlaridan biri ham shu.

Adibning yana bir qissasi “*Yulduzning yo‘li*” asarida xuddi birinchi qissada bo‘lgani kabi inson nuqsonlari va yoshlarning o‘z yo‘lini topish yo‘lidagi kamchiliklari, davr va shaxs muammolari qalamga olingan. Qissaning fojiaviy

qahramonlari esa *Sadriddin Mehriddinov* va *Nafisa* ismli talaba yoshlar. Adib asar boshidayoq talabalar hayotidagi eng katta na kamchilik, na muammo deb bo‘ladigan, umuman olsak, to‘qlikka sho‘xlikning eng kuchli ko‘rinishlaridan boshlaydi. Albatta, asarning o‘lchovi ruhiyat tasvirlari bilan o‘lchanadi. Qissaning janr tabiatidan kelib chiqib adib ko‘proq personajlarni so‘zlari va xatti-harakatlari orqali ularning ichki dunyosini ochib beradi. Qissaning yarq etib ko‘zga tashlanadigan bir tomoni borki, bu- asarda birorta ijobiy qahramon yo‘q. Hattoki, ijobiy so‘ziga “-roq” qo‘shimchasini qo‘shib aytsak ham qissadagi eng aybsiz qahramon bo‘lmish Nafisa ham bunga noloyiqligicha qoladi. Asarning ilk jumlasiyoq asar qahramoni Sadriddin Mehriddinovni o‘qirmanlarga deyarli to‘liq anglab yetish uchun kifoya bo‘ladi: “… - Men hali mashhur artist bo‘lib ketaman. Yulduz bo‘lib ketaman”. Xa, u aynan shunday dedi. Xuddi ikki karra ikki to‘rt degandek uning yulduz bo‘lishi ham isbot talab qilmaydigan aksiomadek. Yozuvchi aynan shu so‘zlari bilan asar boshidayoq uning ustidan hukm chiqarib qo‘yadi va bu unga bo‘lgan qiziqishning oshishiga, oqirmanning qiziquviga sabab bo‘ladi. Bir qarashda personajning o‘ziga cheksiz ishonch ruhida aytilgan yuqoridagi so‘zlari, ikkinchi tomondan, uning bu maqsad yo‘lida hech narsadan qaytmasligi va tap-toymasligini, uning butun asar davomida qanday qiyofada ko‘rishimiz mumkinligini ko‘rsatib beradi. Nafisa esa behosdan taqdirning charxpalagi butunlay boshqa tarafga aylanganidan bu yerda aybsiz aybdor rolini o‘ynab bergan personaj bo‘libgina qoladi. Umuman, bu qissa adib ijodida biroz boshqalaridan farq qiladi. Chunonchi, asarda biroz saviyaga mos kelmaydigan tiyiqsiz so‘zlar uchraydi. Ammo asarga katta ta’sir ko‘rsatgan, personajlarni tip darajasiga olib chiqolmagan katta kamchiliklar ham uchraydi. Avvalo, kitobxon Nafisadek sodda, beg‘ubor o‘zbek qizini jindekmi yoki ko‘proq mast qiluvchi ichimlik ichishiga ishonmaydi. Sovet ruhiga tushadigan bunday holat asar saviyasiga ta’sir qilmay qolmaydi, albatta. Va yana asarda deyarli ko‘nglida yaxshilik bor personaj uchramaydi. Bu asarning eng katta kamchiliklaridan biri. Asardagi epizodik obrazlardan biri taksi haydovchisi ham salbiy qiyofada namoyon bo‘ladi. “Hofiz” va Nafisani manzilga eltib qo‘yarkan u ulardan ko‘proq pul olish maqsadida turli maqtovlar va

takalluflarga yulduz Sadriddin Mehriddinovni ko‘mib tashlaydi. Oxir-oqibat maqsadiga erishadi ham. Ammo shu epizod Sadriddinni to‘g‘ri yo‘lga boshlab, unga o‘zining fikr doirasidan yaxshi g‘oya berganida buni “yulduz” bajarmagan taqdirida ham asarning sujet realligini oshirgan bo‘lar edi. Zero, dunyoda yaxshi insonlar yomonlaridan ko‘proq. Bir qizning deyarli barcha yaqinlarini qo‘yib o‘zi tanimagan bilmagan odamiga sig‘inib qolish darajasiga borishiga ham o‘quvchilarda shubha paydo bo‘ladi. Ammo, shu bilan birgalikda, bu asar bir qancha dolzarb muammolarni aniq ko‘rsatib beradi. Insonlarning kichik, ammo chirkin illatlari, ba’zi talabalarning ma’nosiz hayoti kabi jamiyat nuqsonlari asarda yoritib o‘tiladi.

Abduqayum Yo‘ldosh qissalar nasrimizda, xususan, qissachiligimiz rivojida ham salmoqli o‘rin tutgan. Ba’zi kamchiliklarga qaramay uning qissalaridagi personajlarning ayni hayotiyligi o‘qirmanning mehriga sazovor bo‘lgan. Adibning so‘z tanlashdagi mahorati va asardagi barcha badiiy detallar, xususan, portret, peyzaj, badiiy asar tili ham qahramonlar ruhiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Adibning adabiyotimizga sof sentimental asarni birinchilardan bo‘lib olib kirgani ham tahsinga sazovor. Xulosa qilib aytsak, yozuvchining deyarli har bir qissasida turfa taqdirli va ruhiyat dunyosi butunlay xilma-xil hayotiy insonlarni ko‘ramiz. Bunday hayotiy obrazlar bilan tanishuv , shubhasiz , o‘qirmanning ruhiyatiga ham, albatta, ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Umumiy qilib aytsak, yozuvchi qissalari orqali adabiyotimiz chinakam badiiy asarlar bilan yanada boyidi desak adashmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. U. Normatov. Ijod sehri. –T., “Sharq”, 2007, 335-bet.

2. H.Umurov. Badiiy ijod asoslari. –T., “O‘zbekiston”, 2002, 13-bet.

3. Qozoqboy Yo‘ldosh. Ochqich so‘z. –T., “Tafakkur”, 2019, 430-bet.

4. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T ., “O‘zbekiston”, 2002, 542-bet.

5. A.Qodiriy. Ijod mashaqqati. –T., “O‘qituvchi”, 1995, 6-bet.

Topildiyeva F.R. – O‘ZMU o‘qituvchisi
Tursunova N.S. – O‘ZMU talabasi

ERKIN VOHIDOV IJODIDA DOSTON JANRI

Annonatsiya

Ushbu maqolada taniqli o‘zbek xalq shoiri, jamoat arbobi, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning hayoti va ijodi, doston janrining uning ijodidagi o‘rni o‘rganilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается жизнь и деятельность видного узбекского Народного поэта, общественного деятеля, Героя Узбекистана Эркина Вохидова, жанр поэмы в его в творчестве.

Abstract

This article examines the life and work of a famous Uzbek People's poet, public figure, Hero of Uzbekistan Erkin Vohidov, the genre of the poem in his work.

Kalit so‘zlar: Erkin Vohidov,”Nido” dostoni, doston, falsafiy qarash, “Ruhlar isyoni” dostoni, Xalq shoiri, lirik janr.

Erkin Vohidov XXasr o‘zbek she’riyatining zabardast vakillaridan biridir. Hech ikkilanmay, komil ishonch bilan aytish mumkinki, Erkin Vohidov o‘zbek she’riyatining ko‘rki va faxri, [1.1], bu fikrda zarracha mubolag‘a yo‘q. Erkin Vohidov ota-onadan erta yetim qolib toshkentlik tog‘asining qo‘lida tarbiyalanadi. 1955-yil o‘rta maktabni, 1960-yilda ToshDUning Filologiya fakultetini tugatadi. Ilk she’ri 7-sinfda o‘qib yurganida “Mushtum” jurnalida chop etiladi. Uning birinchi she’riy to‘plami “Tong nafasi” nomi bilan 1961-yilda chop etiladi, u paytda adib talabalik gashtini surayotgan edi. Uning sharq mumtoz adabiyoti an’analari izidan borib, zamondoshlari ma’naviy dunyosini ochiq beruvchi g‘azallari, zo‘r insoniylik ruhi bilan yo‘g‘rilgan talay she’rlari, urush fojialari haqida bahs etuvchi “Nido”, hayot jumboqlari, inson qismati xususidagi falsafiy mushohadalar bilan yog‘irilgan “Ruhlar isyoni”, “Istanbul fojiasi” asarlari, tomoshabinlarni xushnud etgan “Oltin

devor” komediyasi, shuningdek, I.Gyote, S.Yesenin, A.Blok, M.Svetlov, R.Xamzatovdan qilgan tarjimalari, ayniqsa, “Eron taronalari” bilan “Faust” tarjimasi adabiyotimizda, ma’naviy hayotimizda ulkan voqea bo‘ldi. Shoirning “Yurak va aql”, “Mening yulduzim”, “Yoshlik devoni”, “Tirik sayyoralar”, “Bedorlik” kabi ko‘plab she’riy to‘plamlari, shoir ijodini yanada boyitadi. Shoirning barcha ma’naviy xazinalari munosib taqdirlanib, O‘zbekiston xalq shoiri, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni, O‘zbekiston qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan. Shoir ijodida o‘zgacha bir qarash mavjud bo‘lib, she’riy asarlarini o‘qiganimizda fikr ustunligini his qilamiz. Ayniqsa, Erkin Vohidov ijodida doston janrining o‘z o‘rni mavjud. Uning “Nido” dostonini olib qaraydigan bo‘lsak, 1965-yilda yozilgan bo‘lib, hayotning achchiq haqiqatini real tasvirlab berilgan. Ikkinchi jahon urushida qurbon bo‘lgan vatandoshlarimiz xotirasiga bag‘ishlangan asarlar adabiyotimizda ko‘p, biroq ular qatorida Erkin Vohidovning “Nido” dostoni samimiy ehtirosi va kuchli ruhiy ta’siri bilan ajralib turadi. Asarda urush vaqtida xalqimiz boshiga tushgan musibat va og‘ir yo‘qotishlar haqiqiy tasvirlab berilgan. Asarda darsga kelmay qolgan Tal’at ismli bolani o‘qituvchi urushgani, dadasidan qora xat kelganini aytib bergach, hamma, hatto, muallimning o‘zi ham yig‘lagani haqida lavha bor. Bu dostonni o‘ziga xos tashbehlari mavjud bo‘lib, unda tunning qoralig‘i, quzg‘unning qanotiga o‘xshatilgan, bu esa har bir kitobxonni befarq qoldirmaydi, urush fojiasini to‘la-to‘kis tasvirlab, kitobxonning ko‘z oldida lavhalarni gavdalantiradi.

Dada!!!
Ovozim hech chiqmaydi biroq.
Yuguraman – ortga ketar qadamlar,
Yig‘layman – ko‘zimga kelmaydi namlar!
Murg‘ak vujudimda faqat zo‘r titroq!
Bo‘g‘zimda alamlar,
Achchiq alamlar.

«Dadajon!»

Men sizni juda sog‘indim.

Sog‘indim ikkala ko‘zim bilan teng.

Kelib qolarmishsiz ertami-indin.

…Rustamning akasi urushdan qaytdi,

Qo‘ltiqtayog‘i bor,

Bir oyog‘i yo‘q,

Rustam aytib berdi:

Ataka payti

Tizzasidan olib ketgan emish o‘q…

Yuqoridagi misralar shuni anglatadiki, urush davri fojiasi, farzand va ota diydor sog‘inchi, achchiq alamlari, qalbidagi cheksiz urushga bo‘lgan nafrati, sog‘lom insonning nogiron bo‘lib qaytishi, kun ora qora xatning kelishi, ko‘plab onalarning beva qolishi, o‘sha davr insonlarining qalbiga nayzadek sanchilganini ,shoirning ham koplar kabi armonini ko‘rsatib beradi. Dostonni o‘qigan har bir inson qalbida vataniga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi uyg‘onadi, u insonning farovon hayoti har narsadan ustunligini his qiladi va tinch, osuda hayotni qadriga yetadi.

Shunday asarlar borki, biz ularni o‘z davri, o‘z tarixi bilan eslab, faqatgina, o‘z davrining qahramonlari bilan faxrlanamiz. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Dostonga isyonkor Bengal shoiri Nazrul Islom hayoti, fojiali qismati asos qilib olingan. Erkin Vohidov Nazrul Islom hayotiga oid ma’lumotlar bilan tanishish uchun Hindistonga boradi, shoirni tanigan, bilgan insonlar bilan suhbat qiladi. Nazrul Islom XX asr boshlarida chaqindek yaraqlab, she’riyat osmonida iz qoldirgan, Hindiston yarim orolini larzaga slogan, chet el mustamlakachilari zulmidan Hindistonni ozod etish ishiga, xalqlar birdamligi, erki, baxti yo‘lida jonini fido etgan dovyurak shoirdir. 35 yoshga yetmagan shoirni, tazyiq, hibs, qiynoqlar bilan es-xushidan ayiradilar. Oradan yillar o‘tib, shoir vatani Hindiston mustaqillik, tinchliksevarlik, ijtimoiy taraqqiyot yo‘liga tushib oldi. Bir vaqtlar tahqirlangan shoir, orzu qilgan kunlar keldi, shoir qadrini topdi, el ardog‘iga

sazovor bo‘ldi. Afsus, uning aql-xushi joyida emas edi. Shoir unga ko‘rsatilgan ehtiromlarni bir lahza ham his qilmadi, sezmadi. Mening nazdimda, Erkin Vohidov shoir hayoti bahonasida erkka tashna ijod ahli bo‘lgan jadidlar faoliyatiga ishora qilgan, xalqimizning eng og‘riqli nuqtasini Nazrul Islom hayoti misolida ifodalab bergan. Ikkinchi tomondan, shoir hayoti, qismati vositasida o‘zining uzoq yillik hayotiy tajribasi, kuzatishi, o‘y-mushohadalarini, ko‘ngil dardlarini, xulosalarini izhor etadi. Bu dostonni chuqur tahlil qiladigan bo‘lsak, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, So‘fizoda kabi ko‘plab erk uchun kurashganlarni ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. Shu tariqa el uchun jonini-jahonini berishga tayyor fidoyi shoir el dushmaniga aylanadi, hibsga olinadi. “Ruhlar isyoni” dostoni” – “Abadiyat tog‘risidagi rivoyat”, “Fidoyilik tog‘risida rivoyat”, “Jaholat to‘g‘risidagi rivoyat”lardan iboratdir. “Jaholat to‘g‘risidagi rivoyat”da fojeiy voqealar, ular tufayli shoir qalbida kechgan alamli o‘y-mushohadalar kitobxonni qalbini titroqqa soladi. Shu hayajonli rivoyat vositasida qahramon jasorati va fojiasi mohiyatini yana bir karra butun vujudimiz bilan his qilamiz. Jaholat, zulm, adolatsizlik mangu emas. Donishmand hakimning olovda yondirilishi hodisasidan keyin, yillar o‘tib, elning ko‘zi ochilib, aza tutib, o‘kinib, unga oltin haykal qo‘yishadi. Bu doston shoirning sara dostonlaridan biri bo‘lib, XX asr o‘zbek adabiyotining jiddiy yutug‘i bo‘ldi.

Shoir aytganidek, yillar o‘tib, millat erki uchun kurashgan Munavvarqori Abdurashidxonov, Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, So‘fizoda kabi ijodkorlar xalqimiz qalbidan munosib o‘rin olib, mustaqillik munosabati bilan nomlari barhayot bo‘ldi.

Mustaqillikka erishib o‘zligini, o‘zbegini yaratayotgan xalqimiz esa bunday insonlarni ulug‘lashi tabiiy va mantiqiy holdir. Erkin Vohidovning hayot yo‘li, yaratgan asarlari va ulardagi yetakchi g‘oyalar har bir inson qalbida ezgu fikrlarga yondosh tarzda yashashiga va kelajak avlodimizga munosib o‘rnak bo‘lishiga ishonamiz .

Adabiyotlar:

1. Matchonov S., Sariev Sh. (2010) Adabiyot. - Toshkent. P. 272.

2. Kuvvatova, D. X. (2013) Erkin Vohidov ijodidagi she’r janri. – Chelyabinsk.

3. Vohidov E. “Nido” va “Ruhlar isyoni” dostonlari.

Gulbahor Ernazarova,

Samarqand davlat universiteti assistenti

ADLU DIYONATGA DA’VAT SHE’RIYAT
(ASQAR MAHKAM SHE’RIYATIGA AYRIM CHIZGILAR)

Annotatsiya: XX asr o‘zbek she’riyatining mustaqillik arafasi va uning dastlabki yillarida eng ko‘zga tashlangan jihati bu – mumtoz she’riyat an’analarini o‘zida aks ettira boshlashidadir. Tasavvuf adabiyotini o‘qish va o‘rganish shu ruhdagi asarlarni yaratilishiga asos bo‘ldi. Maqolada Asqar Mahkamning shu asosda yaratilgan she’riyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, tariqat, tasavvufiy aqidalar, poetik g‘oya, ruhiyat, talqin.

Miliy so‘z san’atining qadim an’analari Istiqlol arafasi va uning dastlabki yillarida zamonaviy she’riyatda keng ildiz yoydi. Buni tasavvuf adabiyotini o‘qish va o‘rganishga xolisona kirishilganligida yaqqol ko‘rinadi. Asrlar davomida milliy ruhni tarbiyalab kelgan adabiy merosni zo‘rma-zo‘raki g‘oyalantirishga, sun’iy tabaqalantirishga barham berildi. Zamonaviy o‘zbek she’riyati uzoq asrlar davomida Islom va imon nuri bilan jilolanib kelgan o‘zining azaliy sarchashmalariga yuzlandi.

Ayrim shoirlarning ijod olamiga kirib kelishi, ilk she’riy turkumlari, ilk to‘plamlaridan boshlanadi. Ular yangicha qarashlari, tafakkur tazrlari, ohorli poetik fikrlari, original obraz va o‘ziga xos kompozitsion usullari bilan kitobxon qalbiga yo‘l topadilar. Boshqa bir ijodkorlarning o‘z individual uslubini topishga bo‘lgan intilish va izlanishlari ancha murakkab kechadi. O‘tgan asrning 80-yillari oxirida adabiyotga kirib kelgan Asqar Mahkamning ijod yo‘li ana shu ikkinchi toifa shoirlarining izlanishlarini eslatadi.

Asqar Mahkam 30 yoshdan oshgach, shoir sifatida tanila boshladi. Bu yoshda uning tengdoshlari yetuk shoir sifatida nom qozonishgan edi. Buning muayyan ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor. Birinchisi, o'z ijodidan qoniqmaslik, ikkinchisi, diniy va falsafiy tasavvuf yo'lidagi izlanishlar.

"U talabalik yillaridayoq mashhur rus shoirlari Pushkin, Lermontov va Yesenin ijodiyotini satrma-satr o'rganib chiqdi.

Odatda, kamolot yo'lidagi ijodkorlarning izlanishlari ikki bosqichda kechadi. Birinchisi – so'z hajri… Ezgu maqsad bilan qo'liga qalam olgan biror-bir ijodkor yo'qki, so'z hajrini boshdan kechirmagan bo'lsin.

Asqar Mahkam sakson beshinchi yillarga qadar bu bosqichda izlanishning teran va mashaqqatli yo'llarini bosib o'tdi.

Rudakiydan Loyiqqacha, Ahmad Yugnakiydan Abdulla Orifgacha bo'lgan ikki ulkan adabiyotning mumtoz shoirlari ijodiyotidan she'r asosini o'rgandi. U so'zning ilohiy qudratini yaxshi his etgan shoir sifatida turkiy, forsiy va arabiy tilning eng poetik, rangli, keskir kalomlarini o'zlashtirdi.

So'z hajri – bu uslubiy izlanishlarni ham belgilaydi. Adabiy muhitda o'z ovozini belgilab olish borasida Asqar Mahkam o'z-o'ziga shafqatsiz munosabatda bo'ldi" [2, 6-bet].

Asqar Mahkam izlanishlarining ma'lum bosqichida Sharq adabiyotining ulug' vakillari Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Muhammad Iqbol she'riyatlarini o'qib-o'rganishga jiddiy kirishdi, pirlarga ruhan shogird tushdi.

Ayniqsa, Jaloliddin Rumiy ijodini o'n yillar davomida o'rganish, bu she'riyatda badiiy so'z shukuhi va poetik fikr tartibi hamda tarkibini tuyish shoirning qalbida muqaddas Qur'on va Hadis ilmini o'zlashtirish ehtiyojini paydo qildi. Insonni ma'naviy kamolot sari etaklaguvchi asror Qur'oni Karim ekanligini dil-dildan his qilgan shoir ko'p yillar davomida Qur'on tafsiri va Hadis ilmini o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi. Va tabiiyki, bularning bari uning she'riyatida namoyon bo'la boshladi.

Shoirning o'zi "Haq" saylanmasining boshlanmasida buni shunday e'tirof etadi:

…Yoshim qirqqa to‘ldi.

Bu dunyoga kelib, topgan molu matohim shu bo‘ldi…

Ko‘p aziz zotlarni va ko‘p bezotlarni yashadim.

Oxiri Haqqa yovuq kelgandek bo‘ldim…

Sizlar ham, ey birodarlar, Haqqa tomon yuringlar!..

Haqqa boqinglar!..

Haqqa intilinglar!..

Haqni sog‘ininglar!..

Haqni topinglar!..

Biz shunda topishamiz! [2, 16-bet].

Allohni – Haqni bilgan odam o‘zining ham aziz-u mukarram mavjudot ekanini anglay boshlaydi. Anglay boshlagach, o‘zidagi salbiy illatlar insoniyatga mutlaqo zid, inson tabiatida munosib emasligini his qiladi.

Shoirning “Haq” kitobidagi she'rlar milliy ruhning sadolaridir. Bu sadolar mehrsizlik, diyonat va xiyonat, baxt va baxtsizlik, ofiyat va ofat oralig‘ida yashayotgan odamlarni bir zum hushyor torttiradi, hayot va o‘lim, bandalik va g‘aflat, iymon va inson, suvrat va siyrat, moziy va kelajak haqida tafakkur qilishga undaydi.

Ma’lumki, tasavvufda bir shakldan o‘zga shaklga o‘tishda avvalo ma’dan so‘ng o‘simlik keyin hayvon undan so‘ng odam tarzida sodir bo‘lgan hisoblanadi. Asqar Mahkamning she’rlarida ham shu masalaning rang-barang talqinlarini ko‘ramiz;

“Darvozada o‘tirar quzg‘un…” deb boshlangan she’rida quydagilarni o‘qiymiz:

…Hammasi bor – bo‘ri o‘g‘rilar

Va uy to‘la qumursqalar ham

…Bunda garchi odam tug‘ular

So‘ng hayvonga aylanar odam [2, 351-bet].

Mazkur she’rda taraqqiyot va kamolot yo‘llari go‘yoki ortga qaytayotgandek tasvirlanib, kuchli poetik xulosa chiqariladi.

Asqar Mahkamning Haq va haqiqatning poydorligiga ishonch, adlu diyonatga da’vat ruhidagi she’rlarida, ayniqsa, dostonlarida “Darvish”, “Gado” timsollari poetik mazmunni ifoda etadigan etakchi vositalarga aylanadi. Bunga dostonlardan tashqari “Muridnoma”, “Ikki qabr qoshidagi o‘ylar”, “Vujud va ruh”, “O‘zimga xitob” kabi o‘nlab she’rlari misol bo‘la oldi.

Adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr” – “O‘zbekiston”, 2009. – B 272.

2. Mahkam A. Haq. Dushanbe. “Adib”, 1998. – B 259.

3. Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. –B 184.

4. Hasanov Sh. Doston tarkibi va tabiati. Monografiya. – Samarqand, SamDU nashri, 2011. – B 259.

Normurodov Oybek Berdimurod o‘g‘li,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

HALIMA XUDOYBERDIYEVANING “OSOYISHTA SHAM” SHE’RI TAHLILI

Annotatsiya.

Mazkur maqola Halima Xudoyberdiyevaning “Osoyishta sham” she’ri poetikasi masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shoirning badiiy mahorati tahlil qilingan. Ushbu masalaning hal qilinishi, birinchidan, tadqiq qilinayotgan she’r mohiyatini yanada yaqqolroq ochilishini ta’minlasa, ikkinchidan, uning o‘ziga xos tomonlarini yoritishga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ijodkor, adolat jarchisi, ramz, lirik qahramon, dramatizm, “Buyuk qushlar”, “Osoyishta sham”, “Bu kunlarga yetganlar bor”.*

Asl ijodkor inson uchun Alloh iste’dod, doimiy o‘z ustida ishlash malakasi va otashin bir dard beradi. Bu olovli dard ijodkor uchun umrbod og‘ir kosasidan ajrala olmagan sangpo‘sht yanglig‘ uni tark etmaydi. O‘zbek poeziyasida laxcha cho‘g‘dek tushgan joyni kuydiruvchi ovozi bilan adabiyotimizga kirib kelgan shoira Halima Xudoyberdiyeva she’rlari kitobxonlar dilidan allaqachon chuqur joy olib bo‘lgan. Shoira she’rlarini mutolaa qilgan o‘quvchi shunchaki misralar ma’nosini tilida aytib, qulog‘i bilan tinglab qo‘yavermaydi, balki ko‘ngli bilan o‘qib vujudi bilan his etadi. Boisi Halima Xudoyberdiyevaning asarlarida ana shunday holatga soluvchi dard mujassam. Adabiyotshunos olim, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov shoiraning “Bu kunlarga yetganlar bor” saylanmasiga yozgan so‘zboshisida shunday fikr aytadi: *“Halima bugun haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib qoldi. Uning she’rlarida hayot fojialari, dramalari bilan ifodalansa-da, mardonovor ruhini yo‘qitgan emas. Halima she’riyati bizni bedorlikka chaqiradi, vijdonimizni uyg‘otadi, vujudimizdan loqaydlik balosini siqib chiqarishimizga yordam beradi. Bu she’riyat ko‘p yillar mobaynida kirlangan ruhiyatimizni poklashga va butlashga xizmat qiladi”.* [Xudoyberdiyeva H. Bu kunlarga yetganlar bor. 1993. 21-bet]

Albatta, shoiraning she’rlari kishi ruhiyatini jangga chorlaydi va uning qo‘liga vijdonni qalqon qilib tutqazadi. Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov: *“Tabiat shoir qilib siylagan, saylagan kimsalargina uning ilohiy zamiridagi larzali titramlarni oliy maqomda sezadi va ilg‘aydi”,* deydi ijodkorning “Buyuk qushlar” kitobiga yozgan so‘zboshisida. [Xudoyberdiyeva H. Buyuk qushlar. 2012. 8-bet].

Halima Xudoyberdiyeva ana shu oliy maqomni umrining so‘nggiga qadar sezdi, ilg‘adi, qalamga oldi. Bu hodisani ijodkorning keyingi yillarda yozilgan “Osoyishta sham” to‘plamidan o‘rin olgan xuddi shu nomli she’ri misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu nom ramziy xarakterga ega. Ijodkor to‘plamidan o‘rin olgan she’rlarning deyarli barchasida hijron o‘tida qiynalgan lirik qahramon kechinmalari aks etgan. Bu holat bevosita Halima Xudoyberdiyeva shaxsiyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

“Osoyishta sham” she’rining dastlabki misralari shunday boshlanadi:

Kitoblarim yoqildi…

Qiziq,

O‘z qilgan aybini anglamagan inson kechinmalarini ifodalash bilan boshlangan bu jumlalar o‘quvchini lirik qahramon kitoblarining nima sababdan o‘tga tashlanganligini bilishga undaydi. Nega lirik qahramon kitoblarim yoqildi deya ayyuhannos solmoqda? Xo‘rsinish ila aytilgan ushbu gaplar lirik qahramonni chuqur o‘yga cho‘mdirgan:

Shon kelganimi bu, Yo ketganimi shon?

Keyingi misralarda dramatizm kuchayib, muallifning yanada og‘riqli xayollar girdobiga soladi, tubsiz fikrlar sari yetaklaydi:

Bu yutuqmi yoki yutqiziq,

Bu holatga tushunmay

O‘zim ham hayron

Shu o‘rinda bir narsani yodga olish maqsadga muvofiq. Inson haqiqat deb bilgan narsa uning ko‘z o‘ngida yolg‘on(sarob)ga aylansa, kishi uchun bundan og‘ir holat bo‘lmasa kerak. Halima Xudoyberdiyeva uchun eng og‘ir azob bu – hijron. Mana shu hijron shoira uchun ko‘plab dardchil asarlarning yuzaga chiqishi uchun asos bo‘ldi. Endi esa ana shu ayriliq sabab bo‘lib tug‘ilgan ijod namunalarining yoqilishi shoiraning qalbini o‘tda kuydirish bilan barobar edi. She’rning keyingi misralarida lirik qahramon to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsadga o‘tgan*:*

Axir men-ku –

Juda osoyishta sham,

Ochmagan edim-ku yurakni. Sham doimo yorug‘lik taratadi, biroq qismati achinarli: o‘zi yonib yo‘q bo‘lib ketish bilan nihoyalanadi. Shoira aytganidek, atrofda shunday insonlar borki, osoyishta ko‘rinsasa-da, yuragini ochmay turib ham tuzumlarni, butun bir davr mezonini buzib, muvozanatdan chiqarib yuborishga qodir bo‘ladi.

Shuncha ehtiyot bo‘la turib ham,

Nahotki gullab qo‘ydim men…

Haqni?!..

satrlarida afsuslanish ohangi seziladi, boisi shoira o‘zi aytganiday *“Haqni”* gullab qo‘yganida edi. Shuncha yillar asrab kelganini aytib qo‘ydi. Bu o‘rinda o‘quvchi Halima Xudoyberdiyeva shaxsiyati bilan yanada yaqindan tanish bo‘ladi va shu orqali shoira “men”ini aniq his eta oladi.

Halima Xudoyberdiyevaning “Osoyishta sham” she’ri shoira ijodidagi sara she’rlaridan biridir. She’rda muallif qalamga olgan lirik qahramon kechinmasi inson tuyg‘ularining hali to‘liqligicha kuylanmagan tomonlarini qalamga olganligi bilan alohida e’tiborga molik san’at asarlaridan biri deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Halima Xudoyberdiyeva. Buyuk qushlar. – T., O‘zbekiston, 2012.
2. Halima Xudoyberdiyeva. Bu kunlarga yetganlar bor. – T., Adabiyot va san’at, 1993.
3. Halima Xudoyberdiyeva. Osoyishta sham. – T., Adabiyot va san’at, 1998.
4. Halima Xudoyberdiyeva. Tanlangan asarlar. – T., Sharq, 2018.

Qo‘shmonova Gulchehra Toyir qizi,
Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E.VOHIDOVNING “SADOQATNOMA” ASARI XUSUSIDA AYRIM FIKR-MULOHAZALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijodkorning 1975-yildan keyin yaratilib, saylanma tarkibiga kiritilgan asarlari turli jihatlarga ko‘ra tahlilga tortiladi hamda shular yuzasidan ayrim fikr-mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: janr, erkin she’r, ijodkor qalbi, she’r, tarjima, obraz, sujet, kompozitsiya.

Ma’lumki, zamonaviy o‘zbek adabiyotining tipik vakillaridan biri O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov jahon adabiyotida ham, milliy adabiyotimizda ham munosib o‘rniga ega ijodkordir. Shoir qalamiga mansub bir necha asarlar ichida “Sadoqatnoma” saylanmasi ham alohida ajralib, o‘z ichiga she’rlar, doston, drama va tarjimalarni qamrab oladi. Ushbu maqolada saylanma tarkibiga kirgan asarlar turli jihatlarga ko‘ra tahlilga tortiladi hamda shular yuzasidan ayrim fikr-mulohazalar keltiriladi. Yuqorida nomi ko‘rsatilgan kitob tarkibiga, asosan, ijodkorning 1975-yildan keyin yaratilgan asrlari kiritilgan. Kitobga kiritilgan “Bong uring” nomi ostidagi she’r o‘qirmanni bir vaqtning o‘zida yozilish shakli va mavzu ko‘lamdorligi bilan o‘ziga jalb eta oladi. Muallif she’rda *yonish, yong‘in* haqida fikr yuritar ekan, ma’lum bir bino, obyektning yonishi haqida emas, aynan *“fursat”, “umr”, “vaqt”, “kitoblar”, “ijod-u kashfiyot”, “insonning asabi”, “dunyo”* va *“hayot”*ning yonishi haqida “jar soladi”.

Dod soling
Ne kechar holimiz,
Alamdan
Jonimiz
Qiynoqda.
Olamda
Topilmas
Molimiz-
Vaqtimiz
Yonmoqda,
Yonmoqda. [Воҳидов Э., 1986: 5-bet.].

Shoirning ushbu erkin she’r ko‘rinishidagi ijod mahsulini o‘qigan kitobxon pog‘onama-pog‘ona nima yongani-yu nima hali-hanuz “yonib kul” bo‘lib kelayotganini anglay boradi. Shoir she’r so‘nggida barchani eng aziz ne’mat

“hayot”ning yonib ketmasligi uchun da’vat qilib, birlikka chorlaydi hamda quyidagi so‘zlar bilan yakunlaydi.

Odamlar,
Uyqudan
Uyg‘oning.
Shoshiling,
Qidiring
Tez najot.
Jon kuysin,
Qalb yonsin,
Siz yoning,
To yonib
Ketmasin
Bu hayot.

“Asarga hayot bag‘ishlovchi, uni ta’sirchan va harakatda ko‘rsatuvchi kuch – ijodkor qalbi. Qalb qaynamasa, to‘lqinlanmasa, nido qanchalik muhim bo‘lmasin, natija so‘niq, hayotiylikdan bebahra” [Носиров Ў. 1981: 42-bet.].

Darhaqiqat, har qanday badiiy asarda ijodkor qalbi va undagi his-tuyg‘ular namoyon bo‘ladi. “Sadoqatnoma” saylanmasi tarkibiga kiruvchi “Kanada turkumi”dagi “Qalb shunday ummonki…” nomi ostidagi she’rda ijodkorning inson qalbiga bo‘lgan qarashlari yaqqol aks etgan.

Bilamizki, shoir va shoiralar o‘z dunyoqarashlaridan kelib chiqib qalbni ma’lum bir predmet yoki narsaga qiyoslashadi. Erkin Vohidov esa yuqorida nomi qayd etilgan she’rda qalbni *“ummon”, “zamin”, “sayyora”, “olam”*ga mengzaydi hamda qalb va so‘zning qanchalik bir-biriga ta’sir qilishini so‘nggi to‘rt misrada bayon etadi:

U bir sayyoradir, Yerdek shafaqgun,
U bir olamdirki, bilmas nihoya.
Uni mehvaridan chiqarmoq uchun
Atom janggi emas, bir so‘z kifoya. [Воҳидов Э., 1986: 134-bet.]

Shu o‘rinda E. Vohidovning ijodiy faoliyati davomida tarjimalarning alohida ahamiyatga egaligini ta’kidlab o‘tish joizdir. Saylanma tarkibiga Shiller, Aleksandr Blok, Sergey Yesenin, Mixail Svetlov, Aleksandr Tvardovskiy, Muhammad Iqbol, Ulfat, Rasul Hamzatov kabi jahon adabiyotining yetuk vakillari qalamiga mansub bir qancha nazm namunalari, Gyotening “Faust” falsafiy dramasi hamda ruboiylar kiritilgan. “Sadoqatnoma” saylanmasi tarkibidagi Afg‘oniston yurtining yetuk ijodkori Ulfatning tarjima ruboiylari o‘zining mavzu rang-barangligi, obrazlar turfa xilligi bilan tubdan ajralib turadi. Ushbu adabiy durdonalarda asosiy obrazlar *“gul”, “bulbul”, “sham”, “parvonalar”* hisoblanib, aksariyat hollarda ular o‘rtasidagi munosabatlar bayon etilgan.

Gul rangin maqtaydi bulbul doimo,

Gul bo‘yin ardoqlar tong esgan sabo.

Rangu bo‘y savdosi tushib bo‘ldilar:

Sabo sargardon-u bulbul sernavo. [Воҳидов Э., 1986: 343-bet].

Ilodkorning kuzatuvchanligi ijodiy tasavvur kuchi hamda tafakkuri bilan tavsiflash nazarda tutilgan narsa qirrador, ma’nodor g‘oya, fikr aytish uchun bir vositadir. “Kimki yozuvchi bo‘lmoqchi bo‘lsa, o‘zidan o‘zligini topishi zarur” (M.Gorkiy). Ulfat qalamiga mansub asarlar chin ma’noda qalbdan til (she’r)ga ko‘chgan ijod namunalaridir. Ulfatning haqiqiy faylasuf ijodkor ekanligini, E. Vohidovning esa tarjimonlik mahorati qay darajada o‘tkir ekanligini quyidagi to‘rt misrada yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

To‘ti so‘ylasa ham qancha biyron,

Odam emasligi barchaga ayon.

Odamning odamlik fazli qolmasa,

So‘zlashiga qarab sanama inson.

Erkin Vohidov o‘zbek yozma dostonchiligiga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shgan shaxsdir. Ijodkorning doston yaratish uslubi ham o‘zgacha ekanligi bilan ajralib turadi. Xususan, “Ruhlar isyoni” dostoni ham tilining soddaligi, sujetning keskinligi, mavzuning murakkabligi bilan boshqa dostonlardan farqlanadi. Asar kompozitsiyasi ham mukammal hisoblanib, birgina keltirilgan

doston muqaddimasidagi epigraf (“Tug‘ilgansan ozod, mudom. Ozod bo‘lib qol”. Nazrul Islom) dostonning butun bir mohiyatini yoritib berishda yetakchi rol o‘ynaydi.

Doston muqaddima, besh fasl va nihoyadan iborat. Har bir fasl alohida ichki mavzularga ega. Ushbu mavzular esa mazmunning keskinligi, g‘oyalar teranligi bilan tahsinga sazovordir. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, Erkin Vohidov “oqni oq, qorani qora” deydigan ijodkorlardan edi. “San’at asarlarda go‘zallik, shuningdek, go‘zallik haqidagi ideal faqat go‘zal hodisalarni, go‘zal narsalarni ta’svirlash, madh etish bilangina ifoda qilinmaydi, shu bilan birga hayotdagi badbin – xunuk hodisalarni tasvirlash va fosh qilish yo‘li bilan ham go‘zallikni ifodalash va tasdiqlash mumkin” [Ўзбек адабиёти масалалари: 145-bet.]. Yuqorida keltirilgan fikrni U.Normatov chin ma’noda XX asrning o‘rtalarida ijod qilgan barcha insonlarga qarata aytgan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shoir dostonni yaratar ekan, tarixning ikir-chikirlarini hech qanday ortiqcha bo‘yoqlarsiz ifoda etadi. Bundan tashqari, asarda fikrlar, g‘oylar muallif tomonidan bayon qilingan holatda ham yoki personaj (qahramonlar) nutqida ifodalansa ham umumbashariyatga tegishli ekanligi bilan hali-hanuz o‘zining adabiyotdagi muhim o‘rnini yo‘qotmay kelmoqda.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, tipik ijodkor badiiy mahoratini tinmay oshirishi hamda hayotni mukammal bilishi lozim. Erkin Vohidov esa har tomonlama ana shunday tipik ijodkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Воҳидов Э. Садоқатнома. – Т., 1986.
2. Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Т., 1981.
3. Ўзбек адабиёти масалалари. Адабий танқидий мақолалар тўплами. – Т., 1989.

Nargiza Qo‘shmonova,
NamDU talabasi

ERKIN VOHIDOV SHE’RIYATIDA MA’NAVIY EHTIYOJLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodida aks etgan ma’naviy qarashlar tahlili qalamga olingan. Shoirning inson ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni misollar asosida izohlangan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, soddalik, murakkablik, she’r, his-tuyg‘u, ruhiy holat, insoniy burch.

Ma’naviyat bir insongagina emas, balki butun borliqqa tegishli va taalluqli masala. Ma’naviyatni ko‘proq yozuvchi-shoirlar targ‘ib va tashviq etishadi. Hozirgi zamon nigohi bilan qarasak, ular ham haminqadar bu jarayonda ishtirok etishadi. Bunda ko‘p va xo‘p o‘z ta’sirini ko‘rsata olgan ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ularda uzatilayotgan ko‘rsatuvlar kino va seriallar anchayin ma’naviyatimizni yuksaltirishi tabiiy. Ammo bular ham qaysidir ma’noda yozuvchilarga borib taqaladi. Shu joyda Erkin Vohidovning bir necha fikrlarini keltirib o‘tmoqchiman: “Odatda shoirlar mahorat pillapoyalaridan yuksalib, avval soddalikdan murakkablikka, so‘ng murakkablikdan yana soddalikka qarab boradilar”. Ma’naviyat ham soddalikdan boshlanib murakkablikka o‘tuvchi “ma’nolar majmuyi demakdir”, so‘ng esa yana soddalikka qaytuvchi sabablarni tug‘diruvchi manba bo‘la oladi. Shu o‘rinda Erkin Vohidov bir she’rida taqdir atalmish charxda bir chelak suv kabi tinmasdan aylanayotgani va beshafqat hayot sinovlaridan charchab tolgan vaqtlarida ham muallimi aytgan gaplar began ma’noga to‘la tasavvurni yodida saqlab kurasha olgan lirik qahramon shunday deydi:

Mendami ixtiyor ?
Yugurar zamon,
Shiddati o‘tadi har bir tolamdan.
To‘xtasam, tukilgum bir tomchisimon,
Tomchidek yo‘q bo‘lib ketgum olamdan.

Yana shoirning ma’naviy olami shu qadar komillikka intilish yo‘lida bo‘lganki, o‘z shoirligi sabab yozgan ash’orlarini dehqonning bir quchoq poyasiga bag‘ishlashini, bu bilan esa mehnatkash xalqini sharaflabgina qolmay uning hurmati qanchalik qadrli ekanini aziz kitobxonga ham eslatilyapti. Buni biz Qo‘ng‘irotda aytilgan alyor she’rining oxirgi bandlaridan o‘qib olamiz:

Dehqon mehnatini sharaflab o‘tsak,
Har tun g‘o‘zasini bir doston etsak ,
Shunda ham biz agar olamdan ketsak –
Bo‘ynimizda ketar qarzimiz.

Shoir yoshlardan ham xavotir oladi, ularga savol nazari bilan temulgan oqsoqol o‘y- hayollarini qog‘ozga tushiradi.

U asr tengdoshi. Butun umr endi… deya uning butun umr yo‘li haqida so‘zlaydi, ammo so‘zlaganda ham hozirgi yoshlarning bunga bo‘lgan munosabati ruhiy holati irodasini imkoniyatlarini qilgan ishlari bilan tenglashtiradi.

Bo‘sh qolsak, tunlar bo‘lib jam,
“Chordarvesh” o‘qirdik, qurshab tanchani.

Oqsoqol go‘yo bu so‘zlari bilan o‘tgan davr ma’daniy ahvolini tasvirlab, shoir zamoniga ham izoh berib o‘tmoqda.

Erta-yu kech o‘ylar kino , tansani,
Aqli kirarmikin bularni bir kun.
Kim biladi, qachon quyila boshlar!
Og‘ir kun ko‘rmadi.
Balki shuning – chun
Yengilroq o‘sdimi hozirgi yoshlar!

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov: “Tasavvurning chala yoki bir yoqlama bo‘lishi o‘rganilayotgan asar mazmuning notog‘ri anglanilishi, demak, yanglish talqin etilishi va noxolis boholanishiga olib keladi. Masalan, ikkinchi muhim tomoni shundaki, o‘rganilayotgan asar faqat konkret davrning emas, o‘sha davrda yashagan ijodkorning mahsuli (ijodkorning o‘zi shaxs sifatida davrning mahsuli bo‘lsa, asar uning mahsulidir), boshqacha aytsak, asarda davr ijodkor shaxsi

orqali akslanadi”, deya ta’kidlaydi. Har bir ijodkorning o‘ziga xos jihatlari bor. Erkin Vohidov mahorati, uning asarlaridagi go‘zalik, chiroyli his-tuyg‘u va ijtimoiy jamiyatga munosabat kabi masalalar inson kamolotiga xizmat etadi. Uning ijodi inson fe’l-atvori, his-tuyg‘ularini ilg‘ab olishda yoshlarning buguni va kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin Vohidov. Saylanma, 2-jild. She`r dunyosi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 249 b.

2. Erkin Vohidov. So‘z latofati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 152 b.

3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Sharq, 2000. – 242 b.

4. www.ziyouz.com kutubxonasi

Qurbonova Gulbahor Safarovna,
Jizzax DPI o‘qituvchisi

XX ASR NASRIDA URUSH VOQEALARINING BADIIY TASVIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining sermahsul ijodkori Nurali Qobul ijodiga murojaat qilingan. Uning “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasini tahlil qilish orqali bugungi kun yoshlarida shukronalik tuyg‘usini uyg‘otish, mavjud shart-sharoitlardan oqilona foydalanish g‘oyasi ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Qissachilik, sovuq urushi davri, adolatsizlik, ocharchilik, bolalik, ko‘z yoshi, fojia, shukronalik tuyg‘usi.

O‘zbek adabiyotida qissachilik janrida barakali ijod qilgan, qilayotgan yozuvchilarimiz sanoqsiz. Ana shunday sermahsul ijodkorlardan biri Nurali Qobuldir. Yozuvchi yaratgan asarlarini filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Qahhorjon Yo‘lchiyev tasniflaganlaridek 1) kichik epik asarlar: ocherk, hikoya va esselar; 2) qissalar; 3) zamonaviy roman (ijtimoiy roman, roman-pamflet) va tarixiy

epopeya; 4) she’rlari va hikmatlari; 5) publitsistik asarlar kabilarga bo‘lib o‘rgansak, bunday katta ijodiy faoliyatda qissalar alohida o‘rin tutadi. Uning o‘ndan ortiq qissalari adabiyot ixlosmandlari, kitobxonlarga yetib bordi.

Ayniqsa, o‘tgan asrning 70-80-yillarida uning qissalari nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki butun Ittifoq miqyosida shuhrat qozondi. Yosh bo‘lishiga qaramay, asarlari ko‘pchilik ijodkorlar (Said Ahmad, Zulfiya, Chingiz Aytmatov, Abdulla Oripov, Erin Vohidov, Odil Yoqubov va boshq.) va adabiyotshunoslar (Matyoqub Qo‘shchonov, Ozod Sharafiddinov, Sobir Mirvaliyev, Baxtiyor Nazarov, Poyon Ravshanov, Akmal Saidov va boshq.)ning e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Yozuvchi o‘z qissalarida inson uchun yashash hamda kurashning bosh mezoni bo‘lmish tabiat, uning taraqqiyoti va tanazzuliga mutasaddi bo‘lgan insoniyat o‘rtasidagi munosabatlar, umuminsoniy tuyg‘ular – halol mehnat, mehr-muhabbat, ezgulik, to‘g‘rilik va o‘zgalar qalbiga ozor bermaslik haqida hikoya qiladi. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi davridagi fojialar, urushdan keyingi davrdagi (sobiq sho‘rolar tuzumi davridagi) adolatsizliklarni aks ettiradi.

Uning “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasi urush davri voqealari asosida yozilgan. Urush fojialari nafaqat, jang maydonlarida balki, jang maydonlaridan olislardagi qishloqlarda, shuningdek, urush qatnashchilaridan tashqari, qariyalarga, ayollarga, yosh bolalarga ham urush – o‘lim yov bo‘layotganligi ko‘rsatib berilgan.

Qissada Anvarlar oilasi, uning hamqishloqlari misolida ikkinchi jahon urushining fojialari bayon qilingan.

“Borliq oppoq va qo‘rqinchli sukunat og‘ushida. Hududsiz kengliklar, ko‘z ilg‘aydigan neki bor, hammasi oq, oppoq. Qisqa va sertashvish kunduzlar ham yurakka vahm soluvchi, g‘oyat cheksiz tuyuladigan bu sukunatni buzolmas edi” [Nurali Qobul, Bo‘ri ovi. Qissalar, Toshkent, “IJOD-PRESS”, 2017: 3-bet].

Qissa xalq so‘zlaridan olingan epigrafdan so‘ng yuqoridagi tasvirlar bilan boshlanadi. Bu peyzajda ham yozuvchining mahoratini, ramziylikni ko‘rishimiz mumkin. “Borliq oppoq”, demak, odamlarning “orzulari oppoq”, ammo “qo‘rqinchli sukunat” og‘ushida. “Urush” so‘zi o‘rnida “sukunat” so‘zi qo‘llanishiga sabab,

urush qishloqdan ancha olisda. O‘qotar qurollar, osmonpoyiz (samolyot, vertolyot)lar, tanklarning shovqin-suronlari qishloq aholisiga eshitilmaydi, biroq, shu sukunat og‘ushida insonlar yuragiga vahm soluvchi, cheksiz iztiroblar bor. Shuning uchun ham “hududsiz kengliklar, ko‘z ilg‘aydigan neki bor, hammasi oq, oppoq” bo‘lishiga qaramay, “qo‘rqinchli sukunat”ni buzolmaydi. Qalblarda qancha shirin orzular barq urmasin, urush fojialari ular bilan yonma-yon bo‘lib qalblarni hufton qilaveradi.

Otasi haqida o‘ylagan Anvarning ham bolalarcha beg‘ubor xayollarida urushning sovuq nafasi. “…otasi urushga ketgunga qadar hatto tovuqning ham boshini kesmagan, qonni ko‘rsa ko‘ngli behuzur bo‘lib, yuzini teskari burib” [Nurali Qobul, Bo‘ri ovi. Qissalar, Toshkent, “IJOD-PRESS”, 2017: 4-bet] oladigan otasi ham endi fashistlarga o‘xshab odam o‘ldirishiga sira ham aqli yetmasdi. Afsuski, Erali amaki aytganidek, o‘ldirmasang, seni o‘ldirishadi. Harbu zarbning taomili shunday.

Oiladagi besh farzandning ichida yagona o‘g‘il bo‘lgani uchun Anvar opasiga (yozuvchi qishloq odamlari hayotini, urf-odatlarini, yumushlarini, shuning bilan birga shevasini ko‘rsatib berish uchun ularning shevasidan ham foydalangan, *onasi* so‘zi o‘rnida *opasi*, *opasi* so‘zi o‘rnida *opachasi* kabi shevaga xos so‘zlarni ishlatgan) opachasi Karomat va singillarini boqishga yordam berishni chin ko‘nglidan xohlaydi. Urushning ayriliqli, hijronli kunlari kamdek qishloq ahliga hech qanday shovqinsiz, suronsiz “ochlik” degan balo “hujum”ni boshlaydi. Qor qalinligi, izg‘irin sovuqligi sababli maktablar yopilib, maktabga bormayotgan bolalar haqida “maktab ochilganda yaxshi bo‘lardi, u yerda bir burdadan non va bir stakandan choy berishadi. Ko‘p bolalar shu o‘lmas ovqat bilan kun o‘tkazishardi. Endi ularning holi nima kechadi” [Nurali Qobul, Bo‘ri ovi. Qissalar, Toshkent, “IJOD-PRESS”, 2017: 8-bet] deb o‘ylaydi endigina o‘n yoshga to‘lgan Anvar. Anvar yosh bo‘lsa ham uni muhit ulg‘aytirib qo‘ygandi. Ularning uylarida ikki kilocha arpa uni, to‘rt dona piyoz va bir necha hovuch turshak qolgan. Bu yegulik bir hafta, nari borsa o‘n kunga yetadi. Anvar esa o‘sha o‘n kundan keyingi tashvish va tahlikani hozirdanoq onasining nigohidan sezadi. Ona bechora yegulikni uzoqroq

vaqtga yetkazish uchun non pishirmaydi, uning o‘rniga atala qilib beradi. Bolalar esa atalani tez tugab qolmasin deb qoshiqda ichmay, qo‘lda yalashni ma’qul ko‘rishadi. Bu oilaning birdan bir ilinji Targ‘il sigiri. U eson-omon bolalab olsa bas, bu yog‘i oson ko‘chadi, deb umid qilishadi.

Ocharchilik butun qishloq aholisining sillasini quritdi. Bir oy ichida Haqberdi amakining ikkita bolasi ochlikdan o‘lib qolganligi uchunmi xo‘jalik ishchilarining ish haqidan qiyib, undan tashqari urug‘likka ajratilgan donni ham davlatga topshirganlarida jim turolmadi.

“Ish haqidan qirqilganiga hech kim indamadi. Faqat kechayu kunduz xirmonda ishlaydigan Xaqberdi polvon o‘zini tutib turolmadi.

- Biz ochdan o‘lsak, kelgusi yili frontga kim g‘alla yetkazib beradi? – dedi u tumandan kelgan vakilning yuziga tik qarab. – Faqat ber deyishni bilasizlar, insof ham katta gap. O‘g‘ri bo‘l, g‘ar bo‘l, evi bilan bo‘l degan gap bor axir…

- Siz davlatga qarshi gapiryapsiz, - javob qildi vakilning jahli chiqib. – Bu so‘zlaringiz uchun javob berasiz.

- Men davlatga emas, senga o‘xshagan salla desa kallani oladiganlarga qarshiman! – dedi battar qizishib Xaqberdi chol.

Vakil u bilan gaplashishga hazar qilgandek burnini jiyirib, nari ketdi” [Nurali Qobul, Bo‘ri ovi. Qissalar, Toshkent, “IJOD-PRESS”, 2017: 13-bet].

Bu voqeadan hech qancha vaqt o‘tmay Haqberdi chol Sibirga surgun qilindi. Uning ayoli urushga ketgan ikki o‘g‘lining biridan qoraxat kelgach, to‘shakka yotib qolgan. Otasiz, akalarsiz qolgan besh bolasi va hasta onaga qo‘ni-qo‘shnilarning rahmi kelib nimadir bersa yeydi, bo‘lmasa och o‘tirishadi. Lekin bu ahvolda uzoqqa bormaydi. Hasta ona ko‘z oldida birin-ketin ochlikdan vafot etayotgan bolalarga, hatto, bir tomchi suv tutadigan qo‘shni, qadrdon topilmaydi. Hukumat u yoqda tursin o‘z soyasidan ham qo‘rqadigan odamlar Haqberdining ortidan ketib qolishdan qo‘rqib ularga yordam berishni istamaydilar. Shu o‘rinda epigrafni eslab o‘tishni lozim ko‘rdik:

Inson bir-biriga qanot,
Bir – biriga ravot.

Afsuski, bu davr odamlari o‘z kunlarini ko‘rolmay, o‘z farzandlarini boqolmay, ochlikda sillasi qurib, olamdan o‘tayotgan yaqinlariga hech qanday yordam bera olmayaptilaru, qanday qilib boshqalarga qanot bo‘la olardi.

Anvarning singlisi Sharofat ham ertalab tuyqusdan turolmay qoladi, ertasi kuni esa tildan qoladi. – Oyog‘i muzdek, odam bo‘lmaydiganga o‘xshaydi, - dedi opasi Anvarga ko‘zi jiqqa yoshga to‘lib. Farzandining joni uzilayotganligini bila turib, unga hech qanday yordam bera olmay, ojizlik qilishi, joni uzilgach, uning kiyimlarini yechayotganida kissasidan chiqqan tuproqni ko‘rib talvasaga tushishi bechora onasining tamom bo‘lganini yozuvchi ortiqcha so‘zlarsiz, uning tuyg‘ularining bayonini keltirib o‘tirmay, soddagina tasvirlaydi. Lekin kitobxonning ko‘zlaridan yosh quyilaveradi. Anvar yosh bo‘lsa ham oilaparvar. U o‘zi tamshayotgan yegulikni singillariga qolsin deb, Erali amakinikiga ketishni xohlaydi. Erali amaki bilan Enaqiz xolaning farzandi frontga ketgan. Anvar o‘z xayollarida ularga yordamchi bo‘lib, mol-qo‘ylariga, ro‘zg‘or yumushlariga yordamlashib yurishni rejalashtiradi. Erali ham unga rozi bo‘ladi. Anvar ular bilan yashab, yumushlariga qarashadi. Ba’zan opasi va singillariga ham yeguliklar berib keladi. Shunday qilib, Anvar endi ochlik balosidan chetda edi, ammo qishloq aholisi hali ham bu balo girdobida edi.

Kolxoz omboridan g‘alla o‘g‘irlagan Abdurahmon ayiq Xudoybergan raisni bir tepgani uchun Ahmad omborchi va ikki otboqar yer yuzidagi eng ashaddiy jinoyatchidek uni yuztuban yiqitdi, tepib, o‘zlari bilmagan holda o‘ldirib qo‘yadilar. Uyda ochlikdan zor yig‘lagan farzandlarining qornini qay yo‘l bilan bo‘lsa ham to‘ydirmoqchi bo‘lgan ota shu tariqa urush va ocharchilik qurboni bo‘ladi.

Uzoq urush maydonlaridan (Bryansk) olib kelinayotgan erkaklar, ayollar va bolalar ham uzoq yo‘l azobidan, ham ochlikdan tinkasi qurigan. Uzoq vaqt och bo‘lganliklari sababli nimani ko‘rsa, og‘ziga solib ko‘radigan bolalardan ehtiyot bo‘lish kerakligini qishloq keksalari uqtirishiga qaramay, Veraning besh yoshli o‘g‘li uzoq og‘rimay, oshqozoni yorilib o‘ladi. Turmush o‘rtog‘ining urushda nobud bo‘lishi, uning jasadini olish va ko‘mishga qiynalganliklari kamday dard ustiga chipqon bo‘lib, yolg‘iz farzandidan ham ayriladi.

Anvarning opasining aytishicha, hademay tut pishig‘i keladi, so‘ngra arpa, sal o‘tmay bug‘doy pishadi, bu orada tog‘dan qorlar ketadi. Afsuski, bu safargi bug‘doy pishig‘iga qishloq aholisi katta talofat, katta yo‘qotishlar bilan chiqadi.

Bu kabi urush tufayli sodir bo‘layotgan voqealar, odam bolasi boshiga tushgan balolar, fojialarni sanasak ado bo‘lmaydi. “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasi orqali Nurali Qobul urushning ana shunday sovuq balolari – beva qolgan ayollar, yetim bo‘lgan farzandlar, bolalik baxtini tuyolmay ulg‘ayib qolgan go‘daklar, bir dona lovlagi uchun bir-birining og‘zi burnini qon qilib mushtlashgan o‘rtoqlar, ochlik balosidan azob chekayotgan aholi, quturib o‘lgan xo‘kizning, harom o‘lgan qo‘yning go‘shtini yegan odamlar, oila boshi – erkagining o‘limidan so‘ng bolalarining qornini to‘yg‘azish uchun mushuk so‘ymoqchi bo‘lgan bevalar, yersovunni andiz deb yeb, shishib o‘lgan odamlarni, umuman, birgina frontorti voqealarining butun dahshatlarini tasvirlab bergan.

XX asr o‘zbek adabiyoti namunalari ichida aynan shu qissani tahlilga tortishimizdan maqsad, bugugi kun yoshlari, kitobxonlar qalbida shukronalik tuyg‘usini uyg‘otish, tinch va barcha sharoitlar mavjud diyorimizda to‘qlikka sho‘xlik qilmay, xalqimiz, yurtimiz uchun qo‘ldan kelgancha yaxshiliklar, ezgu amallar qilishga undashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. –T.: Fan. 1993.
2. Mirzayev I. Adabiyot va davr dardi. – T.: Fan. 1990.
3. Nurali Qobul. Bo‘ri ovi. Qissalar. – T.: “IJOD-PRESS”. 2017.

Ravshanbekova Ozoda,
NamDU talabasi

ABDULLA QAHHOR IJODIDA SATIRA VA YUMOR

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli yozuvchi Abdulla Qahhor ijodida satira va yumorning o‘rni va ijodkorning tanqidiy qarashlari o‘rganilgan. Obrazlar

talqinida yozuvchining o‘ziga xos mahorat maktabi borligi misollar asosida izohlangan.

Kalit so‘zlar: satira, yumor, tanqid, kinoya, “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Kampirlar sim qoqdi”.

Har qanday asar yaratilishida bir mohiyat bor. Har bir asar yozilar ekan, uning tag zamirida qandaydir ma'no yotadi. Asar yaratilishini xuddi inson tug‘ilishiga qiyoslash mumkin. Kitobxon asarni o‘qish davomida badiiy qahramon bilan bir havodan nafas oladi, dardini his qiladi. Ammo har qanday yozuvchining asari ham o‘quvchiga birdek ta’sir qilavermaydi. Shunday adiblar borki, oz so‘z qo‘llab ko‘p ma'no yetkazadilar. Ana shunday ijodkorlardan biri Abdulla Qahhor. Uning ijodiga nazar tashlasak, satirik va yumoristik komediya va hikoyalar talaygina. Satira haqida ma’lumot keltirilsa, adabiyotshuos olim Erkin Xudoyberdiyev shunday yozadi: “Aslida satira pafos demakdir.” Olim fikrini davom ettirib: “Sharqda hajviya deb nom olgan va yumorni o‘z ichiga olgan janr turi. Keyinchalik satira va yumorda bo‘linish sodir bo‘ldi. Satira chinakam satira bo‘lmog‘i uchun, birinchidan, uning ijodkori qanday idealga tayanayotganligi aniq bo‘lishi lozim, ikkinchidan, uning tig‘i qaratilgan narsa aniq bo‘lishi kerak. Satira ikki turga bo‘linadi. Birinchi guruhga tor ma'nodagi satira kiradi. Bunday satirik asarlarda asar qahramonlari ayovsiz fosh etiladi, – deydi u [Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish, 2007: 265-bet].

Masalan, Abdulla Qahhorning "Og‘riq tishlar" pyesasi tor ma'nodagi satiraning yorqin namunasi. Komediyada Nasiba (o‘rta maktab o‘quvchisi: o‘z fikriga ega bo‘lmagan yoshlik orzu havaslari bilan bo‘lib aldanib buni juda kech anglab yetgan pyessa qahramonlaridan biri. Biz o‘sha davrga nazar solsak, bunday taqdirga ega qahramonlar ko‘p. Ammo Abdulla Qahhor birgina Nasibaning taqdiri orqali boshqa taqdirdoshlarini o‘z satirasiga ega asari bilan XX asr xotin-qizlarini ogohlikka va ma’rifatga chaqirgan satiranavis adib. Asarda yana bir qahramon bor, bu – Zuhra. (Fotimaning singlisi, Nasiba o‘qiydigan maktab qorovuli) Ushbu obrazlar orqali Marasul Huzurjonov (tish doktori) va Ahadjon Zagarovning qilmishlari fosh etiladi. Kimsan tish doktori Marasul Huzurjonov aslida unga ushbu

maqomi mosmi? Kelgan barcha bemorlarga "miokardiodistrafiya" tashxisini qo‘yadi. Komediya nomi ham ramziy ma'noda qo‘llangan. Aslida jamiyatdagi og‘riq tishlar Marasul Huzurjonov, Ahadjon Zargarov, Xumorxon singari kimsalar nazarda tutilgan. Marasul Huzurjonovich nutqidan: “Ombur-pomburim bilan o‘zimni ham hayotdan sug‘urib tashlaydiganga o‘xshaydi”. Satiraning yana bir xususiyati obrazlarning bo‘rttirib ko‘rsatilishida ko‘rinadi. Adabiyotshunoslik kitobida “oddiy karikaturada ham hayotdagi narsalar bo‘rttirilgan, ortilgan, kulgili qiyofaga solingan holda ayon bo‘ladi.

Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" pyesasida bugungi kunda ham dolzarb mavzuga aylangan "korrupsiya" mavzusida so‘z boradi. O‘z manfaati yo‘lida hech narsadan toymaydigan shaxslar tanqid ostiga olinadi. Barcha zamonda bu kasbni ota kasbidek bajaradigan insonlarni yozuvchi shunday tasvirlaydi:

Obidjon. Har qalay Suxsurov xiylagina go‘l odam ekan. Bitta go‘l poraxo‘rni tutish shunchalar qiyinmi?

Navruzov. E, o‘rtoq Ibrohimov, bitta go‘l poraxo‘rni tutishdan ko‘ra yigirmata uchar o‘g‘rini tutish osonroq. O‘g‘ri urgan kishi "dod, o‘g‘rini ushla !" demaydi.

Parchada satira to‘laqonli aks etadi hamda adib kinoyani ham qistirib o‘tadi. Keyingi parchada esa jamiyatda jasadidan boshqa narsasi qolmagan shaxslar, ya’ni butun vujudi, ruhi ham nafsiga qorishib ketgan kimsalar tanqid ostiga olinadi. So‘ngra asar nomlanishini aks ettiruvchi jumla keltirligan. Obidjon nutqidan: "O‘lgunimcha turay. Hozir tirikmisiz. Tirik bo‘lganingizda shuncha yildan beri jon asorati ko‘rinmaydi. Sizning bu gaplaringiz tobutdan chiqqan tovushga o‘xshaydi”.

Ikkinchi tur guruhini yumor tashkil etadi. Yumorda hayotdagi juz'iy kamchiliklar yengil kulgi ostiga olinadi. Ayrim hollarda yumorda kulgi vositasida hayot go‘zalliklari ifoda etiladi. Abdulla Qahhor ijodida "Kampirlar sim qoqdi" hikoyasi yumorning yorqin namunasi.

Urush yillarida yaratilgan asarlar turli xil, ammo ularning maqsadi bitta – urushga ketgan askarlarni ruhlantirish va Vatan mehrini kuchaytirishga qaratilagan. Masalan, Maqsud Shayxzoda, Oybek, Asqad Muhtor, Mirtemir ijodida shunday

ruhdagi ash’orlar bitilgan. Abdulla Qahhor “Kampirlar sim qoqdi” (1945) hikoyasida qahramonlarning yumorga boy xatti - harakatlari bilan o‘sha davr kishisi tabiatini to‘laqonli kitobxonga namoyon eta olgan.

Mana, majlis ochiq. Kim gapiradi? Hech kimdan sado chiqmadi. Hamma nechukdir, o‘ng‘aysizlanar, qimtinar, yerga qarar edi. Xo‘sh, bo‘lmadimi? – dedi rais. Kampirlar bir-biriga qarashdi va hamma birdan: nega, nega bo‘lmas ekan dedi. Bo‘lsa nega indamaysizlar? Qani, To‘xta xola? Gapiring! To‘xta xola ro‘molining uchi bilan og‘zini yopib bo‘zargan holda avval o‘rtoqlariga, keyin raisga qaradi:

– Endi, o‘g‘lim, dabdurusdan majlis deding… asli shu gapni avval o‘zaro jo‘n gaplashib, pishitib olsang-u, keyin majlisga solsang bo‘lar edi.

Asar shu tariqa yumorga bog‘lanib, yengil kulgi ostida davom ettiriladi. Buni faqatgina sezgir kitobxongina anglab yetadi:

To‘xtabuvi hammaning ko‘nglidagi gapni aytdi. Rais bu suhbatni majlis deb atash bilan kampirlarni qiynab qo‘yganligini darrov fahmladi-da , kulib, xatosini tuzatdi:

– To‘g‘ri, avval jo‘n gaplashib olaylik. Xo‘p majlis yopiq.

Qaranki, rais ham bir qishloq odami, kampirlar esa oddiy o‘zbek ayoli ekanini yumor orqali tasvirlab berilgan.

Nazirbuvi, To‘xtabuvi, Shahodatbuvi, Ortiqjon, Roziyabuvilarning “qurt tutish” sahnasi orqali yengil yumor qo‘llangan. Raisning “Hammasi yig‘ilganda bitta shaftoliga tishi o‘tmaydi-yu, to‘rt quti urug‘ tutar emish” kabi kinoyasini eshitgan buvijonlar “ha senimi?” qabilida ish tutishadi. Shijoat bilan bir emas to‘rt quti urug‘ni parvarishlab tumanda raisning obro‘sini ko‘taradilar. Buvilarning “hech kimning beli og‘rimadi, yuragiga qil sig‘maydigan paytlar bo‘lmadi, aksincha, dimog‘lar chog‘ edi” kabi gaplari orqali yumorda hayot go‘zalliklari aks ettiriladi.

Abdulla Qahhor asar voqealarini tasvirlar ekan, o‘sha davr muhitini, o‘sha davr shaxslarining yashirin kirdikorlarini, ulardagi ruhiy holat, jamiyatda yashayotgan oddiy xalq va ana shu jamiyatni ich-ichidan yemirayotgan kalamushlarni satira va yumor orqali to‘laqonli ochib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor. Anor hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Sharq, 2012. – 200 b.

2. Abdulla Qahhor. Ayajonlarim / Pyesa, portret, feletonlar / – Toshkent: Sharq, 1998. – 335 b.

3. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Sharq, 2007. – 304 b.

4. Abdulla Qahhor. Og‘riq tishlar. www.ziyouz.com.

Solijonova Dilshoda,
NamDU talabasi

SHE'RIY ASARLARDA BADIIYLIK TALQINI

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiylik, obrazli tasvir vositalarining mohiyati Usmon Azim she'riyati misolida izohlangan. Badiiy tasvir vositalari haqidagi ilmiy qarashlarning o‘ziga xos nazariy ta’riflari qiyosan talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: San'at, talqin, tuyg‘u, so‘z, obraz, badiiylik, tashbih, sifatlash, tashxis.

San'at turlari orasida badiiy adabiyotning alohida ahamiyati mavjud. Badiiy adabiyotda hayot boshqa san'at turlariga nisbatan ta'sirchan tasvirlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, ijodkorda kuchli nigoh, tuyg‘u va hissiyot jo‘sh urmog‘i lozim. Shoir hamisha nimanidir oqlaydi yoki inkor qiladi. Betaraf badiiy ijod bo‘lishi mumkin emas. Negaki, inson tafakkuri va ruhiyatida betaraflik tugaganidan so‘nggina chinakam buyuk badiiy asar yaratiladi. Shoir o‘z qarashlarini qanchalik teran yoritib bera olsa, o‘quvchi uning tuyg‘ulari og‘ushida qolishi tabiiy. Shundagina shoirning kuchli his-tug‘yonini tushunib yeta oladi. Albert Eynshteyn: “Men aql egalari bo‘lgan matematiklar oldida bosh egaman. Lekin buyuk qalb egalari bo‘lgan adabiyotchilar oldida tiz cho‘kaman” deb, aytganda haq edi. Aytib o‘tganimizdek, yozuvchi, shoirlarimizda kuchli matonat, o‘tkir nigoh bo‘ladi. Shunday iste’dod sohiblaridan biri Usmon Azim ijodi bilan tanishar ekanmiz, unda inson tug‘ilishidan

to umrining so‘nggi kuniga qadar bo‘lgan kechinmalar, dard-u alamlar, shodlig-u qayg‘ular – bari yonma-yon tasvirlanadi. Shoir o‘tmish va bolalik xotiralarini quyidagicha tasvir etadi:

Qishda yaraladi hamma ertaklar,
Mehnat-u tashvishdan ozod bo‘lgan on,
Orzuning ortidan ketar yuraklar,
Va ertak yetaklab qaytadi har shom
[Usmon Azim., 2012: 93-bet]

Shoir ushbu to‘rtlikda bolalik xotiralarini eslab, yuragi orzular ketidan qolmagani va kelajak ertaklarini yetaklab kelish holatini tashxis san’ati vositasida yoritib bergan. She'rni o‘qir ekanmiz, ertaklar ko‘proq qish faslida yaratilishi va bu faslda barcha tashvishlardan holi bo‘lib, xayol va orzular og‘ushiga sho‘ng‘ib ketish kuzatiladi.

Xuddi qismat monand, fojia monand,
Qish toshday bag‘rida bog‘ni muzlatgan.
So‘zlar kelayotur lovullab, behad,
Issiq gulxan kabi kelar uzlatdan.
[Usmon Azim., 2012: 96-bet]

Yuqoridagi she’rda mavjud tashbih (*Xuddi qismat monand, fojia monand, toshday bag‘rida, gulxan kabi*), tashxis (*So‘zlar kelayotur lovullab, behad*) kabi tasviriy vositalar shoir fikrini teran anglashimizga yordam bergan.

Haqiqatan ham, badiiy tasvir vositalari inson ruhiyatiga tez ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov badiiy tasvir vositalariga shunday ta’rif beradi: “Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar badiiy tilni belgilovchi xususiyat bo‘lmish obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Bu tushuncha adabiyotshunoslikda "poetik vositalar", "sintaktik figuralar", "stilistik figuralar" kabi nomlar bilan ham yuritiladi [Quronov D., 2007: 130-bet].

Adabiyotshunos olim Hotam Umarov badiiy tasvir vositalariga shunday ta'rif bergan: “Badiiy asarda so‘z yoki so‘z birikmasining ko‘chma ma'noda qo‘llanilishi

trop(gr.tropos- ko‘chim) lar deb yuritiladi. Ko‘chimlar adabiyotga jilo, joziba, ta'sirdorlik, bo‘yoqdorlik kabi ko‘plab rang-barang fazilatlar beradi. Badiiy tasvir vositalarning hammasi ham ikki vazifani o‘taydi:

1. Badiiy asarda ifodalangan g‘oyani, shu g‘oyani tashuvchi obrazlarni hayotiyroq va ta'sirchanroq ifoda qiladi. Bu mazmuniy vazifa hisoblanadi.

2. Misralar, baytlar, bandlarning (demakki badiiy asarning) lafziy musiqiyligini, jilosini, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

[Umarov H., 2004; 157 - 158 bet].

Ko‘rinadiki, badiiy tasvir vositasi qanchalik hayrotomuz bo‘lmasin, uning asosida hayot mantig‘i buzilmasligi, yangiligi, betakrorligi asoslangan bo‘lishi, kitobxonni to‘liq ishontirishi badiiy qonuniyat bo‘lib qolaveradi.

Ijodkorlarimiz tom ma'noda adabiyotimizning jo‘shqin yuragi sanaladi. Negaki, ular ijodi birimizning dardlarimizga taskin, birimizga to‘g‘ri yo‘l, boshqalarimizga esa hayot darsi demakdir. Adabiyotning tubi cheksiz. Nozik xilqat egalari ijodidan bahra olar ekanmiz, go‘yoki ortga yo‘l yo‘q. Timsollar kechmishi, taqdiri, orzu-armonlari bizni o‘z og‘ushiga chulg‘ab oladi. She’riyat bizning o‘tmishimiz, kelajagimiz va bugunimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 228 b.

2. Umarov H. Adabiyotshunoslik nazaryasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 264 b.

3. Usmon Azim. Jimjitlik. – Toshkent: Sharq, 2012. – 220 b.

4. Ziyo.com.uz.

MUNDARIJA

Б. КАРИМ
Самимият ёлқини..... 3
А. УЛУҒОВ.
Мунаққид маънавияти……11
Улуғбек ҲАМДАМ
Иншо.....32
Д.Қуронов
“Кеча ва кундуз” романининг илк ва қайта нашрларидаги тафовутларга доир 39
Ахмедова Шоира Нематовна,
Мунаққиднинг адабий суҳбатлари.....45
Умида Расулова
Олимнинг сирли олами.....50
ОБИДЖОН КАРИМОВ
Ижодкор олимнинг адабиётга бахшида ҳаёти.....53
ХУРШИДА ҲАМРОҚУЛОВА
Умарали норматов сабоқлари.....57
М.ХУДОЙҚУЛОВА
У.Норматов адабий суҳбатларида баҳснинг ўрни.....63
OBIDJON KARIMOV,ILHOMJON DARMONOV
Erkin Vohidov ijodida esse janrining o‘rni.....68
КАРИМОВ ҲАЛИМЖОН ЎРИНОВИЧ
“Таназзул” романида туркистоннинг рус босқини арафасидаги ижтимоий-сиёсий манзараларининг акс эттирилиши.....74
MAHAMMADIYEV AHADJON RO‘ZIBOY O‘G‘LI
Urush mavzusidagi asarlarda badiiy psixologizm va konflikt……..80
ТОЖИДДИНОВ ТОШПЎЛАТ ШОКИРЖОН ЎҒЛИ
Мисра шаклининг мазмун ифодасидаги ўрни…….84
ШАҲЛО ҲОЖИЕВА, ДИЛШОДА АНОРБОЕВА
“Руҳлар исёни” достонида фалсафий қарашларнинг ифодаланиши.....89
НИГОРА ПАРДАЕВА
Анбар Отин – зуллисонайн шоира.....92

Tursunoy Jarkinova Abdumajitovna

Umarali Normatovning adabiy portret yaratishdagi mahorati.....96

KAMOL HAKIMOV

Jonkuyar tanqidchining hayotiy yo‘liga nazar solish orqali tanqidchilikni anglash…….99

NIZAMOVA UMIDA SANDJAROVNA

Umarali Normatovning ilmiy ijodi……....104

KARIMOVA YULDUZ BAXTIYOROVNA

“Maftunkor ishq mujdalari”da bobur shaxsiyati…….....107

БЕКЗОД ИБРАГИМОВ

XX аср бошларида ўзбек-жадид шеъриятидаги янгиланишлар……..111

ISOMIDDINOVA RAVSHANOY DILSHODJON QIZI

Ikkinchi jahon urushida ayol qiyofasi……116

YUNUSALIYEVA GULBAHOR ARABBOY QIZI

Xayriddin Sultonning “Ko‘ngil ozodadur” qissasida obraz va g‘oya……..120

СЕВАРА БАБАЕВА

“Билга хоқон” романида бадиий тил ва тарихий тафаккур масаласи.....125

MO‘MINOV BEGALI YUNUSOVICH

Jadid adabiyotida ijtimoiy voqelik talqini……..130

BOTIROVA NARGIZA

Tohir Malik asarlarida obraz yaratish mahorati…….....134

DIYOROV ELDORJON

Abduqayum Yo‘ldosh – istiqlol qissanavisi……..138

TOPILDIYEVA F.R. TURSUNOVA N.S

Erkin Vohidov ijodida doston janri……145

GULBAHOR ERNAZAROVA

Adlu diyonatga da’vat she’riyat.....149

NORMURODOV OYBEK

Halima Xudoyberdiyevaning “Osoyishta sham” she’ri tahlili……152

QO‘SHMONOVA GULCHEHRA

E.Vohidovning “Sadoqatnoma” asari xususida ayrim fikr-mulohazalar……155

NARGIZA QO‘SHMONOVA

Erkin Vohidov she’riyatida ma’naviy ehtiyojlarning o‘rni……160
QURBONOVA GULBAHOR
XX asr nasrida urush voqealarining badiiy tasviri…….162
RAVSHANBEKOVA OZODA,

Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor……..167

SOLIJONOVA DILSHODA

She'riy asarlarda badiiylik talqini……..171